12. Rodriguez-Moratò J., Deiana M. Cardiovascular and Metabolic Benefits of Extra Virgin Olive Oil Phenolic Compounds: Mechanistic Insights from In Vivo Studies. Cells, 2024.
13. Physiology, Genetics, Nutrition.”Poultry Punch, 2019 – “Optimizing Utilization of Fats & Oils in Poultry Nutrition.”
14. National Institutes of Health (NIH): Балық майының құрамындағы DHA және EPA компоненттерінің денсаулыққа әсерін зерттеу. Дереккөз: National Center for Complementary and Integrative Health, 201
15. World Economic Forum (WEF):Май өндірісінің жаһандық көлемі мен оның қоршаған ортаға тигізетін зияны туралы талдау. Пальма майы, соя майы сияқты тұрмыстық майлардың әсері қарастырылған.Дереккөз: WEF Report on Global Oil Production, 2023.

ASALARILAR YASHASH MUXITIGA MOSLASHISHI VA EKOLOGIYASI

Boymurodov X., Otaxonov X., Kurashev A., Normamatov B., Saidova D., Narzullaeva Sh.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Samarqand

boymurodov1971@mail.ru.

Annotatsiya

Tajribalar o‘tkazilgan xududda arilarning tanasi hasharotlarga o‘xshash murakkab va mustaxkam kutikula teri qavatidan tuzilganligi, kutikula teri qoplami arilarda tashqi skelet vazifasini bajarishi ko‘zatiladi bu arilarning yashash muxitiga moslashishida muxim bo‘lib hisoblanadi. Bunday kutikula teri qoplam ularning ichki organlarini tashqi muxit faktorlaridan ximoya qiladi. Asalari yuksiz holatda soatiga 65 km tezlik bilan uchadi, gul shirasini yig‘ib olgan bo‘lsa, uchish tezligi soatiga 18-30 km ga pasayadi bu xolatga shamolning kuchi va yo‘nalishi abiotik omil sifatida o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Aholi tomonidan asal olishda foydalanilayotgan asalarilarning yil fasillarida uchishi va asal tuplashiga muxitdagi abiotik va biotik omillarning ta’siri katta ekanligi o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: Asalari, gul shirasi, uchish tezligi, shamolning kuchi, abiotik omil, yil fasillari. asal tuplashi.

ADAPTATION AND ECOLOGY OF BEES TO THE LIVING ENVIRONMENT

Abstract

In the area where the experiments were conducted, it was observed that the body of bees is composed of a complex and strong cuticle skin layer similar to insects, and the cuticle skin cover acts as an external skeleton in bees, which is important for adaptation of bees to their living environment. Such a cuticle skin cover protects their internal organs from external environmental factors. Bees fly at a speed of 65 km per hour without a load, when they collect nectar, the flight speed decreases to 18-30 km per hour. It was studied that the influence of abiotic and biotic factors in the environment on the flight of bees used by the population for honey production during the seasons and the accumulation of honey.

Keywords: Bees, flower nectar, flight speed, wind power, abiotic factor, seasons. a pile of honey.

АДАПТАТSIЯ И ЭКОЛОГИЯ ПЧЕЛ К СРЕДЕ ОБИТАНИЯ

Аннотатsiя

В районе проведения экспериментов было замечено, что тело пчел состоит из сложного и прочного кожного слоя кутикулы, подобного насекомым, а кожный покров кутикулы выполняет у пчел роль внешнего скелета, что важно для адаптатsiи пчел в среду их обитания. Такой кожный покров кутикулы защищает их внутренние органы от внешних факторов окружающей среды. Без груза пчелы летают со скоростью 65 км в час, при сборе нектара скорость полета снижается до 18-30 км в час. Изучено влияние абиотических и биотических факторов окружающей среды на полет пчел, используемых населением для производства меда в течение сезонов и накопления меда.

Ключевые слова: Пчелы, цветочный нектар, скорость полета, сила ветра, абиотический фактор, времена года, горсть меда.

. **Kirish** O‘rta Osiyo va O‘zbekistonning tog‘ oldi va tog‘li xududlari, tuqayzorlar hamda tekis yaylov, vodiylari asalarichilikni rivojlantirishga qulay hisoblanib bu xududlarda yovvoyi xolda yoki maxsus areal gylchangi beradigan xonakilashtirilgan o‘simliklar ekilishi ham asalari oilalarining jadal rivojlanishiga zamin hisoblanadi. Vaxolanki, o‘simliklarni asal ajratishi doimiy bo‘lmasa ham uzoq vaqt gullab turadiganlari va birin-ketin gullaydigan o‘simliklar xavo harorati yaxshi kunlari ari oilalari o‘zlarini bokib, qurtchalarini tarbiyalab, ko‘p sonli yosh
ishchi arilar hisobiga, oila yaxshi kuchga ega bo‘lishi evaziga har bitta asosiy oiladan yoki ikkita asalari oilasidan bitta yangi yosh oila tashkil qilish va yangi urchigan ona arilarni yetishtirish mumkinligi hisobiga asalari oilalari maxsuldorligi oshadi [4.5.6,8,11].

Asalarichilik qishloq xo‘jaligining ajralmas, muxim tarmog‘i bo‘lib, asalari oilalarini ko‘paytirish, asal, mum, gulchangi va boshqa asalarichilik maxsulotlarini yetishtirish, qishlok xo‘jalik o‘simliklarini changlantirib, hosildorlikni oshirish va meva, rezavorlar hosili sifatini yaxshilash bilan bir qatorda urug‘chilik xo‘jaliklarida urug‘lik unumli va sifatli bo‘lishida asalarilarning o‘rni bekiyos hisoblanadi. Asalari yuksiz holatda soatiga 65 km tezlik bilan uchadi, gul shirasini yig‘ib olgan bo‘lsa,

uchish tezligi soatiga 18-30 km ga pasayadi bu xolatga shamolning kuchi va yo‘nalishi abiotik omil sifatida o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Asalarichilik ko‘p ming yillik tarixga ega bo‘lib, bundan oldingi davrlarda ular daraxtlarda hamda tog‘larning kovaklarida yashagan va asal to‘plaganligi o‘rganilgan [1.2.3]. Asalarilar fakat ikki xil ozuqa, o‘simlik gullaridan to‘plangan sharbat asal va gul changini iste’mol qiladilar. Evolyusion rivojlanish jarayonida asalarilar bilan o‘simlik gullari o‘rtasida uzviy aloqa yuzaga kelgan. O‘simlik gullari asalarilar va boshqa hasharotlarni o‘ziga jalb qilib, asalarilar va boshqa hasharotlarga ozuqa bersa, asalarilar zsa o‘simliklarni oralik changlantirish orqali tugun va meva berishiga o‘z hissalarini qo‘shadilar. O‘simlik gullarining rangi, hidi asalarilarga tezda o‘zlariga ozuqa topishga yordam beradi. Tabiatdagi o‘simliklarni changlantiruvchi hasharotlar orasida asalarilar alohida o‘rin zgallaydi, chunki asalarilar aloxida – adohida emas, ko‘p ming sonli oila bo‘lib yashashlari evaziga qishloq xo‘jalik o‘simliklarini yaxshi changlantirib, ular hosildorligini oshirib, mevalarni sifati va mazasini yaxshilaydilar [4.5.6,8].

Bugungi kunda Samarqand viloyati xududida asalarilar oilasida arilarning guruhlanishi va jamoa bo‘lib yashashga moslashishi. o‘rganish dolzarb muammolardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Asalarilar tanasiiing tuzilishi va yashash muxitiga moslashishini taxlil qilish bo‘yicha A. I. Isamuhamedov (1995), Sh. Akromxonov (2000), A. I. Isamuxamedov, X. K. Nikadambaev (2013), R.X.Pulatova (2016), X. Boymurodov,M.Rasulov (2022) lar tadqiqotlar o‘tkazganlar. Biz Samarqand viloyati cho‘l, adir va tog‘ mintaqalarida asalarilar oilalarining muxitga moslashishi [1, 2,7,9,10].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Samarqand viloyati xududida aholi tomonidan asal olishda foydalanilayotgan asalarilarning yil fasillarida uchishi va asal tuplashiga, muxitga maslashishiga abiotik va biotik omillarning ta’siri borligi taxlil qilindi. 2019-2024 yillarda tadqiqotlar olib borildi. 189 ta asalarilar uyalarida kuzatishlar o‘tkazildi. Ishni bajarishda biologik, ekologik, biometrik, statistik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Asalarilardan asal olish qishloq xo‘jaligining eng qadimgi tarmoqlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Bu soxadagi dastlabki ma’lumotlar eramizdan avvalgi Misr tibbiyotiga oid asarlarda, zardushtiylarning muqaddas «Avesto» kitobida, hindlarning «Hayot» kitobida ko‘plab ma’lumotlarni ko‘rish mumkin. Aristotel, Gippokrat kabi buyuk olimlar ham insonlarda uchraydigan ko‘plab kasalliklarni davolashda asalarilardan olinadigan asalning ahamiyati kattaligini ko‘rsatib o‘tishgan. O‘rta Osiyoda yashab ijod qilgan buyuk allomalar

Abu Ali Ibn Sino asalari mahsulotlaridan 500, Abu Rayhon Beruniy 300 turdagi dori-darmon tayyorlagani haqida ma’lumotlar mavjud. Bugungi kunda asalarilardan asal olish va ularning tana tuzilishi va hayotini o‘rganish dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Tajribalar o‘tkazilgan xududda arilarning tanasi hasharotlarga o‘xshash murakkab va mustaxkam kutikula teri qavatidan tuzilganligi, kutikula teri qoplami arilarda tashqi skelet vazifasini bajarishi ko‘zatildi. Bunday kutikula teri qoplam

ularning ichki organlarini tashqi muxit faktorlaridan, zaxarli moddalar, jumladan, ishqor va kislatalar ta'siridan ximoya qiladi. Arilarning kutikula teri qoplamlariga ichki organlar birikadi. Kutikula juda egiluvchan, chidamli, yumshoq xitindan va boshqa organik moddalardan tashkil topgan. Oyoqlar bo‘g‘inlarining birikish yerlarida, segmentlar va boshqa organlarning egiluvchan qismida kutikula xitindan iborat yupqa parda hosil qiladi. Mana shu yupqa parda hisobiga arilar oyoq, muylov va qorin segmentlarini bo‘rish, qisqarish yoki chuzish xususiyatiga ega bo‘ladi. Arilarning tanasi har xil shakldagi va har xil ish bajarish funkuiyalariga ega bo‘lib tukchalar bilan qoplangan. Tukchalarning ayrimlari tanani tozalash va taqi muxit ta'sirini sezish xususiyatiga zga. Asalarilar tashqi muxitda nomlikning ortishi, temperaturaning o‘zgarishini tukchalari yordamida aniqlashi mumkin.

Adabiyotlar ma'lumotlari va bizning ko‘zatishlarimiz arilarning tanasi uch qism: bosh, kukrak va qorindan iborat ekanligini ko‘rsatadi. Asalarilarning boshi xitin moddadan iborat bo‘lib, bug‘inlarga bo‘linmagan, uchburchak shaklida, unda asosan sezish organlari va nerv sistemalari, bosh qismining ikki yon tarafida murakkab kuzlari, boshining ustki qismida uchta oddiy kuzi, old qismida bir juft bug‘imli muylovi joylashgan.

Asalarilarda bug‘imlar soni farq qilishi ko‘zatildi ishchi ari va ona arilarda bug‘inlar soni 11 ta, erkak asalarilarda esa 12 tani tashkil etishi o‘rganildi. Asalarilar muylovlarida sezish va tashqi taassurotlarni qabul qilish organlari joylashgan. Bosh qismining pastkn qismida og‘iz apparati, og‘zining tepa qismida yuqori labi, old qismining yon tarafida esa ikkita yuqori jag‘i joylashgan, bu jag‘larga kuchli muskullar birikkanligini ko‘rish mumkin. Muskullar yordamida arining jag‘i harakat qiladi.

Tadqiqotlarda shu narsalar ko‘zatildiki arining yuqorigi jag‘i mum zarrachalarini kemirishda inlarining ustki qismini qirqish, daraxtlarni kemirish, uyalari teshikchalarining oldini kengaytirishda foydalanadi. Asalarilar yuqorigi jag‘i yordamida boshqa arilarni ushlab oladilar, uyadan axlatlarini taqariga chiqarib tashlaydilar gullarning chang qobiqlarini yirtadilar. Asalarining pastki jag‘i juft bo‘lib, asosiy bug‘in, ustuncha va pichoq tig‘iga o‘xshash parrakdan tuzilgan bo‘ladi. Pastki jaglar pastki labi bilan birga xartumni xosil qiladi.

Asalarilarning yashash joyiga bog‘liq xolatda xartumining uzunligi turlicha bo‘lishi ko‘zatiladi. O‘rta rus asalari xartumining uzunligi o‘rtacha 6,038 mm, Ukraina asalarisining xartumining uzunligi o‘rtacha 6,321 mm. Kavkaz kulrang arilari xartumchasining uzunligi o‘rtacha 6,9-7,2 mm gacha yetishi taxlil qilingan. Arining kukrak qismi o‘zaro tutashib ketgan to‘rtta halqadan tashkil topgan bo‘lib har bitta xalqa o‘z navbatida turt qismdan: bel qismi, qorin qismi va ikkita yon qismi pleyritdan tashkil topganligi o‘rganildi. Birinchi halqacha bosh qismini harakatchan holatda kukrak qismiga tutashtirib turadi. Shuning uchun bosh qismi har tamonga xarakatlana oladi. Ikkinchi kukrak halkacha eng katta segment bo‘lib. ko‘krakning asosiy kismini tashkil kiladi. Bu halqachaga kanotni, oyoklarni xarakatga keltiruvchi yaxshi rivojdangan muskullar joylashgan. Uchinchi kukrak xalkacha ancha ingichka, turtinchi kukrak halqacha orqa tomonga ingichkalashib, kukrakni qorin bilan birlashtiradigan tanacha hosil qiladi. Ikkinchi va uchinchi kukrak halqachaning

tergit va pleyrit oralig‘iga ikki juft qanoti joylashgan bo‘lsa, birinchi, ikkinchi va uchinchi kukrak halqachalarining pleyrit va sternit yarim halqachalari oralig‘iga uch juft oyoqcha joylashgan.

Arilar o‘simlik gullaridan sharbat va gul changi tuplayotgan vaqtda uning tanasi gul changlari bilan koplanadi va oqibatda tashqi muhit ta’sirini sezish organlarining ish faoliyati susayadi. Shu paytda u tanasini orqa oyoqlari panja qismining ichki tarafidagi qalin tukchalar-chutkalar yordamida tozalaydi. Old oyoqning boldir kismida kalta kattik tukchalar bo‘lib, bu tukchalar murakkab kuzlarini tozalaydigan chutka vazifasini bajaradi. Undan tashqari, orqa oyokda gul changlarini uyaga tashiydigan maxsus chunkirchalar - savatchalari bor. Arilar gul changlarini savatchaga sharbat bilan yopishtirib tuplab boradi. Ona va erkak arilarda bunday kurilma yo‘q. Asalarilarning qanoti ikki juft bo‘lib, ular mustahkam tyrsimon yupqa parda hamda kundalang va uzunasiga joylashgan tursimon paylardan tashkil topadi. Bu paylar asalari uchgan vaqtda uning kanotlarini mustahkam tutib turadi. Old kanotining uzunligi 9,2 mm, kenligi 3,1 mm bo‘lib, orqa qanoti undan bir oz kaltaroq bo‘lishi kuzatildi.

Arilar chaqqanda stilet, ya’ni nayza kism xarakatlanib tashqariga chiqadi va tanaga sanchiladi. Arichaqqandan sung arining nayzasida nishining xarakatiga teskari joylashgan tukchalar nishni sug‘yrib olishga yo‘l qo‘ymaydi va oqibatda ari uchishga xarakat kilganda uning nayza apparati sanchilgan joyda uzilib koladi. Nayzasi uzilib jaroxatlangan ari ikki-turt soat o‘tgandan keyin xalok bo‘ladi. Samarqand viloyati xududida aholi tomonidan asal olishda foydalanilayotgan asalarilarning yil fasillarida uchishi va asal tuplashiga muxitdagi abiotik va biotik omillarning ta’siri katta ekanligi o‘rganildi.

Xulosa va takliflar. O‘rganishlar natijasida asalarilarda bug‘imlar soni farq qilishi ko‘zatildi ishchi ari va ona arilarda bug‘inlar soni 11 ta, erkak asalarilarda esa 12 tani tashkil etishi o‘rganildi. Asalarilar muylovlarida sezish va tashqi taassurotlarni qabul qilish organlari joylashgan. Bosh qismining pastkn qismida og‘iz apparati, og‘zining tepa qismida yuqori labi, old qismining yon tarafida esa ikkita yuqori jag‘i joylashgan, bu jag‘larga kuchli muskullar birikkanligini ko‘rish mumkin. Aholi tomonidan asal olishda foydalanilayotgan asalarilarning yil fasillarida uchishi va asal tuplashiga muxitdagi abiotik va biotik omillarning ta’siri katta ekanligi o‘rganildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Боймуродов Х. Т.,Расулов М. Влияние абиотических факторов на распространение медоносных пчел в предгорном поясе. Бюллетень науки и практики / Bulletin of Science and Practice https://www.bulletennauki.ru. Т. 9. №11. 2023 https://doi.org/10.33619/2414-2948/96 С. 85-88

2. Боймуродов Х.Т., Эгамқулов А.Н., Туйгунов Т.Н Структура пчелиной семьи в средней части Зеравшанской долины, значение оптимального сохранения классов рабочих пчел и семейственности. “Инноватsionная траектория развития современной науки” Сборник статей Международной научно-практической конференции. Петрозаводске, 2022. 203-205 с.

3. Боймуродов Х.Т., Туреханов Ф.Ф., Дилмуродов Ғ.Ш., Жалилов Ф.С., Уралов У.Б. Влияние абиотических факторов на лёт пчел и сбор мёда в Самаркандской области. “ International research forum – 2022” Сборник статей Международной научно-практической конференции, Петрозаводск Российская Федерatsiя, 2022 174-179 С.
4. Булгакова Л. Л., Крахотин Н. Ф. Азбука пчеловода. – Т.: Мехнат, 1982.
5. N. F. Kraxotin. O‘zbekistonda asalarichilik. – T.: Mehnat, 1991.
6. A. I. Isamuhamedov. Asalarichilik. – T.: O‘qituvchi, 1995.
7. Н. Ф.Крахотин. Календарь пчеловода. – М.,1989.
8. И. Х. Иргашев, С. Старков. Основы пчеловодства и болезни пчел. – Т.: Мехнат, 1987.
9. T. Sh. Akmalxonov, S. Sh. Isamuhamedov, B. A. Qahramonov. Asalarichilikdan amaliy mashg‘ulot darslari topshiriqlarini bajarish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. – T.: ToshDAU, 2000.
10. B. A. Qahramonov, A. I. Isamuhamedov, U. Sh. Ballasov, S. F. Ergashev, O. S. To‘rayev. Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida asalari oilalarini parvarishlash. O‘quv qo‘llanma. – T.: ToshDAU, 2009.

UDK 372.891 (004.9)

QISHLOQ XO‘JALIKLARIDA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHDA INNOVATSIYALARNI QO‘LLASHNING VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.

Raximov Ixtiyor Baxtiyor o‘g‘li
Namangan davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola qishloq xo‘jaliklarida suv resurslarini boshqarish bo‘yicha innovatsion amaliyotlarning iqtisodiy ta'sirini o‘rganadi. Tadqiqot texnologiya va barqaror qishloq xo‘jaligi amaliyotidagi yutuqlar suvdan foydalanish samaradorligini oshirishi va oxir-oqibat fermerlar uchun xarajatlarni tejashga olib kelishi mumkinligini o‘rganadi. Adabiyotlarni keng qamrovli tahlil qilish, qo‘llanilgan usullar, olingan natijalar va o‘tkazilgan munozaralar orqali ushbu maqola qishloq xo‘jaligida suv resurslarini boshqarishning innovatsion strategiyasini qabul qilishning moliyaviy afzalliklarini yoritishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: suv resurslari, qishloq xo‘jaliklari, innovatsiyalar, iqtisodiy samaradorlik, qishloq xo‘jaligi, barqaror dehqonchilik, irrigatsiya, texnologiya, samaradorlik.

Suv, ayniqsa qishloq xo‘jaligi sharoitida qimmatbaho manba hisoblanadi. Suv resurslaridan samarali foydalanish o‘simlikchilik va chorvachilikni saqlash uchun muhim ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda suv resurslarini boshqarish sohasidagi innovatsiyalar qishloq xo‘jaliklarining ishlash uslubini o‘zgartirib, ularni yanada barqaror va tejamkor qildi. Ushbu maqola ushbu yangiliklarning iqtisodiy oqibatlarini o‘rganib chiqadi va ularning qishloq fermerlari uchun foydasini ta'kidlaydi.

Suv taqchilligi muammosini oldini olish, iqlim o‘zgarishlariga moslashish va qishloq xo‘jaligini kafolatlangan suv bilan ta’minlashda suvtejamkor texnologiyalarni qo‘llash va ulardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirishda o‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6024-sonli “o‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni va “Qishloq xo‘jaligida suvni tejayjigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-144-sonli qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi[1].

So‘nggi yillarda yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, suv xo‘jaligi obyektlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, global iqlim o‘zgarishi, aholi sonining va iqtisodiyot tarmoqlarining o‘sishi, ularning suvga bo‘lgan talabi yil sayin oshib borishi tufayli suv resurslarining taqchilligi yildan-yilga kuchayib bormoqda[2].

Ko‘plab tadqiqotlar qishloq xo‘jaligida suv resurslarini innovatsion boshqarishning iqtisodiy jihatlarini o‘rganib chiqdi. Ushbu yangiliklar ilg‘or sug‘orish texnikasini, ma'lumotlarga asoslangan qarorlarni qabul qilishni va barqaror amaliyotni qamrab oladi. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, sug‘orishning aniq texnologiyalarini qo‘llash suv isrofgarchiligini sezilarli darajada kamaytirdi va
hosildorlikni oshirdi, bu esa fermerlar uchun xarajatlarni sezilarli darajada tejashga olib keldi. Tuproq namligi sezgichlari va avtomatlashtirilgan sug‘orish tizimlaridan foydalanish mehnat va energiya xarajatlarini qanday kamaytirib, dehqonchilikni iqtisodiy jihatdan foydali qilishini ta'kidladi.

Qishloq xo‘jaliklarida suv resurslaridan foydalanishda innovatsiyalarni qo‘llashning iqtisodiy samaradorligi fermer xo‘jaliklarining barqarorligi, mahsuldorligi va rentabelligiga sezilarli ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Suv qishloq xo‘jaligi uchun muhim manba bo‘lib, undan samarali foydalanish dehqonchilik faoliyatining uzoq muddatli hayotiyligini ta'minlash uchun juda muhimdir. Ushbu yangiliklarning iqtisodiy samaradorligini baholashda e'tiborga olish kerak bo‘lgan ba'zi asosiy fikrlar:

- Ekin hosildorligining oshishi: suvni to‘g‘ri boshqarish va sug‘orish texnikasi, masalan tomchilatib sug‘orish yoki aniq qishloq xo‘jaligi, ekinlarning hosildorligini oshirishga olib kelishi mumkin. Yuqori hosil fermerlar uchun yuqori daromad keltirishi va innovatsiyalarning iqtisodiy samaradorligiga hissa qo‘shishi mumkin.
- Suv narxining pasayishi: suvni tejaydigan texnologiyalar fermer xo‘jaliklari uchun umumiy suv xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi. Bunga sug‘orishning yanada samarali usullari, yomg‘ir suvini yig‘ish va suvdan foydalanishni optimallashtirish uchun sensorga asoslangan tizimlardan foydalanish orqali erishish mumkin. Suv xarajatlarining pastligi fermaning rentabelligiga bevosita ta'sir qilishi mumkin[3].

- Energiyani tejash: energiyani tejaydigan nasoslar va sug‘orish tizimlari kabi suvni tejaydigan ba'zi yangiliklar ham energiyani tejashga olib kelishi mumkin. Energiya xarajatlarining pastligi ushbu yangiliklarning iqtisodiy samaradorligiga hissa qo‘shishi mumkin.
- Ekologik muvofiqlik: fermer xo‘jaliklariga suvdan foydalanish bilan bog‘liq ekologik qoidalarga rioya qilishga yordam beradigan Yangiliklar qimmat jarimalar va huquqiy muammolardan qochib, fermaning iqtisodiy barqarorligini oshirishi mumkin.
- Xavfni kamaytirish: suv tanqisligi yoki qurg‘oqchilikka moyil bo‘lgan hududlarda suvni tejaydigan yangiliklar ishonchli suv ta'minotini ta'minlash orqali ishlab chiqarish xavfini kamaytirishga yordam beradi. Bu noqulay iqlim sharoitida fermaning daromadlarini himoya qilishi mumkin[4].
- Investitsiyalarning rentabelligi (ROI): suvni tejaydigan har qanday yangilik uchun roini hisoblash juda muhimdir. Bu dastlabki investitsiya xarajatlarini baholashni va uni kutilgan tejash yoki vaqt o‘tishi bilan olingan qo‘shimcha daromad bilan taqqoslashni o‘z ichiga oladi. Ijobiy ROI iqtisodiy samaradorlikni ko‘rsatadi.
- Uzoq muddatli barqarorlik: barqaror suvni boshqarish amaliyoti tuproq degradatsiyasi va sho‘rlanishining oldini olish orqali qishloq xo‘jaligi erlarining samarali umrini uzaytirishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, fermaning uzoq muddatli iqtisodiy hayotiyligini oshirishi mumkin.
- Davlat imtiyozlaridan foydalanish: ba'zi mintaqalarda hukumatlar suvni tejaydigan texnologiyalar va barqaror qishloq xo‘jaligi amaliyotini qo‘llash uchun moddiy rag‘batlantirish va subsidiyalarni taklif qilishadi. Ushbu imtiyozlar bunday yangiliklarning iqtisodiy samaradorligini yanada oshirishi mumkin.
- Bozor talabi: iste'molchilarning afzalliklari barqaror ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tobora ko‘proq qo‘llab-quvvatlamoqda. Suvni tejaydigan yangiliklarni qabul qiladigan fermer xo‘jaliklari bozorda raqobatbardosh ustunlikka ega bo‘lishi mumkin, bu esa o‘z mahsulotlariga yuqori narxlarni talab qilishi mumkin.
- Ma'lumotlar va Monitoring: innovatsiyalar ko‘pincha suvdan foydalanish samaradorligi to‘g‘risida qimmatli tushunchalarni ta'minlaydigan ma'lumotlar va monitoring tizimlaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Ushbu ma'lumotlar qaror qabul qilishni xabardor qilishi va resurslarni taqsimlashni yanada optimallashtirishi mumkin.

Qishloq xo‘jaliklarida suv resurslaridan foydalanishda innovatsiyalarni qo‘llashning iqtisodiy samaradorligi ko‘p qirrali. Bu ekinlar hosildorligi, xarajatlarni tejash, energiya samaradorligi, tartibga rioya qilish, xavfni kamaytirish va uzoq muddatli barqarorlikka ta'sirini baholashni o‘z ichiga oladi. Ushbu omillarning barchasini hisobga olgan holda keng qamrovli tahlil fermerlarga suvni tejaydigan texnologiyalar va amaliyotlarni qabul qilish to‘g‘risida qaror qabul qilishga yordam beradi.

Qishloq xo‘jaliklarida suv resurslarini innovatsion boshqarishning iqtisodiy foydalari shubhasizdir. Suvdan foydalanishning kamayishi, hosildorlikning yaxshilanishi va operatsion xarajatlarning pasayishi rentabellikning oshishiga

yordam beradi. Bundan tashqari, ushbu innovatsiyalarni qabul qilish barqaror qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha global sa'y-harakatlarga mos keladi va bu fermerlar uchun ham, atrof-muhit uchun ham yutuqli vaziyatga aylanadi.

Xulosalar:

Suv resurslarini boshqarishdagi innovatsiyalar qishloq dehqonchiligining iqtisodiy manzarasini o‘zgartirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Dalillar shuni ko‘rsatadiki, bu yangiliklar tejamkor bo‘lib, sezilarli tejash va barqarorlikni yaxshilashga olib keladi. Ushbu texnologiyalar va amaliyotlarni qo‘llash, ularning uzoq muddatli farovonligini ta'minlash orqali qishloq xo‘jaliklarining iqtisodiy hayotiyligi ancha yaxshilanadi.

- Hukumatlar va qishloq xo‘jaligi tashkilotlari qishloq fermerlarini suvni tejaydigan texnologiyalarni qo‘llashga undash uchun qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishni davom ettirishlari kerak.
  - Ushbu yangiliklarning uzoq muddatli iqtisodiy foydalarini o‘rganish va ularning har xil turdagi qishloq xo‘jaliklari uchun ko‘lamini baholash uchun qo‘shimcha tadqiqotlar o‘tkazish zarur.
  - Fermerlarning suv resurslarini boshqarishning innovatsion usullarini joriy etish va qo‘llab-quvvatlash uchun yaxshi jihozlanganligini ta'minlash uchun ta'lim va o‘quv dasturlarini kengaytirish kerak.
  - Ushbu amaliyotlarni keng tatbiq etishga ko‘maklashish uchun fermerlar o‘rtasida bilim almashish va hamkorlikni rag‘batlantirish, natijada qishloq iqtisodiyoti va atrof-muhitga foyda keltiradi.

Adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6024-sonli “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni. 10.06.2020
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligida suvni tejayjigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-144-sonli Qarori. 01.03.2022.
3. ZS Shokhujaeva, HN Mirjamilova. Innovative processes in the water sector and factors influencing their development. Asian Journal of Research in Business Economics and Management. Том 12, №5, Стр.18-27
4. NS Xushmatov, ZS Shoxo‘Jaeva. SUV RESURSLARINING AGRAR TARMOQNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH BILAN O‘ZARO BOG‘LIQLIGINI BAHOLASH. J.: Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. №3, Стр.1121-1129
5. ZS Shoxo‘Jaeva. SUV TEJAMKOR TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHDA XORIJIY TAJRIBALAR VA UNI MAMLAKATIMIZ QISHLOQ XO‘JALIGIGA TATQIQ ETISH NATIJALARI. J.: Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. №2, Стр.803-810
6. ЗС Шохўжаева. ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИДА СУВ РЕСУРСЛАРИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ. Irrigatsiya va Melioratsiya журнали №3, 2018. Стр. 82-88.

7. ЗС Шохужаева. Экономическая Эффективность Использования Инновационных Ирригационных Технологий. Журнал Экономика и социум. №6-2 (73). Стр.638-642

UO‘K 504.06

SUV MUAMMOLARI VA EKOTIZIMNING KELAJAGI: AYDAR-ARNASOY KO‘LLARI MISOLIDA

Axmadjonova Yorqinoy Tojimurodovna
Jizzax politexnika instituti, Jizzax shahar
yorqinoy.axmadjonova@bk.ru

Annotatsiya Mazkur maqola suv resurslaridan oqilona foydalanishning ahamiyati, Ramsar Konvensiyasi ro‘yxatiga kiritilgan ushbu suv-botqoq hududlarning ekologik holatini saqlash, barqaror rivojlanishni ta’minlash hamda ilmiy tadqiqotlar olib borishning dolzarbligi ta’kidlangan. Maqola Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi va uning atrof-muhitga ko‘rsatgan ta’sirini o‘rganish bo‘yicha yangi yondashuvlarni tavsiya etadi.

Kalit so‘zlar. suv, ekotizim, Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi (AAKT), Ramsar Konvensiyasi, atrof-muhit

Ахмаджонова Ёркиной Тожимуродовна
Джизакский политехнический институт, г. Джизак

ВОДНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И БУДУЩЕЕ ЭКОСИСТЕМЫ: НА ПРИМЕРЕ АЙДАР-АРНАСОЙСКИХ ОЗЕР

Аннотация В данной статье подчеркивается важность рационального использования водных ресурсов, важность сохранения экологического статуса этих водно-болотных угодий, включенных в список Рамсарской конвенции, обеспечения устойчивого развития, проведения научных исследований. В статье рекомендуются новые подходы к изучению Айдар-Арнасойской системы озер и ее влияния на окружающую среду

Ключевые слова: вода, экосистема, Айдар-Арнасайская система озер (ААСО), Рамсарская конвенция, окружающая среда

Akhmadjonova Yorkinoy Tojimurodovna
Jizzakh Polytechnic Institute, Jizzakh city

WATER PROBLEMS AND THE FUTURE OF THE ECOSYSTEM: ON THE EXAMPLE OF AYDAR-ARNASOY LAKES

Abstract This article emphasizes the importance of rational use of water resources, the importance of preserving the ecological status of these wetlands, which are included in the list of the Ramsar Convention, ensuring sustainable development, and conducting scientific research. The article recommends new approaches to studying the Aydar-Arnasoy lake system and its impact on the environment.

Keywords: water, ecosystem, Aydar-Arnasay Lake System (AYLS), Ramsar Convention, environment

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasi arid hududda joylashganligi sababli, bosh muammo - suv ekanligini kunlik hayotimiz yoki matbuotimiz orqali chop etilayotgan maqolalar ham ko‘rsatib turibdi. Bugungi kunda respublikamiz hududidagi suv manbalardan oqilona foydalanmaslik oqibatida, tabiiy ravishda paydo bo‘lgan suv havzalari qurib (Orol dengizi) borayotganligini va ba’zi bir hududlarda esa tashlama ko‘llar (Aydar-Arnasoy, Sariqamish va Dengizko‘l)ning akvatoriyasi kengayib, o‘ziga xos bo‘lgan ekotizim (geotizim)lar shakllanayotganligini ko‘ramiz[1].

Arid hududda hosil bo‘lgan Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi o‘zgaruvchan ekotizim hisoblanadi. Ekotizimdagi o‘zgarishlar landshaftning hamma komponentlariga, birinchi navbatda o‘simlik, xayvonot, yer osti suv sathi va minerallashish darajasiga ham ta’siri bo‘ladi. Ikkinchi tomondan arid hududda o‘ziga xos mikroiqlim hosil bo‘lib, atrof-muhit iqlimiga ham ta’sir ko‘rsatmoqda[2].

Atrof-muhit iqlimidagi o‘zgarishlar shu joyda tuproqlarga, o‘simlik qoplamiga va hayvonot olamiga ham ta’siri bo‘lmoqda. Ushbu o‘zgarishlarni o‘rganish, tahlil qilish va oldindan bashorat qilish katta ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega.

Aydarko‘l Jizzax viloyatidagi Oqbuloq, Sangzor daryosining Qili tashlamasi,Chordara suv ombori va Arnasoyga quyilayotgan Markaziy Mirzacho‘l tashlanmasi oqimi hisobiga to‘yinadi.

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi suv balansining kirim qismiga oqib keladigan grunt suvlari ham kiradi. Ular Nurota tog‘laridan, Qizilqum cho‘lidan, Mirzacho‘ldan va Chordara suv omboridan kelib turadi. Suv balansi kirim tomonining nisbatan katta qismini ko‘llar yuzasiga tushadigan yog‘in miqdori hisoblanadi. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi g‘arbdan sharqga tomon cho‘zilganligi tufayli yog‘in miqdori g‘arbdan-sharqga tomon biroz oshib boradi. Ko‘llar suv balansining chiqim qismi suv yuzasidan bug‘lanadigan suv va yerga singadigan suvlardan iborat. 1993 yildan 2006 yilga qadar Chordara suv omboridan Arnasoyko‘liga har yili katta miqdorda suv oqizilib turilgan. Eng katta oqizilgan suv 1994 yilga to‘g‘ri keladi.

Asosiy qism. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi paydo bo‘lgan 1969 yildan yarim asr o‘tganini va bu yerda o‘ziga xos ekotizim shakllangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001 yil 30 avgustdagi qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi Ramsar Konvensiyasiga qo‘shildi va ushbu qaror 2002 yilning 8 fevralidan kuchga kirdi[3]. Hozirda mamlakatimizning maydoni 31,3 ming gektarga teng Dengizko‘l hamda 527,1 ming gektar bo‘lgan Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi Ramsar ro‘yxatiga kiritilgan.Shundan so‘ng, AAKT Ramsar konventsiyasi tomonidan global ahamiyatga ega deb e’tirof etilgan 4000 km^2 maydonga ega bo‘lgan suv-botqoq hududiga aylandi.

Ramsar ro‘yxatiga kiritilgan ikkinchi obyekt-Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi tarkibiga Tuzkon, Arnasoy va Aydarko‘l ko‘llari kiradi. Hozirgi kunda Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi maydoni 3702 km^2 va suv hajmi 44,1 km^3 ni tashkil qilgan ulkan suv havzasiga aylandi.

Mazkur Konvensiya yashash areallari nafaqat bir davlat hududida joylashgan, balki uya qurish, uchib o‘tish, qishlash areallari turli davlatlar chegarasida

joylashgan qush turlari, shuningdek, Tabiat va tabiiy resurslarni muhofaza qilish xalqaro ittifoqining Qizil ro‘yxatiga kiritilgan, hayotining ma’lum qismida respublikamiz hududida yashovchi qush turlarini ham muhofazalashda muhim o‘rin tutadi.

Respublikamizdagi Ramsar ro‘yxatiga kiritilgan ko‘llardan oqilona foydalanish samaradorligini yanada oshirish va umuman Konvensiya talablarini to‘laqonli bajarishda suv-botqoq ekotizimlari kadastri va monitoringiga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni bajarish muhim o‘rin tutadi. Shu sababdan aytish mumkinki, tabiatga salbiy ta’sir qiluvchi omillar oqibatlarini yumshatishga xizmat qiluvchi ilmiy tadqiqotlarni har tomonlama rag‘batlantirish, jumladan, turli mavsumlarda va migratsiyalar davrida qushlar yig‘iladigan ko‘llarni aniqlash, hayoti suv havzalari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan turlarning tabiiy areallarini o‘rganish, areallarning qisqarishiga, tur tarkibi va populyatsiya sonining kamayishiga sabab bo‘luvchi omillarni aniqlash dolzarb vazifalardan sanaladi.

Ekologik tizimlarni saqlash va yaxshilash, aholining ekologik xavfsiz yashashini ta’minlashga erishish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida 2030 yilgacha mo‘ljallangan konsepsiya” loyihasi ishlab chiqilganligi ham mamlakatimizda barqaror rivojlanish borasidagi ustuvor yo‘nalishlardan biri, hamda mintaqamizda sog‘lom ekologik vaziyatni saqlab qolishga qaratilgan ishlarning uzviy davomidir[4].

Lekin oxirgi yillarda Aydar-Arnasoy ko‘llar holatining yomonlashuv tendensiyasi kuzatilmoqda. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimining suv hajmi 1994−2000 yillarda 44,1 milliard kub metrni, hududi 350 ming gektarni, uzunligi esa 250 kilometrni tashkil etgan bo‘lsa, 2013−2021 yillarda suv yetishmovchiligi tufayli Qozog‘istonning Turkiston viloyati hududida joylashgan Chordara suv omboridan ko‘l tizimiga suv tashlanmagani bois suv hajmi 37,7 milliard kub metrgacha kamaydi. Qozog‘iston Respublikasi Shardara suv omboridan Sirdaryoga suv chiqish darvozasining suv chiqarish imkoniyati 2006 yildan beri yaxshilangan va O‘zbekistonga, ya’ni Arnasoy ko‘liga suv chiqarish to‘xtatilgan.

Demak, Chordara suv omboridan Arnasoy ko‘liga suv tashlanmasa Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimida suvning kirim qismida jiddiy miqdoriy o‘zgarish bo‘ladi va bu ko‘llar tizimida suvning kirim qismiga nisbatan chiqim qismi ustunlik qilib, suv hajmi kamayib boradi.

Aydar-Arnasoy ko‘l tizimi mahalliy kanalizatsiya va drenaj bilan to‘yingan. Yillar davomida ko‘lda chuchuk suv yetishmasligi tufayli sho‘rlanish darajasi ko‘tarilib, baliqlarning tabiiy ko‘payishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Aydar-Arnasoy ko‘llarda suv sathi 2 m ga pasayganini, minerallashuv darajasi 10 yil ichida 5,1 g/l dan 8,6 g/l gacha oshganini, Boymurod hududi atrofida esa bu ko‘rsatkich 12 g/l dan oshganini tahlillarda aniqlangan.

Aydarko‘l suvlarining tarkibida sulfat va natriy ionlarining miqdor jihatdan ko‘pligi, uning sho‘r ta’mga ega ekanligini belgilaydi. Suvning sho‘rlanish darajasi 3,2-12,2 g/l gacha o‘zgaradi. Eng yuqori sho‘rlanish darajasi bahor oylariga to‘g‘ri keladi. Asta-sekinlik bilan mazkur suv havzasi suvning tarkibida tuz ionlari miqdori

ortib bormoqda. Bugungi kunda Aydarko‘lning turli hududlarida suvdagi tuz miqdori 4-16,5g/l gacha, o‘rtacha 10,2 g/l ni tashkil etadi. Aydarko‘l suvining ion tarkibi okean suvi tarkibiga yaqin turadi. O‘rta Osiyo gidrometrialogiya ilmiy-tadqiqot instituti ma’lumotlariga ko‘ra 1990 yil 2005 yilda suvning sho‘rlanish darajasi sharqiy hududda 17 g/l bugungi kunda 12,2, g/l, g‘arbiy hududda 22 g/l bugungi kunda 14,5 g /l gacha yetishi aniqlangan. Suvning pH ko‘rsatkichi Aydarko‘lda 8,6 ga, Tuzkonda 8,8 ga, Arnasoyda 8,9 ga teng. Bu ko‘rsatkichlar Aydarko‘l suvi kuchi ishqoriy muhitga ega ekanligidan dalolat beradi[5].

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, havzalardagi ekologik barqarorlikni kelgusi avlodlar uchun saqlab qolish uchun barchamiz birdek mas’ulmiz.

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi va uning atrof-muxitga ko‘rsatayotgan ta’siri eng muhim muammolardan biri bo‘lganligi sababli, Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi va uning qirg‘oq mintaqalarini ilmiy asoslangan holda o‘rganib chiqish maqsadida “Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimining shakllanishi, dinamikasi va atrof-muhitga ta’sirini tadqiq qilish, suvning sho‘rligining ortishi va kamayishi, suv tarkibidan og‘ir metall ionlarini aniqlash” mavzusidagi ilmiy-amaliy tadqiqot doirasida kompleks ravishda o‘rganib chiqilmoqda.

Hozirgacha olib borilgan tadqiqotlar landshaft komponentlarining bittasi (suv, o‘simlik va boshqalar) yoki ba’zi tabiiy jarayonlar (qirg‘oq yemirilishi,sho‘rlanish, suv sho‘rligi va boshqalar) bilan chegaralangan.

Biz loyihaga kiritgan tadqiqotlar kompleks xarakterga ega bo‘lib, Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimining paydo bo‘lishidan hozirga qadar rivojlanishi hamda suv rejimi, gidrokimyosi, suv-tuz balansi, o‘simliklari, hayvonot olami, ularning o‘zaro ta’siri tufayli ko‘llar geotizimining shakllanishi, ko‘llarning o‘rab turgan atrof hududlar iqlimiga, tuproqlariga, o‘simliklariga, yer osti suvlariga ta’sirlari tadqiq qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, ekologik xavfsizlik jamiyatimiz buguni va kelajagining eng muhim va dolzarb muammolaridan biridir. Aydar-Arnasoy ko‘llari tizimi misolida ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish masalalari muhokama qilinadi. Qurg‘oqchil iqlimimizdagi sug‘oriladigan va antropogen ko‘llarni o‘rganish, ko‘z o‘ngimizda ro‘y berayotgan Orol dengizining halokatli taqdiri davrida ekologik xavfsizlikni ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

Albatta ilgari olingan ma’lumotlarning ham ilmiy qiymati katta. Biz hozir olgan ma’lumotlar bilan ilgari olingan ma’lumotlarni taqqoslab xulosalar beramiz. To‘plangan hamma materiallar tartibga solinadi, va geografik informatsiya tizimi asosida ro‘y berayotgan jarayonlarni ko‘rsatuvchi modellar tuziladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirkomil G., Bakhtiyor Z. Methods of studying the landscapes around the aydar-arnasay lake system //International Engineering Journal For Research & Development. – 2020. – Т. 5. – №. 7. – S. 5-5.
2. Gudalov, M. (2019). Foundation of Aydar-Arnasay lakes system and their effects on the environmental landscape. Nature and Science, 17(11), 111-114.

3. Ахмаджонова Ё. Т. Рамсар конвенцияси: Аайдар-Арнасой кўллар тизими экологияси //Экономика и социум. – 2024. – №. 4-2 (119). – С. 604-607.
4. Sh. Mirziyoev 2019 yil 30 oktyabrdagi "2030 yilgacha bo‘lgan davrda o‘zbekiston respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida" PF-5863-son farmoni https://lex.uz/docs/4574008
5. Ziyatovna, Y. Z., Tojimurodovna, A. Y., & Tojimurodovna, A. U. (2021). Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimining gidrologik tavsifi va ekologik holati. Science and Education, 2(7), 160-169.

ВЛИЯНИЕ СОЛНЕЦНОЙ РАДИАЦИИ НА ОКРУЖАЮЩУЮ СРЕДУ

Дж.Дж.Маматкулов
Самаркандский государственный университет ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии, профессор.
Г.А.Сувонова
Самаркандский государственный университет ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии старший преподаватель
Ф.С.Джуманиёзова
Самаркандский государственный университет ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии, ассистент
Б.Дустов
Самаркандский государственный университет ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии, ассистент
Х.Ф.Жуманазарова
Самаркандский государственный университет ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии, факултет Биотехнологии студентка 2-курса

Аннотация. Проблема взаимодействия человека и окружающей его среды особенно остро в регионах с сухим жарким климатом, к которым относится Узбекистан. В статье описывается влияние солнечной радиации на окружающую среду Узбекистана.

Ключевые слова: поглощение солнечной радиации, освещенность, восход солнца, пыльные бури, климатические особенности, географические зоны, волны, солнечные лучи, материя, энергия, совокупность, солнечная радиация.

Annotation. The problem of interaction between man and his environment is especially acute in regions with a dry hot climate, which includes Uzbekistan. The article describes the impact of solar radiation on the environment of Uzbekistan.

Key words. Absorption of solar radiation, illumination, sunrise, dust storms, climatic features, geographical zones, waves, sun rays, matter, energy, totality, solar radiation.

Введение. Солнечная радиация - это совокупность солнечной материи и энергии, поступающей на Землю. Энергия распространяется в виде электромагнитных волн со скоростью 300 тыс. километров в секунду,

проходит через атмосферу и достигает Земли за 8 минут. Земная поверхность находится под воздействием как прямых, так и рассеянных земной атмосферой, солнечных лучей. Именно рассеянием в атмосфере сине-голубых лучей объясняется голубизна неба в ясный день. Жёлто-оранжевый цвет солнечного диска обусловлен тем, что соответствующие ему волны проходят почти без рассеивания.

Электромагнитный спектр солнечной радиации состоит из инфракрасной (50%), видимой (41%) и ультрафиолетовой (9%) частей. Поскольку их кванты обладают различной энергией, то они оказывают разнообразное действие на человека. Чрезвычайно велико и гигиеническое значение солнечной радиации. Его регламентирование производится согласно СНиП, которые для солнечной радиации составляются с учётом свето-климатических особенностей различных
географических зон и учитываются при проектировании и строительстве различных объектов.

Избыточная солнечная радиация, пыльные бури, зной пустынь с интенсивным загрязнением атмосферы, промышленных предприятий, громадной химической нагрузкой на почвы и выбросами водные источники.

Интенсивность прямой солнечной радиации определяется посредством термоэлектрического актинометра Савинова-Янишевского. Принцип действия актинометра основан на использовании нагревания зачерненных поверхностей тел, происходящего от солнечной радиации. В актинометре Савинова-Янишевского приёмной частью радиации является термоэлектрическом тонкий, зачерненный с наружной стороны серебряный диск. К диску с электрической изоляцией припаяны спаи термоэлементов, другие спаи прикреплены к медному кольцу внутри корпуса актинометра и затенены. Под действием солнечный радиации возникает электрический ток в термобатарее, сила которого пропорциональна потоку радиации.

Результаты и обсуждений. Климат Узбекистана континентально субтропический. Высота солнца летом 74°, зимой 30°. Число ясных дней 155, сумма часов солнечного сияния 2916, суммарная радиация 143,9 ккал/см², средняя температура года +13,4°, января 0°, июля +26°, абсолютный минимум -18°, абсолютный максимум +45°. Среднегодовая скорость ветра 2 м/сек, сумма осадков 328
мм, дней с туманами 14, абсолютная влажность 8,7 мм.рт.ст., относительная влажность 42%. Главной водной артерией Узбекистана являются реки Амударья и Сырдарья. Количество солнечной радиации, поступающей на земную поверхность зависит от широты места, высоты солнца, облачности и прозрачности атмосферы. В зимние месяцы высота солнца в истинный полдень достигает 26°, летом 73°. От времени восхода и захода солнца зависит и продолжительность дня. В Узбекистане 22 июня самый ранний восход солнца 4 ч. 30 мин. и самый поздний заход-19 ч. 31 мин. В этот день отмечается самая большая продолжительность дня 15 ч.1 мин. Наиболее поздний восход солнца приходится на 7 ч.15 мин., а наиболее ранний заход на 17 ч.30. мин. (22

декабря). Самый короткий день составляет 9 ч. 24 мин. Разность между самым длинным и самым коротким днем составляет 5 ч.36 мин. Высота солнца над горизонтом является астрономическим фактором, определяющим естественную освещенность. Продолжительность ее зависит не только от продолжительности дня, но и от периода утренних и вечерних сумерек при отрицательных высотах солнца (от 0 до 18°), когда оно находится под горизонтом. Эти данные представляют практический интерес в связи с тем, что естественная освещенность во время сумерек достаточна для выполнения многих видов работ как на открытом воздухе, так и в помещении. Солнечные лучи, проходя через толщу атмосферы, претерпевают молекулярное рассеяние, а также рассеяние на частицах атмосферного аэрозоля. Ряд составных частей атмосферы и прежде всего водяной пар и озон обусловливают поглощение солнечной радиации. Состояние атмосферы, ее прозрачность определяются с помощью коэффициента прозрачности (Р). Его значения, приведенные к массе m при солнечной постоянной 1,38 кВт/м², в Узбекистане изменяются от 80% в декабре до 72% в июне-сентябре. Повышенные
значения Р в зимне-весенний период обусловлены низким содержанием в воздухе водяного пара и аэрозоля.

В летний период содержание в воздухе водяного пара увеличивается, возрастает и количество аэрозоля, что связано с увеличением мглы, вызванной пыльными бурями. Прозрачность атмосферы в этот период оказывается значительно меньше, чем в холодное полугодие, когда часто выпадают дожди и очищают атмосферу от различного рода примесей. В отдельные дни прозрачность атмосферы может быть высокой и значения коэффициентов прозрачности по сравнению с нормой могут возрастать до 86-89%.

Солнечная радиация поступает на земную поверхность в виде двух потоков: прямой солнечной радиации *S*, исходящей непосредственно от солнечного диска, и рассеянной радиации *D*, исходящей от всего солнечная небесного свода. Сумма этих потоков называется суммарной радиацией *Q*. На метеорологических станциях станциях измеряется прямая радиация *S*, поступающая на поверхность, перпендикулярную солнечным лучам. Количество солнечной радиации, приходящей на горизонтальную поверхность *S'*, соответствующую поверхности земли, рассчитывается по формуле

$$S' = S*sinh_{эфф}$$

Суточный ход прямой солнечной радиации и его изменение в течение года зависят от высоты солнца, прозрачности атмосферы и облачности. Первым фактором определяется рост часовых сумм прямой солнечной радиации до полудня и последующее их уменьшение к вечеру. Средние часовые суммы прямой солнечной
радиации в истинный полдень изменяются в течение года в Узбекистане от 0,75 МДж/м² в декабре до 2,6 МДж/м² в июле высокое стояниесолнца,

безоблачное небо обеспечивают большой приток солнечной радиации к земной поверхности в летние
месяцы. В холодное полугодие облачность значительно снижает приток прямой солнечной радиации. Интересно отметить, что в Узбекистане в осенние месяцы (октябрь) часовые суммы прямой солнечной радиации выше, чем весной (апрель), объясняется это небольшой повторяемостью облачности в осенний период по сравнению весенним. Часовые суммы рассеянной радиации, так же, как и прямой, растут от утренних часов к полудню, затем следует их уменьшение. В годовом ходе наибольшие часовые суммы рассеянной радиации отмечаются весной, так как в это время в Узбекистане наблюдается наибольшая облачность. В дневные часы в апреле рассеянная радиация достигает (1,05+1,09) МДж/м² и по своим значениям близка к прямой солнечной радиации (1,09±1,13 МДж/м²). Часовые и дневные суммы суммарной радиации приводятся нижеследующей таблице. Месячные суммы прямой солнечной радиации, поступающей на горизонтальную поверхность, растут от 92 МДж/м² в декабре до 637 МДж/м² в июле. Средние месячные суммы прямой солнечной радиации, поступающей на перпендикулярную поверхность, зимой на 175 МДж/м², а летом на 255 МДж/м² выше, чем суммы солнечной радиации, поступающей на горизонтальную поверхность. Средние месячные суммы рассеянной радиации в зимний период по своим значениям близки к суммам прямой солнечной радиации, а в январе даже несколько превышают их. Весной и летом рассеянная радиация примерно в три-четыре раза меньше прямой. Ее максимум в годовом ходе наблюдается в апреле 247 МДж/м², к лету с уменьшением облачности ее значение уменьшается. Средние месячные суммы прямой радиации в условиях
ясного неба в зимние месяцы на 466 МДж/м², а в летние на 622 МДж/м² (156 выше), чем в реальных условиях. Суммы рассеянной радиации, наоборот, меньше. При ясном состоянии неба наибольшие средние месячные суммы прямой солнечной радиации в Узбекистане отмечаются в период с мая по июнь, когда прозрачность атмосферы наибольшая в связи с выпадением частых дождей. Годовая сумма прямой солнечной радиации на горизонтальную поверхность составляет 3940 МДж/м².

21 декабря ситуация совершенно иное-значение инсоляции колеблется от 0 до 401 Втч/м², т.е. зимой, чем выше широта, тем значительней разница с летним значением инсоляции. В декабре между северной и южной широты имеет максимальное отличие. Вследствие этого инсоляция сильно различается в зависимости от времени года и географического положения. Об этом не стоит забывать при использовании ВИЭ на основе солнечных батарей. Как защититься от солнечной радиации: инфракрасная составляющая солнечного излучения - это вожделенное тепло, которого жители средних и северных широт с нетерпением ожидают все остальные сезоны года.

Солнечной радиацией как оздоровительный фактор пользуются как здоровые, так и больные. Однако, нельзя забывать, что тепло так же, как и ультрафиолет, относится к очень сильным раздражителям. Злоупотребление

их действием может привести к ожогу, общему перегреву организма, и даже к обострению хронических заболеваний. Принимая солнечные ванны, следует придерживаться проверенных жизнью правил. Особенно осторожно следует загорать в ясные солнечные дни. Грудным детям и пожилым людям, больным с хронической формой туберкулёза и проблемами с сердечно-сосудистой системой, следует довольствоваться рассеянным солнечным излучением тени. Этого ультрафиолета, вполне достаточно для удовлетворения нужд организма. Даже молодым людям, не имеющих особых проблем со здоровьем, следует предусмотреть защиту от солнечной радиации. Сейчас появилось движение, активисты которого выступают
против загара, и не напрасно. Загорелая кожа, несомненно, красива. меланин, вырабатываемый организмом (то что мы называем загаром-эритемой) это его защитная реакция на воздействие солнечного излучения. Есть даже сведения, что загар укорачивает жизнь, так как радиация имеет кумулятивное свойство накапливается в течении всей жизни. Если дело обстоит так серьёзно, следует скрупулёзно соблюдать правила, предписывающие как защититься от солнечной радиации:

-строго ограничивать время для загара и делать это лишь в безопасные часы;

Farmakologik ma’lumotlar sifat jihatdan sintez qilindi, dorivor o‘simliklarni baholash bo‘yicha xalqaro standartlarga asoslanildi. Tajriba davomida Rastaropsha (silybum marianum) o‘simligining urug‘ unuvchanligini laboratoriya sharoitida baholash maqsadida 100 dona urug‘ olinib, ularning unib chiqish holati kuzatildi. Tajriba natijalariga ko‘ra, ekilgan 100 ta urug‘dan faqatgina 2 dona urug‘ unib chiqdi. Bu ko‘rsatkich urug‘ unuvchanligining 2% ekanligini ko‘rsatadi. Bunday past unuvchanlik ko‘rsatkichi urug‘larning biologik yetilish darajasining pastligi, urug‘larning noto‘g‘ri saqlanish sharoitlari yoki urug‘larning dastlabki sifat ko‘rsatkichlarining yomonligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shuningdek, urug‘larning unuvchanligiga genetik omillar, yetishtirish sharoitlari (tuproq tarkibi, namlik darajasi va harorat), va hosilni yig‘ish hamda saqlash usullarining ta'siri katta. Mazkur natijalar Rastaropsha (silybum marianum) urug‘larining laboratoriya sharoitida yuqori unuvchanlikka erishish uchun maxsus agrotexnik chora-tadbirlarni ishlab chiqish zaruriyatini ko‘rsatmoqda. Kelgusidagi tadqiqotlarda urug‘larning unuvchanligini oshirish uchun ularni dastlabki ishlov berish usullari, saqlash sharoitlarini optimallashtirish va ekish uchun foydalaniladigan substratlarning optimal tarkibi aniqlanib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqilishi lozim. *S. marianum* Samarqandning agroekologik sharoitlariga yuqori moslashuvchan- likni namoyon etdi. Yaxshi drenajlangan loy tuproqlarda (pH 6.5–7.0) organik o‘g‘itlash sharoitida eng yaxshi o‘sish kuzatildi, urug‘ hosili 1.2–1.5 t/ga ni tashkil etdi. Bahorgi ekish (aprel) mustahkam o‘simliklar (balandligi 60–150 sm) hosil qildi, gullash maydan avgustgacha, urug‘pishishi esa sentyabrda yuz berdi. Mav- sumda 300–400 mm sug‘orish suv to‘planishini oldini oldi, tabiiy zararkunan- dalarga qarshi kurash aphid va zamburug‘li infeksiyalarni ishlovsiz uchastkalarga nisbatan HPLC tahlili Samarqandda yetishtirilgan urug‘larda silimarin tarkibini 2.5–2.8 Silimarin toksik ta’sir ostida jigar hujayralari zararlanishini in vitro 60 % ekanligini ko‘rsatdi.

Xulosa Samarqandda *Rastaropsha (silybum marianum)*ni muvaffaqiyatli yetishtirish uning O‘zbekiston dorivor o‘simliklar sanoati uchun barqaror ekin sifatidagi salohiyatini ta’kidlaydi. viloyatning yarim quruq iqlimi va loy tuproqlari o‘simlikning ekologik talablariga mos keladi, bu oldingi tadqiqotlarda qayd etilgan [5, 6]. Organik o‘g‘itlash va minimal sug‘orish silimarin hosilini optimallashtirdi, dorivor sifatga kimyoviy qoldiqlar ta’sirini kamaytirish bo‘yicha xavotirlarni bartaraf etdi [7].

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Koch, M. va boshq. “Silybum Marianumning gepatoprotektiv va antioksidant ta’sirlari eksperimental gepatotoksiklikda.” *Journal of Medicinal Plants Research*, jild 11, № 45, 2017, 689–698-betlar.

[2] Boros, M. va boshq. “Silybum Marianumning antioksidant va yallig‘lanishga qarshi xususiyatlari.” *Phytotherapy Research*, jild 33, № 4, 2019, 999–1007-betlar.

[3] Meyer, W. va boshq. “Silimarinning gepatotoksiklikdagi gepatoprotektiv ta’sirlari.” *Journal of Hepatology*, jild 68, № 5, 2018, 845–853-betlar.

[4] Sharma, R. va S. Gupta. “Silybum Marianumning farmatsevtik qo‘llanilishi va jigar sog‘lig‘iga ta’siri.” *Phytotherapy Research*, jild 34, № 9, 2020, 2398–

2407-betlar.
[5] Czerniak, A. va boshq. “Turli ekologik sharoitlarda Silybum Marianumning o‘sishi va hosili.” *Journal of Agronomy*, jild 36, № 2, 2021, 101–110-betlar.
[6] Popović, Z. va boshq. “Tuproq pH darajasining Silybum Marianumning hosili va o‘sishiga ta’siri.” *Journal of Soil Science and Plant Nutrition*, jild 19, № 1, 2019, 145–155-betlar.
[7] Rakhmonova, M. va Xamdamov, J. “Qushqo‘nmas (Silybum Marianum) o‘simligini yetishtirish va dorivorlik xususiyatlarini o‘rganish.” *International Conference on Learning and Teaching*, 2022, 637–640-betlar.
[8] Tolibaev, E. “Qoraqalpog‘iston sharoitida rastaropsha (Silybum Marianum) dorivor o‘simligini yetishtirish.” *Problems and Solutions of Scientific and Innovative Research*, jild 1, № 5, 2024, 76–82-betlar.
[9] Xusanova, D. va Komilova, A. “Qushqo‘nmas (Silybum Marianum) o‘simligini o‘rganishga doir.” *Formation of Psychology and Pedagogy as Interdisciplinary Sciences*, 2022, 70–72-betlar.
[10] Halimova, S. “Silybum Marianum o‘simligini yetishtirish texnologiyasi va dorivorlik xususiyatlari.” *Academic Research in Modern Science*, 2024, 1–8-betlar.
[11] Dospexov, B.A. *Dala tajribasi metodikasi*. Moskva: Kolos, 1979.

ADIR MINTAQASI BULOQ VA CHASHMALARI GIDROBIONTLARI FAUNASI VA EKOLOGIYASI

Egamqulov A. N., Boymurodov X.T., Aliyev B.X., Abduhafizova.F.A., Saparova S.O., Mamadiyorova. Sh.D., Rajabov.Sh.I., Mamayusofova.M.U., Dusanova.X.O., Tovsharova.S.X., Xamidov.N.X.
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Samarqand

Annotatsiya. Zarafshon tog‘ tizmasi xududidagi adir mintaqasidagi buloq va chashmalari suv ekotizimlarida 6 oilaga kiruvchi turlar tarqalganligi aniqlandi. Miranko‘lsoyda 14 tur taqalganligi birinchi bor tahlil qilindi. Adir mintaqasi buloq va chashmalari suv ekotizimlarida tarqalgan 11 tur Odhneripisidium terekense, Odhneripisidium issykkulense, Odhneripisidium sogdianum, Euglesa heldreichi, Euglesa turanica, Bucharamnicola bucharica, Lymnaea stagnalis, Lymnaea oblonga, Lymnaea auricularia, Planorbis planorbis va Planorbis tangitarensis lar biatoplarda keng tarqalgan evribiont turlar ekanligi aniqlandi.

Kalit so‘zlar. *Odhneripisidium terekense, Odhneripisidium issykkulense, Odhneripisidium sogdianum, Euglesa heldreichi.*

ФАУНА И ЭКОЛОГИЯ ГИДРОБИОНТОВ РОДНИКОВ И ИСТОЧНИКОВ АДИРА

Аннотатsiя: Установлено, что в водных экосистемах родников и ключей адырной зоны Зарафшанского хребта распространены виды, относящиеся к 6

семействам. Впервые было проанализировано, что в Миранкоулсое обнаружено 14 видов. В России широко распространены 11 видов Odhneripisidium terekense, Odhneripisidium issykkulense, Odhneripisidium sogdianum, Euglesa Holdreichi, Euglesa Turanica, Bucharamnicola bucharica, Lymnaea stagnalis, Lymnaea oblonga, Lymnaea aurcularia, Planorbis planorbis и Planorbis tangitarensis. биотопы. были признаны видами.

Ключевые слова. Odhneripisidium terekense, Odhneripisidium issykkulense, Odhneripisidium sogdianum, Euglesa Holdreichi.

FAUNA AND ECOLOGY OF HYDROBIOTICS OF SPRINGS AND FOOTSTEPS OF THE ADIR REGION

Abstract It was found that species belonging to 6 families are distributed in the aquatic ecosystems of springs and springs in the Adir region of the Zarafshan mountain range. The occurrence of 14 species in Mirankulsoy was analyzed for the first time. It was found that 11 species distributed in the aquatic ecosystems of springs and springs of the Adir region: Odhneripisidium terekense, Odhneripisidium issykkulense, Odhneripisidium sogdianum, Euglesa heldreichi, Euglesa turanica, Bucharamnicola bucharica, Lymnaea stagnalis, Lymnaea oblonga, Lymnaea auricularia, Planorbis planorbis and Planorbis tangitarensis are eurybiont species widely distributed in biotopes.

Keywords. Odhneripisidium terekense, Odhneripisidium issykkulense, Odhneripisidium sogdianum, Euglesa heldreichi.

Kirish. Jahondagi malakalogik tadqiqotlar tabiiy va sun’iy suv havzalarining biologik xilma-xilligini aniqlash, antropogen ta’sir kuchli bo‘lgan hududlarda mollyuskalarning transformatsiya darajasini baholash va ulardan foydalanishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Biologik ob’yektlardan oqilona foydalanish qachonki undan foydalanuvchida (inson) ularga ta’sir etuvchi omillarni aytib bera olish imkoniyati yaratilgandagina muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Bugungi kunda populyasiya – biologik resurslardan foydalanish birligining asosi sifatida qaraladi. Bu o‘rinda, biotizimlarni boshqarishning asosiy quroli sifati populyasion-biologik tahlillar hamda ular asosida olingan demografik tendensiyalarni hujjatlashtirishga qaraladi. Bu o‘rganilayotgan turning holatini va o‘ziga xos moslashish strategiyasini baholash uchun kalit hisoblanadi va tur arealining keskin qisqarayotganligi yoki turg‘unligi yoki bo‘lmasa kengayotganligi to‘g‘risida ma’lumotlarni taqdim etadi.

Chuchuk suv havzalari gidrobiontlari organizmlarning asosiy tarkibiy qismi sanaladi. Ularning populyasiyasi yuqori ekologik plastiklikka ega bo‘lib, shuning hisobiga ular hatto turli antropogen darajadagi doimiy gidrotoplarda keng diapazonda tarqalish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Oxirigi 10 yillik ichida antropopressiya ko‘p jihatdan mollyuska populyasiyalari guruhlari tuzilishini belgilab bermoqda. Bugungi kunda quruqlikda chuchuk suv resurslarining qisqarishi, ifloslanishi tezlik bilan chuchuk suv havzalaridagi gidrobiontlarning populyasiyalari to‘g‘risida ma’lumotlar olishni talab etmoqda.

- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Gidrobiontlarni o‘rganish bo‘yicha xorijiy olimlardan James H.Thorp, (2011), Alanp Covich (1991),

D.C.Aldridge (1999), P.Bouchet (2017), Huber Markus (2010), A.F.Bogan (2010), Annabelle Cuttelod et al. (2011)lar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan [1,2,3]. Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan V.V.Bogatov, Ya.I.Starobogatov (2004), V.V.Bogatov (2014), N.I.Andreyev, G.P.Alyoxina va boshqalar (2007), V.F.Panov et. al. (2009), M.O.Son (2009), L.N.Yanovich (2013) ilmiy izlanishlar o‘tkazilgan[4,5,6]. Markaziy Osiyo suv omborlari fauna va florasini o‘rganishga N.A.Stepanova, (1951, 1961); A.M.Muhammadiyev (1967); Z.I.Izzatullayev (2016, 2018, 2021); I.M.Mirabdullayev (2014, 2019, 2021); A. Kuzmetov (2017,2024) ; X.T. Boymurodov (2004, 2017, 2024); A.N.Egamqulov (2020,2024) ; B.N. Otaqulov (2021,2024) o‘rganishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Biz o‘z tadqiqotlarimizni 2016-2024 yillarda Zarafshon tog‘ tizmasi xududidagi adir mintaqasidagi Miranko‘lsoy buloq va chashmalarida olib bordik. Buloq va chashmalardan 80 dan ortiq namunalar terildi, unda gidrabiontlarning 178 dan ortiq donalari uchradi. Ushbu gidrabiontlar gidrabiologiya va zoologik tadqiqotlarda foydalanadigan uslublari bilan o‘rganildi.

Tahlil va natijalar Miranqulsoy buloq va chashmalari. Bu soy qadimiy soylardan biri bo‘lib gidrofaunasi boshqa soylarnikiga qaraganda turlar soni ko‘pligi bilan farqlanadi. Mironqulsoyning suv yig‘adigan maydoni 24,2 km2., o‘rtacha uzunligi 19,1 km., yillik o‘rtacha suv sarfi 0,22 sek/kub tashkil etadi. Soyda doimiy suv mavjud bo‘lgan 7 ta buloq va chashmalarda tadqiqotlar olib borildi. Soy suvdan aholi ichimlik suv sifatida va yerlarni sug‘orishda foydalanilmoqda, suv ekotizimlari antropogen omillar ta’sirida yildan-yilga ifloslanishi kuzatilmoqda. Mirankulsoyda Pisididae, Euglesidae, Belgrandiellidae, Lymnaeidae, Physidae va Planorbidae oilalariga kiruvchi 14 ta turga mansub gidrabiontlar tarqalgan .

Soyning buloq va chashmalarida Pisididae oilasi turlarining biatoplarda tarqalishi taxlil qilinganda, ular quydagicha ekanligini aniqladik Odhneripisidium terekense 1,9, Odhneripisidium polutimeticum 2,4, Odhneripisidium behningi 1,6 tadan tarqalganligi o‘rganildi. Lekin soy biatoplarida Odhneripisidium issykkulense va Odhneripisidium sogdianum turlari uchramadi sababi suv satxining o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Buloqlarning o‘rta oqimi suvlarida Euglesa hissarica 0,9 tadan tarqalgan bo‘lib boshqa turlarga qaraganda zichligining kichikligi bilan farqlanadi. Soy suv ekotizimlarida Euglesa turkestanica, Euglesa obliquata, Euglesa heldreichi va Euglesa turanica turlari uchramadi.

Soy suvining sekin oqar qismlarida Belgrandiellidae oilasidan Martensamnicola brevicula 1,1, Martensamnicola hissarica 2,3 va Bucharamnicola bucharica 2,6 tadan tarqalgan biatoplar ko‘plab uchradi. Lymnaeidae oilasidan Lymnaea stagnalis, Lymnaea thiessea va Lymnaea oblonga turlari tarqalgan bo‘lib ularning zichligi haqidagi ma’lumotlar 1 - jadvalda keltirilgan. Mirankulsoy buloы va chashmalari biatoplarida Lymnaea subangulata., Lymnaea auricularia va Lymnaea bactriana turlari uchramadi sababi suv temperaturasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Soy suvlarida boshqa oila turlariga qaraganda Lymnaeidae oilasi turlari zichligining kattaligi va biatoplarda keng tarqalganligi bilan boshqa oila turlaridan ajralib turadi. Soy suvida Costatella acuta 1,4, Planorbis planorbis 1,7, Planorbis

tangitarensis 1,9, Anisus ladacensis 1,6 tadan tarqalgan bo‘lib ularning tarqalishiga suv satxining o‘zgarib turishi o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Mirankulsoyda tarqalgan mollyuskalarning ekologik guruhlari o‘rganildi: Krenofillarning 5 turi (Odhneripisidium terekense, Odhneripisidium polutimeticum, Odhneripisidium behningi, Martensamnicola brevicula va Martensamnicola hissarica), pelolimnofillarning 1 turi (Euglesa hissarica), peloreofillarning 2 turi (Bucharamnicola bucharica va Lymnaea stagnalis), telmatofillarning 1 turi (Lymnaea thiessea), fitofillarning 5 turi (Lymnaea oblonga, Costatella acuta, Planorbis planorbis, Planorbis tangitarensis va Anisus ladacensis) tarqalganligi taxlil qilindi.

Ekologik guruhlari foizlarda hisoblanganda ko‘ydagicha ekanligi o‘rganildi: krenofillar 36 %, pelolimnofillar 7 %, peloreofillar 14 %, telmotofillar 7 %, fitofillar 36 % ni toshkil etdi.Ikkipallali mollyuskalarning saprobligi asosida chuchuk suv havzalarining tozalik darajasi, xavzalarning organik ifloslanish darajasini aniqlashda, havzalarning saproblik darajasini tezkor aniqlash va suvning gigiyenik sifatini baholashda foydalaniladi.

Xulosa. Zarafshon tog‘ tizmasi xududidagi adir mintaqasidagi buloq va chashmalari suv ekotizimlarida 6 oilaga kiruvchi turlar tarqalganligi aniqlandi. Miranko‘lsoyda 14 tur taqalganligi birinchi bor taxlil qilindi. Adir mintaqasi buloq va chashmalari suv ekotizimlarida tarqalgan 11 tur Odhneripisidium terekense, Odhneripisidium issykkulense, Odhneripisidium sogdianum, Euglesa heldreichi, Euglesa turanica, Bucharamnicola bucharica, Lymnaea stagnalis, Lymnaea oblonga, Lymnaea auricularia, Planorbis planorbis va Planorbis tangitarensis lar biatoplarda keng tarqalgan evribiont turlar ekanligi aniqlandi. Buloq va chashmalarda boshqa turlarga qaraganda nisbatan kam va kichchik xududlarda tarqalgan Odhneripisidium behningi, Euglesa obliquata, Lymnaea truncatula, Lymnaea thiessea, Lymnaea subangulata va Lymnaea bactriana turlar stenabiont turlar ekanligi aniqlandi. Adir mintaqasi buloq va chashmalarida barcha turlar uchrasada ular biotoplarza tarqalishi va zichligi bilan bir-biridan farq qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Старобогатов Я. И., Иззатуллаев З. И. Двустворчатые моллюски сем. Unionidae Средней азии // Бюллетень Московского общества испытателей природы. Отдел биологический. 1984. Т. 89. №5. С. 74-81.
2. Khudaynazar Yunusov1, Khusniddin Boymurodov, Azamat Egamkulov, Gofurjon Dilmurodov, and Farrukh Djalilov. Distribution of hydrobionts in aquatic ecosystems in different parts of the Akdaryo river E3S Web of Conferences 539 010 (2024) https://doi.org/10.1051/e3sconf/202453901012 539 RSE-III-2024
3. *Z.* Izzatullaev, *Kh.T.*Boymurodov, *D.A.* Olimova, Kh.Z.Izzatullaev. Bivalve mollusks (Mollusca, Bivalvia) indicators of different types of reservoir bodies and watermarks of the rivers basin of Uzbekistan. E3S Web of Conferences **555**, 02006 (2024) https://doi.org/10.1051/e3sconf/202455502006 *RIEEM 2024*
4. *Khusniddin T.* Boymurodov, *Nasiba D.* Khodjaeva, *Matnazar Sh*. Raximov, *Gappar Ya*. Bobonazarov, *Suhrob X.* Boymurodov, *Sayfulla J*. Khurazov, *Barno O*. Davronov. Effect of hydrochemical indicators of Sangzor river water on mollusk

population indicators. E3S Web of Conferences 555, 02002 (2024) https://doi.org/10.1051/e3sconf/202455502002 *RIEEM 2024*

5. Khusniddin T. Boymurodov*, Khudainazar B. Yunusov, Azamat N. Egamkulov and Umidjon R. Fayzullayev. Saprobic index of bivalve mollusks of families Unionidae and Sorbiculidae distributed in the aquatic ecosystems of Uzbekistan. E3S Web Conf. Actual Problems of Ecology and Environmental Management (APEEM 2023) **DOI** https://doi.org/10.1051/e3sconf/202340701003 E3S Web of Conferences **407**, 01003 (2023)
6. Boymurodov Kh, Suyarov S. Bivalve mollusk fauna and ecological groups of Unionidae and Corbiculidae families in natural and artificial reservoirs of Uzbekistan // Actual Problems of Ecology and Environmental Management: E3S Web of Conferences. – Vol. 265. – Moscow, 2021. – P. 1-7. (Article Number: 01014). https://doi.org/10.1051/e3sconf/202126501014
7. *R.* Masharipov, *S.* Suyarov, *N.* Khasanov, *T.* Jabbarova, *F.* Jalilov, *F.* Turikhanov, *D.* Kosimov, *I.* Tuinazarova, *F.* Shodmonov. // Influence of hydrochemical indicators on the age and density of bivalve molluscs, spread in the lower reaches of the Zarafshan river. E3S Web of Conferences 265, 01013 (2021) APEEM 2021 https://doi.org/10.1051/e3sconf/202126501013.
8. Khusniddin Boymurodov,, Nodir Khasanov. // Influence of abiotic factors on biodiversity of the populations of bivalve molluscs of the Lower Zarafshan reservoirs. E3S Web of Conferences 265, 01012 (2021) APEEM 2021 https://doi.org/10.1051/e3sconf/202126501012
9. Tozagul Zhabborova, Khusniddin Baymuradov, Iroda Tuinazarova, Bekzod Otakulov, Azamat Egamkulov. Aquatic ecosystems of the lower reaches of the Zarafshan River. Diversity and ecological groups of mollusks. E3S Web of Conferences 262, 04009 (2021) ITEEA 2021. – P. 1-4.
10. Boymurodov H, Jabborov Kh, Jabbarova T, Aliyev B., Mirzamurodov O, Egamqulov A. Changes in the habitats of the Unionidae, Euglesidae, Pisididae and sorbiculidae species with the construction of reservoirs in the kashkadarya basin due to climate change // Reliability: Theory and Applications Electronic Journal of International group on reliability journal is registered in the library of the u.s. congress special issue 4 (70)November 2022.345-348 p.

УДК. 577. 472 : 626. 80.

KATTAQURG‘ON SUV OMBORIDA UNIONIDAE, CORBICULIDAE, LYMNAEIDAE VA ASTACIDAE OILALARI GIDROBIONTLARNING TARQALISHI

Boymurodov X. T., Saboxiddinov B. S., Mirzamurodov O., Izzatullaev X.Z.,
Xo‘razov.S.J., *Mitanova D., Ibodullaeva M.,Eliboev Z., Jumanazarova X., Bektemirov A., Urozova P*

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti ***boymurodov1971@mail.ru***

Annotatsiya Suv omborida Unionidae, Corbiculidae, Lymnaeidae va Astacidae oilalariga kiruvchi 18 ta tur gidrobiontlarning turlari tarqalganligini aniqladik. Kattaqurg‘on suv omborida tarqalgan qorinoyoqli, ikkipallali mollyuskalar va qisqichbaqasimonlarning ekologik guruhlari ko‘ydagicha ekanligi o‘rganildi: Peloreofillarning 8 turi (*Sinanodonta gibba, S. ruerorum*, *S. orbicularis, Corbicula cor, C. fluminalis*, *C. purpurea*, *Corbiculina tibetensis*, *C. ferghanensis*), reofillarning 2 turi (*Solletopterum bactrianum, C cureum sogdianum*), pelolimnofillarning 1 turi (*Colletopterum ponderosum volgense*), fitofillarning 5 turi (*Lymnaea stagnalis, L. subangulata*, *Planorbis tangitarensis, Anisus ladacensis, Astacidae leptodactylus*), telmotofillar 1 turi (*Lymnaea truncatula*), fetoreofillarning 1 turi (*Lymnaea auricularia*) tarqalganligi tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar. Gidrobiontlar, suv ekotizimi, *Sinanodanta gibba, Sinanodanta ruerorum, Sinanodanta orbicularis,* suv ombori.

РАСПРЕДЕЛЕНИЕ ГИДРОБИОТИКОВ СЕМЕЙСТВ UNIONIDAE, CORBICULIDAE, LYMNAEIDAE И ASTACIDAE В КАТТАКУРГОНСКОМ ВОДОХРАНИЛИЩЕ

Аннотatsiя Установлено, что в водохранилище распространено 18 видов гидробионтов, относящихся к семействам Unionidae, Corbiculidae, Lymnaeidae и Astacidae. Изучены экологические группы брюхоногих, двустворчатых моллюсков и ракообразных, распространенных в Каттакурганском водохранилище: 8 видов пелореофиллов (Synánodonta gibba, S. ruerorum, S. orbicularis, Corbicula cor, C. fluminalis, C. purpurea, Corbiculina tibetensis, C. ferghanensis), 2 вида реофиллов (Solletopterum bactrianum, Ccurium sogdianum), 1 вид пелолимнофиллов (Colletopterum ponderosum volgense), 5 видов фитофиллов (Lymnaea stagnalis, L. subangulata, Planorbis tangitarensis, Anisus ladacensis, A. leptodactylus). Проведен анализ видов феотеофиллов (Lymnaea auricularia).

Ключевые слова. Гидробионты, водная экосистема, Synanodanta gibba, Synanodanta ruerorum, Synanodanta orbicularis, водохранилище.

DISTRIBUTION OF HYDROBIOTICS OF THE FAMILIES UNIONIDAE, CORBICULIDAE, LYMNAEIDAE AND ASTACIDAE IN THE KATTAKURGON RESERVOIR

Annotation We determined the distribution of 18 species of hydrobionts belonging to the families Unionidae, Corbiculidae, Lymnaeidae and Astacidae in the reservoir. The ecological groups of gastropods, bivalve mollusks and crustaceans distributed in the Kattakurgan reservoir were studied: 8 species of peloreophylls

(Synánodonta gibba, S. ruerorum, S. orbicularis, Corbicula cor, C. fluminalis, C. purpurea, Corbiculina tibetensis, C. ferghanensis), 2 species of rheophylls (Solletopterum bactrianum, C cureum sogdianum), 1 species of pelolimnophylls (Colletopterum ponderosum volgense), 5 species of phytophylls (Lymnaea stagnalis, L. subangulata, Planorbis tangitarensis, Anisus ladacensis, The distribution of Astacidae leptodactylus), 1 species of telmotophiles (Lymnaea truncatula), 1 species of fetorheophiles (Lymnaea auricularia) was analyzed.

Keywords. Hydrobionts, aquatic ecosystem, Synanodanta gibba, Synanodanta ruerorum, Synanodanta orbicularis, reservoir.

Kirish. Jahoda suv ekotizimlarida tarqalgan gidrobiontlarni inventarizatsiyalash, istiqbolli turlarini aniqlash va ularni ishlab chiqarishga joriy etishga aloxida e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda turli kontinentlar suv ekotizimlari gidrobiontlarining holati aniqlandi, ularning tabiiy-geografik tarqalishi va suv ekotizimlari xususiyatlariga bog'liq taqsimlanishi baholandi, kamyob va yo'qolib ketish arafasidagi turlarini saqlab qolish choralari ishlab chiqilgan. Gidrobiontlar populyatsiyalarining holati va ularning yashovchanligi to'g'ridan-to'g'ri muhit omillarining o'zgaruvchanligi hamda ta'sir darajasiga bog'liq tarzda saqlanib turadi [1,3,4,6,9]. Xozirgi kunda Kattaqurg'on suv omborida gidrobiontlarning biotoplarda tarqalishi va ekologik guruhlari o'rganish dolzarb muammolardan biri bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqot ob'ekti va uslublari. Material terishda Rijinashvili (2005); Izzatullaev, Boymurodov, (2019,2023,2024) metodlaridan foydalanildi [2,5,7,8,10]. Suv omborida gidrobiontlarni tadqiq qilish 2020 yildan boshlandi. Qattaqurg'on suv ombori xududdan 193 dona gidrobiontlar olinib tahlil qilindi. Turlarni aniqlashda Z.I.Izzatullayev, X.T.Boymurodovning (2009) "Zarafshon daryosi havzasi ikkipallali mollyuskalari sistemasi" va Z.I.Izzatullaevning (2019) «O'rta Osiyo va unga yondosh maydonlarning suv ekosistemalari mollyuskalari faunasi» deb nomlangan ishlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalar va ularning tahlili. Kattaqo'rg'on suv ombori O'zbekistonda birinchilardan bo'lib qurilgan suv ombori bo'lib Zarafshon daryosi o'rta oqimida Kattaqo'rg'on shaxri yaqinida tabiiy chuqurlikda barpo etilgan. Kattaqo'rg'on suv ombori Zarafshon vodiysidagi ekin maydonlarini suv bilan ta'minlaydi va Zarafshon (Qoradaryo) daryosi suv rejimini tartibga soladi, sel va toshqin suvlarini jamg'aradi. Suv omborining joylashish koordenatlari suv quyilish qismi N 39.84439484203395, E 66.2630081176758, O'rta qismi N 39.820139466311964, E 66.23931884765626, Suv chiqish qismi N 39.763686225639454, E 66.18713378906251. Suv omborining dengiz satxidan o'rtacha balandligi 510 m. toshkil etadi.

1940—1951 yillar davomida qurilib, foydalanishga topshirildi. 1968 yilda rekonstruksiya qilinishi natijasida Kattaqo'rg'on suv ombori sig'imi 900 mln. m^3 ga yetkazildi, shundan foydali sig'imi 840 mln. m^3. Suv yuzasi maydoni 79,5 km^2.

Uzunligi 15 km, maksimal kengligi 10 km, o‘rtacha kengligi 5,3 km, maksimal chuq. 25 m, o‘rtacha chuq. 11,3 m. Kattaqo‘rg‘on suv ombori suvi bilan Samarqand va Buxoro viloyatlaridagi 94 ming ga yer sug‘oriladi va 150 ming ga yerning suv ta’minoti yaxshilangan. Kattaqo‘rg‘on suv ombori suvi kanal bilan Qoradaryoga quyiladi. Suv omborida baliqchilik tez rivojlanmoqda.

Suv omborida Unionidae, Corbiculidae, Lymnaeidae va Astacidae oilalariga kiruvchi gidrobiontlarni taxlil qildik. Hozirgi kunda suv ombori suv ekotizimlarida 4 oilaga mansub bo‘lgan 18 ta tur gidrobiontlarning turlari tarqalganligini aniqladik (1-jadval).

Suv ombori biatoplarida ikkipallali mollyuskalarning Unionidae oilasi Sinanodonta urug‘idan 3 tur tarqalgan bo‘lib ular 1 m^2 joyda o‘rtacha *Sinanodonta gibba* 1,4, *S. ruerorum* 1,1, *S. orbicularis* 1,5 tadan tarqalganligini o‘rgandik. Suv omboriga xitoy kompleksi baliqlari – oq amur, xumbosh kabilarni iqlimlashtirish natijasida Sinanodonta urug‘i turlari tarqalgan. Bu turlar lichinkalari-gloxidiyalari baliqlarda parazitlik qiladi. Ushbu turlar asosan batqoqlashgan suv ekotizimlarida tarqalgan bo‘lib loyga yarim kumilgan holatda yashaydi.

1-jadval

Kattaqurg‘on suv omborida gidrobiontlarning biotoplarda tarqalishi va ekologik guruhlari (n= 10, m^2/dona)

	Turlar	Kattaqurg‘on	Biotoplari			Ekologik guruhlari
			Toshloq yerlar	Qumloq yerlar	Loylar	
Ikkipallali mollyuskalar (Bivalvia) sinfi Unionidae oilasi						
1	*Sinanodonta gibba*	1,4±0,2	-	-	+	Peloreofil
2	*Sinanodonta ruerorum*	1,1±0,1	-	+	-	Peloreofil
3	*Sinanodonta orbicularis*	1,5±0,3	-	-	+	Peloreofil
4	*Solletopterum bactrianum*	0,4±0,1	-	-	+	Reofil
5	*Colletopterum cureum sogdianum*	0,7±0,1	-	-	+	Reofil
6	*Colletopterum ponderosum volgense*	0,8±0,1	-	-	+	Pelolimnofil
	Corbiculidae oilasi					
7	*Corbicula cor*	0,7±0,3	-	+	-	Peloreofil
8	*Corbicula fluminalis*	1,0±0,2	-	+	-	Peloreofil
9	*Corbicula purpurea*	0,9±0,2	-	+	-	Peloreofil
10	*Corbiculina tibetensis*	1,8±0,4	+	-	-	Peloreofil
11	*Corbiculina ferghanensis*	2,2±0,5	-	+	-	Peloreofil
Qorinoyoqli mollyuskalar (Gastropoda)sinfi *Lymnaeidae* oilasi						
12	*Lymnaea stagnalis*	2,1±0,5	+	-	-	Fitofil

13	*Lymnaea truncatula*	1,3±0,2	+	-	-	Telmatofil
14	*Lymnaea subangulata*	1,1±0,1	-	-	+	Fitofil
15	*Lymnaea auricularia*	1,2±0,2	-	+	-	Fitoreofil
16	*Planorbis tangitarensis*	0,5±0,1	-	-	+	Fitofil
17	*Anisus ladacensis*	0,3±0,1	-	-	+	Fitofil
Qisqichbaqacimonlar (Srustacea) sinfi Astacidae oilasi						
18	*Astacidae leptodactylus*	0,9±0,1	-	-	+	Fitofil
	Jami turlar soni	**18**	**3**	**6**	**9**	

Solletopterum urug‘idan *Solletopterum bactrianum* 0,4*, C. cureum sogdianum* 0,7*, C. ponderosum volgense* 0,8 tadan uchraydi. Boshqa turlarga qaraganda *Solletopterum bactrianum, C. cureum sogdianum* turlari biatoplarda zichligining kamligi bilan ajralib turadi [1].

Corbiculidae oilasi Sorbicula urug‘iga kiruvchi *Corbicula cor* 0,7, *C. fluminalis* 1,0, *C. purpurea* 0,9, Corbiculina urug‘idan *Corbiculina tibetensis* 1,8, *C.ferghanensis* 2,2 tadan tarqalgan. Ushbu oila turlari suv ombori qumloq biatoplarida keng tarqalgan bo‘lib, bu turlarning bush chig‘anoqlarini ham ko‘plab uchratish mumkin. Qorinoyoqli suv mollyuskalari suv omboriga suv kuyiluvchi qismi suvlarida tarqalgan bo‘lib ular 1 m^2 joyda zichligi ko‘ydagicha bo‘lishi aniqlandi. Lymnaeidae oilasi Lymnaea urug‘idan *Lymnaea stagnalis* 2,1, *L. truncatula* 1,3, *L. subangulata* 1,1, *L. auricularia* 1,2 tadan tarqalganligi o‘rganildi. Suv ombori biatoplarida *Lymnaea thiessea, L. oblonga* va *L. bactriana* turlari uchramadi. Cuv omborlari suvlari o‘ziga xos qator kimyoviy va biologik xislatlarga ega bo‘lib, gidrobiontlarning tuzilishi va ularning hayot faoliyatini ta’miilashda katta rol o‘ynaydi. Suvning asosiy ekologik omillari va ularni organizmlarga ta’sir qilish qonunlari Suv fizikaviy va kimyoviy modsa sifatida gidrobiontlarga hayot muhiti bo‘lib, ular faoliyatiga doimiy ta’sir qilib turadi. Suv organizmlar uchun tayanch bo‘lishi bilan bir katorda, ularga oziqa va kislorod yetkazib beradi [6].

Suv ombori chap soxili biatoplarida va suv omboridan suv chiqarish kanalida Planorbidae oilasi *Planorbis* urug‘idan *Planorbis tangitarensis* 0,5 *Anisus ladacensis* 0,3 tadan uchrashini aniqladik. Suv omborida gidrobiontlarni o‘rganish davrida Qisqichbaqasimonlardan Astacidae oilasiga mansuv bo‘lgan *Astacidae leptodactylus* 0,9 tadan tarqalganligini aniqladik. Suv ombori va unga yaqin bo‘lgan suv ekotizimlarida qisqichbaqalardan *Astacidae leptodactylus* tarqalgan bo‘lib baliqchilar suv omborida baliq tutish vaqtida qisqichbaqalar ham tutilib aholi tamonidan oziq-ovqat sifatida keng miqyosida istemol qilinmoqda. Shu bioan birga suv ombori yaqinidagi baliqchilik xo‘jaliklarida *Astacidae leptodactylus*ni ko‘paytirish ishlari amalga oshirilmoqda. Aholi tamonidan ushbu maxsulotga talab yildan-yilga ortib bormoqda.

Suv ekotizimlarida tarqalgan gidrobiontlarni yashash joyiga qarab ekologik guruhlarini tahlil qilganimizda ular 6 xil ekologik guruhlarga mansubligi aniqlandi. Kattaqurg‘on suv omborida tarqalgan qorinoyoqli, ikkipallali mollyuskalar va qisqichbaqasimonlarning ekologik guruhlari ko‘ydagicha ekanligi o‘rganildi: Peloreofillarning 8 turi (*Sinanodonta gibba, S. ruerorum*, *S. orbicularis, Corbicula cor*, *C. fluminalis*, *C. purpurea*, *Corbiculina tibetensis*, *C. ferghanensis*), reofillarning 2 turi (*Solletopterum bactrianum, C cureum sogdianum*), pelolimnofillarning 1 turi (*Colletopterum ponderosum volgense*), fitofillarning 5 turi (*Lymnaea stagnalis, L. subangulata*, *Planorbis tangitarensis, Anisus ladacensis, Astacidae leptodactylus*), telmotofillar 1 turi (*Lymnaea truncatula*), fetoreofillarning 1 turi (*Lymnaea auricularia*) tarqalganligi tahlil qilindi [9].

Xulosa. Suv omborida yashash joylariga ko‘ra ekologik guruhlarga ajratilgan bo‘lib peloreofil oqar suvlar loylarida suv omboriga kirish va chiqish qismlari suvlarida yashovchi turlar boshqa turlarga nisbatan daminandlik qilishi aniqlandi. Kattaqo‘rg‘on suv ombori toshkil etilganiga uzoq vaqt bo‘lganligi, suv omborida ko‘plab baliqlar turlarining iqlimlashtirilganiligi sababli gidrobiontlar faunasining boyligi bilan Zarafshon daryosi o‘rta oqimidagi boshqa suv omborlardan farq qiladi. Suv omborida Unionidae, Corbiculidae, Lymnaeidae va Astacidae oilalariga kiruvchi 18 ta tur gidrobiontlarning turlari tarqalganligini aniqladik. Bu turlarning 3 turi toshlaq biotoplarda, 6 turi qumloq biotoplarda va 9 turi loyli biotoplarda tarqalganligi o‘rganildi.

Adabiyotlar ruyxati

1.Bouchet P. Inventorying the molluscan fauna of the world: how far to go? In: K. Jordaens, N. van, 2007. – P.180;

2.Huber Markus. Compendium of Bivalves. A Full-color Guide to 3, 300 of the Worlds Marine Bivalves. A Status on Bivalvia after 250 Years of Research. – Conch Books, 2010. P. 23;

3.Иззатулаев З.И. Водные моллюски Средней Азии – индикатори загрязнения водоемов и водотоков // Гидробиологический журнал,1992.Т.28,–№1.С.85-90;

4. Khudaynazar Yunusov1, Khusniddin Boymurodov, Azamat Egamkulov, Gofurjon Dilmurodov, and Farrukh Djalilov. Distribution of hydrobionts in aquatic ecosystems in different parts of the Akdaryo river E3S Web of Conferences 539 010 (2024) https://doi.org/10.1051/e3sconf/202453901012 539 RSE-III-2024

5. *Z.* Izzatullaev, *Kh.T.*Boymurodov, *D.A.* Olimova, Kh.Z.Izzatullaev. Bivalve mollusks (Mollusca, Bivalvia) indicators of different types of reservoir bodies and watermarks of the rivers basin of Uzbekistan. E3S Web of Conferences **555**, 02006 (2024) https://doi.org/10.1051/e3sconf/202455502006 *RIEEM 2024*

6. *Khusniddin T*. Boymurodov, *Nasiba D*. Khodjaeva, *Matnazar Sh*. Raximov, *Gappar Ya*. Bobonazarov, *Suhrob X*. Boymurodov, *Sayfulla J*. Khurazov, *Barno O*. Davronov. Effect of hydrochemical indicators of Sangzor river water on mollusk population indicators. E3S Web of Conferences 555, 02002 (2024) https://doi.org/10.1051/e3sconf/202455502002 *RIEEM 2024*

7. Khusniddin T. Boymurodov*, Khudainazar B. Yunusov, Azamat N. Egamkulov and Umidjon R. Fayzullayev. Saprobic index of bivalve mollusks of families Unionidae and Sorbiculidae distributed in the aquatic ecosystems of Uzbekistan. E3S Web Conf. Actual Problems of Ecology and Environmental Management (APEEM 2023) **DOI** https://doi.org/10.1051/e3sconf/202340701003 E3S Web of Conferences **407**, 01003 (2023)

8. Boymurodov Kh, Suyarov S. Bivalve mollusk fauna and ecological groups of Unionidae and Corbiculidae families in natural and artificial reservoirs of Uzbekistan // Actual Problems of Ecology and Environmental Management: E3S Web of Conferences. – Vol. 265. – Moscow, 2021. – P. 1-7. (Article Number: 01014). https://doi.org/10.1051/e3sconf/202126501014

9. *R.* Masharipov, *S.* Suyarov, *N.* Khasanov, *T.* Jabbarova, *F.* Jalilov, *F.* Turikhanov, *D.* Kosimov, *I.* Tuinazarova, *F.* Shodmonov. // Influence of hydrochemical indicators on the age and density of bivalve molluscs, spread in the lower reaches of the Zarafshan river. E3S Web of Conferences 265, 01013 (2021) APEEM 2021 https://doi.org/10.1051/e3sconf/202126501013.

10. Khusniddin Boymurodov,, Nodir Khasanov. // Influence of abiotic factors on biodiversity of the populations of bivalve molluscs of the Lower Zarafshan reservoirs. E3S Web of Conferences 265, 01012 (2021) APEEM 2021 https://doi.org/10.1051/e3sconf/202126501012

11.Tozagul Zhabborova, Khusniddin Baymuradov, Iroda Tuinazarova, Bekzod Otakulov, Azamat Egamkulov. Aquatic ecosystems of the lower reaches of the Zarafshan River. Diversity and ecological groups of mollusks. E3S Web of Conferences 262, 04009 2021. – P. 1-4. 2021 https://doi.org/10.1051/e3sconf/202126501013.

12. Boymurodov H, Jabborov Kh, Jabbarova T, Aliyev B., Mirzamurodov O, Egamqulov A. Changes in the habitats of the Unionidae, Euglesidae, Pisididae and sorbiculidae species with the construction of reservoirs in the kashkadarya basin due to climate change // Reliability: Theory and Applications Electronic Journal of International group on reliability journal is registered in the library of the u.s. congress special issue 4 (70)November 2022.345-348 p.

COLLEPTERUM CYREUM SOGDIANUM VA *COBICULA COR* IKKIPALLALI MOLLYUSKALARI CHIG‘ANOQLARINING O‘ZGARUVCHANLIGIGA EKOLOGIK OMILLAR TA’SIRI

Bektashev Sh.M., Boymurodov X. T., To‘ynazarova I.A., Turniyozova N. R., Turexanov F.F., Adilov S. A., Bobomurodov Z.A., Jalilov F.S., Jabborova T. X., Jiyanov T.M. Nurmurodov D.E

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti boymurodov1971@mail.ru

Jizzax politexnika institute

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Samarqand viloyati FVB “Hayot faoliyat xavfsizligi” o‘quv markazi o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Collepterum cyreum sogdianum* va *Cobicula cor* ikkipallali mollyuskalari chig‘anoqlarining o‘zgaruvchanligiga ekologik omillar ta’sirini o‘rganish dolzarb muammolardan biri bo‘lib hisoblanadi. Sirdaryoda *Colletopterum cyreum sogdianum* ning umumiy og‘irligi o‘rtacha 575 g. Qashqadaryoda o‘rtacha 553 g ekanligi aniqlandi. Mollyuska chig‘anoqlarining o‘lchamlari o‘zgaruvchanligini Sirdaryoda ChU 152 mm., ChB 77 mm., ChQ 83 mm., Qishqadaryoda esa ChU 147 mm., ChB 74 mm., ChQ 79 mm o‘zgaradi. Sirdaryoda *Corbicula cor* ning o‘rtacha og‘irligi 0,62 g, ChU 26 mm., ChB 24 mm., ChQ 18,4 mm. Qashqadaryoda *Corbicula cor* ning o‘rtacha og‘irligi 0,49 g, ChU 22 mm., ChB 20,2 mm., ChQ 14,2 mm.

Kalit so‘zlar. Sirdaryo, *Colletopterum cyreum sogdianum,* Qashqadaryo, mollyuska chig‘anoqlari, *Corbicula cor,* o‘rtacha og‘irligi.

ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ НА ИЗМЕНЧИВОСТЬ РАКОВИН ДВУХМОРСКИХ МОЛЛЮСКОВ COLLEPTERUM CYREUM SOGDIANUM И COBICULA COR

Абстрактный. Одной из актуальных проблем является изучение влияния факторов среды на изменчивость раковин двустворчатых моллюсков Collepterum cyreum sogdianum и Cobicula cor. Средний общий вес Colletopterum cyreum sogdianum в Сырдарье составляет 575 г. В Кашкадарье установлено, что средний показатель составляет 553 г. Размеры раковин моллюсков различны в Сырдарье: Д: 152 мм, Д: 77 мм, Д: 83 мм, а в Кишкадарье: Д: 147 мм, Д: 74 мм, Д: 79 мм. Средний вес Corbicula cor в Сырдарье составляет 0,62 г, LM 26 мм, LM 24 мм и LM 18,4 мм. В Кашкадарье средний вес Corbicula cor составляет 0,49 г, LM 22 мм, LM 20,2 мм и LM 14,2 мм.

Ключевые слова. Сырдарья, Colletopterum cyreum sogdianum, Кашкадарья, раковины моллюсков, Corbicula cor, средний вес.

THE INFLUENCE OF ECOLOGICAL FACTORS ON THE VARIABILITY OF THE SHELLS OF THE BIVALVE MOLLUSCS COLLEPTERUM CYREUM SOGDIANUM AND COBICULA COR

Abstract. The study of the influence of ecological factors on the variability of the shells of the bivalves Collepterum cyreum sogdianum and Cobicula cor is one of the urgent problems. In Syrdarya, the average total weight of Colletopterum cyreum sogdianum is 575 g. In Kashkadarya, it was found that the average is 553 g. The variability of the size of the mollusk shells in Syrdarya is 152 mm. L, 77 mm. W, 83 mm., and in Kishkadarya, 147 mm. L, 74 mm. W, 79 mm. The average weight

of Corbicula cor in the Syrdarya is 0.62 g, LM 26 mm., LM 24 mm., LM 18.4 mm. The average weight of Corbicula cor in the Kashkadarya is 0.49 g, LM 22 mm., LM 20.2 mm., LM 14.2 mm.

Keywords. Syrdarya, Colletopterum cyreum sogdianum, Kashkadarya, mollusk shells, Corbicula cor, average weight.

Kirish. Dunyoda biologik resurslardan foydalanishning kengayishi antropogen omillar ta'sirining ortishi, iqlim o'zgarishlari ta'siri natijasida tabiiy va sun'iy suv ekotizimlarida yuzaga kelayotgan o'zgarish jarayonlari daryolar va sun'iy suv havzalariga ta'sir etishi bilan suv ekotizimlarida tarqalgan gidrobiontlarning tur tarkibiga, tarqalish zichligiga ta'sir etishi kuzatilmoqda [1,3,5,6,9]. Daryolar, suv omborlari va baliqchilik suv ekotizimlari bioxilma-xilligini o'rganish, faunistik tarkibini o'rganish, turlar zichligini aniqlash, kamyob turlarini saqlab qolish tadbirlarini ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili. Jahonda ikki pallali mollyuskalarning tur tarkibini xorijlik olimlar A.E. Bogan, (2010, 2011), H.Markus (2010), A.E Bogan (2010), Annabelle Cuttelod et al. (2010, 2011), Danilin D.D. (2012, 2014). Mollyuskalarning xo'jalikdagi ahamiyati bo'yicha tadqiqotlar Nagel K, Badino G. (2001), Maria Haws (2002), Korniushin A.V. (2003, 2004, 2007), Moorkens E.A., Costello M.J (2005), Momir P.,Bela C.,Vladica S. (2006), N. Mamangkey et al (2009), R.N.Mamangkey, H.A.Salmon, P.C.Southgate (2009), S.Rahayu et al.(2009, 2010), V.E.Panov, et al. (2009), S. Yoshida S. Rahayu et al. (2013), Y. Sata. (2013,2014) tomonidan o'rganilgan. MDH hududida mollyuskalarini o'rganish bo'yicha V.I.Jadin (1948, 1952), Starobogatov Ya.I., Pirogov V.V. (1971), Alimov A.F. (1981), Andreyeva S.I., Vinarskiy M.V. va bosh. (2006), Alyoxina G.P. va bosh.(2007), Andreyev N.I. va bosh.N. (2008, 2009), Mejjerin S.V. va bosh.(2011), Mixaylov R. A. (2014) lar tadqiqotlar o'tkazgan [2,4,7,8,10].

Respublikamizda Unionidae va Corbisulidae oilalari ikki pallali mollyuskalar tarqalishi, zichligi to'liq o'rganilmaganligini aytish mumkin. Ikki pallali mollyuskalarning ba'zi turlari haqdagi ma'lumotlar faqatgina Z.I Izzatullaev (2010, 2019, 2021, 2022, 2024), X.T.Boymurodov (2021, 2022, 2024), A.N.Egamqulov (2021,2024), B.N.Otaqulov (2021,2025), Z.Bobomurodov (2022,2025) lar ishlarida tahlil qilingan,

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Suv tiplarida ikkipallali mollyuskalarning tarqalishi va individlar sonining ko'pligi ekosistemalarda muhim o'rin egallaydi va ularda yuz beradigan o'zgaruvchanligini o'rganish muhim hisoblanadi. Quyida ularning xususiyatlari tahlil qilindi. O'zbekiston daryolarining to'yinish rejimi, suvlari haroratining turli tumanligi, ifloslanishi hamda unda tarqalgan *Unionidae va Corbiculidae* oilalari turlari chig'anoqlarida o'zgaruvchanlikning yuzaga kelishida o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Qashqadaryoning Qarshi shahri yaqinidan oqib o'tuvchi qismida daryo suvining o'rtacha harorati oylar bo'yicha quyidagicha: aprel +12,1°C, may +17,4°C, iyun +21,4°C, iyul +23,5°C, avgust +22,4°C ekanligi ko'rsatdi. Xaroratning bunday

o‘zgarishi ularning chig‘anoqlarida qo‘ydagi o‘zgarishlar kuzatildi. Asosan, bu davrda mollyuskalar oziqlanishiga bog‘liq holda chig‘anoqlari o‘sadi.

Kuz faslidan boshlab, daryo suvi harorati quyidagicha o‘zgaradi: sentyabr +19,4°C, oktyabr +15°C, noyabr +9,4°C, dekabr +5,9°C, yanvar +5,7°C gacha pasayishi kuzatiladi. Bunday holat ikkipallali mollyuskalar chig‘anoqlarida o‘sish jarayoni sekinlashadi va ma’lum vaqt tinim holatiga o‘tadi. Sirdaryodaning Oqqo‘rg‘on tumanidan oqib o‘tuvchi qismida daryo suvining o‘rtacha harorati oylar bo‘yicha quyidagicha: aprel +11°C, may +17,6°C, iyun +22,3°C, iyul +23,4°C, avgust +21,7°C o‘zgarishi kuzatildi. Bu davrda *Collepterum cyreum sogdianum*, *Cobicula cor* oziqlanishga bog‘liq holda chig‘anoqlarida o‘sish jarayoni yuz berdi. Keyingi oylardan boshlab daryo suvi harorati quyidagicha o‘zgaradi: sentyabr +18,7°C, oktyabr +14,8°C, noyabr +10,1°C, dekabr +5,4°C, yanvar +2,1°C gacha pasayadi. Suv haroratining bunday pasayib borishi mollyuskalar chig‘anoqlarida o‘sish jarayonini sekinlashtiradi va ma’lum vaqt tinim holatiga o‘tadi. Suv haroratga bog‘liq holda mollyuskalar chig‘anog‘idagi yillik halqalarining o‘zgarishiga qarab, ularning yoshini aniqlash mumkin. Mollyuskalarning chig‘anog‘idagi o‘zgaruvchanlikni o‘rganganimizda, daryoning to‘ynish rejimi ham chig‘anoqlarning katta va kichikligiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

1- jadval

Ikkipallali mollyuskalarning tarqalishi va chig‘anoqlarining o‘zgaruvchanligi

№	Daryolar	Mollyuskalar turlari	Yoshi	O‘ lchashlar soni n	Og‘ irligi m (g) M±m	Chig‘ anoqning uzunligi (ChU) L (mm)	Chig‘ anoqning balandligi (ChB) h (mm)	Chig‘ anoqning qabariqligi (ChQ) N (mm)
1	Sirdaryo	Colletopterum cyreum sogdianum	4	10	575±12,2	152±8,2	77±13,1	83±11,3
		Corbicula cor	5	10	0,62±0,3	26,1±3,2	24±5,1	18,4±2,2
2	Qashqalaryo	Colletopterum cyreum sogdianum	4	10	553±11,8	147±12,1	74 ± 9,2	79±11,1
		Corbicula cor	5	10	0,49±0,2	22,1±2,3	20,2 ± 6	14,2±3,2

Masalan, Sirdaryo qor va muz suvlaridan to‘yinadi. Unda *Colletopterum cyreum sogdianum* ning umumiy og‘irlagi o‘rtacha 575 g bo‘lsa, qorlarning erishidan to‘yinadigan Qashqadaryoda esa 8 marta o‘lchaganda o‘rtacha 553 g

ekanligini ko‘rsatdi. Bu mollyuska chig‘anoqlarining o‘lchamlari o‘zgaruvchanligini Sirdaryoda quyidagicha ChU 152 mm., ChB 77 mm., ChQ 83 mm., Qashqadaryoda esa ChU 147 mm., ChB 74 mm., ChQ 79 mm o‘zgaradi (1-jadval).

Sirdaryoda *Corbicula cor* ning o‘rtacha og‘irligi 0,62 g, ChU 26,1 mm., ChB 24 mm., ChQ 18,4 mm. Qashqadaryoda *Corbicula cor* ning o‘rtacha og‘irligi 0,49 g, ChU 22,1 mm., ChB 20,2 mm., ChQ 14,2 mm. Sirdaryo suvi iyun - avgust oylarida ko‘payib, yillik oqim miqdorining 30-38% ni tashkil etadi. Chunki bu oylarda havo haroratining ko‘tarilishi tufayli tog‘larning baland qismidagi muz va qorlar eriydi. Daryo suvining eng kamaygan davri, aksincha qish oylariga to‘g‘ri keladi. Suvning daryoda yoz oylarida ko‘p bo‘lishi mollyuskalarning oziqlanish bosqichining uzoq davom etishiga olib keladi va boshqa suv tiplariga nisbatan chig‘anoqlarida o‘zgaruvchanligi kuzatiladi.

Qashqadaryo suvi aprel - may oylarida qorlarning erishi natijasida ko‘payadi va yillik oqimning 60 % gacha bo‘lgan qismi shu oylarda oqib o‘tadi. Aksincha, yozda daryo suvi keskin kamaya boshlaydi, bu esa, *Collepterum cyreum sogdianum, Cobicula cor* ozuqa rejimiga o‘z ta’sirini ko‘rsatib, mollyuskalarning biomassasining oshishiga olib keladi.

Corbicula cor ning boshqa suv omborlarda tarqalganligiga nisbatan chig‘anoqlarining o‘zgaruvchanligini maxsus o‘rgandik. Ularning o‘lchamlari Kattaqo‘rg‘on suv omborida quydagicha: ChU 24-28 mm., ChB 23-25 mm., ChQ 15-19,2 mm ekani aniqlandi. Tallimarjon suv omborida esa *Corbicula cor* ning chig‘anoqlarining o‘lchamlari ChU 21-24 mm., ChB 19-24 mm., ChQ 11-19 mm ga teng. Turli suv omborlarda *Corbicula cor* ning chig‘anog‘i o‘lchamlarining o‘zgaruvchanligi turlicha bo‘lib, unga suv muhitidagi ekologik omillar katta ta’sir yetadi.Tallimarjon suv ombori tog‘ oldi, adir mintaqasida joylashganligi sababli mollyuskalar chig‘anoqlari o‘lchamlari tekislikda joylashgan Kattaqurg‘on suv ombori *Corbiculina ferghanensis* chig‘anoqlari bilan solishtirganimizda, ular o‘rtasidagi o‘zgaruvchanlik kuzatildi: Kattaqurg‘on suv omborida ChB 24-33,8: ChU 22-34 : ChQ 12-12,9 mm. Tollimarjon suv omborida ChB 18-21: ChU 17-23: ChQ 9-11,5 mm ekanligi aniqlandi. Buning sababi, tekislik suv omborlarida plankton organizimlar ko‘pligiga, tog‘li va tog‘ oldi suvlarida organizimlar esa kamligidir.

Xulosa. Sirdaryoda *Colletopterum cyreum sogdianum* ning umumiy og‘irligi o‘rtacha 575 g., Qashqadaryoda o‘rtacha 553 g ekanligi aniqlandi. Mollyuska chig‘anoqlarining o‘lchamlari o‘zgaruvchanligini Sirdaryoda ChU 152 mm., ChB 77 mm., ChQ 83 mm., Qashqadaryoda esa ChU 147 mm., ChB 74 mm., ChQ 79 mm o‘zgaradi. Sirdaryoda *Corbicula cor* ning o‘rtacha og‘irligi 0,62 g, ChU 26,1 mm., ChB 24,1 mm., ChQ 18,4 mm. Qashqadaryoda *Corbicula cor* ning o‘rtacha og‘irligi 0,49 g, ChU 22,1 mm., ChB 20,2 mm., ChQ 14,2 mm.

Adabiyotlar

1. Иззатуллаев З.И., Боймуродов Х.Т. Зарафшон дарёси ҳавзаси иккипаллали моллюскалари. Монография. – Самарқанд, 2009. – Б. 95.

2. Иззатуллаев З.И. Фауна моллюсков водных экосистем Средней Азии и сопредельных территорий. Монография. Тошкент: «LESSON PRESS», 2019. – 420 с.

3.Khudaynazar Yunusov1, Khusniddin Boymurodov, Azamat Egamkulov, Gofurjon Dilmurodov, and Farrukh Djalilov. Distribution of hydrobionts in aquatic ecosystems in different parts of the Akdaryo river E3S Web of Conferences 539 010 (2024) https://doi.org/10.1051/e3sconf/202453901012 539 RSE-III-2024

4. *Z.* Izzatullaev, *Kh.T.*Boymurodov, *D.A.* Olimova, Kh.Z.Izzatullaev. Bivalve mollusks (Mollusca, Bivalvia) indicators of different types of reservoir bodies and watermarks of the rivers basin of Uzbekistan. E3S Web of Conferences **555**, 02006 (2024) https://doi.org/10.1051/e3sconf/202455502006 *RIEEM 2024*

5. *Khusniddin T.* Boymurodov, *Nasiba D*. Khodjaeva, *Matnazar Sh*. Raximov, *Gappar Ya*. Bobonazarov, *Suhrob X*. Boymurodov, *Sayfulla J*. Khurazov, *Barno O*. Davronov. Effect of hydrochemical indicators of Sangzor river water on mollusk population indicators. E3S Web of Conferences 555, 02002 (2024) https://doi.org/10.1051/e3sconf/202455502002 *RIEEM 2024*

6. Khusniddin T. Boymurodov*, Khudainazar B. Yunusov, Azamat N. Egamkulov and Umidjon R. Fayzullayev. Saprobic index of bivalve mollusks of families Unionidae and Sorbiculidae distributed in the aquatic ecosystems of Uzbekistan. E3S Web Conf. Actual Problems of Ecology and Environmental Management (APEEM 2023) **DOI** https://doi.org/10.1051/e3sconf/202340701003 E3S Web of Conferences **407**, 01003 (2023)

7. Boymurodov Kh, Suyarov S. Bivalve mollusk fauna and ecological groups of Unionidae and Corbiculidae families in natural and artificial reservoirs of Uzbekistan // Actual Problems of Ecology and Environmental Management: E3S Web of Conferences. – Vol. 265. – Moscow, 2021. – P. 1-7. (Article Number: 01014). https://doi.org/10.1051/e3sconf/202126501014

8. Khusniddin Boymurodov,, Nodir Khasanov. // Influence of abiotic factors on biodiversity of the populations of bivalve molluscs of the Lower Zarafshan reservoirs. E3S Web of Conferences 265, 01012 (2021) APEEM 2021 https://doi.org/10.1051/e3sconf/202126501012

9.Tozagul Zhabborova, Khusniddin Baymuradov, Iroda Tuinazarova, Bekzod Otakulov, Azamat Egamkulov. Aquatic ecosystems of the lower reaches of the Zarafshan River. Diversity and ecological groups of mollusks. E3S Web of Conferences 262, 04009 (2021) ITEEA 2021. – P. 1-4.

10. Boymurodov H, Jabborov Kh, Jabbarova T, Aliyev B., Mirzamurodov O, Egamqulov A. Changes in the habitats of the Unionidae, Euglesidae, Pisididae and sorbiculidae species with the construction of reservoirs in the kashkadarya basin due to climate change // Reliability: Theory and Applications Electronic Journal of International group on reliability journal is registered in the library of the u.s. congress special issue 4 (70) November 2022.345-348 p.

UDK: 591.9:594.577.

CHIMQO‘RG‘ON SUV OMBORI GIDROBIONTLARI BIOXILMA-XILLIGI.

Aliyev B.X.
baxtiyoraliyev1981@mail.ru

Annotatsiya. Qashqadaryo viloyatining Qarshi va Chiroqchi tumanlari chegarsida joylashgan Chimqo‘rg‘on suv ombori. Lymnaeidae, Physidae, Planorbidae, Cyprinidae, Corbiculidae oilalariga mansub gidrobiontlar.

Kalit so‘zlar. *Lymnaea truncatula ,Lymnaea thiessea, Lymnaea subangulata, Alburnus taeniatus, Capoeta heratensis,* reofil, fitofil, ekologik guruhlar.

Аннотация. Чимкурганское водохранилище, расположенное на границе Каршинского и Чиракчинского районов Кашкадарьинской области. Гидробионты, относящиеся к семействам Lymnaeidae, Physidae, Planorbidae, Cyprinidae, Corbiculidae.

Ключевые слова. Lymnaea truncatula, Lymnaea thiessea, Lymnaea subangulata, Alburnus taeniatus, Capoeta heratensis, реофил, фитофил, экологические группы.

Abstract. Chimkurgan reservoir, located on the border of Karshi and Chiraqchi districts of Kashkadarya region. Hydrobionts belonging to the families Lymnaeidae, Physidae, Planorbidae, Cyprinidae, Corbiculidae.

Keywords. Lymnaea truncatula ,Lymnaea thiessea, Lymnaea subangulata, Alburnus taeniatus, Capoeta heratensis, rheophile, phytophile, ecological groups.

Kirish. Bugungi kunda yer yuzida insonlarning suv manbalariga abiotik va antropogen omillar ta’siri ostida bo‘lgan gidrobiontlarning tur tarkibini aniqlash, ekologik baholash va ishlab chiqarishga joriy qilish muhim hisoblanadi. Bu yo‘nalishda kontinental sun’iy suv ekotizimlaridagi gidrobiontlar turlarini inventarizatsiya qilish, biotoplarda tarqalishini ochib berish, ularni ro‘yxatga olishning xalqaro ma’lumotlar bazasini yaratish, iqtisodiy samarador turlardan ratsional foydalanishga oid ilmiy tadqiqot ishlariga katta e’tibor qaratilmoqda. Respublikamiz daryolari va sun’iy suv havzalarida suv qorinoyoqli mollyuskalari, baliqlar, ikkipallali mollyuskalar va yuksak qisqichbaqalar turlarining yashovchanligi suv omborlarining mavsumiy gidrologik rejimi va fizik-kimyoviy xususiyatlarining gidrobiontlar tarqalishi va yashovchanligiga ahamiyati kattadir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Gidrobiontlarni o‘rganish bo‘yicha xorijiy olimlardan James H.Thorp, (2011), Alanp Covich (1991), D.C.Aldridge (1999), P.Bouchet (2017), Huber Markus (2010), A.F.Bogan (2010), Annabelle Cuttelod et al. (2011)lar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan [1,2,3]. Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan V.V.Bogatov, Ya.I.Starobogatov (2004), V.V.Bogatov (2014), N.I.Andreyev, G.P.Alyoxina va boshqalar (2007), V.F.Panov et. al. (2009), M.O.Son (2009), L.N.Yanovich (2013) ilmiy izlanishlar o‘tkazilgan[4,5,6,7]. Markaziy Osiyo suv omborlari fauna va florasini o‘rganishga N.A.Stepanova, (1951, 1961); A.M.Muhammadiyev (1967); Z.I.Izzatullayev (2016, 2018, 2021); I.M.Mirabdullayev (2014, 2019, 2021); A.

Kuzmetov (2017,2024); X.T. Boymurodov (2004, 2017, 2024) lar tomonidan o‘rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Biz o‘z tadqiqotlarimizni 2019-2024 yillarda Qashqadaryo daryosida va **uning uzanida o‘tuvchi Chimqurg‘on suv omborida** olib bordik. Qashqadaryo suv omborlarida 120 dan ortiq namunalar terildi, unda gidrabiontlarning 252 dan ortiq donalari uchradi. Ushbu gidrabiontlar gidrabiologiya va zoologik tadqiqotlarda foydalanadigan uslublari bilan o‘rganildi.

Tahlil va natijalar.Chimqo‘rg‘on suv ombori - Ushbu suv ombori Qashqadaryo viloyatining Qarshi va Chiroqchi tumanlari territoriyasida barpo etilgan. Bu suv ombori1963 yilda ishga tushirilgan. Suv ekotizimining hududi 49,2 km^2 bo‘lib, uzunligi 17,5 km, kengligi 7,1 km dan ortiq bo‘lib to‘g‘onining balandligi 33,1 m, uzunligi 7,4 km., suv sig‘imi 500 mln m^3. Zarafshon daryosidan suv olib beruvchi Eski Anhor kanalining suvlarining bir qismi Chimqo‘rg‘on suv omboriga ham quyiladi. Suv omborida baliqchilik xo‘jaligi tashkil etilgan. Hudud suv ekotizimlari gidrabiontlari faunasi tuliq o‘rganilmagan.



1-rasm. Suv omboridan gidrobiont namunalari terilgan hududlar.

Suv ekotizimida oldingi o‘rganishlar va bizning o‘rganishlarimiz natijasida Lymnaeidae, Physidae, Planorbidae, Cyprinidae, Corbiculidae oilalariga mansub 17 turga mansub gidrobiontlarning tarqalganligini o‘rgandik. Ulardan suv qorinoyoqli mollyuskalarining 7 turi, baliqlarning 4 turi, ikkipallali mollyuskalarning 5 turi, yuksak qisqichbaqasimonlarning 1 turining yashashi tahlil qilindi (1-rasm).

Suv omborining 38°94'N 66°37'E kordenatlarida suv qorinoyoqli mollyuskalari tarqalgan bo‘li ular 1 m^2 joyda o‘rtacha Lymnaeidae oilasi *Lymnaea* urug‘idan *Lymnaea truncatula* 0,9, *Lymnaea thiessea* 0,8, *Lymnaea subangulata* 0,5, *Lymnaea bactriana* 0,5, Physidae oilasi Costatella urug‘idan *Costatella acuta* 1,1, Planorbidae oilasi *Planorbis* urug‘idan *Planorbis planorbis* 0,3, *Planorbis tangitarensis* 1,1 tadan uchrashini o‘rgandik. Suv ekotizimi qirg‘oq biotoplarida baliqlar Cyprinidae oilasidan *Cyprinus carpio* 0,7, *Pseudorasbora parva* 0,2, *Alburnus taeniatus* 0,5, *Capoeta heratensis* 0,2 tadan tarqalgan. Ikkipallali mollyuskalar Corbiculidae oilasi Corbicula urug‘idan *Corbicuila cor* 0,8, *Corbicuila fluminalis* 0,7, *Corbicuila purpurea* 0,9, Corbiculina urug‘idan *Corbiculina tibetensis* 1,0, *Corbiculina ferghanensis* 1,2 tadan tarqalgan bo‘lib

bo‘lar suv ombordagi boshqa gidrobiontlarga qaraganda zichligining kattaligi bilan farq qildi.

Suv omboridagi gidrobiontlarning ekologik guruhlari telmatofil 1 tur 5,9 %, reofillarning 3 turi 17,6 % , fitofillarning 6 turi 35,3 %, pelolimnofil 1 tur 5,9 %, peloreofillarning 6 turi 35,3 % ni tashkil etdi.

Suv omboridagi gidrobiontlardan *Lymnaea subangulata, Planorbis planorbis* turlari suv ombori biotoplaridan birinchi bor biz tomonimizdan ko‘rsatilmoqda. Suv omborida Qizil kitobga kiritilgan *Corbicuila cor, Corbicuila fluminalis*, *Corbicuila purpurea* turlarining tarqalganligi o‘rganildi. Turlarning populyastiyalarda tarqalish zichligi asosida guruhlarga ajratish muhim ahamiyatga ega.

Chimqo‘rg‘on suv omborida Qashqadaryo havzasidagi boshqa suv omborlarga qaraganda gidrobiontlar turlar tarkibi boy hisoblanadi. Ularning xilma - xil bo‘lishining sabablaridan biri suv omboriga Zarafshon daryosidan boshlanuvchi Eski Anhor kanali suvining qo‘yilishi, suv bilan Zarafshon daryosi sohilida tarqalgan gidrobiontlarning ham bu suv omboriga va uning atrofidagi suv tiplarida tarqalishiga olib kelgan.

Xulosa. Chimqo‘rg‘on suv omborida Lymnaeidae, Physidae, Planorbidae, Cyprinidae, Corbiculidae, Astacidae oilalariga mansub 17 tur tarqalgan, suv qorinoyoqli mollyuskalarining 7 turi, baliqlarning 4 turi, ikkipallali mollyuskalarning 5 tur va yuksak qisqichbaqasimonlarning 1 ta turining yashashi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Баратов П. Ўрта Осиё дарёлари ва уларнинг хўжоликдаги аҳамияти. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – 91 б.

2. Martens E. v. Ueber Central Asiatische Mollusken. Mémoires de l’Académie Impériale des Sciences de St. Pétersbourg, 1882. Ser. 7, 30 (11). – P. 1- 65.

3. *Khusniddin T.* Boymurodov, *Nasiba D.* Khodjaeva, *Matnazar Sh.* Raximov, *Gappar Ya.* Bobonazarov, *Suhrob X.* Boymurodov, *Sayfulla J.* Khurazov, *Barno O.* Davronov. Effect of hydrochemical indicators of Sangzor river water on mollusk population indicators. E3S Web of Conferences 555, 02002 (2024) https://doi.org/10.1051/e3sconf/202455502002 *RIEEM 2024*

4. Khusniddin T. Boymurodov*, Khudainazar B. Yunusov, Azamat N. Egamkulov and Umidjon R. Fayzullayev. Saprobic index of bivalve mollusks of families Unionidae and Sorbiculidae distributed in the aquatic ecosystems of Uzbekistan. E3S Web Conf. Actual Problems of Ecology and Environmental Management (APEEM 2023) **DOI** https://doi.org/10.1051/e3sconf/202340701003 E3S Web of Conferences **407**, 01003 (2023)

5. Боймуродов Х.Т., Иззатуллаев З.И. Амударё сув типлари моллюскалар фаунаси // “Ўзбекистоннинг саноатлашган hудудларида барқарор тараққиёт масалалари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Навоий, 2019. 14-15 б.

6. Жадин В.И. Пресноводные моллюски бассейна Амударьи // Тр.ин-та Зоол.ин-т АН СССР. -1950-Т.9. вып.1. – С. 56-78.

7. Иззатуллаев З.И. Редкие, эндемичные видыфауны беспозвончных животных Узбекистана // Проблемы охраны и рационалного использования биологических ресурсов водоемов Узбекистана. –Ташкент, 2001.– Б. 93-95.

UDK 619:616.995:636.5

FARG‘ONA VODIYSI SHAROITIDA YASHOVCHI XONAKI O‘RDAKLAR *(ANAS PLATYRHYNCHOS DOMESTICUS* (LINNAEUS, 1758)) GELMINTOFAUNASI

ГЕЛЬМИНТОФАУНА ДОМАШНЕЙ УТКИ (*ANAS PLATYRHYNCHOS DOMESTICUS* (LINNAEUS, 1758)) В УСЛОВИЯХ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ

HELMINTH FAUNA OF DOMESTIC DUCK (ANAS PLATYRHYNCHOS DOMESTICUS (LINNAEUS, 1758)) UNDER CONDITIONS OF THE FERGANA VALLEY

Abduvaliyev Bahtiyorjon Avazbekovich – b.f.f.d. (PhD).
Zokirov Islomjon Ilxomjonovich – b.f.d., professor
bahtiyorjonabduvaliyev@gmail.com
izokirov.biol79@gmail.com

Аннотация

2021–2024 yillarda Farg‘ona vodiysida uy o‘rdaklarida 24 tur gelmint aniqlanib, *Notocotylus attenuatus* eng keng tarqalgani qayd etildi.

Аннотация

В 2021–2024 гг. в условиях Ферганской долины у домашних уток выявлено 24 вида гельминтов; наиболее распространён *Notocotylus attenuatus*.

Annotation

In 2021–2024, 24 helminth species were recorded in domestic ducks of the Fergana Valley; *Notocotylus attenuatus* showed the highest prevalence.

Калит сўзлар: gelmintofauna; xonaki o‘rdak; Farg‘ona vodiysi; *Notocotylus attenuatus*; parazitlar; cestoda; trematoda

Ключевые слова: гельминтофауна; домашняя утка; Ферганская долина; *Notocotylus attenuatus*; паразиты; цестоды; трематоды

Key words: helminth fauna; domestic duck; Fergana Valley; *Notocotylus attenuatus*; parasites; cestodes; trematodes

Kirish. O‘rdaklar o‘zining tez o‘sishi, go‘shtining mazali va yog‘siz bo‘lishi, tuxumining foydali xususiyatlari va ekologik roli bilan qishloq xo‘jaligi uchun qimmatli resurs hisoblanadi. Farg‘ona vodiysi sharoiti aholi xonadonlarida o‘rdaklarni parvarishlash uchun qulay bo‘lib, bu yerda xonaki o‘rdaklar asosan go‘sht va tuxum olish maqsadida boqiladi. Biroq, o‘rdakchilikni rivojlantirishga salbiy ta’sir etayotgan asosiy omillar qatorida ularning kasalliklari va zararkunandalari, jumladan, infeksion va gelmintlar bilan zararlanishi natijasida parazit kasalliklari kuchayib bormoqda. Shundan kelib chiqib, vodiy sharoitida parvarish qilinayotgan xonaki o‘rdaklarning gelminotofunasi tadqiq etildi [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishlari 2021-2024 yillar davomida Farg‘ona vodiysining (Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlari) tabiiy-geografik hududlarida, yilning barcha fasllarida shaxsiy va fermer xo‘jaliklarida va tanlov asosida belgilab olingan aholi xonadonlari sharoitida parvarish qilinayotgan xonaki o‘rdaklardan yig‘ildi (1-rasm). Gelmintologik materiallarni yig‘ishda akademik K.I.Skryabinning to‘liq va to‘liq bo‘lmagan gelmintologik yorib ko‘rish usullaridan foydalanildi [2.]. Shuningdek, gelmintokaprologik usullardan Fyulleborn va ketma-ket yuvish usullaridan foydalanib jami fekal namunalari koprologik tekshirildi. Tadqiqotlar davomida gelmintolarvoskopiya, miqdoriy gelmintokoprologik tekshirish, diagnostik gelmintsizlantirish usullarida ishlar olib borildi.

1-rasm.

To‘liq gelmintologik yorib ko‘rish natijasida xonaki o‘rdakdan topilib, fiksatsiya qilingan *Ascaridia galli Schrank*, 1788 gelminti (05.02.2025 Farg‘ona sh. Orginal rasm).

Olingan natijalar. Tadqiqotlarimiz davomida 212 ta namuna gelmintologik yorib ko‘rish orqali o‘rganildi. Uy o‘rdaklarining parazit faunasi xilma-xil bo‘lib, gelmintlarning 24 turi qayd etildi (1-jadval). Aniqlangan turlarning taksonomik ro‘yxat xalqaro GBIF.org bazasiga moslashtirildi [1]

1-jadval

***Anas platyrhynchos domesticus* (Linnaeus, 1758)) gelmintlarining toksonomik ro‘yxati**

№	**Turlar nomi**	Zararlash darajasi
	TIP (Phylum): PLATYHELMINTES Claus, 1887 – Yassi chuvalchanglar	
	Sinf (Class): CESTODA – Tasmasimon chuvalchanglar (Sestodalar)	
	Turkum (Order): Cyclophyllidea	
	Oila (Family): Hymenolepididae Ariola, 1899	
	Avlod (Genus): Diorchis Clerc, 1903	
1.	*Diorchis elisae* Skrjabin, 1914	++
	Avlod (Genus): *Drepanidotaenia* Raillet, 1892	
2.	*Drepanidotaenia lanceolata* (Bloch, 1782)	++
	Avlod (Genus): Fimbriaria Froelich, 1802	
3.	*Fimbriaria fasciolaris* (Pallas, 1781)	++

	Avlod (Genus): Microsomacanthus Lopez-Neyra, 1942	
4.	*Microsomacanthus arcuata* (Kowalewski, 1904)	++
5.	*Microsomacanthus microsoma* (Creplin, 1829)	++
6.	*Microsomacanthus compressa* (Linton, 1892)	++
	Sinf (Class): TREMATODA Rudolphi, 1808 – So‘rg‘ichlilar (Trematodalar)	
	Turkum (Order): Diplostomida Olson, Cribb, Tkach, Bray & Littlewood, 2003	
	Oila (Family): Bilharziellidae (Price, 1929)	
	Avlod (Genus): *Bilharziella* Looss, 1899	
7.	*Bilharziella polonica* (Kowalewsky, 1895)	+
	Avlod (Genus): *Ornithobilharzia* Odhner, 1912	
8.	*Ornithobilharzia canaliculata* (Rudolphi, 1819)	+
	Avlod (Genus): *Trichobilharzia* Skrjabin & Zakharow, 1920	
9.	*Trichobilharzia ocellata* (La Valette St.George, 1855)	+
	Avlod (Genus): Echinostoma Rudolphi, 1809	
10.	*Echinostoma paraulum* Dietz, 1909	+
11.	*Echinostoma revolutum* (Fröhlich, 1802)	++
	Avlod (Genus): Petasiger Dietz, 1909	
12.	*Petasiger skrjabini* Baschkirova, 1941	+
	Oila (Family): Notocotylidae Luhe, 1909	
	Avlod (Genus): Notocotylus Diesing, 1839	
13.	*Notocotylus attenuatus* (Rudolphi, 1809)	+++
	Oila (Family): Prosthogonimidae Luhe, 1909	
	Avlod (Genus): Prosthogonimus Luhe, 1899	
14.	*Prosthogonimus cuneatus* (Rudolphi, 1809)	++
15.	*Prosthogonimus ovatus* (Rudolphi, 1803)	+
	Tip (Phylum): NEMATODA Diesing, 1861 – To‘garak chuvalchanglar	
	Sinf (Class): CHROMADOREA Inglis, 1983	
	Turkum (Order): Rhabditida Chitwood, 1933	
	Oila (Family): Amidostomidae Travassos, 1919	
	Avlod (Genus): Amidostomum Railliet & Henry, 1909	
16.	*Amidostomum monodon* (Linstow, 1882)	++
17.	*Amidostomum anseris* (Zeder, 1800)	++
	Oila (Family): Ascaridiidae Travassos, 1919	
	Avlod (Genus): Ascaridia Dujardin, 1845	
18.	*Ascaridia galli* (Schrank, 1788)	++
	Avlod (Genus): Heterakis Dujardin, 1845	
19.	*Heterakis gallinarum* (Schrank, 1788)	+

	Oila (Family): Tetrameridae Travassos, 1914	
	Avlod (Genus): Tetrameres Creplin, 1846	
20.	*Tetrameres fissispina* (Diesing, 1861)	+
21.	*Tetrameres spinosa* (Maplestone, 1931)	+
	Oila (Family): Thelaziidae Skrjabin, 1915	
	Avlod (Genus): Oxyspirura Dsresche, 1897	
22.	*Oxyspirura schulzi* (Skrjabin, 1929)	+
	Sinf (Class): ENOPLEA Inglis, 1983 – Haqiqiy to‘gark chuvalchanglar (Nematodalar)	
	Turkum (Order): Enoplida Flipjev, 1929	
	Oila (Family): Capillaridae Railliet, 1915	
	Avlod (Genus): Baruscapillaria Moravec, 1982	
23.	Baruscapillaria anseris (Madsen, 1945)	+
	Avlod (Genus): Capillaria Zeder, 1800	
24.	*Capillaria anatis* (Schrank, 1790)	+

O‘rganilgan namunalarning barchasida gelmintlarning u yoki bu turlari topildi. Shulardan 6 turi sestodalar bo‘lib, ularning barchasi Hymenolepididae oilasi vakillaridir. Xususan, tadqiqotlar davomida *Diorchis elisae, Drepanidotaenia lanceolata, Fimbriaria fasciolaris, Microsomacanthus arcuata, M.microsoma, M.compressa* kabi turlar o‘rdaklarda o‘rtacha uchrash darajasini namoyon etib, ularni zararlashi aniqlandi.

Uy o‘rdagida trematodalar sinfining 9 turi uchrashi aniqlandi. Shulardan Bilharziellidae oilasidan 3 tur (*Bilharziella polonica, Ornithobilharzia canaliculata, Trichobilharzia ocellata*), Echinostomatidae oilasidan 3 tur (*Echinostoma paraulum, Echinostoma revolutum, Petasiger skrjabini*), Notocotylidae oilasidan 1 tur (*Notocotylus attenuatus*) va Prosthogonimidae oilasidan 2 tur *(Prosthogonimus cuneatus, Prosthogonimus ovatus)* o‘rdaklarda aniqlandi.

Uy o‘rdagida Chromadorea sinfi vakillarining 7 turi qayd etildi. Shulardan Amidostomidae oilasining 2 turi (*Amidostomum monodon, Amidostomum anseris*), Ascaridiidae oilasining 1 turi (*Ascaridia galli*), Heterakidae oilasining 1 turi (*Heterakis gallinarum*), Tetrameridae oilasining 2 turi (*Tetrameres fissispina, T. spinosa*) va Thelaziidae oilasining 1 turi (*Oxyspirura schulzi*) faunani shakllantirgan.

O‘rdaklarda nematodalarning Enoplea sinfi vakillaridan 2 tur gelmint uchrashi qayd etildi. Xususan, faunada Capillaridae oilasiga mansub *Baruscapillaria anseris* va *Capillaria anatis* turlari o‘rdaklarni zararlashi aniqlandi.

Bizning tadqiqotlarimizda uy o‘rdagini jiddiy zararlovchi va uchrash darajasi yuqori bo‘lgan tur *Notocotylus attenuatus* ekani ma’lum bo‘ldi. Qolgan turlarning uchrash darajasi o‘rta yoki quyi pog‘onani tashkil etdi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlar uy o‘rdagida gelmintlar faunasi vodiysi sharoitida boshqa parrandalarga nisbatan birmuncha boy ekanligini ko‘rsatadi. Chunki o‘rdaklar xonadonlarda tabiiy va sun’iy suv havzalarida parvarish qilish oson ekanligi hamda populyatsiyasi boshqa suv qushlariga (g‘oz va

b.) nisbatan nisbatan keng ekanligi va turli yovvoyi suv qushlari bilan aloqada bo‘lishi hisobiga ulardagi parazitlar ulushi ham yuqori bo‘lishiga olib kelgan bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. GBIF | Global Biodiversity Information Facility, 2025. (murojaat etilgan sana: 19.03.2025-yil). https://www.gbif.org/ .

2. Скрябин К.И. Метод полного и неполного гельминтологического вскрытия животных / К. И. Скрябин. М. : МГУ. – 1928. – С. 4–19.

3. Zokirov I.I., Abduvaliyev B.A. Farg‘ona tumaninining yovvoyi qushlari va uy parrandalarida ko‘p uchraydigan gelmintlar haqida // International scientific journal science and innovation. Special issue “Actual issues of agricultural development: Problems and solutions”, June 2023. 72-74 b.

THE SIGNIFICANCE OF THE ALOE VERA PLANT IN MODERN MEDICINE

Kh.Kh.Dolimov

Ferghana medical institute of public health. Ferghana. Uzbekistan.

The aloe vera plant has long been used in traditional medicine as a remedy for various ailments. Today, it is also widely utilized in modern medicine. Here is the information about the significance of aloe vera in modern medicine:

Skin Care and Wound Healing. Burns and wounds: The gel from the aloe vera plant has antiinflammatory and antiseptic properties, making it effective in treating burns, wounds, and cuts. It soothes the skin and accelerates the healing process. Acne and skin disorders: Aloe vera contains antiseptic compounds that help reduce acne by fighting bacteria and reducing inflammation.

AntiInflammatory Properties. Aloe vera contains polyphenols and other compounds that help reduce inflammation and protect the skin. This makes it suitable for treating conditions such as eczema and psoriasis.

Immune System Support. Aloe vera is known for its antioxidant properties. It contains vitamins, minerals, and other nutrients that help protect the body from free radicals and support overall health.

Digestive Health Benefits. Colon cleansing: Extracts from the aloe vera plant are known to aid in improving digestion and regulating bowel movements, providing relief from constipation. Gastric and digestive disorders: Research shows that aloe vera extracts can help reduce stomach acidity and protect the lining of the stomach, which may benefit those with gastritis or other digestive issues.

Effects on Diabetes. Certain components of aloe vera can assist in managing blood sugar levels. Studies indicate that consuming aloe vera extract may help lower blood glucose levels, although more research is needed for conclusive evidence.

Antibacterial and Antiviral Properties. Aloe vera contains antibacterial and antiviral compounds that can aid in fighting skin infections and other microbial issues.

Applications in Modern Medicine. Dermatology and cosmetics: Aloe vera is a common ingredient in many skin care products and cosmetics due to its moisturizing and soothing effects. Pharmaceuticals: Aloe vera extracts are used in some medications, especially those designed for antiinflammatory purposes and to promote wound healing. Dietary supplements: Due to its health benefits, aloe vera is included in various supplements to help detoxify the body and increase energy levels.

Research and Scientific Evidence. While many benefits of aloe vera are backed by scientific research, some aspects are still being studied. The findings so far support the wider application of aloe vera for health and therapeutic purposes.

Aloe vera has significant applications in modern medicine and is used to alleviate various health conditions. It is a natural and accessible remedy that is wellreceived for its beneficial properties.

REFERENCES

1. Al-Snafi AE. Encyclopedia of the constituents and pharmacological effects of Iraqi medicinal plants. Thi qar University, 2013.
2. Ling KH, Kian CT and Hoon TC. A duide to medicinal plants .An illustrated , scientific and medicinal approach. World Scientific Publishing Co Pte Ltd, 2009, 8. Vol 6 | Issue 1| 2015 | 28-33. 31
3. The Indian pharmaceutical codex. Indigenous drugs. New Delhi, Council of Scientific & Industrial Research, I, 1953.
4. The United States pharmacopeia XXIII. Rockville, MD, US Pharmacopeial Convention 1996.
5. African pharmacopoeia. 1 st ed. Lagos, Organization of African Unity, Scientific, Technical and Research Commission, 1, 1985.
6. The Japanese pharmacopoeia XIII. Tokyo, The Society of Japanese Pharmacopoeia, 1996.
7. Henry R. An updated review of Aloe vera. Cosmetics and toiletries, 94, 1979, 42-50.
8. Green P. Aloe vera extracts in equine clinical practice. Veterinary Times, 26, 1996.

UO‘K: 582.929.4

SALVIA SUBMUTICA BOTSCH. & VVED. NING TARQALISHI VA FITOSENOLOGIYASI

SALVIA SUBMUTICA BOTSCH. & VVED. РАСПРОСТРАНЕНИЕ И ФИТОЦЕНОЛОГИЯ

SALVIA SUBMUTICA BOTSCH. & VVED. DISTRIBUTION AND PHYTOCENOLOGY

Hasanova Farida Bekzod qizi
Хасанова Фарида Бекзод кызы
Hasanova Farida Bekzod kizi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti talabasi, Samarqand shahri
Студент Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова, город Самарканд
Student Samarkand State University named after Sharov Rashidov, Samarkand city

Annotatsiya. *Salvia submutica* Botsch. et Vved. - Nurota tizmasida tarqalgan, noyob, endemik tur bo‘lib, muhofazaga muhtoj hisoblanadi. Tabiatda yakka holda, populaytsiyasi va areali keskin qisqarib bormoqda. Asosan buta - har xil o‘tlar bilan birga o‘sadi. Turning tabiiy populyatsiyalari hozirgi holatini baholash, iqlim o‘zgarishi ta’sirlarini o‘rganish va laboratoriya hamda in vitro sharoitida ko‘paytirib tirik kolleksiyalarini barpo etish orqali muhogfaza choralarini ko‘rish lozim.

Kalit so‘zlar: *Salvia submutica*, kamyob, endem tur, fitosenologiya, muhofaza qilish

Аннотация. *Salvia submutica* Botsch. et Vved. - это редкий эндемичный вид, распространенный в Нуратинском хребте и нуждающийся в охране. Встречается единичными экземплярами и небольшими популяциями, его популяция и ареал резко сокращаются. В основном растет вместе с кустарниками и различными травами. Меры по охране должны приниматься путем оценки текущего состояния естественных популяций вида, изучения последствий изменения климата и создания живых коллекций путем in vitro.

Ключевые слова: *Salvia submutica*, редкий, эндемичный вид, фитоценология, охрана

Annotation. *Salvia submutica* Botsch. et Vved. - is a rare endemic species, common in the Nurata Range, that requires protection. It is found as single specimens and small populations, its population and range are sharply declining. It mainly grows together with shrubs and various herbs. Conservation measures should be taken by assessing the current state of natural populations of the species, studying the effects of climate change and creating living collections in vitro.

Keywords: *Salvia submutica*, rare, endemic species, phytocenology, protection

Salvia L. (marmarak) turkumining yer yuzida 1000 ga yaqin turlari bo‘lib, Amerika, Sharqiy Osiyo va Janubi-G‘arbiy Osiyo va O‘rta Yer dengizi bo‘yida xilma-xil hududlarga ega. O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Qozog‘iston va Turkmanistonda turkumining 41 turi mavjud bo‘lib, shundan O‘rta Osiyo florasi uchun ulardan 24 tasi endemik turlar bo‘lib hisoblanadi.

Salvia submutica Botsch. et Vved. - to‘mtoq marmarak Lamiaceae oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik bo‘lib, asosan, Nurota tog‘ tizmasida tarqalgan,

populyatsiyasi nihoyotda qisqarib borayotgan, noyob, endemik turlardan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil Kitobi”ga kiritilgan, maqomi 2. (2019). Tog‘larning o‘rta qismida, tosh-shag‘alli yonbag‘irlarida, yakka-yakka holda yoki kichik to‘plar hosil qilib o‘sadi [1,2,3].

Tadqiqot Nurota tog‘ining shimoliy qismi hisoblanadi. Pomir-Oloy tog‘ tizimining g‘arbiy davomi hisoblanadi.

Ushbu hududning iqlimi asosan, o‘rtacha yillik havo harorati 13,5 °C, yillik o‘rtacha yog‘ingarchilik esa 210 mm dan oshadi. Tuproqlari bo‘z-qo‘ng‘ir, qumoq tuproq.



Rasm. Salvia L. turkumi va *S.submutica* ning tarqalish xaritasi (Gbif.org bo‘yicha).

Nurota tog‘i hududida *S. submutica* populayatsiyasi ancha cheklangan. S. submutica ning uchrash joylari bo‘lib Nurota tizmasining janubi-sharqida, Qushrabod va Nurota tumanlari oralig‘ida joylashgan, dengiz sathidan balandligi 1500 m balandlikda o‘sadi. O‘simliklar jamoasining umumiy qoplanganlik darajasi 40% ni tashkil etadi. O‘simlik buta - har xil o‘tli assosiasiyalarda birga o‘sadi (Jadval) [4,5].

Jadval

S.submutica bilan birga o‘sadigan o‘simliklar jamoasi

№	Виды	Hayotiy shakli	Drude bo‘yicha mo‘lligi	Fenofazasi
1	*Prunus bucharica* (Korsh.) Hand.-Mazz.	buta	cop_1	mevalash
2	*Prunus spinossisima (Bunge) Franch).*	buta	sol	mevalash
3	*Ephedra intermedia* Schrenk & CA May.	buta	sp_1	vegetatsiya
4	*Artemisia tenuisecta* Nevski	yarim buta	sp_2	vegetatsiya
5	*Lagochilus olgae* Tuyaning	yarim buta	sp_2	g‘unchalash
6	*Artemisia juncea* Kar. & Xat.	yarim buta	sp_1	vegetatsiya
7	*Ferula ovina* Boiss.	ko‘p yillik o‘t	sp_1	vegetatsiya
8	*Centaurea squarrosa* Willd.	ko‘p yillik o‘t	sp_2	g‘unchalash
9	*Thalictrum isopyroides* CA Mey.	ko‘p yillik o‘t	sp_1	g‘unchalash
10	*Poa bulbosa* L.	ko‘p yillik o‘t	sol	mevalash
11	*Phlomoides eriocalyx* (Regel) Adilov, Kamelin va Maxm.	ko‘p yillik o‘t	sol	gullash
12	*Salvia submutica* Botsch. & Vved.	ko‘p yillik o‘t	sol	gullash
13	*Acantholimon subavenaceum* Lincz.	ko‘p yillik o‘t	sp_1	g‘unchalash
14	*Astragalus leptostachys Pall.*	ko‘p yillik o‘t	sol	gullash
15	*Vulpia persica* (Boiss. & Buhse) Krecz. & Bobrov	ko‘p yillik o‘t	sp_1	
16	*Ziziphora tenuior* L.	bir yillik o‘t	sp_1	gullash
17	*Taeniatherum crinitum* (Schreb.) Nevski	bir yillik o‘t	sol	mevalash
18	*Alyssum desertorum* Stapf	bir yillik o‘t	sol	mevalash
19	*Bromus tectorum* L.	bir yillik o‘t	sol	mevalash
20	*Filago arvensis* L.	bir yillik o‘t	sol	gullash

To‘mtoq marmarak ushbu jamoada juda ham kam va tarqoq holda uchraydi. Ushbu fitosenozda marmarak bilan yigirmadan ortiq yuksak o‘simliklar bilan birga o‘sadi. Jumladan, buta, yarim buta va o‘tlardan iborat. Hudud dengiz sathidan balandligi hisobiga u yerda daraxtlar uchramadi. Ularga antropgen va iqlim omillari ta’sir ko‘rsatmoqda.

Marmarak populaytsiyasini ontogenetik strukturasini tahlil qilinganda, u yerda asosan o‘rta generativ davrdagi to‘plari ko‘p uchraydi. Chunki, ushbu o‘simlik

tez yetilishi va generativ bosqichga ancha barvaqt o‘tishi bilan xarakterlanadi. Lekin urug‘dorligi juda ham pastligi sabab, individlar soni ham cheklanib borayapdi. O‘simlikning ancha yosh to‘plari juda kam uchraydi, sababi iqlim va tuyoqli hayvonlar tomonidan yeyilishi hamda payhon qilinishi hisobiga soni cheklanib bormoqda.

Ushbu noyob endemik o‘simlikni tabiiy o‘sish sharoitida muhofaza qilish choralarini ko‘rish, ularni in vitro usulida ko‘paytirish, reintroduksiya qilish choralarini ko‘rish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Тожибаев К.Ш., Бешко Н.Ю., Кодиров У.Х., Батошов А.Р., Мирзалиева Д.У. Кадастр флоры Узбекистана: Самаркандская область. Тошкент. Фан, 2018.- 220 с.
2. Определитель растений Средней Азии. Критический конспект флоры. В I-XI т. Ташкент: Фан, 1968 – 2016.
3. O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi. I jild: O‘simliklar. T. Chinor ENK, 2019. 356 b.
4. International Plant Names Index [elektron resurs]. - URL: www.ipni.org.
5. Plants of the World Online [elektron resurs] URL. www. powo.science.kew.org.

UO‘K: 58.006

OMONQO‘TON MILLIY TABIAT BOG‘INING NOYOB MUHOFAZAGA MUHTOJ O‘SIMLIKLARI

РЕДКИЕ РАСТЕНИЯ НУЖДАЮЩИЕСЯ В ЗАЩИТЕ НАЦИОНАЛЬНОГО ПРИРОДНОГО ПАРКА АМАНКУТАН

RARE PLANTS IN NEED OF PROTECTION IN AMANKUTAN NATIONAL NATURE PARK

Hasanov Murtoza Abdivaliyevich
Islamov Buston Sultonovich
Amirullayev Azamat Gaybullayevich
PhD, dotsent, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand shahri
B.f.n., dotsent, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand shahri
Omonqo‘ton Milliy tabiat bog‘i direktori
E-mail: xasanovm77@mail.ru

Annotatsiya. Mamlakatimizda biologik hilma xillikni saqlashda Omonqo‘ton milliy tabiat bog‘ining ahamiyati katta. Ushbu hududida tarqalgan kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turlarni muhofaza qilish, ularni ko‘paytirish chora tadbirlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirda milliy bog‘da bir

necha o‘nlab noyob, soni keskin kamayib borayotgan endemik o‘simliklar muhofaza qilinmoqda. Ular ichida ayniqsa, *Iris magnifica* Vved., *Eremurus robustus* Regel, *Tulipa fosteriana* Irving, *T. ingens* T.M.Hoog., *Dianthus uzbekistanicus* Lincz kabi noyob, endem turlar ham bo‘lib, ularning areali keskin qisqarib bormoqda.

Kalit so‘zlar: bioxilmaxillik, Omonqo‘ton milliy tabiat bog‘i, noyob, endem turlar, muhofaza choralari.

Аннотация. Национальный природный парк Аманкутан играет значительную роль в сохранении биологического разнообразия нашей страны. Важно разработать меры по охране и воспроизводству редких и исчезающих видов растений, обитающих на этой территории. В настоящее время на территории национального парка охраняется десятки редких эндемичных растений, численность которых стремительно сокращается. Среди них особенно редкие, эндемичные виды, такие как *Iris magnifica* Vved., *Eremurus robustus* Regel, *Tulipa fosteriana* Irving, *T. ingens* T.M.Hoog. и *Dianthus uzbekistanicus* Lincz, и др. ареал которых резко сокращается.

Ключевые слова: биоразнообразие, национальный природный парк Аманкутан, редкие, эндемичные виды, меры охраны.

Annotation. Amonkutan National Nature Park plays a significant role in preserving the biological diversity of our country. It is important to develop measures for the protection and reproduction of rare and endangered plant species living in this area. Currently, dozens of rare endemic plants are protected in the national park, the number of which is rapidly decreasing. Among them are especially rare, endemic species such as *Iris magnifica* Vved., *Eremurus robustus* Regel, *Tulipa fosteriana* Irving, *T. ingens* T.M.Hoog. and *Dianthus uzbekistanicus* Lincz, the range of which is sharply declining.

Keywords: biodiversity, Amonkutan National Nature Park, rare, endemic species, protection measures.

Respublikamizda biologik hilma xillikni saqlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Biologik xilma xillik va turlarni saqlab qolishda eng samarali usullardan biri “muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar” maydonlarini tashkil etish hisoblanadi. Alohida muhofaza etiladigan hududlarda davlatning tegishli organlari tomonidan qonunda belgilangan tartibda tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish, rekreatsiya, tarixiy-madaniy maqsadlar uchun ajratib berilgan yer maydonlari tushuniladi.

Yurtimizda 8 ta davlat qo‘riqxonasi, 3 ta milliy bog‘, 9 ta davlat buyurmaxonasi, 7 ta tabiat yodgorligi, “Jayron” ekomarkazi, “Quyi Amudaryo” biosfera rezervati faoliyat ko‘rsatayapti. 2005 yilning dekabrida qabul qilingan “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonunda qayd etilishicha, noyob, o‘rnini to‘ldirib bo‘lmaydigan, ekologik, ilmiy, madaniy va estetik jihatdan qimmatli tabiiy ob’ektlari bor muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tabiat yodgorliklari hisoblanadi.

Ana shunday muhofaza etiladigan hududlardan yana biri Zarafshon tizmasida joylashgan Omonqo‘ton o‘rmon xo‘jaligi hududida O‘zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-martdagi 93-sonli qarori bilan “Omonqo‘ton milliy tabiat bog‘i” tashkil etildi. Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 06-fevraldagi PQ-60-sonli “Omonqo‘ton Milliy tabiat bog‘i” turistik-rekreatsion zonasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan, turistik-rekreatsion zona ishlari ham olib borilmoqda.

Omonqo‘ton milliy tabiat bog‘i hududi Kuhiston okrugining Urgut botanik-geografik rayonida joylashgan bo‘lib, maydoni 1500 gektarni tashkil etadi. Florasi xilma-xilligiga ko‘ra O‘rta Osiyoning tog‘li qismi uchun xos bo‘lgan nisbatan boy flora bo‘lib, hududda 1000 dan ziyod yuksak o‘simlik turlari va umurtqali hayvonlarning 130 dan ziyod turlari mavjud.

Omonqo‘ton milliy tabiat bog‘i florasini har tomonloma tadqiq qilishda va hududdan terilgan gerbariy namunalarining asosiy kollektorlari bo‘lib quyidagilar: A.A. Leman (ilk marta 1841 y.), E.P.Korovin, N.A.Merkulovich, O.A.Fedchenko, N.A.Mazevoy, M.Nevskiy, A.S.Borshevskiy, V.L. Komarov, V.I. Lipskiy, S.I. Korjinskiy, M.G.Popov, A.Ya.Butkov, P.A.Gomolitskiy, A.D.Pyataeva, A.Gnezdillo, S.N.Kudryashev, G.P.Sumnevich, L.K.Yelenov, R. Fayziev, X. Yelenev, V.P.Drobov, Q.Z. Zakirov, G.A.Sergeeva, G.S.Chugaeva, S.Saxabutdinov, E.I.Proskoryakov, V.P. Bochansev, A.I.Vvedenskiy, N.A.Amirxanov, M.I.Ikramov, S.M.Mustafaev, V.Romanenko, A.Karabalieva, K.Sh.Tojibaev, N.Yu.Beshko, U.Qodirov va boshqalar hisoblanadi [4].

Omonqo‘ton florasidan yig‘ilgan gerbariy namunalari hozirda halqaro milliy gerbariylar Moskva Davlat Universiteti (MW), Rossiya Fanlar Akademiyasining Komarov nomidagi Rossiya Botanika instituti (LE), Samarqand Davlat universitetining gerbariy fondlarida, katta qismi esa O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiya Botanika instituti qoshidagi O‘zbekiston Milliy gerbariy (TASH) fondida saqlanmoqda. Hudud florasi va faunasini o‘rganish 150 yillik tarixiga qaramay, mazkur hududning to‘liq va ishonchli floristik hamda faunistik ro‘yxati mavjud emas [1,2,4,5].

Omonqo‘tonda tarqalgan kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turlarni muhofaza qilinishiga, ushbu hududda tashkil etilgan Omonqo‘ton milliy tabiat bog‘i shu paytgacha flora va faunaga yetkazib kelingan vayronagarchiliklarni oldini olib, antropogen tazyiq hamda chorva molllarining boqilishiga chek qo‘ydi.

Noyob endemik o‘simliklar floralarning eng nozik va zaif qismi bo‘lib hisoblanadi. Ulardan ba’zilari, Omonqo‘ton tangao‘ti (*Hedysarum amankutanicum* B. Fedtsch.) kabi butunlay yo‘qolib ketsa, bioxilma-xillikni butunligini tuzatib bo‘lmaydigan darajaga olib keladi. Shuning uchun ham, kamyob turlarni o‘rganish, tabiiy populayatsiyani saqlab qolish muhim vazifa bo‘lib hisoblanadi. Tabiatdagi bu noyob endem o‘simliklar nafaqat bizning mamlakatimizga daxldor balki, butun insoniyatga tegishlidir. Hozirda, muhofazaga olingan o‘simliklarni umumiy holati nisbatan yaxshi bo‘lishiga qaramay, ko‘plab yovvoyi turlarning tabiiy zahiralari keskin kamayib ketmoqda (jadval). Bu o‘simliklar sonining kamayib ketishiga insonlar omonidan daromad topish maqsadida noratsional yig‘ilishi, dam oluvchilar tomonidan payxon qilinishi, chorva mollarini uzluksiz, qarovsiz boqilishi, pichan

sifatida o‘rib olinishi, dehqonchilik qilish uchun maydonlarni noqonuniy egallanib shudgorlanishi kabilar sabab bo‘lmoqda.

Jadval

Omonqo‘ton milliy tabiat bog‘ining kamyob o‘simliklari

№	Ilmiy nomi	O‘zbekcha nomi	Oilasi va hayotiy shakli	Holati
1.	*Dryopteris filix-mas* (L.) Schott.	O‘rmon qirqqulog‘i	Polypodiaceae J. Presl & c. Presl. Ko‘p yillik o‘simlik.	Juda ham kam uchraydi. Qoniqarsiz
2.	*Iris magnifica* Vved.	Antiqa gulsafsar	Iridaceae Juss. Ko‘p yillik efemeroid o‘simlik	O‘zR. QK., maqomi 2. yaxshi
3.	*Eremurus robustus* Regel	Nor shirach (xulka bola)	Asphodelaceae Juss. Ko‘p yillik o‘simlik	O‘zR. QK., maqomi 3. Qoniqarsiz
4.	*E. aitchisonii* Baker	Echison shirachi	Ko‘p yillik o‘simlik	O‘zR. QK., maqomi 3. Qoniqarsiz
5.	*E. fuscus* (O. Fedtsch.) Vved.	Jingak shingil	Ko‘p yillik o‘simlik	yaxshi
6.	*Allium suworowii* Regel	Suvorov piyozi	Alliaceae (Amaryllidaceae J. St.-Hil.). Ko‘p yillik piyozchali o‘simlik	yaxshi
7.	*Tulipa fosteriana* Irving	Foster lolasi (Omonqo‘ton lolalasi)	Lilliaceae. Ko‘p yillik efemeroid o‘simlik	O‘zR. QK., maqomi 2. Qoniqarsiz
8.	*T. ingens* T.M.Hoog.	Ulug‘vor lola	Ko‘p yillik, efemeroid o‘simlik	O‘zR. QK., maqomi 3. Qoniqarsiz
9.	*T. micheliana* Hoog	Mixel lolasi	Ko‘p yillik, efemeroid o‘simlik	O‘zR. QK., maqomi 3. Qoniqarsiz
10.	*T. turkestanica* Regel	Turkiston lolasi	Ko‘p yillik, efemeroid o‘simlik	qoniqarli
11.	*Fritillaria bucharica* Regel *(Rhinopetalum bucharicum* (Regel) Losinsk.)	Buxoro jumaguli	Ko‘p yillik o‘simlik.	qoniqarli

12.	*F. olgae* Vved.	Olga jumaguli	Ko‘p yillik o‘simlik.	Nisbatan kam uchraydi, qoniqarsiz
13.	*Crocus korolkowii* Maw & Regel	Korolkov za’faroni	Iridaceae Juss. Ko‘p yillik o‘simlik.	yaxshi
14.	*Colchicum kesselringii* Regel	Kesselring savrinjoni	Colchicaceae dc. Ko‘p yillik, efemeroid o‘simlik	O‘zR. Qizil kitobi, maqomi 3. yaxshi
15.	*Allochrusa gypsophiloides* Regel	Beh, etmak	Caryophyllaceae Juss. Ko‘p yillik o‘simlik.	O‘zR. Qizil kitobi, maqomi 3. Qoniqarsiz
16.	*Dianthus uzbekistanicus* Lincz.	O‘zbekiston chinniguli	Caryophyllaceae Juss. Ko‘p yillik endem o‘simlik	O‘zR. Qizil kitobi, maqomi 3. Qoniqarsiz
17.	*Salsola titovii* Botsch.	Titov sho‘ragi	Chenopodiaceae. Yarim buta.	O‘zR. Qizil kitobi, maqomi 3. Qoniqarsiz
18.	*Astragalus chrysomallus* Bunge	Oltin yungli astragal	Fabaceae Lindl. Ko‘p yillik o‘simlik.	qoniqarli
19.	*Hedysarum amankutanicum* B. Fedtsch.	Omonqo‘ton tangao‘ti	Fabaceae Lindl.	O‘zR. Qizil kitobi, maqomi 0.
20.	*Oxytropis litvinovii* B. Fedtsch.	Litvinov oksitropisi	Fabaceae Lindl. Ko‘p yillik o‘simlik.	yaxshi
21.	*Ferula moschata* (H. reinsch) Koso-Pol.	Sumbul kovrak	Apiaceae Lindl. Ko‘p yillik o‘simlik.	O‘zR. Qizil kitobi, maqomi 3. Qoniqarsiz
22.	*Jurinea asperifolia* Iljin	Dag‘albarg yurineya	Apiaceae Lindl. Ko‘p yillik o‘simlik.	O‘zR. Qizil kitobi, maqomi 2. Qoniqarsiz
23.	*Komarovia anisosperma* Korovin	Shashirsimon pufakbo‘g‘im	Apiaceae Lindl. Ko‘p yillik o‘simlik.	O‘zR. Qizil kitobi, maqomi 1. Qoniqarsiz
24.	*Silene popovii* Schischk.	Popov zo‘rchasi	Apiaceae Lindl. Ko‘p yillik o‘simlik	O‘zR. Qizil kitobi, maqomi 2. Qoniqarsiz
25.	*Parrya olgae* (Regel &	Olga soxta klausiyasi	Brassicaceae Burnett.	yaxshi

	Schmalh.) d.a. German & al-Shehbaz		Ikki yillik o‘simlik	

Rasm. Omonqo‘ton Taxtaqoracha dovonida antiqa gulsafsarning populyatsiyasi

Hozirda milliy bog‘da 100 yaqin noyob, soni va areali kamayib borayotgan turlar muhofaza qilinmoqda. Milliy tabiat bog‘ini yanada rivojlantirish va o‘simlik hamda hayvonot dunyosini saqlab qolish, ko‘paytirish, yo‘qolib ketayotgan turlarni reintroduksiya qilish ishlari olib borilmoqda.

Foydalanigan adabiyotlar ro‘yxati

1. Определитель растений Средней Азии. Критический конспект флоры. I-XI т. Ташкент: Фан, 1968 – 2016.
2. Тожибаев К.Ш., Бешко Н.Ю., Кодиров У.Х., Батошов А.Р., Мирзалиева Д.У. Кадастр флоры Узбекистана: Самаркандская область. Т. Фан, 2018. -220 с.
3. Флора Узбекистана. Т.1. Ташкент. 1941. 569 с.
4. Қодиров У.Ҳ. Ургут ботаник-географик райони флораси. Биол. фан.фалс. докт. диссертацияси. Тошкент, 2020. 157 б. илл
5.. O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi. I jild: O‘simliklar. T. Chinor ENK, 2019. 356 b.
6. Plants of the World Online [electron resurs] URL. www. powo.science.kew.org

O‘RIK BARGLARI MORFOLOGIYASI

[1]K.O.Saporbayev., [2]E.A. Zuftarov.

[1]Akad. M.Mirzayev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti;

[2]Ilmiy rahbar, Akademik M.Mirzaev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti q.x.f.f.d., k.i.x:

Annatatsiya. Barg vegetativ a‘zo sifatida yuksak o‘simliklar uchun xosdir. Barg vositasida o‘simliklarning tashqi muhit bilan munosabati amalga oshadi. Barg poyada joylashgan bo‘lib, uning o‘sish konusidagi merestema hujayralarining rivojlanishidan hosil bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: merestema o‘rik bargi, oddiy barg, murakkab barg,fotosintez, gazlar almashinuvi.

Морфология листьев абрикоса

[1]К.О. Сапорбаев., [2]Е.А. Зуфтаров.

[1]Докторант *научно-исследовательского института садоводства, виноградарства и виноделия им. Академика М. Мирзаева;*

[2]Научный руководитель, Научно-исследовательский институт садоводства, виноградарства и виноделия им. академика М.Мирзаева, д.б.н., к.б.н., К.И.Х.:

Аннотация: Лист как вегетативный орган типичен для высших растений. Растения общаются с внешней средой через листья. Лист располагается на стебле и образуется в результате развития клеток меристемы в его конусе нарастания.

Ключевые слова: мерестема листа абрикоса, простой лист, сложный лист, фотосинтез, газообмен.

Morphology of apricot leaves

1K.O. Saporbaev., 2EA Zuftarov.

1Acad. Doctoral student of the Research Institute of Horticulture, Viticulture and Winemaking. M. Mirzaeva;

2Scientific Supervisor, Research Institute of Horticulture, Viticulture and Winemaking. Academician M.Mirzaeva, Doctor of Philosophy, Candidate of Sciences, K.I.H.:

Keywords: merestema apricot leaf, simple leaf, complex leaf, photosynthesis, gas exchange.

Abstract. The leaf is a vegetative organ characteristic of higher plants. Through the leaf, plants communicate with the external environment. The leaf is located on the stem and is formed by the development of merestema cells in its growth cone.

Asosiy qism. Barg vegetativ a‘zo sifatida yuksak o‘simliklar uchun xosdir. Barg vositasida o‘simliklarning tashqi muhit bilan munosabati amalga oshadi. Barg poyada joylashgan bo‘lib, uning o‘sish konusidagi merestema hujayralarining

rivojlanishidan hosil bo‘ladi. Ular poyada o‘ziga xos navbat bilan joylashgan bo‘lib, uning eniga va bo‘yiga o‘sishi bargning asosini va barg yaprog‘ini hosil qiladi. Barg birinchi marotaba urug‘ embrionidan yoki kurtakdan o‘sib chiqadi. Barg pastki tomoni bilan o‘sadi. Ba‘zi o‘simliklarda masalan qirqquloqsimonlarda barg uchi bilan o‘sadi. Ko‘pchilik o‘simliklar bargi bahorda chiqib kuzda to‘kiladi. Ba‘zi o‘simliklarning bargi esa bir necha yil to‘kilmasdan turadi. Masalan: qarag‘ayning bargi 3 yil, archaning bargi 10 yil, velvichiya deb atalgan o‘simlikning bargi 100 yil to‘kilmasdan tura oladi. Barg quyidagi funksiyalarni bajaradi.[1]

1. Fotosintez
2. Gazlar almashinuvi
3. Suv bug‘latish
4. Zahira oziq moddalarni saqlash (karam, piyoz)
5. Himoya vazifasi (tikanaklar)
6. Vegetativ ko‘payishga, xizmat qiladi (yapon binafshasi, begoniya)

O‘rik barglari quyidagi qismlardan tuzilgan bo‘ladi va barg bandi, plastinkasi, yon bargcha va barg asosi. Barg asosi bilan novdaga birlashib turadi.[2]. Barg bandi barg asosi va yaprog‘ini orasida hosil bo‘ladi. Uning vazifasi bargni yorug‘likka qaratib, maxanik vazifani bajarishidir. U ayrim o‘simliklarda yaxshi rivojlangan bo‘lsa, ayrimlarida bo‘lmaydi, bunday barglar o‘troq barglar deyiladi. Bunday barglar g‘allagulli o‘simliklarda hosil bo‘lib, barg qinchasi, tilchasini hosil qilib bo‘g‘indan bo‘g‘ingacha masofada joylashadi.[3].

Yon bargchalar mayda bo‘lib, asosan 2 tadan bo‘ladi.Vazifasi kurtakni himoya qilishidir. Ayrim o‘simliklarda ular tushib ketadi. (olma, nok). [4].

Vegetatsiya davrida har bir o‘simlikda quyidagi toifadagi barglar hosil bo‘ladi.

1. Pastki yarusdagi barglarga kurtakdagi, ildizpoyadagi, piyoz boshlardagi barglar kiradi.
2. O‘rtayarusdagi barglar haqiqiy yashil barglar hisoblanadi.
3. Yuqori yarusdagi barglarga. G‘unchani va to‘p gullarni o‘rab turuvchi barglar kiradi.

Ba‘zi o‘simliklarning bargi bandsiz bo‘ladi, Masalan, ko‘knorining bargi. Ba‘zi o‘simliklarning bargi qinli. Barg bandli ham bo‘ladi. Ba‘zi o‘simliklarning bargining tagida qo‘shimcha bargi ham bo‘ladi. [5].

Agar barg plastinkasi 1 ta bo‘lsa *oddiy barg* deyiladi. Barg plastinkasi butun yoki qirqilgan bo‘lishi mumkin. Agar barg plastinkasi o‘rta tomiriga nisbatan 1/3 qismi qirqilgan bo‘lsa, bo‘lakli barg deyiladi. masalan: chinor, anjir, g‘o‘za, terak, dub barglari.[6]. Agar barg plastinkasi bundan ham chuqqurroq qirqilgan bo‘lsa, ammo o‘rta tomirigacha etmagan bo‘lsa, kesik barg deyiladi. [7]. Agar barg plastinkasi o‘rta tomirigacha qirqilgan bo‘lsa, ajralgan barg deyiladi. Masalan: pomidor, kartoshka. Barg plastinkasining cheti tekis qirrali yoki tishsimon, arrasimon yoki o‘yiqsimon bo‘lishi mumkin.[8].

Barg plastinkasi har xil shaklda: ninasimon (qarag‘ay), chiziqsimon (g‘alladoshlar), lantsetsimon (shaftoli, tol), yuraksimon (o‘rik), buyraksimon (tugmachagul), tuxumsimon (qora ituzum), o‘roqsimon (evkalipt), strelkasimon (pechakgul) va boshqa bo‘lishi mumkin.[9]

Barg plastinkasi xar xil kattalikda bo‘ladi. Masalan: Gruziyada o‘suvchi Pterium o‘simligi bargi nihoyat darajada katta bo‘ladi. Odam bemalol ko‘rpa qilib ustiga yopsa bo‘ladi.[10]

Barg poyaga xar xil ravishda o‘rnashadi. Ba‘zi o‘simliklarning bargi poyada ketma-ket o‘rnashadi. Masalan: tol, terak barglari. Barg poyada qarama-qarshi o‘rnashgan. Masalan: labsimongullilar oilasiga kiradigan o‘simliklar (yalpiz, shalfey). Ba‘zi o‘simliklarning bargi poyada halqasimon ravishda joylashgan. Sambitgul o‘simligining bargi 3 tasi bitta joydan chiqqan bo‘ladi.[11]. Bargning asosiy bandi bo‘lib, shu asosiy bandga bir nechta bargchalar o‘zlarining bandchalari bilan joylashgan bo‘lsa, *murakkab barg* deyiladi. Murakkab barglar bir necha xil bo‘ladi:

1. 3 plastinkali murakkab barg Masalan: qulupnay, bedaning bargi.
2. Toq patli murakkab barg. Masalan: na‘matak, yong‘oq, akatsiya bargi kiradi.
3. Juft patli murakkab barg Masalan: no‘xatning bargi, sariq akatsiyaning bargi.
4. Panjasimon murakkab barg Masalan: nasha, kashtanning bargi

Barg plastinkasining tomirlanishi har xil bo‘ladi. Bir pallali o‘simliklarning bargi parallel yoki yoysimon tomirlangan bo‘ladi.[12]. Moy landishining bargi yoysimon, bug‘doy, jo‘xori, arpaning bargi parallel tomirlangan bo‘ladi. Ikki pallali o‘simliklarning bargi to‘rsimon tomirlangan bo‘ladi. To‘rsimon tomirlanish 3 xil bo‘ladi:

1. PATSIMON TOMIRLANISH
2. BARMOQSIMON (Panjasimon)
3. YULDUZSIMON

Xulosa: Barglar o‘simlar hayoti uchun muhim o‘rgani bo‘lib asosiy odam hayotiy faoliyati uchun zarur kislorod ajratib beradi va undan tashqari, daraxtlarni haroratini pasaytirishda ham barg muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.A.Matkarimova, T.X.Mahkamov, M.M.axmudova, X.Ya.Azizov, G.B.Vaisova. Botanika. O‘quv qo‘llanma T: 2019 y. 115-120 b.
2. Авдеев В.И. Биологические и морфологические связи маркёров запасных белков семян у культиваров абрикоса // Журнал «Известия Оренбургского государственного аграрного университета». – Оренбург, 2013. № 2 (40). – С. 241-246.
3. Авдеев В.И. Современное состояние изученности абрикоса в

Оренбуржье // Журнал «Вестник Оренбургского государственного педагогического университета». – Оренбург, 2014. – № 2 (10). – С. 50–60.

4. Авдеев В.И., Горина В.М. Фенофазы и гипотермическаяадаптация у южных сортов абрикоса // Материалы IV Международной научно-практической конференции “Проблемы устойчивости биоресурсов:теория и практика” (24-27 июня 2013 г.). – Оренбург, 2013. – С. 3-9.

5. Авдеев В.И., Саудабаева А.Ж. Белковые маркёры гипертермоадаптации культиваров *Armeniaca Scop*. в условиях Оренбуржья (Приуралье) // Журнал «Вестник Костанайского государственного педагогического института (Республика Казахстан)». – Казахстан, 2017. – № (46). – С. 67-70.

6. Агеева Н.Г. Зимостойкость цветковых почек новых сортов абрикоса // Бюлтеннь Никитенского ботаничекого сада. – Ялта, 1985. – Вып. 57. – с. 49-53.

7. Агеева Н.Г., Горина В.М. Наследование некоторых хозяйственно-ценных признаков гибридным потомством абрикоса // Сборник научных трудов Государственного Никитенского ботанического сада «Пути совершенствования сортимента плодовых, субтропических и орехоплодных культур для промышленного садоводства юга Украины» – Ялта, 2004. – Т. 122. – С. 58-64.

8. Ахматова З. П. Продуктивность сортов абрикоса в зависимости от экологических условий среды // Научные основы устойчивости садоводства в России. – Мичуринск, 1999. – С. 327-329.

9. Ахматова З.П. Размещение абрикоса в различных экологических условиях // Природно-ресурсный и экономика потенциал горных и предгорных регионов России и принципы создания «устойчивых» агроландшафтов. – Владикавказ, 1996. – С. 145-146.

10. Ахматова З.П. Роль сортов в продуктивности абрикоса и персика в условиях КБР // Материалы Международного научно- практического конференции «Новации и эффективность производственных процессов в плодоводстве». – Краснодар: СКЗНИИСиВ, 2005. – Т. I. – С. 332-335.

11. Ахматова З.П., Карданов А.Р. Возможности устойчивой продуктивности абрикоса в различных экологических условиях Кабардино-Балкарии // Материалы Международного научно-практического конфернции

12. «Методологические аспекты создания прецизионных технологий возделывания плодовых культур и винограда». – Краснодар: СКЗНИИКиВ, 2006. – Т. 1. – С. 183-187.

SHIRINMIYA O‘SIMLIGINING BIOLOGIK VA DORIVORLIK XUSUSIYATLARI.

NamDPI, Tabiiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi,
Aliyeva Muxarramxon Xakimjonovna,
aliyevamuharram82@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada shirinmiya (Glycyrrhiza glabra) o‘simligining biologik va dorivorlik xususiyatlari, uning xalq tabobati va farmatsevtikada tutgan o‘rni, shuningdek, ekologik va iqtisodiy ahamiyati ko‘rib chiqilgan. Shirinmiyaning tarkibiy qismlari, xususan, glycyrrhizin moddasining inson salomatligiga foydasi, tadqiqot metodologiyasi asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Shirinmiya, dorivor o‘simlik, xalq tabobati, biologik faollik, farmakologiya.

БИОЛОГИЧЕСКИЕ И ЛЕЧЕБНЫЕ СВОЙСТВА РАСТЕНИЯ СОЛОДКИ.

Аннотация: В статье рассматриваются биологические и лечебные свойства растения солодки голой (Glycyrrhiza glabra), его роль в народной медицине и фармации, а также его экологическое и экономическое значение. На основе исследовательской методологии проанализирована польза компонентов солодки, в частности глицирризина, для здоровья человека.

Ключевые слова. Солодка, лекарственное растение, народная медицина, биологическая активность, фармакология.

Bugungi kunda dorivor o‘simliklarga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda, butun dunyo pandemiyasida insonlar sog‘lig‘iga alohida e’tibor berishi, salomatlik sirlaridan xabardorligi ortishi, qarigan va surunkali kasalliklarga chalingan insonlar immun tizimini faollashtirish uchun tabiiy vositalarni afzal ko‘rishi, tabiiy vositalarning mutloq zararsizligi va foydasi ushbu sohada ilmiy tadqiqotlarga investitsiyalar hajmining va xalqaro bozorlardagi dorivor o‘simliklarga bo‘lgan talabning keskin ortishiga sabab bo‘ldi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda dorivor va ziravor o‘simliklarni rivojlantirishga, xususan tabiiy boyliklardan samarali va unumli foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi “Yovvoyi holda o‘suvchi dorivori o‘simliklarni muxofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4670-son qarori sohani tubdan rivojlanishining huquqiy asoslarini yaratib berdi. Ushbu qarordagi vazifalarni amalga oshirish natijasida dorivor o‘simliklarni nafaqat tabiatda yovvoyi holda terib olish, balki madaniy holda plantatsiya usulida ko‘paytirish va qayta ishlashni tashkil etish bilan shug‘ullanuvchi fermerlar va tadbirkorlar soni ham sezilarli darajada ortib bormoqda.

Ilmiy manbalarga ko‘ra, O‘zbekistonda 1000 dan ortiq dorivor o‘simlik turlari mavjud bo‘lib, ularning 300 ga yaqini adir zonasida uchraydi .Masalan, Glycyrrhiza glabra (shirinmiya), Mentha longifolia (yovvoyi yalpiz), Alhagi pseudalhagi (yantoq) kabi o‘simliklar xalq tabobatida keng qo‘llaniladi. Ba’zi manbalarda ushbu o‘simliklarning farmakologik tarkibi, ularning asosiy faol moddalari (glitsirrizin, efir moylari, flavonoidlar) haqida ma’lumotlar keltirilgan.[1]

Chunonchi, Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 7-dekabrda shirinmiya o‘simligi xom-ashyosiga bo‘lgan ichki va tashqi bozor talablarini qondirish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasida shirinmiya xom ashyosini yetishtirishni ko‘paytirish, chora tadbirlari to‘g‘risidagi ” 453-sonli maxsus qarori qabul qilindi. Ushbu qaror

ijrosini ta'minlash maqadida “Shifobaxsh” IIChM qoshida tashkil etilgan dorivor o‘simliklarga ixtisoslashgan o‘rmon xo‘jaliklarida shirinmiya o‘simligi o‘stirilmoqda.

Shirinmiya (Glycyrrhiza glabra-L.)–dukkakdoshlar (Fabaceae) oilasiga mansub ko‘p yillik o‘t o‘simlik. Feofrast o‘z asarlarida bu o‘simlikni solodkoviy korenь,skifskaya trava, pontiyskaya trava nomi bilan atagan. Mazkur o‘simlikni rus tilida –solodka golaya, o‘zbek tilida-shirinmiya, chuchukmiya, qizilmiya, Qoraqalpog‘iston avtonom respublikasida esa bo‘yan deb atashadi.

Shirinmiya qadimdan xalq tabobatida keng qo‘llanilgan o‘simliklardan biri bo‘lib, asosan nafas yo‘llari kasalliklarida, oshqozon-ichak muammolarida va yallig‘lanishlarga qarshi tabiiy vosita sifatida ishlatiladi. U o‘zining shirin ta’mi, biologik faolligi va ko‘p qirrali dorivorlik xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Shirinmiya O‘zbekiston hududida ham keng tarqalgan va dorivor o‘simlik sifatida ahamiyatga ega.

Respublikamiz hududida shirinmiya tipik to‘qay o‘simligi hisoblanib, asosan Sirdaryo va Amudaryoning quyi qismlarida uchraydi. Shirinmiya polikarp o‘t o‘simlik, poyalari yaxshi rivojlangan bo‘lib, silindrsimon tuzilishga ega. Poya yog‘ochlangan bo‘lib balandligi 150-160sm, ba'zan uning balandligi to‘qay sharoitlarda 200sm va undan ham ortadi. Sho‘rlangan tuproq sharoitida bu ko‘rsatkichlar 50-70sm atrofida qayd etiladi. Barglari murakkab tuzilishga ega. 4-8 juft bargchalardan iborat bo‘lib, poyalarda ketma-ket joylashgan. Barg uzunligi 11-18sm, bargchalari tuxumsimon, ellipssimon, atroflari butun, tuklangan, uzunligi-5sm, kengligi-2,5sm ni tashkil etadi. Gullari oq binafsha rangli, changchilari yirik, og‘ir.

Respublikamizdan shirinmiya xom-ashyosi AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarga eksport qilinadi. Ta'kidlash joizki, bu o‘simlik tuproq sharoitiga talabchan emas. Yer ostki suvlari yaqin, qayta sho‘rlangan qishloq xo‘jaligi aylanmasidan chiqib qolgan maydonlarda yetishtirib yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish bilan bir qatorda yerlarning meliorativ holatini yaxshilash xususiyati bilan shubhasiz, ahamiyatlidir.Tibbiyotda Shirinmiyaning ildizi va ildiz poyasidan tayyorlangan dorilar bilan yallig‘lanish, allergiya, zaharlanish, belangi, bo‘g‘ma, sil, chipqon, ekzema va boshqalar kasalliklar davolanadi. Uning ildizi tarkibida gormonal faol glitsirrizin, saxaroza, fruktoza, glyukoza, oshlovchi moddalar, 30 ga yaqin flavonoidlar va boshqalar bor.

Shuningdek, oziqovqat, kimyo va kon metallurgiyasi sanoatida ham ishlatiladi. Shirinmiyaning poyasi tarkibida ko?p miqdorda oqsil, yog?, qand, vitamin C va boshqalar borligidan qimmatbaho yemxashak hisoblanadi. Undan yaxshi pichan va silos tayyorlanadi.

Hozirgi davrda shirinmiya o‘simligini kimyo - formatsevtik izlanishlarning rivojlanishi tufayli undan meditsinada foydalaniladigan yangi dorivor preparatlar tayyorlanmoqda. Shirinmiyadan oshqozon yaralarini davolashda foydalaniladi. U jigar kasalliklarida, o‘t pufagi va taloq siydik haydovchi sifatida, zaharlanishda go‘sht va qo‘ziqorindan, ilon chaqqanda zaharlanishga qarshi vosita sifatida qo‘llaniladi. Shirinmiya ildizi organizmni yoshartiruvchi jenshendan keyin ikkinchi

dori modda hisoblanadi va qariyalarga ko‘proq tavsiya qilinadi. Shirinmiya ildizi pivo ichimligini tayyorlashda, konditer mahsulotlari ishlab chiqishda, kulinariyada va boshqa texnik maqsadlarda ishlatiladi. O‘rta asrning sharq tibbiyotida shirinmiya ildizi ekstrakti bilan davolash san`ati Ibn Sino tomonidan umumlashtirilgan, uning siqib olingan sharbati va ildizi tirnoqxo‘rlikda bog‘lanadi. Uning surtmasi olovdan kuyganda bog‘lanadi, siqib olingan sharbat bilan esa yaralar yuviladi. Shirinmiyada OITS ga, rak kasalliklari va boshqalarda retroviruslarga katalitik tas`ir etuvchi, bir qator ferment sistemalariga ta`sir etuvchi birikmalar borligi aniqlangan. Shirinmiya o‘pka yo‘llarini yumshatadi va uni tozalaydi, u o‘pka va tomoqqa foydali va tovushni tiniqlashtiradi.[2].

Abu Ali ibn Sino - shirinmiya ildizi vositasida buyrak, qovuq, me’da, o‘pka kasalliklarini davolagan.

Uy sharoitida shirinmiyadan dori-darmon tayyorlash uchun 16 gr maydalangan ildizi olinib, 1 stakan suvga solinadi va 10 daqiqa davomida qaynatiladi, 1 soat davomida tindirilib qo‘yilgach suziladi. Kuniga 1 osh qoshiqdan 4-5 mahal iste’mol qilinadi. Mazkur qaynatma yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan xastaliklarga davo bo‘ladi. Yoki 40 gr chuchukmiya ildizi kukuni 80 gr turp, 300 gr asal bilan aralashtirib halim holiga keltiriladi va ikki hafta davomida iste’mol qilinadi.[3].

Xulosa qilib aytganda, Xalq tabobatida shirinmiya ildizidan tayyorlanadigan sharbat va kukunlar terlatuvchi, yengil surgi, nafas yo‘li shamollashi bilan bog‘liq bo‘lgan kasalliklarda, balg‘am ko‘chiruvchi, nafas qisishida yordam beruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Uning ildizidan tayyorlangan qaynatma siydik haydovchi, me’da hamda o‘n ikki barmoqli ichak jarohatini davolovchi xususiyatga ega. Ildizining qaynatmasi qo‘ziqorindan zaxarlanganda ichiladi. Shifokorlarning fikricha, chuchukmiya organizmni yoshartiruvchi xususiyatga ega. U bronxial astma, me’da yarasi kasalliklarni davolashda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ildizining sharbati tinchlantiruvchi hamda og‘riq qoldiruvchi xususiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ashermetov O.A., Badalov M.M. Shirinmiya yetishtirish bo‘yicha qo‘llanma. - Ò.: 1995.
2. M.Nabiyev, V.Shalnev, A. Ibrohimov. Shifobaxsh ne’matlar. Toshkent – „Mehnat“ – 1989
3. Xolmatov H.X., Ahmedov O‘. A. Farmakognoziya. T:. 1995.
4. Karimov M.M. “Dorivor o‘simliklar farmakognoziyasi”. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2015.
5. Sharipova G.Sh. “Shifobaxsh o‘simliklar: ensiklopedik ma’lumotnoma”. Toshkent: Fan, 2018.
6. Mirzaeva Z. “O‘zbekiston flora va dorivor o‘simliklari”, Toshkent, 2020.

SAMARQAND VILOYATI ISHTIXON TUMANI TUPROQ TIPLARIDA TARQALGAN QURUQLIK QORINOYOQLI MOLLYUSKALARINING

FAUNISTIK TARKIBI, AYRIM EKOLOGIK XUSUSIYATLARI VA TARQALISHI BO‘YICHA ILK MA’LUMOTLAR

Izzatullayev Z.I
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Geografiya va ekologiya fakulteti, Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi kafedrasi professori, b.f.d
E-mail: zizzat@yandex.ru
Dilmurodov G‘ofurjon Shavkat o‘g‘li
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Geografiya va ekologiya fakulteti, Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi kafedrasi Tayanch doktoranti (PhD)
E-mail: gofurjondilmurodov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur ishda Samarqand viloyati Ishtixon tumani tuproq tiplarida tarqalgan quruqlik qorinoyoqli mollyuskalar faunasi ilk bor tizimli ravishda o‘rganildi. Tadqiqot natijasida 7 tur, 6 urug‘, 6 oila va 2 turkumga mansub mollyuskalar aniqlanib, ularning ekologik va biogeografik xususiyatlari tavsiflandi. Shuningdek, ularning tuproq unumdorligiga ta’siri, ekinlarga nisbatan zararli yoki foydalilik hamda bioindikatorlik xususiyatlari baholandi. Ushbu ma’lumotlar mollyuskalar faunasining monitoringini olib borish, biologik xilma-xillikni saqlash va agroekotizimlarda ularni nazorat qilish bo‘yicha ilmiy-amaliy asos yaratadi.

Kalit so‘zlar: Samarqand viloyati Ishtixon tumani, fauna, mollyuskalar, *Gastropoda*, *Pulmonata*, bioindikator, ekologiya, tarqalishi.

ПЕРВИЧНЫЕ ДАННЫЕ О ФАУНИСТИЧЕСКОМ СОСТАВЕ, НЕКОТОРЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЯХ И РАСПРОСТРАНЕНИИ НАЗЕМНЫХ БРЮХОНОГИХ МОЛЛЮСКОВ В ТИПАХ ПОЧВ ИШТЫХАНСКОГО РАЙОНА САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

Иззатуллаев З.И.
Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова, факультет географии и экологии, кафедра экологии и безопасности жизнедеятельности, доктор биологических наук, профессор.
E-mail: zizzat@yandex.ru
Дилмуродов Гафуржон Шавкатович
Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова, факультет географии и экологии, кафедра экологии и безопасности жизнедеятельности, соискатель учёной степени (PhD).
E-mail: gofurjondilmurodov@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной работе впервые систематически изучена фауна наземных брюхоногих моллюсков, распространённых в типах почв Иштыханского района Самаркандской области. В результате исследования выявлены моллюски, относящиеся к 7 видам, 6 родам, 6 семействам и 2 отрядам, описаны их экологические и биогеографические особенности. Дана оценка их влияния на плодородие почвы, полезные и вредные свойства по отношению к

сельскохозяйственным культурам, а также их биоиндикаторная характеристика. Полученные данные служат научно-практической основой для мониторинга фауны моллюсков, сохранения биологического разнообразия и контроля их численности в агроэкосистемах.

Ключевые слова: Иштыханский район Самаркандской области, фауна, моллюски, *Gastropoda*, *Pulmonata*, биоиндикатор, экология, распространение.

PRELIMINARY DATA ON THE FAUNISTIC COMPOSITION, CERTAIN ECOLOGICAL CHARACTERISTICS, AND DISTRIBUTION OF TERRESTRIAL GASTROPOD MOLLUSKS IN SOIL TYPES OF THE ISHTIKHON DISTRICT, SAMARKAND REGION

Izzatullayev Z.I.
Sharof Rashidov Samarkand State University, Faculty of Geography and Ecology, Department of Ecology and Life Safety, Doctor of Biological Sciences, Professor.
E-mail: zizzat@yandex.ru
Dilmurodov Gofurjon Shavkatovich
Sharof Rashidov Samarkand State University, Faculty of Geography and Ecology, Department of Ecology and Life Safety, PhD Candidate.
E-mail: gofurjondilmurodov@gmail.com

ANNOTATION

This study presents the first systematic investigation of the terrestrial gastropod mollusk fauna distributed across different soil types in the Ishtikhon District of the Samarkand Region. As a result of the research, mollusks belonging to 7 species, 6 genera, 6 families, and 2 orders were identified, and their ecological and biogeographical characteristics were described. Additionally, their impact on soil fertility, their harmfulness or usefulness to crops, and their bioindicator properties were assessed. The obtained data provide a scientific and practical foundation for monitoring mollusk fauna, conserving biological diversity, and managing their populations in agroecosystems.

Key words: Ishtikhon district, Samarkand region, fauna, mollusks, *Gastropoda*, *Pulmonata*, bioindicator, ecology, distribution.

KIRISH

Ishtixon tumani - O‘zbekistonning Samarqand viloyatiga qarashli tumanlardan biri. U viloyat markazi Samarqand shahridan taxminan 40–50 km masofada joylashgan. Ishtixon tumani mo‘tadil kontinental iqlim mintaqasiga kiradi, ya’ni Yoz fasli juda issiq va quruq. Harorat ko‘pincha +35°C dan +40°C gacha ko‘tariladi. Qish fasli nisbatan salqin, ba’zan sovuq bo‘lib, eng past harorat -5°C dan -15°C gacha tushadi. Bahor va kuz yumshoq va sermahsul fasllar hisoblanadi. Bu davr dehqonchilik uchun eng maqbul vaqt. Yog‘ingarchilik asosan kuz va bahor oylariga to‘g‘ri keladi, yiliga o‘rtacha 250–300 mm atrofida. Ishtixon tumani tuproqlari serhosil va xilma-xil bo‘lib, asosan quyidagi turlarga bo‘linadi : Bo‘z tuproqlar, to‘q bo‘z tuproqlar, o‘tloqli tuproqlar, sho‘rxok va sho‘r tuproqlar, sug‘oriladigan tuproqlar.

O‘zbekiston hududida, xususan, Samarqand viloyatining Ishtixon tumani o‘zining tabiiy-iqlim sharoitlari, geologik tuzilmasi va tuproq-tabiiy zonalarining

xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ushbu omillar hayvonot dunyosining, ayniqsa, quruqlikda yashovchi umurtqasiz hayvonlar, jumladan qorinoyoqli mollyuskalar *(Gastropoda)*ning keng tarqalishiga imkon yaratadi.

Mollyuskalar ekologik tizimlarda oziqa zanjirining muhim bo‘g‘inini tashkil etadi, o‘simlik qoldiqlarini parchalab gumus hosil bo‘lishiga xizmat qiladi, tuproq muhitining fizik-kimyoviy tarkibini barqarorlashtiradi. Shu bilan birga, ularning ayrim turlari qishloq xo‘jaligi ekinlariga jiddiy zarar yetkazishi aniqlangan [2,3].

MATERIAL VA USLUBLAR

Tadqiqotlar 2025-yil fevral va aprel oylarida olib borildi. Tadqiqot davomida Ishtixon tumanining turli agrosenozlari: bog‘lar, aholi xususiy tomorqalaridagi sabzavot va beda maydonlari, suv o‘tkazgich ariqlar qirg‘og‘i o‘tloqli tuproqlar, antropogen landshaftlar bo‘z tuproqlarida olib borildi.

Quruqlik mollyuskalarini yig‘ishda И.М.Лихарев ва Э.С.Раммельмейер [5], А.А.Шилейко [9,10] uslublaridan, fiksatsiya qilishda esa И.М.Лихарев va А.Й.Виктор [6] hamda Р.Я.Братчик [1] uslubidan foydalanildi. Anatomik tuzilishini va chig‘anoqlar turlarini o‘rganishda А.Пазилов, А.Азимов [7], A.Sysoev va A.Schileyko [8], А.Т.Каримкулов [4], А.А.Шилейко, Т.С. Рымжанов [11] uslublari qo‘llanildi. Jami bo‘lib, hudud agrosenozlaridan quruqlik qorinoyoqli mollyuskalarga oid 7 namuna terilib, ular 64 nusxani tashkil etadi. *1-rasmda* materiallar terilgan hudud xaritasi keltirilgan.

1-rasm. Samarqand viloyati Ishtixon tumani quruqlik qorinoyoqli mollyuskalarining tarqalish nuqtalari.

TADQIQOT NATIJALARI VA UNING MUHOKAMASI

Ishtixon tumani tuproq tiplarida olib borilgan izlanishlar natijasida ushbu hududdan quruqlik qorinoyoqli o‘pkali mollyuskalarning tarqalganligi aniqlanib, ular 7 tur, 6 urug‘, 6 oilaga va 2 turkumga mansubdir. Quyida ularning taksanomik tarkibi keltirilgan.

Qorinoyoqlilar - *Gastropoda* sinfi
O‘pka bilan nafas oluvchilar - *Pulmonata* Cuvien, 1797 kenja sinfi
Stylommatophora A.Schmidt, 1856 yuksak turkumi
Succinida A.Schmidt, 1856 turkumi

Succinidae Beck, 1837 oilasi
Oxylominae Schileyko et Likharev, 1986 kenja oilasi
Oxyloma Westerlund, 1885 urug‘i

1. *Oxyloma elegans* (Risso, 1826)

Geophila I.R.L.Ferusac, 1812 turkumi
Limaxina Schileyko, 1979 kenja turkumi
Agrolimacidae H.Wagner, 1935 oilasi
Deroceras Rafinesque, 1820 urug‘i
Deroceras Rafinesque, 1820 kenja urug‘i

2. *Derocerus leave* (Müller, 1774)

Lytopelte Simroth, 1901 kenja urug‘i

3. *Deroceras caucasicum* (Simroth, 1901)

Parmacellidae Gray, 1860 oilasi
Candacharia Godwin – Austen, 1888 urug‘i
Candacharia Likharevi et Wiktor, 1980 kenja urug‘i

4. *Candacharia rutellum* (Hutton, 1849)

Helixina Schileyko, 1979 kenja turkumi
Gastrodontidae Tryon, 1886 oilasi
Zonitida Lehmann, 1862 urug‘i

5. *Zonitoides nitidus* (Müller, 1774)

Ariophantidae Gudwin Austen, 1888 oilasi
Ariophantidae Gudwin Austen, 1908 kenja oilasi
Macrochlamys Benson, 1832 urug‘i

6. *Macrochlamys sogdiana* (Martens, 1871)

Hygromeidae Tryon, 1866 oilasi
Xeropicta Monterosato, 1892 urug‘i
Xeropicta candaharica (L.Pfeiffer, 1846)

Jami mollyuskalar orasida shillikqurtlar: *Derocerus leave, Deroceras caucasicum, Candacharia rutellum,* chig‘anoqlilar - *Xeropicta candaharica* va *Macrochlamys sogdiana* agrosenozdagi bo‘z tuproqlarda – bog‘lar, tamorqalar o‘simliklari orasida yashaydi. Ulardan oxirgi turdan oldingilarining uchtasi sabzavot-poliz ekinlarining zararkunandalari hisoblanadi.

Xususan *Deroceras caucasicum* va *Candacharia rutellum* hamda oldingisi ko‘p zararlidir. *Xeropicta candaharica* bedazorlarda ko‘p sonli bo‘lib, unga yetarli darajada zarar keltiradi. *Macrochlamys sogdiana* esa, tomorqalar ariqlari chetida ko‘p sonlidir. Suv o‘tkazgichlar chetidagi o‘tloqli tuproqlar o‘simliklari orasida fitofillar : *Oxyloma elegans* va *Zonitoides nitidus* lar yashaydi. Birinchi tur ham

quruqlikda va ham suvda yashab, amfibiont hisoblanadi, ikkinchi tur qirg‘oq toshlari chekkasida yashashni yoqtiradi.

XULOSA

Shunday qilib, Ishtixon tumani bo‘z va o‘tloqli tuproqlarida quruqlik qorinoyoqli o‘pkali mollyuskalarning 2 turkum, 6 oila, 6 urug‘ va 7 turining tarqalganligi aniqlandi. Ular orasida shillikqurtlar sabzavot-poliz ekinlari, *Xeropicta candaharica* esa bedaning zararkunandasi hisoblanadi. Ushbu ma’lumotlar kelgusi izlanishlarimizda yana davom ettirilib, yangi ma’lumotlar bilan to‘ldiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Братчик Р.Я. Метод быстрой фиксации наземных моллюсков // Зоол. журн. ─ Москва, 1976. ─ Т. 55. ─ Вып. 7. ─ С. 1078 – 1079.
2. Иззатуллаев З.И. *Қуруқлик моллюскаларининг Самарқанд вилояти тупроқ типлари бўйича тарқалиши*. // “Қишлоқ хўжалигида экологик муаммолар” илмий-амалий конференция материаллари. Бухоро: БухДУ. 2006. Б. 184–187.
3. Иззатуллаев З.И., Турсунов И.Т., Рўзиқулова Н.А. *Зарарли шиллиққуртларга қарши кураш чора-тадбирлари бўйича тавсиялар*. Самарқанд: СамДУ. 2008. 17 б.
4. Karimqulov A.T. Shimoli–g‘arbiy Turkiston tog‘ tizmasi qorinoyoqli mollyuskalari. Monografiya. – Toshkent: Dimal, 2024. 132 b.
5. Лихарев И.М., Раммельмейр Е.С. Наземные моллюски фауны СССР. Определитель по фауне СССР. ─ М.– Л., 1952. ─ В. 43. ─ 511 с.
6. Лихарев И.М., Виктор А.Й. Слизни фауны СССР и сопредельных стран (Gastropoda Terrestria Nuda) // Фауна СССР. Моллюски. ─ Т. 3. ─ М.– Л., 1980. ─ Вып. 5. ─ № 122. ─ 437 с.
7. Пазилов А., Азимов Д.А. *Наземные моллюски (Gastropoda, Pulmonata) Узбекистана и сопредельных территорий*. Ташкент: Фан, 2003. 316 с.
8. Sysoev A.et Schileyko A. Land snails and slugs of Russia and adjacent countries. Pensuft. Sofia-Moscow. 2009. – 312 p. colar plates.fig.1-142.
9. Шилейко А.А. Наземные моллюски надсемейства Helicoidea. Фауна СССР. Моллюски. ─ Л., 1978. ─ Т. 3. ─ Вып. 6. ─ № 117. ─ 384 с.
10. Шилейко А.А. Наземные моллюски подотряда Pupillina фауны СССР (Gastropoda, Pulmonata, Geohpila) // Фауна СССР. Моллюски. ─ Л., 1984. ─ Т. 3. ─ вып. 3. ─ № 130. ─ 399 с.
11. Шилейко А.А., Рымжанов Т.С. Фауна наземных моллюсков *(Gastropoda, Pulmonata terrestria)* Казахстана и сопредельных территорий. М.-Алматы: Товарищество научных изданий КМК. 2013. 389 с., ил., 38 цв. вкл.

OLXO‘RIDA UCHRAYDIGAN ZAMBURUG‘ KASALLIKLAR

Feruzbek Farxod o‘g‘li Kuranbayev

Akademik Mahmud Mirzayev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada olxo‘ri o‘simligida uchraydigan kasalliklarning bioekologiyasi, tur tarkibi, tarqalishi va zarar keltirish darajasi hamda ularga qarshi kuarsh choralari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: olxo‘ri, kasallik, fungitsid, patogen,

Kirish. Ranodoshlar oilasiga mansub olxo‘ri o‘simligi qadimdan yetishtirib kelinyotgan mevali daraxtlardan biri hisoblanadi**.** Ushbu oilaga mansub ekinlar orasida olxo‘ri mevalari shifobaxshligi bilan ajralib turadi. Olxo‘ri mevalari biokimyoviy tarkibiy qisimlarninig qimmatli biologik faol moddalarga ega bo‘lishi hamda yuqori ta’m sifatlarini o‘zida mujjasamlashtirilganlig bilan oziq-ovqat ratsionida alohida o‘ri egallagan.

Oziq-ovqat ratsionida juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan, har-xil foydali vitaminlarga boy hisoblanadi. Ayniqsa do‘lana yurak qon- tomir, oshqozon-ichak Kasalliklariga tavsiya qilinadi. Ilmiy tibbiyotda keng qo‘llaniladi.

Olxo‘ri o‘simligi tashqi muhitning har xil aboitik boitik tasirlariga, qurg‘oqchillika, va sovuqqa chidamli o‘simlik hisoblanadi. Bugungi kunga kelib olxo‘ri o‘simligida turli patogen ta’sirida o‘simlikda bir qancha kasalliklar keltirib chiqarmoqda.

Dunyo bo‘yicha yetishtirilayotgan olxo‘ri plantatsiyalarida asosan zamburug‘, virusli, bakterial, va zararkunandalar organizimlar ichida zamburug‘lar tomonidan olxo‘ri o‘simlikida eng ko‘p kasalliklar keltirib chiqarmoqda. Chunki zamburug‘lar faol tarqalish xususiyatiga ega bo‘lishi bilan hamda ularning mitseliylari yaxshi taraqqiy etganligi sababli mevali daraxtlarda kasallik chaqiradi.

Bugungi kunda olxo‘rida zamburug‘lar ta’sirida monilioz, klyastersporioz,va boshqa zamburug‘ kasalliklar eng ko‘p zarar yetkazmoqda.

Olxo‘rining monilioz kasalligi. Uzoq Sharqda moniliozning qo‘zg‘atuvchisi marsupial bosqichni shakllantirishi mumkin keng ixtisoslashgan nomukammal qo‘ziqorin Monilia cinerea Hon. Yozda, u daraxtlarning kurtaklari va shoxlariga va ayniqsa mevalarga zarar yetkazadi. Ularda dastlab jigarrang dog‘ paydo bo‘ladi, keyin tez o‘sib boradi va ularni qoplaydi butun mevaning yuzasida kulrang yostiqchalar paydo bo‘ladi. Chirigan mevalar qisqaradi, quriydi, va ularning ba'zilari bahorgacha daraxtga osilgan holda qoladi. [https://scholar.google.com]

1. Moniliosis of plum

Olxo‘rining klyastersporioz yoki teshikli dog‘ilanish kasallagi

daraxtning turli organlariga ta'sir qiladi.Ko‘chatlarning hosildorligi va daraxtlarning bevaqt nobud bo‘lishiga olib kelishi. Dumaloq ochiq jigarrang barglarida qizil-jigarrang yoki qip-qizil chegarasi bo‘lgan dog‘lar paydo qiladi.1-2 haftadan keyin , dog‘lar tushadi va barglarda teshiklar paydo bo‘ladi. Kurtaklarda kasallik kichik dumaloq yorqin to‘q sariq-qizil dog‘lar shaklida namoyon bo‘ladi. Keyinchalik ular yorilish, ulardan yopishqoq massa (saqich) chiqariladi, pastga oqadi va qotib qoladi kurtaklar ustida och sariq yoki qora-jigarrang shishasimon qoplama shaklida nomoyon bo‘ladi. Klasterosporozning qo‘zg‘atuvchisi nomukammal qo‘ziqorin Clasterosporium hisoblanadi [https://scholar.google.com]]

2. Clusterosporiasis

Bir qator mualliflarning fikriga ko‘ra [3,6,7] Himoya tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi. quyidagi chora-tadbirlar:

1. Pitomniklarda va yetuk ko‘chatlarda yuqori qishloq xo‘jaligi texnologiyasi olib boorish .
2. 3% li Bordo aralashmasi bilan kuz va bahor kimyoviy ishlov berish
3. Gullashdan keyin fungitsidlar bilan kimyoviy ishlov berish (2-3 marta), kutish davri hisobga olingan holda
4. To‘kilgan barglar va mevalarni yig‘ish va yo‘q qilish. Daraxt tanasi atrofini qazish qatorlar orasiga kuzgi shudgor qilish

5. Chidamli navlarni yetishtirish

Bu kasalliklar qulay sharoitlarda o‘simlikdan o‘simlikka osongina o‘tadi.. Zamburug‘lar issiq van nam havoda faol tarqaladi.to‘qimalarda mitseliy rivojlanadi. Zamburug‘ kasalliklariga qarshi maxsus preparatlar - fungitsidlar yordamida amalga oshiriladi.

References:

1. A.Sh. Xamrayev, B.A. Xasanov, B.A. Sulaymonov, A.G. Kojevnikova, E .A. Xolmuradov 0‘simliklami biologik himoya qilish darslik – Toshkent,-2013-b.279-285
2. B.A. Sulaymonov, B.Q. Muxammadiyev, Z.G‗. Nosirova O‘simliklarni himoya qilishda ilmiy tadqiqot ishlari-Toshkent-2019 b.37 (81-82)
3.Muqimjonova, U. V., Xo‘jaeva, N. T., & Mahmutaliyev, R. (2023). sharqona yasmiq - Lens orientalis Schmall o‘simlikining biologik tavsifi. Efiopiya xalqaro multidisiplinar tadqiqotlar jurnali, 10(11), 604-606.
4. Xodjaev Sh.T. Insektitsid, akaritsid, biologik faol moddalar va fungitsidlarni sinash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar. – Toshkent, 2004.– B.83–90.
5.Chumakov A.E., Minkevich I.I., Vlasov Yu.I., Gavrilova., Ye.A.Osnovniy Fitopatologik tadqiqot usullari. VASKhNIL.-Moskva ilmiy ishlari; «Kolos», 1974. – B.57
6. Raupov, J. R. (2023). Hozirgi davlat va tendentlar va raqamli platformalarni ishlab chiqish iqtisodiyot va jamiyat, , (12 (115)-1), 1324-1329 yillar
7. Raupov, J. R. (2023). Foydalanish xalqaro tajribasi digital platformalarda internet texnologiyalari Raqamli iqtisod (3), 91-100

НЕКОТОРЫЕ БИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ COUSINIA RESINOSA JUZ.

Исламов Б.С., доцент, Очилов У. А*., ассистент*
Самаркандский госуниверситет, им. Ш. Рашидова, институт Биохимии, кафедра Ботаники
bustonislomov61@gmail.com, (99) 161 37 25

Аннотация. *Cousinia resinosa* Juz. – Yelimli karrak, Asteraceae oilasiga mansub bo‘lgan ko‘p yillik, monokarp o‘simlik. Yelimli karrakning ayrim bioekologik xususiyatlari va qimmatli xo‘jalik belgilari o‘rganildi va uni tog‘ hamda tog‘ oldi hududlari (adir) sharoitida yangi yem-xashak, asal beruvchi va moyli o‘simlik sifatida madaniylashtirish ustida ishlar olib borildi.

Kalit so‘zlar: qariqiz, lopux, arctium, karrak, laboratoriya, thermostat, sterilizatsiya, avtoklav, spirt, atsetokarmin, unib chiqish, hosildorlik, yashil, quruq biomassa, yashovchanlik, potensial, real, unuvchanlik, biologik xususiyatlar, urug‘ unuvchanligi, ozuqaviylik, yem-xashak.

Аннотация. *Cousinia resinosa Juz.* - кузиния смолистая многолетнее, монокарпическое растение семейства астровых. Изучены некоторые биоэкологические особенности и ценные хозяйственные признаки кузиния

смолистая , проведены работы по возделыванию ее как нового кормового, медоносного и масличного растения в горных и предгорных (адир) условиях.

Ключевые слова: карыгиз, лопух, арктиум, кузиния, лаборатория, термостат, стерилизация, автоклав, спирт, ацетокармин, всхожесть, урожайность, зеленная, сухая биомасса, жизнеспособность, потенциальная, реальная, прорастание, биологические свойства, всхожесть семян, пищевая ценность, кормовое.

Annotation. *Cousinia resinosa* Juz. - resinous cousin is a perennial, monocarpic plant of the Asteraceae family. Some bioecological features and valuable economic traits of resinous cousin were studied, and work was carried out on its cultivation as a new fodder, honey and oil plant in mountain and foothill (Adir) conditions.

Key words: karygiz, burdock, arctium, cousin, laboratory, thermostat, sterilization, autoclave, alcohol, acetocarmine, germination, yield, green, dry biomass, viability, potential, real, germination, biological properties, seed germination, nutritional value, forage.

В настоящее время особое внимание уделяется повышению урожайности кормовых культур и продуктивности естественных кормовых угодий. В Узбекистане значительная часть животноводства сконцентрирована в аридной зоне (пустыня, полупустыня, предгорная полупустыня), где содержание скота почти весь год базируется на естественных кормовых угодьях [1].

В связи с этим особую актуальность приобретает необходимость создания в условиях адыров принципиально новых, высокопродуктивных, многолетних искусственных кормовых фитоценозов, которые могли бы использоваться не только как пастбища, но и как сенокосы, обеспечивающие заготовку страховых кормов. Для успешного решения этой задачи, необходимо расширить ассортимент кормовых растений за счет введения в культуру новых перспективных дикорастущих кормовых растений из числа местной флоры, характеризующихся биологической приспособленностью к местным ксеротермическим условиям адыров [1].

Весьма перспективным в этом отношении является *Cousinia resinosa Juz.* – кузиния смолистая. Являющаяся многолетним, монокарпическим, травянистым растениям типа эфемероидных мезоксерофитов. Местные жители пустынных районов используют к. смолистая заготавливают как страховой корм.

Основной целью исследований: является всестороннее изучение биоэкологических особенностей и хозяйственно - ценных признаков исследованного вида кузиния смолистая и выявление путей введения ее в культуру в условиях нижней части горной полупустыни (адыров), как нового кормового, медоносного и масличного растения.

Создание естественных и искусственных лопуховых и кузиниевые фитоценозов, а также агрофитоценозов в засушливых условиях адыра это дает возможность получать высокие урожаи сухой кормовой и силосной массы, которая

в среднем в 15-20 раз превышает кормовые запасы на природных адырних пастбищах. Долголетние высокопродуктивные лопуховых, и кузиниевые сенокосы восполняют дефицит кормов, а нижних адырах особенно в ранневесенние, летние и частично осенние сезоны, что способствует созданию прочной кормовой базы и интенсификации кормопроизводства в поясе адыров.

Изучение биологии прорастания семян дикорастущих полезных растений представляет большой интерес с разных точек зрения, особенно в тех случаях, когда стоит задача введения их в культуру. Безуспешность окультуривания, часто наблюдающаяся в аридной зоне, объясняется, в первую очередь, недостаточным знакомством с природой самого растения. В частности, не изученность вопроса об условиях прорастания семян этих растений является одним из основных препятствий для более рационального обращения с ним.

Биология прорастания семян кузиния смолистая почти не изучена. В связи с этим, нами были исследованы температурные условия прорастания семян этого вида. Семена проращивались в специально создаваемых условиях и в термостате. Проращивание семян исследованного вида кузиния было начато при температуре 2-5°С. Результаты опытов представлены в таблице 1.

Как видно из таблицы 1 семена исследованного вида при низких температурах (2-5°С) начинают прорастать лишь на 21-й день после закладки опытов и дают при этом 22,6% всхожести. Продолжительность периода прорастания семян при данной температуре насчитывается более 50 дней.

Таблица 1.

Температурные условия прорастания семян

Вид	Температура в ^{0}С	Число дн. от начала опыта до	Количество всходов на данный день проращивания (в шт.)					
			10	20	30	40	50	Проросло в %
Cousinia resinosa Juz.	2-5	21			0,5	3,8	11,3	22,6
	10-12	15		2,8	4,7	9,8	15,6	31,2
	15-17	11		7,6	13,7	17,2	21,6	43,2
	20-22	9	1,3	11,7	17,8	19,5	19,7	39,4
	25-27	4	7,6	17,4	24,8	26,4	26,4	52,8
	30-32	4	8,5	21,6	23,1	23,3	23,3	46,6
	35-37	3	7,6	15,7	17.8	17,8	17,8	35,6
	40-42	3	8,4	14,7	14.9	14,9	14,9	29,8

Почти такая же закономерность отмечалась и при температуре 10-12°С – 31,2%. При проращивании семян при 15-I7°С всхожесть была равна 43,2%. Семена начинают прорастать при этой температуре на 11-й день. Однако, с повышением температуры в опытах (20-22°С, 25-27°С и 30-32°С) произошло некоторое увеличение процента всхожести семян. Таким образом, как показали опыты, оптимальными температурами прорастания семян к. смолистая являются 25-27°С, обеспечивают максимальный процент

всхожести – 52,8%. Обследованный вид по биологии прорастания семян является эвритермным.

Полевая всхожесть семян в отличие от лабораторной, определяемой идеальными для прорастания семян условиями бывает зачастую значительно ниже. Наши опыты по определению полевой всхожести семян ставились в условиях ф/ха "Хобдун" Булунгурского, ф/х «Облокула Узакова» Ургутского районов Самаркандской области. Почва была вспахана с осени на глубину 25-30 см с одновременным боронованием и уплотнением поверхности почвы.

Посевы проводились на опытных делянках размером 6 м^2 семенами урожая 2020-2022 года, собранными в природе (Еттиуйлисой Самаркандской области) а также опытных участок где производили опытные и производственные опиты (Аман - кутан – перевал Тахта – Карача, ф/х Облокула Узакова Ургутского района, ф/х Хобдун Булунгурского района).

С целью определения оптимальных сроков посева семена исследованного вида были высеяны в пять сроков (октябрь, ноябрь, декабрь, февраль и март). Результаты опытов приведены в таблице 2.

Таблица 2

Полевая всхожесть семян в различных условиях Самаркандской области

Вид	Условия	Сроки посева	Количество высеянных семян на 6 м^2 в шт.	Полевая всхожесть	
				В штуках На 6 м^2	В % высеянных семян
Cousinia resinosa Juz.	ф/х О. Узакова	15.10.21	100	49,27	49,27
		12.11.21	100	51,43	51,43
		17.12.21	100	29,78	29,78
		10.02.22	100	12,56	12,56
		05.03.22	100	4,96	04,96
	ф/х Хобдун	17.10.21	100	47,80	47,80
		13.11.21	100	49,66	49,66
		20.12.21	100	26,75	26,75
		06.02.22	100	10,84	10,84
		06.03.22	100	2,96	02,96

Как видно из таблицы 2, наибольший процент всхожести семян наблюдается при октябрьском и ноябрьском сроках посева (47,80 – 51,43). Что касается весенних сроков посева, то они дают единичные всходы и лишь в благоприятные годы, что говорит о нецелесообразности проведения зимних и ранневесенних посевов.

Весьма важно, для вводимого в культуру растения определить степень выживаемости их проростков в условиях аридной зоны. Хорошая

выживаемость проростков, как правило, отмечается у наиболее засухоустойчивых видов. Известно, кроме того, что густота стояния всходов растений находится в прямой зависимости от нормы высева. Выживаемость же всходов молодых особей зависит от густоты стояния растений. Для разрешения данных вопросов мы испытали следующие нормы высева семян исследованных видов - 4, 6 и 8 кг семян на 1 га. Полученные данные представлены в таблице 3.

Таблица 3

Выживаемость всходов у молодых особей в связи с разными нормами высева семян (ф/х «Хобдун» Булунгурского района).

Вид	Норма высева в кг/га	Количество растений на 6 м² (числитель – абсолютные цифры, знаменатель – процент)			
		28/II.22	16/III.22	15/IY.22	10/Y.22
Cousinia resinosa Juz.	4	78/100	74/94,87	69/88,46	65/83,33
	6	117/100	103/88,03	95/81,19	89/76,06
	8	145/100	131/90,34	119/82,06	103/71,03

Из данных таблицы 3 видно, что к концу вегетации у *C. resinosa* Juz.на делянках, где норма высева составляла 4 кг/га семян выживаемость растений составила 83,33%, а при норме 8 кг/га всего лишь 71,03%.

Сведений относительно урожайности и зеленой массы изученный вид почти нет. Результаты исследований относительно урожайности кормовой массы в природных условиях в зависимости от года вегетации приведены в таблице 4.

Таблица 4.

Урожайность зеленой массы в условиях природы (Еттиуйлисой Ургутского и ф/х Хобдун Булунгурского района)

Время проведения опытов	Вид	Густота стояния растений на 1 м², шт.	Все зеленой массы в кг с 1 м²	Все воздушно-сухой массы в кг с 1 м²	Урожай массы в т/га	
					зеленой	воздушно-сухой
Июнь 2021	*Cousinia resinosa* Juz.	3,2±0,18	0,53±0,07	0,17±0,05	5,3±0,71	1,7±0,51
Июнь 2022	*Cousinia resinosa* Juz.	3,4±0,19	0,55±0,08	0,16±0,06	5,5±0,82	1,6±0,65

Таким образом, как показали многолетние наблюдения, урожай кормовой массы в природных условиях колеблется в пределах от 5,3 до 5,5 т/га, зеленой и от 1,6 до 1,7 т/га воздушно – сухой кормовой массы в зависимости от погодных условий года.

Опыты по определению урожайности кормовой массы в. культуре в условиях нижних адыров проводились на опытных участках с различной нормой высева и густоты стояния растений на единицу площади.
Результаты опытов представлены в таблицу 5.

Таблица 5.

Урожайность зеленой массы в условиях культуры (Ф/х Облокула Узакова Ургутского и ф/х Хобдун Булунгурского района).

Время проведения опытов	Вид	Густота стояния растений на 1 м^2, шт.	Все зеленой массы в кг с 1 м^2	Все воздушно-сухой массы в кг с 1 м^2	Урожай массы в т/га	
					зеленой	воздушно-сухой
Июнь 2022	*Cousinia resinosa* Juz.	18,9±0,18	0,83±0,11	0,37±0,05	8,3±0,75	3,7±0,59
Июнь 2022	*Cousinia resinosa* Juz.	19,7±2,19	0,95±0,12	0,40±0,10	9,5±0,88	4,0±0,85

Из данных таблиц 5 видно, что в втором году вегетации урожай кормовой массы у всех особей достигается максимальное накопление кормовой продукции. Таким образом, в условиях нижних адыров на опытных и опытно- производственных участках, созданных в ф/х «Хобдун» Булунгурского района, были получены и получают ежегодно сейчас до 8,3-9,5 т/га зеленой кормовой массы или 3,7-4,0 т/га сена, тогда как продуктивность естественного травостоя, даже в самые благоприятные годы, составляет всего лишь 1,5 - 2 ц/га сена. Это свидетельствует об исключительной перспективности введения в культуру *Cousinia resinosa Juz.* в условиях нижних адыров, а также полупустынных районов как новых высокопродуктивных кормовых растений.

Литература

1. Исламов Б.С. Биоэкологические особенности и введение в культуру некоторых перспективных видов рода кузиния (*Cousinia* Cass.) и лопух (*Arctium* L.). Монография. – Самарканд: Изд. – во СамГУ, 2023. – 164 с.
2. Определитель растений Средней Азии. Критический конспект флоры. В I-XI т. Ташкент: Фан, 1968 – 2016.
3. Тожибаев К.Ш., Бешко Н.Ю., Кодиров У.Х., Батошов А.Р., Мирзалиева Д.У. Кадастр флоры Узбекистана: Самаркандская область. Т. Фан, 2018. 220 с.
4. Plants of the World Online [электронный ресурс] URL. www. powo.science.kew.org

CICHORIUM INTYBUS L. URUG‘LARINING UNIB CHIQISHIGA EKOLOGIK OMILLARNING TA’SIRI

TADJIYEV JAMSHID JANIZAKOVICH
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktaranti
DUSTOV BEGNAZAR SAYFULLOYEVICH
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Biologiya, ekologiya va dorivor o'simliklar" kafedrasi assistant b.f.f.d (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Cichorium intybus L. (sachratqi) urug'larining unib chiqish jarayoniga ta'sir etuvchi ekologik omillar – harorat, namlik, yorug'lik, tuproq tarkibi va pH darajasi – tadqiq qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, optimal ekologik sharoitlar yaratilganda urug'larning unish ko'rsatkichi va unish tezligi sezilarli darajada oshadi. Bu ma'lumotlar qishloq xo'jaligida ekin sifatida foydalanishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'simlikning yuqori hosildorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar Cichorium intybus L., urug' unishi, ekologik omillar, harorat, namlik, yorug'lik, tuproq pH.

ВОЗДЕЙСТВИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ НА ПРОЦЕССЫ ПРОРАСТАНИЯ СЕМЯН CICHORIUM INTYBUS L.

Аннотация: Вданной статье исследуется влияние экологических факторов — температуры, влажности, освещенности, состава и pH почвы — на прорастание семян Cichorium intybus L. Результаты экспериментов показывают, что при создании оптимальных условий прорастание семян значительно улучшается как по скорости, так и по количеству. Это имеет важное значение для сельского хозяйства и эффективного выращивания данного растения.

Ключевые слова. Cichorium intybus L., прорастание семян, экологические факторы, температура, влажность, свет, pH почвы.

INFLUENCE OF ECOLOGICAL FACTORS ON THE GERMINATION PROCESSES OF CICHORIUM INTYBUS L. SEEDS

Abstract: This article examines the impact of ecological factors—temperature, moisture, light, soil composition, and pH—on the germination of Cichorium intybus L. seeds. The study reveals that under optimal environmental conditions, both the germination rate and percentage improve significantly. These findings are vital for agricultural applications and ensuring high-yield cultivation of the species.

Keywords: Cichorium intybus L., seed germination, ecological factors, temperature, moisture, light, soil pH.

Kirish. Cichorium intybus L. (sachratqi) — Asteraceae oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik bo'lib, uning ildiz qismi, barglari va urug'lari xalq tabobatida, farmatsevtika hamda oziq-ovqat sanoatida keng qo'llaniladi. Ushbu o'simlikning ahamiyati uning biologik faol moddalarga boyligidan tashqari, agrotexnik jihatdan kamxarj va turli agroekologik sharoitlarga moslasha olish xususiyatida ham

namoyon bo‘ladi [3]. Urug‘larning unib chiq ish jarayoni o‘simlik ontogenezining dastlabki bosqichi bo‘lib, uning muvaffaqiyatli kechishi ko‘pgina ekologik omillarga bog‘liq [1]. Jumladan, harorat, namlik, yorug‘lik miqdori, tuproqning mexanik va kimyoviy tarkibi, pH darajasi — bularning barchasi urug‘ning unish darajasiga va unish tezligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur tadqiqotda Cichorium intybus L. urug‘larining unib chiqishiga ta’sir etuvchi asosiy ekologik omillar o‘rganilib, optimal sharoitlarni aniqlashga urinish qilindi. Bu esa, ushbu o‘simlikni ekin sifatida yetishtirishda samarali agrotexnika choralarini ishlab chiqishda ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Materiallar va metodlar. Tadqiqot uchun Cichorium intybus L. urug‘lari 2024-yilda Samarqand viloyati hududidan yig‘ib olindi. Urug‘lar tozalab, laboratoriya sharoitida saqlangan. Unish tajribalari Samarqand davlat universiteti Biokimyo institutida Botanika kafedrasining laboratoriyasida o‘tkazildi.



1-rasm. Cichorium intybus L. urug‘larining umumiy korinishi.

Tajriba davomida quyidagi ekologik omillar bo‘yicha sinovlar tashkil etildi: Harorat: 0°C, 5°C, 10°C, 15°C, 20°C, 25°C, 30°C sharoitda termostat yordamida. Namlik: substrat namligi 30%, 50%, 70% va 90% darajada. Yorug‘lik: to‘liq yorug‘lik (16/8 soatli fotoperiod), yarim soyali va to‘liq qorong‘i sharoit. Tuproq pH darajasi: 5.5, 6.5, 7.5 va 8.5 oralig‘ida tayyorlangan substratlar. Har bir sharoitda 50 tadan urug‘ 2 martadan takrorlangan holda Petri idishlariga joylashtirildi. Unish darajasi va unish tezligi har kuni kuzatilib, statistik tahlil qilindi. Ma’lumotlar tahlil qilindi va grafik ko‘rinishda ifodalandi.



2-rasm. Cichorium intybus L. ning $KMnO_4$ eritmasida va suvda ekilgan urug‘lari



	04.фев	05.фев	06.фев	07.фев	08.фев	09.фев	10.фев	11.фев	12.фев	13.фев
Dist. H2O Cichorium intybus L.	1	4	9	2	2	0	0	0	0	1
KMnO4 Cichorium intybus L.	0	0	14	5	1	0	0	0	0	0
Torfda Cichorium intybus L.	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
Cichorium intybus L.	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0

3-rasm. Cichorium intybus L. urug‘larining unib chiqish grafigi.

Natijalar va muhokama. O‘tkazilgan tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, Cichorium intybus L. urug‘larining unib chiqish darajasi va tezligi ekologik omillar ta’sirida sezilarli darajada farq qiladi. Haroratning ta’siri. Eng yuqori unish ko‘rsatkichi 25°C haroratda kuzatildi (92%). 20°C haroratda ham yuqori natija (85%) qayd etildi, ammo 10°C (45%) va 30°C (61%) haroratlarda unish darajasi ancha past bo‘ldi. Bu C. intybus urug‘lari mo‘tadil haroratda faol unishini ko‘rsatadi. Namlik darajasi. Substrat namligi 70% bo‘lgan holatda unish ko‘rsatkichi eng yuqori bo‘ldi [4]. (88%). 50% va 90% namlikda unish mos ravishda 77% va 68% ni tashkil etdi. Eng past natija 30% namlikda (43%) kuzatildi. Bu esa suv muvozanatining urug‘ metabolizmi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi [1]. Yorug‘lik sharoiti. To‘liq yorug‘likda unish darajasi eng yuqori (89%) bo‘lsa, yarim soyali muhitda bu ko‘rsatkich 73% ni tashkil etdi. To‘liq qorong‘i sharoitda esa urug‘larning unishi 39% gacha kamaydi. Bu Cichorium intybus urug‘lari yorug‘likka sezgirligini bildiradi [2]. Tuproq pH darajasi. Tuproqning eng qulay pH darajasi 6.5 (unish darajasi 90%) deb topildi. 5.5 va 7.5 pH darajalarda mos ravishda 76% va 82% natija qayd etildi. 8.5 pH darajasida esa urug‘larning unish darajasi 58% ga tushdi. Bu C. intybus L. neytralga yaqin sharoitlarni afzal ko‘rishini ko‘rsatadi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Cichorium intybus L. urug‘larining unib chiqishiga ekologik omillar muhim ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, harorat 25°C, substrat namligi 70%, yorug‘lik to‘liq bo‘lgan sharoit va tuproq pH darajasi 6.5 bo‘lgan muhitda urug‘larning unish darajasi va tezligi eng yuqori ko‘rsatkichlarga erishadi. Mazkur natijalar C. intybus L. ni ekin sifatida yetishtirishda agrotexnik chora-tadbirlarni belgilashda ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu o‘simlikning turli ekologik hududlarda ham muvaffaqiyatli yetishtirish imkoniyatlarini ochib beradi [3,5].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baskin, C.C., & Baskin, J.M. Seeds: Ecology, Biogeography, and Evolution of Dormancy and Germination. Academic Press. (2014). P -15-86
2. Benvenuti, S., Macchia, M., & Miele, S. Light, temperature and burial depth effects on seed germination and emergence of Cichorium intybus. Plant Biosystems, (2001). 135(3), P-287–293.
3. Grime, J.P., Hodgson, J.G., & Hunt, R. Comparative Plant Ecology. Springer. (2007). P-1-742
4. Khan, M.A., & Rizvi, Y. Effect of salinity, temperature and growth regulators on the germination and early seedling growth of Chicory. Seed Science and Technology, (1994). 22(1), P157–164.
5. Тураев, А.А. Ўзбекистонда ўсувчи Cichorium intybus L. турининг экологик хусусиятлари. // Ўзбек биология журнали, (2022). №2, b-45–49.

UO‘K: 581

MANZARALI DARAXTLAR ICHIDA *GYMNOCLADUS DIOICUS* NING O‘RNI

Togayeva Gulruxsor, Norqulov Ma’sudjon
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
E-mail: masud.norqulov@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada *Gymnocladus dioicus* ning biologik, morfologik va ekologik xususiyatlari yoritilgan. O‘simlikning kelib chiqish tarixi, tabiiy tarqalgan hududlari, manzarali hamda xalq xo‘jaligidagi ahamiyati to‘g‘risida batafsil ma’lumot beriladi. Maqola ilmiy adabiyotlar va zamonaviy manbalarga tayangan holda yozilgan bo‘lib, landshaft arxitekturasi, dendrologiya, etnobotanika va ekologiya yo‘nalishidagi tadqiqotchilar uchun foydalidir.

Kalit so‘zlar: *Gymnocladus dioicus,* Kentukki kofe daraxti, morfologiya, introduktsiya, etnobotanika

Togayeva Gulrukhsor, Norkulov Masudjon
Samarkand State University named after Sharof Rashidov
E-mail: masud.norqulov@mail.ru

THE PLACE OF GYMNOCLADUS DIOICUS AMONG LANDSCAPE TREES

Abstract: This article explores the biological, morphological, and ecological characteristics of *Gymnocladus dioicus* (Kentucky coffee tree). It provides detailed information on the species' origin, natural distribution, and its significance in landscape design and the national economy. The article draws on scientific literature and recent sources, offering valuable insights for researchers in landscape architecture, dendrology, ethnobotany, and ecology.

Keywords: *Gymnocladus dioicus*, Kentucky coffee tree, morphology, introduction, ethnobotany.

Тогаева Гулрухсор, Норкулов Масуджон
Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова

E-mail: masud.norqulov@mail.ru

МЕСТО GYMNOCLADUS DIOICUS СРЕДИ ЛАНДШАФТНЫХ ДЕРЕВЬЕВ

Аннотация: В статье рассматриваются биологические, морфологические и экологические характеристики *Gymnocladus dioicus* (кофейное дерево Кентукки). В ней приводится подробная информация о происхождении вида, его естественном распространении и его значении в ландшафтном дизайне и народном хозяйстве. Статья опирается на научную литературу и современные источники, предлагая ценную информацию для исследователей в области ландшафтной архитектуры, дендрологии, этноботаники и экологии.

Ключевые слова: *Gymnocladus dioicus*, кофейное дерево Кентукки, морфология, интродукция, этноботаника.

Gymnocladus dioicus, xalq orasida Kentukki kofe daraxti deb ataladigan o‘simlik, Fabaceae oilasiga mansub yirik bargli daraxt bo‘lib, asosan Shimoliy Amerikaning sharqiy hududlarida o‘sadi[1]. *Gymnocladus dioicus* – turli iqlim sharoitlariga chidamli, barglari murakkab va yirik bo‘lgan manzarali daraxtdir. Uning nomi grekcha "gymnos" (yalang‘och) va "klados" (shox) so‘zlaridan olingan bo‘lib, barg chiqmasdan oldin paydo bo‘ladigan yalang‘och shoxlariga ishora qiladi[2,3]. Dastlabki manbalarga ko‘ra, bu daraxt Shimoliy Amerikaning markaziy va sharqiy qismlarida o‘sadi. *Gymnocladus dioicus* Shimoliy Amerikaga xos endemik daraxt bo‘lib, ayniqsa AQShning Markaziy va Sharqiy shtatlarida tabiiy holda o‘sadi. U "Kentukki kofe daraxti" nomini ham aynan shu hududdagi qadimiy ishlatish tarixidan olgan. XVIII–XIX-asrlarda AQShning sharqiy va markaziy shtatlarida haqiqiy kofe (ya’ni Coffea arabica yoki C. canephora) bo‘lmagan yoki narxi qimmat bo‘lgan davrlarda, oddiy aholi kofe o‘rniga ushbu daraxtning urug‘larini qovurib, kofe tayyorlashgan. Qovurilgan urug‘lar kofega o‘xshash achchiq ta’mga ega bo‘lib, ammo uning tarkibida kofein yo‘q[1]. Bu usul ayniqsa Amerika fuqarolar urushi (1861–1865) davrida va undan avvalgi davrda keng tarqalgan. Bu vaqtda import mahsulotlar kam bo‘lgan va aholi uchun sevimli ichimlik kofe o‘rnini bosuvchi ichimlik sifatida ishlatilgan. Mahalliy aholining ko‘pchiligi bu daraxt mevalaridan kofeinsiz kofe tayyorlashda foydalangan. Mahsulotni tayyorlashda urug‘lar oldin qaynatilib, so‘ng qovurilgan, undan keyin esa qahvaga o‘xshash ichimlik tayyorlangan[2]. Uning “kofe” deb nomlanish sababi nafaqat uning ishlatilishi, balki urug‘larning tashqi ko‘rinishi va qovurilgandagi hidining haqiqiy kofega o‘xshashligidir. “Kofe daraxti” nomi shunchalik mashhur bo‘lganki, u XX-asr boshlariga kelib AQShda rasmiy xalq nomi sifatida botanik adabiyotlarga kiritilgan. Ammo adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlarga qaraganda urug‘lar zaharli moddalarga ega bo‘lishi mumkin (masalan, sitozin alkaloidlari), shuning uchun urug‘larni xom holda iste’mol qilish mumkin emas. *G.dioicus* ning urug‘i daraxtlar urug‘larining ichida eng qattiq urug‘lardan biri hisoblanadi[4].

Gymnocladus dioicus Shimoliy Amerika: AQSh va Kanadaning janubiy qismida yovvoyi yoki manzarali o‘simlik sifatida o‘stiriladi. Osiyo: Xitoy, Rossiya, Ukraina va Markaziy Osiyo singari hududlarda manzarali o‘simlik sifatida ekib

o‘stiriladi. Daraxt sovuqqa chidamli bo‘lib, -35°C gacha bo‘lgan haroratga bardosh bera oladi, bu esa uni turli iqlim sharoitlarida yetishtirish imkonini beradi[5,6].

Gymnocladus dioicus ning sistematikasi

Sinf: Magnoliopsida – Magnoliyasimonlar
Qabila: Fabales - Dukkaknamolar
Oilasi: Fabaceae – Dukkakdoshlar
Turkum: *Gymnocladus* Lam. - Gimnokladus
Tur: *Gymnocladus dioicus* (L.) K. Koch – Ikki jinsli gimnokladus (Tugma daraxt)
Sinonimi: *Guilandina dioica* L., *Guilandina inermis* Salisb., *Gymnocadus dioicus* (L.) K.Koch., *Gymnocladus canadensis* Lam.

Annotatsiya. Zarafshon vodiysi hududidagi suv omborlarining minerallanish darajasi tahlil qilinib, uning gidrobiontlar — ya’ni suv muhitida yashovchi organizmlar — tarqalishiga ko‘rsatgan ekologik ta’siri o‘rganilgan. Tabiiy va antropogen omillar ta’sirida yuzaga kelgan minerallanish o‘zgarishlari fitoplankton, zooplankton, bentos va baliqlar kabi gidrobiontlarning biologik xilma-xilligiga va son jihatidan tarkibiga qanday ta’sir ko‘rsatgani ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Zarafshon vodiysi, minerallanish, gidrobiontlar, suv omborlari, ekologik barqarorlik, gidroximiya, biologik xilma-xillik.

Kirish Zarafshon vodiysi O‘zbekistonning markaziy qismida joylashgan bo‘lib, respublikaning suv resurslarida muhim o‘rin tutadi. So‘nggi yillarda ushbu mintaqadagi suv omborlarida suv tarkibining minerallanish darajasi o‘zgarib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida, suv ekotizimlariga, xususan, gidrobiontlarning tarqalishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Maqolaning asosiy maqsadi — Zarafshon vodiysidagi suv omborlari minerallanish darajasini aniqlash hamda bu holat gidrobiontlar populyatsiyasiga qanday ta’sir ko‘rsatayotganini ilmiy asosda o‘rganishdir.

Tadqiqot obyekti va metodikasi Tadqiqot obyekti sifatida Zarafshon vodiysidagi eng yirik suv omborlari — Tuyabo‘g‘iz, Qoratepa va Kattasoy suv omborlari tanlab olindi. Suv namunalarida minerallanish darajasi GOST 18164-72 standartiga muvofiq aniqlanib, gidrobiontlar tarkibi esa mikroskopik va morfologik tahlil orqali baholandi. Fitoplankton va zooplankton namunalar Lugol eritmasi yordamida fiksatsiyalandi, baliqlar esa elektrofishing usuli bilan ushlab o‘rganildi.

Zarafshon vodiysi suv omborlarining minerallanish xususiyatlari

Zarafshon daryosi yuqori oqimida minerallanish 0.5–0.8 g/l atrofida bo‘lsa, pastki oqimida bu ko‘rsatkich 1.2–1.5 g/l gacha yetadi. Suv omborlarida esa minerallanish darajasi quyidagicha aniqlangan:

Suv ombori	Minerallanish (mg/l)	Fitoplankton turi	Zooplankton turi	Baliq turlari
Yangiobod	850	27	14	6
Kamolot	1200	19	10	4
Qoratepa	1800	12	6	2

Yuqori minerallanish ko‘rsatkichi, asosan, qishloq xo‘jaligi suvlari oqizilishi va suv bug‘lanishi natijasida yuzaga keladi.

Daryolarda va suv omborlarida keyingi yillar mobaynida gidrobiontlarni o‘rganishga ahamiyat berilib, bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda.. Baliqlar sun’iy yo‘l bilan urchitilmoqda, suv havzalarini toza saqlash, baliqlarni ko‘paytirib, ulardan oqilona foydalanish uchun kurash olib borilmoqda. Hozirgi vaqtda Zarafshon vodiysi suv omborlari minerallanish darajasining gidrabiontlar tarqalishiga va ekologik guruhlariga ta’sirini o‘rganish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Mantaqaviy faunani o‘rganish nazariy va amaliy masalalarni kompleks echishda muhim shart-sharoitlar yaratadi. SHu nuqtai nazardan Zarafshon vodiysi ikki pallali mollyuskalarining faunasining har tomonlama o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Zarafshon havzasi tabiiy sharoitining xilma-xilligi ko‘plab noyob, endemik va relikt hayvonlarnig tarqalishiga sharoit yaratgan. Bu erda alohida turlarning murakkab tarqalishi bilan birgalikda butun bir faunistik komplekslar, bir turning turli xil populyasiyalari ekologiyasidagi mavjud farqlar ham namayon bo‘ladi. Shu sababli Zarafshon daryosi sohili ikki pallali mollyuskalarning faunasini, turlarining xilma-xilligini, ma’lum biosenozlardagi muhim bioekologik xususiyatlarni va turlarini tarqalish qonuniyatlarini o‘rganish ham nazariy ham amaliy jihatidan dolzarbdir.

Chuchuk suv havzalari ichida ikki pallali mollyuskalar tadqiqot uchun murakkab bir guruh hisoblanadi. CHig‘anoq shaklining oddiyligi tishlarining mavjudligi yoki yo‘qligi ularni aniqlashda yordam beradi. SHu bilan bir vaqtda ikki pallali mollyuskalarning tarqalishi va individlar sonining ko‘pligi ekosistemalardagi muhim o‘rni (ko‘pgina suv havzalarida ular bentos organizmlar orasida asosiy

massani tashkil qiladi), zoogeografiya muammolari, chuchuk suv faunasi tarixini, gidrobiolog masalalarini va bir qator bioekologik xususiyatlarni o‘rganuvchi hamda ekologik manitoring, bioindikatsiya kabi amaliy masalalarni hal qilishda tadqiqodchilarning e’tiborini o‘ziga jalb etib kelmoqda.

Ifloslanish natijasida suv osti biosenozlari tubdan o‘zgarmoqda, mahalliy turlar o‘rnini boshqa keng tarqalgan yangi turlar egallamoqda. Ikki pallali mollyuskalar umurtqasiz hayvonlar orasida ifloslangan suvlarni tozalashda muhim o‘rin tutadi. Ular suvni to‘liq tanasidan o‘tkazib, uni filtrlaydi, ya’ni ushbu mollyuskalar tabiiy suv tozalovchilar hisoblanadi.

Biz shu davrgacha adabiyotlar ma’lumoti bo‘yicha Zarafshon daryosi sohili yirik ikki pallali mollyuskalarining ayrim taksonometrik holatlari va ekologik hususiyatlari to‘g‘risida ma’lumotga ega edik.

Zarafshon havzasi daryolarida suv omborlarining barpo etilishi bilan suv maydoni kengayib, unda ikki pallali mollyuskalar, baliqlarning yashash va urchish sharoitlari birmuncha yaxshilangan. Suv omborlarida xujalikning serdaromat tarmog‘i baliq xujaligini rivojlantirish uchun eng qulay sharoit vujudga keladi. Yirik daryo uzanlarida qurilgan suv omborlarida daryoning suv ombori qurilmasdan oldingi shu uchastkasiga nisbatan ovlanadigan baliqlar bir necha marotaba ortiqdir.

Zarafshon havzasida daryolarga nisbatan suv omborlarida baliqchilarning mehnat unumdorligi ancha yuqori bo‘ladi, chunki suv omborlarida baliq ovlash uchun qulay sharoitlar vujudga keladi. Hozirgi vaqtda mamlakatning ichki suvlarida yiliga katta miqdorda baliq ovlanmoqda, shundan ko‘prog‘i suv omboriga to‘g‘ri keladi.

Shu bilan birga suv resurslarining antropogen omillar ta’sirida ifloslanishi kuzatilmoqda ularni o‘rganish, ekologik ekspertiza qilish muhim ahamiyatga ega. Ekologik ekspertiza deganda rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo‘jalik va boshqa xil faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini belgilash hamda ekologik ekspertiza ob’ektini ro‘yobga chiqarish mumkinligini aniqlash tushuniladi.

Xulosa

Zarafshon vodiysi suv omborlarining minerallanish darajasi gidrobiontlar tarqalishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Yil sayin kuchayib borayotgan minerallanish gidrobiologik muvozanatga tahdid solmoqda. Suv resurslaridan oqilona foydalanish, ekologik monitoringni kuchaytirish va muhofaza choralari ko‘rish orqali bu holatni yumshatish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov M.M., "O‘zbekistonning gidrobiologik resurslari", Toshkent, 2018.
2. Alimov A.F., "Gidrobiontlar ekologiyasi", Fan nashriyoti, 2012.
3. Boymurodov Kh.T. Two Subspecies Mollusks Fauna, Biologic Difference and Ecologic Groups in the Water Reservoirs in Nearby Mountain // Eastern European Scientific Journal. –Germany, 2015. –№5. –P.15-19.
4. Иззатуллаев З.И., Боймуродов Х.Т. Результаты выращивания жемчуга двустворчатых пресноводных моллюсков (Bivalvia: Unionidae, Anadontinae)

Узбекистана // Журнал Московское Общество Испытателей Природы. – Москва, 2016. т. 121. вып. 5 с.16-19.
5. Иззатуллаев З.И., Боймуродов Х.Т., Каримқулов А.Т. Қашқадарё хавзасида иккипаллали моллюскаларнинг тарқалиши, экологик гурухлари ва хўжаликдаги аҳамияти // ГулДУ Ахборотнома журнали. –Гулистон, 2013.–№ 4 (51).–Б. 38-41.
6. Иззатуллаев З.И. Двустворчатые моллюски сем. Corbiculidae Средней Азии // Зоол.ж., 1980. Т.59.вып.8.С.1130-1136.
7. Боймуродов Х.Т. Ўзбекистон сув ҳавзалари иккипаллали моллюскалари (Mollusca: Unionidae) Sinanadonta уруғининг тарқалиши // ЎзМУ Хабарлари, 2015. –№ 3/1. –Б. 64-66.
8. Боймуродов Х.Т. Двустворчатые моллюски водоёмов Узбекистана как объект экологического мониторинга // Журнал Московское Общество Испытателей Природы. –Москва, 2015. –С.9-11.
9. Boymurodov Kh.T. Development of Producing Pearl of Bivalve Molluscs (Mollusca: Unionidae, Corbuculidae) in Uzbekistan // Eastern European Scientific Journal. –Germany, 2015. –№4. –P. 44-47.

IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA DORIVOR CHUFA (CUPERUS ESCULENTUS LATIVUM) NI INRODUKSIYA QILISHNING AHAMIYATI

Eshmurodova Mavluda Qodiralievna – O‘zbekiston Respublikasi G‘alla va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti.
eshmurodovamavluda52@gmail.com., https://orcid.org/0009-0006-5441-6791
Naralieva Nasiba Mamanovna - Andijon davlat universiteti Ekologiya va botanika kafedrasi mudiri, biologiya fanlari doktori (DSc), professor
n_naralieva@mail.ru., https://orcid.org/0000-0002-6720-2083
Mamaxanova Jumagul Niyozbekovna- mamaxanovjumagul@gmail.com., https://orcid.org/0009-0007-3442-5508

Аннотация.Yo‘lbars yong‘oqlari fosfor, kaliy, kaltsiy, magniy va temir kabi minerallarga boy. Shuningdek, uning tarkibida E va C, B1 vitaminlar ko‘p miqdorda mavjudligi tufayli markaziy nerv sistemasi ishini barqarorlashtirish, va stress xolatlarini boshqarishda yordam beradi.Bundan tashqari, chufa ichak epiteliysi faoliyatini tiklanishiga, ichak peristaltikasini normallashtirishda va qabziyatni davolashga yordam beradi

Kalit so‘zlar: stress xolatlar, organik tabiiy mahsulotlar, yashil biomassa, tropic, subtropik, jele, balzam

ЗНАЧЕНИЕ ИНТРОДУКЦИИ КУПЕРУСА ЛЕКАРСТВЕННОГО (CUPERUS ESCULENTUS LATIVUM) В УСЛОВИЯХ ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА

Эшмуродова Мавлуда Қодиралиевна- докторант Научно-исследовательский институт зерно и зернобобовых культур Республики Узбекистана. eshmurodovamavluda52@gmail.com., https://orcid.org/0009-0006-5441-6791

Наралиева Насиба Мамановна- заведующий кафедры Экология и ботаники Андижанского госуниверситета, доктор биологических наук (DSc), профессор (Узбекистан). n_naralieva@mail.ru., https://orcid.org/0000-0002-6720-2083

Мамаханова Жумагул Ниёзбековна - независимый исследователь Андижанского госуниверситета. mamaxanovjumagul@gmail.com ., https://orcid.org/0009-0007-3442-5508

Аннотация. Тигровые орехи богаты минералами, такими как фосфор, калий, кальций, магний и железо. Он также содержит большое количество витаминов E, C и B1, которые помогают стабилизировать центральную нервную систему и справляться со стрессом.

Кроме того, чуфа способствует восстановлению функции эпителия кишечника, нормализации перистальтики кишечника и лечению запоров.

Ключевые слова: стрессовые состояния, органические натуральные продукты, зеленая биомасса, тропический, субтропический, желе, бальзам.

THE SIGNIFICANCE OF INTRODUCTION OF CUPERUS ESCULENTUS LATIVUM IN THE CONDITIONS OF CLIMATE CHANGE

Eshmurodova Mavluda Kodiralievna - doctoral student of the Research Institute of Grain and Leguminous Crops of the Republic of Uzbekistan. eshmurodovamavluda52@gmail.com., https://orcid.org/0009-0006-5441-6791

Naralieva Nasiba Mamanovna - Head of the Department of Ecology and Botany of Andijan State University, Doctor of Biological Sciences (DSc), Professor (Uzbekistan).
n_naralieva@mail.ru., https://orcid.org/0000-0002-6720-2083

Mamakhanova Zhumagul Niyozbekovna - independent researcher of Andijan State University. mamaxanovjumagul@gmail.com., https://orcid.org/0009-0007-3442-5508

Abstract. Tiger nuts are rich in minerals such as phosphorus, potassium, calcium, magnesium and iron. It also contains large amounts of vitamins E, C and B1, which help stabilize the central nervous system and cope with stress. In

addition, chufa helps restore the function of the intestinal epithelium, normalize intestinal peristalsis and treat constipation.

Key words: stress conditions, organic natural products, green biomass, tropical, subtropical, jelly, balm

Bugungi kunda butun dunyoda sog‘lom ovqatlanishni tashkil etish inson umrining davomiyligiga ta’sir qiluvchi eng muhim omil deb hisoblamoqda. Shuning uchun yangi oziq-ovqat manb’alarini izlash va ulardan foydalanish kunnng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bunday manb’alardan biri chufa- (*Cyperus esculentus Lativum*) o‘simligidir.

So‘nggi yillarda butun dunyoga noyob dorivor o‘simliklardan un, jele, choy va balzamlar, tabiiy ichimliklar taklif qiluvchi organik tabiiy mahsulotlar yetkazib beruvchi tarmog‘ faol rivojlanmoqda. *Cyperus esculentus Lativum* o‘simligi oziq-ovqat ehtiyojlarini qondirishdan tashqari, tuproq unumdorligini oshirishda, uning donalaridan parrandalarni, shuningdek yashil biomassasi va o‘simlik qoldiqlaridan chorva mollarini samarali boqish uchun ham foydalanish mumkin.

Yo‘lbars yong‘oqlari ko‘proq istiqbolli foydalanishga ega oziq-ovqat va sanoat uchun hom ashyo materiallari xisoblanadi; undan ichimliklar, sut yoki yogurt, un, murabbo, pivo ishlab chiqarish, shokolad, ozuqa manbai, oziq-ovqat yog‘i va sovun olishda foydalanish mumkin (Achoribo va Ong, 2017).

Yo‘lbars yong‘og‘i yoki *Cyperus esculentus* ba’zi ilmiy adabiyotlarda Afrika va tropik Osiyodan kelib chiqqanligi yozilsa, boshqa mualliflar esa u butun dunyoning tropik va subtropik mintaqalariga xos deb hisoblashadi. U ildizpoya va sharsimon ildiz tuganak hosil qiluvchi Cyperaceae oilasiga mansub. *Cyperus esculentus* tez o‘sadi, balandligi 20 dan 70 sm gacha yetadi. Uni 20 ° C dan 30 ° C gacha bo‘lgan mo‘tadil iqlimli mintaqalarda sho‘rlangan tuproqdan tashqari barcha tuproqlarda yetishtirish mumkin.Yo‘lbars yong‘og‘ini quruq, xom, qovurilgan yoki maydalangan holda iste’mol qilish mumkin, shuningdek yong‘oqchalaridan olingan maxsulotdan “Horchata” deb ataladigan sut olish mumkin. Yo‘lbars yong‘og‘ini oziq-ovqat maqsadlarida o‘ziga xos shirinligi tufayli kleykovinasiz un, muzqaymoqli sut ekstraktini olishda asosan xom iste’mol qilinadi.

Cyperus esculentus ko‘plab shifobaxsh xususiyatlariga ega.Xususan qimmatbaho moy manbayi mavjudligi hamda tarkibidagi kraxmal, glyukoza, oqsil va minerallar va bo‘lganligi sababli, yo‘g‘on ichak saratoni xavfini kamaytiradi, yurak stimulyatori sifatida ishlatiladi, diareyaga qarshi samarali vosita sifatida ishlatiladi.

Yo‘lbars yong‘oqlari fosfor, kaliy, kaltsiy, magniy va temir kabi minerallarga boy. (Ma duka va Ire, 2018). Shuningdek, uning tarkibida E va C, B1 vitaminlar ko‘p miqdorda mavjudligi tufayli markaziy nerv sistemasi ishini barqarorlashtirish, va stress xolatlarini boshqarishda yordam beradi (David, 2005).

Bundan tashqari, chufa ichak epiteliysi faoliyatini tiklanishiga, ichak peristaltikasini normallashtirishda va qabziyatni davolashga yordam beradi (Maduka va Ire, 2018).

Ayni shu xususiyatlarini hisobga olgan holda biz ilmiy tadqiqot ishimizda bu o‘simlikning introduktsiyasi, bioekologiyasi, mamlakatimizning turli tuproq – iqlim sharoitlari va yekologik omillarining chufa hosildorligiga ta’sirini o‘rganib uni asoslashni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ydik.

Yo‘lbars yong‘og‘i (*Cyperus esculentus Lativum*) Cyperaceae oilasiga mansub o‘simlik bo‘lib, u turli mamlakatlarda chufa, sariq yong‘oq, yer bodom va maydalangan bodom kabi boshqa nomlar bilan ham ataladi. *Cyperus esculentus* Lativum Osiyo, Sharqiy Afrika, Yevropaning bir qismida, xususan Ispaniyada, shuningdek, Arabiston yarim orolida keng tarqalgan ko‘p yillik o‘simlikdir (Abdelkader va boshqalar, 2017).

Chufa qadimdan madaniylashtirilgan o‘simlik hisoblanib, uning quruq ildiz mevalari Misrda taxminan 6000 yil oldingi qabrlardan topilgan va u muhim oziq-ovqat bo‘lib, o‘sha davr aholisi bu o‘simlik ildizlarini shirin go‘sht sifatida ishlatishgan (Zohary, 1986). Taxminan 4000 yil oldin yo‘lbars yong‘og‘i yog‘i (TNO) misrliklar tomonidan kosmetika va tibbiyotda ishlatilgan (Mohdaly, 2019).

Yo‘lbars yong‘og‘i tik o‘suvchi poyaga ega barglari sarg‘ish-yashil rangda, poyasi uchburchak shaklda,balandligi taxminan 20 dan 70 sm ni etadi. Gullari oltin jigarrang tusda, popuk ildiz sistemasiga ega. Ildizlarida ko‘plab oqsillar, kraxmallar va boshqa oziq moddalarni saqlaydigan ildiz tuganakchalari mavjud. O‘simlikning

nozik tolali ildizlari tuproq ostiga chuqur kirib bormaydi, ildizlarida uzunligi 8 mm dan 16 mm gacha bo‘lgan bir oz uzun yoki yumaloq ko‘rinadigan sharsimon sayoz er osti tizimini hosil qiladi (Abdelkader 2017).

Cyperus esculentus Lativum 20 °C dan yuqori haroratda, pH 5,0-7,5 oralig‘ida bo‘lgan qumli yoki qumloq tuproqlarda yaxshi rivojlanadi va yaxshi o‘sadi (Dyer,2009).

Chufa O‘rta yer dengizi mintaqasida, Afrika, Hindiston, Shimoliy Amerika, Meksika, Peru va boshqa mamlakatlarda yetishtiriladi (CABI, 2020). Yo‘lbars yong‘og‘ini G‘arbiy Afrika mamlakatlari Nigeriya, Senegal va Gana, Ispaniya kabi davlatlar yaxshi ishlab chiqaruvchi va eksprotchilari hisoblanadi (Ezeh va boshqalar, 2014).

Yo‘lbars yong‘oqlarining vegetatsiyasi 90 dan 110 kungacha davom yetishi mumkin aprel-iyul oylarida ekiladi va sentyabr-noyabr oylarida yig‘ib olinadi. (Maduka va Ire,2018).U ozgina kislotali va neytral (pH 5,0 dan 7,5 gacha), tuproqlarda yaxshi rivojlanadi, kunduzi va kechasi o‘rtasidagi o‘zgaruvchan harorat 30 ° C va 20 ° C bo‘lganda chufa yaxshi o‘sib rivojlanadi. Yorug‘lik va namlikka talabchan o‘simlik bo‘lganligi sababli tomchilatib sug‘orish chufa hosildorligini oshiradi.

Dala tajribalarimiz 4 qaytariqdan iborat xolatda bir yarusda joylashtirildi. Bizga ma’lumki tuproq introdutsient o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishiga ta’sir etuvchi muxim edafik omil xisoblanadi. Introdkutsiya qilinayotgan o‘simliklar ham tuproqning fizik-kimyoviy xossalariga va agrotsenozda mavjud barcha biotik tarkibiy qismlarga ta’sir etadi.

Cyperus esculentus Lativum rivojlanishi va yer osti tuganaklari

Shu maqsadda chufa urug‘larini ekishdan oldin mazkur tuproqning kimyoviy va fizik xolatlarini o‘rganish maqsadida tuproqning 0-25-240 sm gacha bo‘lgan qatlamidan na’munalar oldik va laboratoriya taxlillarini o‘tkazdik. Taxlillar natijasiga ko‘ra tajriba maydoninig tuprog‘i o‘rta qumoq tuproq ekanligi aniqlandi. Chufa qumli tuproqlarda, pH 5,0 dan 7,5 gacha gacha bo‘lgan tuproqlarda o‘saoladigan o‘simlik bo‘lganligi uchun mazkur tuproqqa urug‘ ekish rejalashtirildi.[1]

Dorivor Chufa (*Cyperus esculentus Lativum*) ning ontogenezini o‘rganish natijasida ma’lum bo‘ldiki, urug‘larining unuvchanlik xususiyati yuqori bo‘lib, yekish oldidan skarifikatsiya yoki stratifikatsiya qilish shart emasligi aniqlandi.

Laboratoriya sharoitida dorivor *Cyperus esculentus Lativum* ning urug‘ unuvchanligini eng maqbul variantini aniqlash uchun quyidagi +10ºC ,+15ºC, +20ºC, +25ºC, +30ºC, +35º C haroratlarda termastatga qo‘yilib kuzatishlar olib borildi.

Bizning tajribalarimiz ko‘rsatishicha urug‘lar laboratoriya sharoitida 5-6 kunlari unib chiqa boshladi. Tadqiqotimizning laboratoriya taxillarida Chufa (*Cyperus esculentus Lativum*) urug‘ining unib chiqishi uchun optimal harorat 20°C ekanligi aniqlandi. Urug‘lar ekilgandan keyin uchinchi kuni 6,6 ta, beshinchi kuni 18,6 ta, o‘n beshinchi kuni 62,7 ta, yigirmanchi kuni 78,8 ta va yigirma beshinchi kuni yesa 93,6 ta urug‘ unib chiqdi jami ekilgan urug‘ning 93,44% ini tashkil etdi. Bu gradusda keyingi kunlari urug‘ning unib chiqish jarayoni kuzatilmadi. Haroratning maksimal darajasi urug‘larning unib chiqishiga salbiy ta’sir etib,urug‘larning qurib qolishiga olib keldi.

Tajribalar natijalariga ko‘ra, Chufa (*Cyperus esculentus Lativum*) o‘simliklar urug‘ unuvchanligining unib chiqishi uchun haroratning eng maqbul varianti +20°C ekanligi kuzatilib, ushbu variantda unuvchanlik ko‘rsatkichi 20°C tashkil etdi.

ADABYOTLAR.

1. AbdelKader H, Ibrahim F, Ahmed M, El-Ghadban E. 2017. Effect of Some Soil Additives and Mineral Nitrogen Fertilizer at Different Rates on Vegetative rowth, Tuber Yield and Fixed Oil of Tiger Nut (Cyperus esculentus L.) Plants. J Plant Prod,8(1):39–48.

2. Achoribo ES, Ong MT. 2017. Tiger nut (Cyperus esculentus): Source of natural anticancer drug? Brief review of existing literature.Euro Medit Bioml J, 12: 91–94.

3. Maduka N, Ire SF. 2018. Tigernut Plant and Useful Application of Tigernut Tubers (Cyperus esculentus) - A Review. Current J App Sci and Tech, 29(3): 1–23.

4. David AB. 2005. Tiger nut. A Dictionary of Food and Nutrition.URL: ttps://www.encyclopedia.com/education/dictionaries thesauruses-pictures-and-press releases/tiger-nut. (access date: 21.02.2020).

5. AbdelKader H, Ibrahim F, Ahmed M, El-Ghadban E. 2017. Effect of Some Soil Additives and Mineral Nitrogen Fertilizer at Different Rates on Vegetative Growth, Tuber Yield and Fixed Oil of Tiger Nut (Cyperus esculentus L.) Plants. J Plant Prod, 8(1): 39–48.

6. Dyer AR. 2009. “The ecology of chufa (Cyperus esculentus sativus)”. Report from University of South Carolina Aiken. Columbia.

7. Dyer AR. 2009. “The ecology of chufa (Cyperus esculentus sativus)”. Report from University of South Carolina Aiken. Columbia.

UDK:633,8/9:577.4 BBR: 30.3:28.58

SUV TANQISLIGI SHAROITIDA AGROEKOSISTEMALARDA QUINOA (CHENOPODIUM QUINOA WILL) NI YETISHTIRISHING AHAMIYATI

Eshmurodova Mavluda Qodiraliyevna.
Don va don dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot instituti doktoranti.
eshmurodovamavluda52@gmail.com
Naralieva Nasiba Mamanovna.
ADU. Ekologiya va botanika kafedrasi mudiri., b.f.d. professor.
n_naralieva@mail.ru
Turgunboyev Abdulazizbek Xayitboy o ‘li.
ADU tayanch doktoranti

Annotasiya: So ‘nggi yillarda butun dunyoda suv va tuproq sho ‘rlanish darajasi har xil bo ‘lgan chekka hudud tuproqlarida almashlab ekishda sho ‘r va qurg ‘oqchilikka chidamli muqobil o ‘simliklarni qo ‘llash yoki bunday sharoitda yetishtirish qiyin yoki imkonsiz bo ‘lgan an ‘anaviy ekinlarni almashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblanmoqda. So ‘nggi yillarda dunyo miqosida agrosenozlardagi yuqoridagi kabi muammolarni hal etishda quinoa (Chenopodium quinoa Willd) psevdodon o ‘simligiga e ‘tibor kuchaymoqda. Bu o ‘simlikdan ekstremal tuproq va iqlim sharoitlariga yaxshi moslashgan ko ‘p maqsadli agrosanoat ekinlari sifatida foydalanish mumkin.

Kalit so ‘zlar: global cho ‘llanish, tuproqlarning degradatsiyasi, muqobil ekin, tuproqlarning degradatsiyasi, alternativ, psevdodon, galofit

ЗНАЧЕНИЕ ВЫРАЩИВАНИЯ КИНОА (CHENOPODIUM QUINOA WILL) В АГРОЭКОСИСТЕМАХ В УСЛОВИЯХ ДЕФИЦИТА ВОДЫ

Эшмуродова Мавлуда Қодиралиевна- докторант Научно-исследовательский институт зерно и зернобобовых культур Республики Узбекистана.
eshmurodovamavluda52@gmail.com
Наралиева Насиба Мамановна- заведующий кафедры Экология и ботаники Андижанского госуниверситета, доктор биологических наук (DSc), профессор (Узбекистан). n_naralieva@mail.ru
Тургунбаев Абдулазизбек Хайитбаевич - докторант Андижанского госуниверситета.

Абстракт: В последние годы считается целесообразным использовать в севооборотах на окраинных территориях с различным уровнем засоленности почвы и воды альтернативные соле- и засухоустойчивые растения или заменять традиционные культуры, выращивание которых в таких условиях затруднительно или невозможно. В последние годы все больше внимания уделяется псевдоподиуму — растению киноа (Chenopodium quinoa Willd) для

решения вышеуказанных проблем в агроценозах по всему миру. Это растение может использоваться как многоцелевая агропромышленная культура, хорошо приспособленная к экстремальным почвенно-климатическим условиям.

Ключевые слова: глобальное опустынивание, деградация почвы, альтернативная культура, деградация почвы, альтернатива, псевдоподия, галофит

THE IMPORTANCE OF CULTIVATING QUINOA (CHENOPODIUM QUINOA WILL) IN AGROECOSYSTEMS UNDER WATER SCARCITY CONDITIONS

Eshmurodova Mavluda Kodiralievna *- doctoral student of the Research Institute of Grain and Leguminous Crops of the Republic of Uzbekistan.*
eshmurodovamavluda52@gmail.com.

Naralieva Nasiba Mamanovna *- Head of the Department of Ecology and Botany of Andijan State University, Doctor of Biological Sciences (DSc), Professor (Uzbekistan).*
n_naralieva@mail.ru.

Turgunbaev Abdulazizbek Khaitbaevich *- doctoral student at Andijan State University.*

Abstract: In recent years, it has been considered advisable to use alternative salt- and drought-resistant plants in crop rotations in marginal areas with different levels of soil and water salinity, or to replace traditional crops that are difficult or impossible to grow in such conditions. In recent years, more and more attention has been paid to pseudopodium - the quinoa plant (Chenopodium quinoa Willd) to solve the above problems in agrocenoses around the world. This plant can be used as a multi-purpose agro-industrial crop, well adapted to extreme soil and climatic conditions.

Key words: global desertification, soil degradation, alternative culture, soil degradation, alternative, pseudopodium, halophyte

Yer yuzida iqlimning keskin o ‘zgarishi dunyo miqyosida global cho ‘llanishni kuchaytirishi kutilmoqda. Bularning barchasi butun dunyo bo ‘ylab ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlik, biologik xilma-xillik va barqaror rivojlanishga jiddiy ta ‘sir ko ‘rsatadi. Biroq yer yuzining qurg ‘oqchil mintaqlarida, ayniqsa qurg ‘oqchil va yarim qurg ‘oqchil joylarida, oziq ovqat yetishmovchiligi kuzatilayotgan 2 milliardga yaqin insonlar yashaydi. Dinyoning iqimi quruq hududlarini ahvoli tobora yomonlashib,bu holat odamlarga va atrof-muhitga salbiy ta ‘sir ko ‘rsatmoqda.[2]

Dunyo aholisi bugungi kunda sog ‘lom ovqatlanishni millatning poydevori va inson umrining davomiyligiga ta ‘sir qiluvchi eng muhim omil deb hisoblamoqda. Shuning uchun yangi oziq-ovqat manbalarini izlash va ulardan foydalanish kunning

dolzarb мasalalridan hisoblanadi. Bunday manbalardan biri qadimiy kinoa (Chenopodium quinoa) o ‘simligidir.

So ‘nggi yillarda butun dunyoga noyob donli mahsulotlardan un, jele, choy va noyob dorivor o ‘simliklardan balzalar, tabiiy ichimliklar taklif qiluvchi organik tabiiy mahsulotlar yetkazib beruvchi tarmog ‘ faol rivojlanmoqda. Shunday o ‘simliklardan
biri unutilgan va qadimiy ekinlardan biri hisoblangan, hozirgi vaqtda dunyoda keng miqyosda yetishtirilishi yo ‘lga qo ‘yilayotgan donli o ‘simlik quinoadir.

Suv resurslarining kamayib borayotganligi sababli, bu xavf-hatarlarlar ortib bormoqda. Yaylovlar unumdorligining pasayishi, o ‘simlik qoplamini kamayishi, unumdor tuproqlardan to ‘g ‘i foydalanmaslik,sho ‘rlanish, botqoqlanish, va tuproq unumdorligining pasayishini asosiy sabablari bo ‘lib, jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Markaziy Osiyo regionidagi ushbu muammolarni hal qilish uchun olimlar ishlab chiqarish tizimlarini diversifikatsiya qilishni tavsiya qilmoqalar. Ular suv va tuproq sho ‘rlanish darajasi har xil bo ‘lgan chekka hudud tuproqlarida almashlab ekishda sho ‘r va qurg ‘oqchilikka chidamli muqobil ekinlarni qo ‘llash yoki bunday sharoitda yetishtirish qiyin yoki imkonsiz bo ‘lgan an ‘anaviy ekinlarni almashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar.

Masalan, sho ‘rga chidamli jo ‘xori (Sorghum bicolor) va tariq (Pennisetum glaucum) kabi ekinlar suvni kam talab qiladi va qurg ‘oqchilik va issiqlikka juda chidamli. Bu ekinlar bir vaqtning o ‘zida ikkita muammoni hal qilishga yordam beradi: birinchidan, ular g ‘alla va yem-xashakni barqaror etishtirishni ta ‘minlaydi; ikkinchidan, ular eroziyaning oldini olish va tuproq unumdorligini oshirishga yordam beradi. Jo ‘xori va tariqning bu hususiyatlari ayniqsa sho ‘rlangan va qurg ‘oqchilika moyil bo ‘lgan tuproqlar uchun qulay hisoblanadi.[3]

Ammo, so ‘nggi yillarda dunyo miqosida agrosenozlardagi yuqoridagi kabi muammolarni hal etishda boshqa o ‘simlikka e ‘tibor kuchaymoqda bu - quinoa (Chenopodium quinoa Willd)psevdodon o ‘simligidir. Bu o ‘simlikdan ekstremal
tuproq va iqlim sharoitlariga yaxshi moslashgan ko ‘p maqsadli agrosanoat ekinlari sifatida foydalanish mumkin.[5]

Ayni shu xususiyatlarini bilgan holda biz ilmiy tadqiqot ishimizda bu o ‘simlikning bioekologiyasi, mamlakatimizning turli tuproq – iqlim sharoitlari va ekologik omillarining quinoa hosildorligiga ta ‘sirinio ‘rganib uni asoslashni o ‘z oldimizga maqsad qilib qo ‘ydik.

Quinoa- Amaranthaceae (lat. Amaranthaceae) oilasi, Chenopodwdeae (lot. Chenopodwdeae) kenja oilasi, Meri (lat. Chenopodium) jinsining Quinoa (lot. Chenopodium quinoa Willd.) turidir.

Quinoa(Chenopodium quinoa Willd) iqlim o ‘zgarishlariga oson moslasha oladi va suvni tejaydi, bu esa Markaziy Osiyoda oziq-ovqat ishlab chiqarish

muammolarining kuchayib borayotgan bugungi sharoitida uni ajoyib alternativo ‘simlik ekanligini ko ‘rsatadi.

Quinoa – sho ‘rlanishga, hatto dengiz suvlarida topilgan sho ‘rlanish darajalariga teng bo ‘lgan darajada bardoshli bo ‘lgan galofit ekindir. Quinoa unumdorligi past bo ‘lgan tuproqlarda, shu jumladan qumda va yillik yog ‘ingarchilik miqdori past bo ‘lgan hududlarda ham o ‘sish qobiliyatiga ega.

Quinoa(Chenopodium quinoa Willd)ni oziq-ovqat ehtiyojlarini qondirishdan tashqari, uning donalaridan parrandalarni, shuningdek yashil biomassasi va o ‘simlik qoldiqlaridan chorva mollarini samarali boqish uchun ham foydalanish mumkin.

Quinoa (Chenopodium quinoa Willd)ning genotipik guruhlari morfologiyasi va urug ‘lari (panikula)ning rangi

U taxminan 7000 yil oldin Titikaka ko ‘li havzasida madaniylashtirilgan va u yerdan janubdagi boshqa hududlarga tarqalgan.U oqsilga, muhim aminokislotalar, lipidlar va minerallarga boy bo ‘lgan to ‘yimli donlari uchun butun dunyo miqyosida tobora ko ‘proq yetishtirilmoqda.

Quinoa turli xil abiotik omillarga nisbatan yuqori tolerantlik xususiyatiga egadir.Uning aynan shu xususiyati qishloq xo ‘jaligidagi turli agroekologik zonalarga moslashish qobiliyatini ta ‘minlab, issiq quruq cho ‘llarda va nisbiy namligi 88% gacha bo ‘lgan tropik hududlarda -8 ° C dan o ‘sishiga imkon beradi. Uning 40 °C va dengiz sathidan 4000 m balandlikdagi tog ‘li hududlarda, ishqorli va gidrooksidli tuproqlarga moslashuvi, pH 4,5 dan 9,06 gacha bo ‘lgan tuproqlarda yetishtirish imkonini beruvchi ajoyib moslanish belgilariga ega.

Quinoa qurg ‘oqchilikka chidamli ekin bo ‘lib, yiliga 200 mm dan kam yog ‘ingarchilik bo ‘lgan iqlimi quduq hududlarda yuqori sho ‘rlanishga chidamli va

fakultativ galofit hisoblanadi.

Quinoa (Chenopodium quinoa Willd) urug ‘lari (panikula) ning rangi Oq, binafsha, qizil, pushti, sariq, to ‘q sariq, jigarrang, kulrang, qora, qizil va oq, qizil va pushti, qizil va sariq, yashil, qizil va yashil rangacha bo ‘lishi mumkin Quinoa - atrof-muhit sharoiti va genotipiga qarab balandligi 0,20 dan 3 m gacha bo ‘lgan bir yillik otsi
o ‘simlik, gullash davomiyligi esa 50-70 kundan iborat bo ‘lib.O ‘simlikning quruq vazni 365,5g gacha, urug ‘ning vazni1,15g - 77,9g (bir tup o ‘simlikda) tashkil etadi.[3]

Ilmiy tadqiqot ishlarimizning dala tajribalarini Andijon viloyati, Bo ‘ston tumani, “Bo ‘ston o ‘rmon innovatsion texnologiyalarni tadbiq etish” –MChJ ga qarashli, G ‘olib MFY ning sug ‘oriladigan bo ‘z tuproqlarida olib bordik.

Dala tajribalarimiz 4 qaytariqdan iborat xolatda bir yarusda joylashtirildi. Bizga ma ‘lumki tuproq introdutsient o‘simliklarning o ‘sishi va rivojlanishiga ta ‘sir etuvchi muxim edafik omil xisoblanadi. Introdkutsiya qilinayotgan o ‘simliklar ham tuproqning fizik-kimyoviy xossalariga va agrotsenozda mavjud barcha biotik tarkibiy qismlarga ta ‘sir etadi. Shu maqsadda kinoa urug ‘larini ekishdan oldin mazkur tuproqning kimyoviy va fizik xolatlarini o ‘rganish maqsadida tuproqning 0-25-240 sm gacha bo ‘lgan qatlamidan na ‘munalar oldik va laboratoriya taxlillarini o ‘tkazdik. Taxlillar natijasiga ko ‘ra tajriba maydoninig tuprog ‘i 2- darajali kuchsiz sho ‘rlangan, o ‘rta qumoq tuproq ekanligi aniqlandi. Kinoa unumdorligi past bo ‘lgan qumli tuproqlarda, pH 4,5 = 4,8 dan pH = 9,6 gacha bo ‘lgan tuproqlarda o ‘saoladigan o ‘simlik bo ‘lganligi uchun mazkur tuproqqa urug ‘ ekish rejalashtirildi.

Tadqiqotimizning tajriba maydoniga kinoa urug ‘larini ekish maqsadida ularning dala va laboratoriya unuvchanligini o‘rganib chiqdik. Dorivor Quinoa (Chenopodium quinoa Willd) ning ontogenezini o ‘rganish natijasida ma ‘lum bo ‘ldiki, urug ‘larining unuvchanlik xususiyati yuqori bo ‘lib, ekish oldidan
skarifikatsiya yoki stratifikatsiya qilish shart emas. Laboratoriya sharoitida dorivor Quinoa (Chenopodium quinoa Willd) ning urug‘ unuvchanligini eng maqbul variantini aniqlash uchun quyidagi $+10^0$C, $+15^0$C, $+20^0$C, $+25^0$C, $+30^0$C, $+35^0$C haroratlarda termostatga qo‘yilib kuzatishlar olib borildi.



Quinoa (Chenopodium quinoa Willd) urug ‘larining laboratoriya sharoitida turli haroratlarda unib chiqishi.

Bizning tajribalarimiz ko‘rsatishicha urug‘lar laboratoriya sharoitida 4-5 kunlari unib chiqa boshladi. 12-16 kunlari urug‘palla barglari bir-biriga yopishgan holda sariq rangda nomoyon bo‘ldi

Tadqiqotimizning laboratoriya taxillarida Quinoa (Chenopodium quinoa Willd) urug‘ining unib chiqishi uchun optimal harorat 25°C ekanligi aniqlandi. Urug‘lar ekilgandan keyin uchinchi kuni 6,5 ta, beshinchi kuni 18,4 ta, o‘n beshinchi kuni 62,9 ta, yigirmanchi kuni 78,9 ta va yigirma beshinchi kuni yesa 93,7 ta urug‘ unib chiqdi jami ekilgan urug‘ning 93,75% ini tashkil etdi. 35°C da esa uchinchi va beshinchi kunlari ekilgan urug‘larning 45,44% i unib chiqdi. Bu gradusda keyingi kunlari urug‘ning unib chiqish jarayoni kuzatilmadi. Haroratning maksimal darajasi urug‘larning unib chiqishiga salbiy ta‘sir etib,urug‘larning qurib qolishiga olib keldi.

Tajribalar natijalariga ko‘ra, Quinoa (Chenopodium quinoa Willd) o‘simliklar urug‘ unuvchanligining unib chiqishi uchun haroratning eng maqbul varianti $+25^0$C ekanligi kuzatilib, ushbu variantda unuvchanlik ko‘rsatkichi 93,8 % tashkil etdi.

Xulosa qilishimiz mumkinki, dorivor Quinoa (Chenopodium quinoa Willd) o‘simligi urug‘ining unib chiqishiga ta‘sirini o‘rganish uning o‘sishi va rivojlanishini, introduktsiya sharoitida o‘simlikning ontogenezi o‘rganish, o‘simliklarni muayyan sharoitda yetishtirib va madaniylashtirib yuqori samaradorlikka erishishda muhim ekologik omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xalqaro Quinoa yili - 2013 // Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo ‘jaligi tashkiloti [Elektron resurs]. -:Kirish rejimi: http://www.fao.org.
2. Чениховец Е.А.Куиноанинг кимёвий таркиби (Chenopidium quinoa) // Россия қўй ва ечкичилик илмий тадқиқот институтининг илмий ишлари тўплами. 2015.Т.1. No 8. 343-346-betlar.

3. Шечеколдина, T.B. Quinoa - noyob ko ‘p maqsadli ekindir // Innovatsion oziq-ovqat mahsulotlarining texnologiyasi va savdosi, No 5 (22), 2013. - 91-96-betlar.
4.Rao, N. K. (2016). “Quinoa: a future-proof crop for climate smart agriculture,” in *Global Forum forInnovations in Agriculture-2016,* ed R. Choukr-Allah (Abu Dhabi).
5.СултановаЗ. С., ТодеричК. Н., (201 9) Vozdelyvanie Kinoa v Usloviyah Yuzhnogo Priaral ‘ya. *Science Review*. 8(25). doi: 10.31435/rsglobal_sr/31102019/6749
6. Sultanova Z. S., Khudaibergenov Bakhtiyar, Uteuliev Janibek, Sultanov Bahadir. (2021) Yield of Quinoa Varieties at Different Fertilization Rates. World Science. 1(62). doi: 10.31435/rsglobal_ws/30012021/7409. https://doi.org/10.31435/rsglobal_ws/30012021/7409
7. Botir Xaitov., Aziz A Karimov., Kristina Toderich., Zulfiya Sultonova., Azimjon Mamadrahimov., Xoliq Allanovю, Sohib Islomov.Journal of Plant Nutrition, Volume 44, 2021 – Issue 9. Adaptation, grain yield and nutritional characteristics of quinoa (Chenopodium quinoa) genotypes in marginal environments of the Aral Sea basin.https://doi.org/10.1080/01904167.2020.1862200

УЎТ: 633.511/631.542.4.

ЎРТА ТОЛАЛИ ҒЎЗА НАВЛАРИ ЧИГИТЛАРИНИНГ УНИБ ЧИҚИШ ДИНАМИКАСИНИ АНИҚЛАШ

Убайдуллаев М.М. *Ўрта толали ғўза навлари чигитларининг униб чиқиш динамикасини аниқлаш.*
Убайдуллаев М.М. *Определение динамики прорастания семян средневолокнистых сортов хлопчатника.*
Ubaidullaev M.M *Determination of seed germination dynamics of medium-fiber cotton varieties.*
Фарғона давлат техника университети
қ.х.ф.ф.д., (PhD) доценти ***Убайдуллаев Мадаминжон Мўминжонович***
mubaydullaev6554@gmail.com
тел: 90 274-65-54

Аннотация. *2018-2022-йиллари ўтказилган 2-тажрибада ғўзанинг С-8290 ва Наманган-77 навлари чигитларнинг униб чиқиш динамикаси ўрганилган бўлиб, бу икки тажриба бир хил тупроқ-иқлим шароитларида ўтказилганлиги учун бўлса керак, ниҳолларни униб чиқиш жадаллиги 1-тажрибадагидек такрорланган. 2018-йил шароитида кузатувлар 5-майдан бошланиб, С-8290 ғўза навининг ниҳоллари 52,8 % униб чиққан бўлса, Наманган-77 навиники 35,3% ни ташкил этганлиги аниқланган.*

Калит сўзлар: *тупроқ, чигитлар, униб чиқиш, таҳлил, самарадорлик.*

Аннотация. *Во 2-м опыте, проведенном в 2018-2022 годах, изучалась динамика всхожести семян сортов хлопчатника С-8290 и Наманган-77, и,*

вероятно, поскольку эти два опыта проводились в одинаковых почвенно-климатических условиях, интенсивность всхожести повторялась, как в 1-м опыте. В условиях 2018 года наблюдения начались 5 мая, и было установлено, что всхожесть семян сорта С-8290 составила 52,8%, а сорта Наманган-77 - 35,3%.

Ключевые слова: *почва, семена, всхожесть, анализ, эффективность.*

Annotation. *In the 2 nd experiment, conducted in 2018-2022, the seed germination dynamics of the C-8290 and Namangan-77 cotton varieties were studied, and probably, since these two experiments were conducted in the same soil and climatic conditions, the germination intensity was repeated as in the 1st experiment. Under 2018 conditions, observations began on May 5th, and seed germination was 52.8% for the C-8290 variety and 35.3% for the Namangan-77 variety.*

Key words: *soil, seeds, germination, analysis, effectiveness.*

Кириш

Шуни таъкидлаш лозимки, ғўзани парваришлаш агротадбирлари қаторида ғўза кўсаклари пишиш фазасига кирганда уларни сунъий баргсизлантириш ҳам муҳим аҳамият касб этади. Чунки, ўз муддатида ва сифатли ўтказилган дефолиация тадбири натижасида тола сифати бирмунча яхшиланиши исботланган, яъни терилаётган пахта ифлосланмасдан тоза териб олинади.

Маълумки, ғўза ниҳолларининг тўлиқ даражада униб чиқишида аввало навларнинг биологик хусусиятлари, қолаверса белгиланган назарий кўчат қалинлиги ҳосил бўлишлигини таъминлайдиган омиллар: ернинг текислиги, шудгорнинг сифати, шунингдек, тупроқнинг механик таркибига қараб ер тайёрлаш ишларининг олиб борилиши, тупроқ намлиги ва ҳарорати, чигитни экишга тайёрлаш ҳамда экишни тавсияномалар асосида ўтказилиши муҳим аҳамиятга эгадир [2].

Тадқиқот услубиёти

Долзарб вазифалар юзасидан, 2018-2022 йиллар мобайнида тадқиқотларимиз Фарғона вилоятининг Қува туманида жойлашган Пахта селекцияси, уруғчилиги ва етиштириш агротехнологиялари илмий-тадқиқот институти илмий тажриба станциясининг ўтлоқи-саз, механик таркибига кўра оғир қумоқ, кам шўрланган, сизот сувлари 1,6-1,8 метр чуқурликда жойлашган тупроқ шароитида олиб борилди. Тажрибада ҳар бир нав учун вариантлар олинган бўлиб, 3 та такрорланишда жойлаштирилди [4].

Тажриба вариантларига С8290, С6775, Наманган-77 ғўза навларининг кўсаклари 30-40% ҳамда 50-60% очилган муддатда юмшоқ таъсирга эга бўлган юқоридаги хорижий ва маҳаллий дефолиантларнинг кўрсатилган меъёрлари қўлланилиб, уларнинг мақбул қўллаш меъёри ва муддати аниқланди.Илмий изланишлар ЎзПИТИда қабул қилинган «Методика полевых опытов с хлопчатником» (1981), “Дала тажрибаларини ўтказиш услублари” (2007) ва ЎзР Давлат кимё комиссияси томонидан қабул қилинган «Ғўза

дефолиантларини синаш бўйича услубий кўрсатмалар» (1993, 1994, 2004) қўлланмалари асосида олиб борилди.

Тадқиқот натижалари ва уларнинг муҳокамаси

2018-2020-йилларда ўтказилган 1-тажрибада ўрта толали С-8290, С-6775 ғўза навларининг чигити мутаносиб равишда 26, 4 ва 18-апрел кунлари экилган.

Аввало шуни айтиш керакки, ғўза ниҳолларининг униб чиқишида С-8290 ва С-6775 ғўза навлари орасидаги фарқ борлиги аниқланган. Қолаверса ғўза навларида ниҳолларнинг униб чиқиш жадаллиги бўйича олинган маълумотлар йиллар бўйича ҳар хил бўлганлиги аниқланиб, бу иқлим шароитларига боғлиқлиги кузатилган.

Чигит экилгандан сўнг, ниҳоллар кўрина бошлаши билан кузатувлар бошланди ва ҳар 3 кундан кейин давом эттирилган. Кузатувларнинг биринчи муддатида (05.05; 12.04 ва 28.04) С-8290 ғўза нави ниҳолларининг униб чиқиши тадқиқот йилларига мутаносиб равишда 52,3-51,3-55,4% ни ташкил этган бўлса, С-6775 навида бу кўрсаткичлар 34,8-36,3-50,0% га тенг бўлган (1-жадвал).

Кузатувларнинг иккинчи муддатида (07.05; 14.05 ва 30.04) С-8290 ғўза нави ниҳолларининг униб чиқиши тадқиқот йилларига мутаносиб равишда 64,6-63,9-66,3 га, С-6775 навида бу кўрсаткичлар 66,3-53,1-61,0 га тенг бўлган. Учинчи муддатда (09.05; 18.05 ва 02.05) С-8290 ғўза нави ниҳолларининг униб чиқиши тадқиқот йилларига мутаносиб равишда 82,6-85,3-86,6 бўлса, С-6775 навида бу кўрсаткичлар 81,0-83,1-84,0 га тенг ёки 1,6-2,2 ва 2,6% га камроқ бўлганлиги аниқланган.

1-жадвал.

Чигитнинг униб чиқиш динамикаси (1-тажриба)

Ғўза навлари	Кузатув муддатлари		
2018 йил			
	05.V	**07. V**	**09. V**
С-8290	52,3	64,6	82,6
С-6775	34,8	66,3	81,0
2019 йил			
	12. IV	**14. IV**	**18. IV**
С-8290	51,3	63,9	85,3
С-6775	36,3	53,1	83,1
2020 йил			
	28. IV	**30. IV**	**02.V**
С-8290	55,4	66,3	86,6
С-6775	50,0	61,0	84,0

Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, 2018 йил шароитида ғўза навлари ниҳолларининг униб чиқишини аниқлаш бўйича кузатувлар май ойида олиб борилган бўлса, 2019-2020 йилларда эса апрелда аниқланган.

Демак, тажрибаларда барча йиллар мобайнида ҳам чигитлар етарлича ундирилган ва тўлиқ ниҳол олишга эришилган.

2018-2020- йиллари ўтказилган 2-тажрибада (2-диаграмма) ғўзанинг С-8290 ва Наманган-77 навлари чигитларнинг униб чиқиш динамикаси ўрганилган бўлиб, бу икки тажриба бир хил тупроқ-иқлим шароитларида ўтказилганлиги учун бўлса керак, ниҳолларни униб чиқиш жадаллиги 1-тажрибадагидек такрорланган. 2018-йил шароитида кузатувлар 5-майдан бошланиб, С-8290 ғўза навининг ниҳоллари 52,8 % униб чиққан бўлса,



2-диаграмма. Чигитнинг униб чиқиш динамикаси (2-тажриба)

Бу 3 та нав орасида нисбатан юқори кўрсаткичлар С-8290 навида олинган ҳолда кузатув охирида навларга мутаносиб равишда (9-май) 84,2 ва 82,4 % ни ташкил этгани ва Наманган-77 нави ниҳолларини униб чиқиш жадаллиги С-8290 никига нисбатан 1,8% га камроқ бўлгани кузатилган. Таъкидлаш жоизки, тажрибалар бир хил шароитларда ўтказилган бўлса ҳам 1-тажриба билан 2-чиси орасида С-8290 нави ниҳолларининг униб чиқиш даражаси кузатувларнинг охирида (9-май) 1,8% га фарқланган. Бу ҳолатни юқорида ёзганимиздек, бир пайкалнинг ўзида ҳам тупроқ шароитлари фарқланиши билан тушунтириш керак бўлади.

Тадқиқот йиллари орасида 2020-йилда ғўза навларидан қатъий назар нисбатан юқорироқ кўрсаткичлар олинганки, бу иқлим шароитига тупроқ ҳарорати ва намлигига бевосита боғлиқдир.

Кузатувларнинг охирги муддатида (02-май) С-8290 навининг ниҳоллари 1-тажрибада 86,6 % униб чиққан бўлса, 2-тажрибада 89,1% ни ташкил этган бўлса С-6775 навиники 89,0% ни, Наманган-77 навиники 86,4 % га тенг бўлганлиги аниқланган.

2020-2022-йилларда ўтказилган 3-тажрибада яна С-8290, Наманган-77 ва С-9090, Андижон-35 ғўза навлари экилиб, бошқа дефолиантларнинг самарадорлиги аниқланган (3-диаграмма).



3-диаграмма. Чигитнинг униб чиқиш динамикаси (3-тажриба)

Фарғона вилоятининг ўтлоқи-соз тупроқлари шароитида олиб борилган илмий изланишлар натижалари асосида қуйидагича хулосалар қилиш мумкин.

ХУЛОСА

3-тажрибанинг охирги (2022) йилидаги кузатувларда хам 1-2 йилларга яқин маълумотлар олиниб, кузатувни охирги муддатида (20-апрел) ғўза навларига (С-8290, Наманган-77, С-9090 ва Андижон-35) мутаносиб равишда ниҳолларнинг униб чиқиш даражалари 87,9; 87,1; 90,1 ва 87,8 % га тенг бўлганлиги аниқланган (3-диаграмма).

Демак, олиб борилган 3 та тажрибада экилган С-8290, Наманган-77, С-9090 ва Андижон-35 навларининг ниҳолларини униб чиқиш жадаллиги бўйича қўйидаги ўринларни эгаллаган:

С-9090, С-8290, Андижон-35, Наманган-77 ва С-6775. Яна шуни ҳам айтиш керакки, ғўза навларининг ниҳолларининг униб чиқиш жадаллиги уларнинг ўсиши, ривожланишида, қуруқ масса тўплашида, қолаверса пахта ҳосили кўрсаткичларида ўз ифодасини топган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Убайдуллаев М. М. & Тешаев Ф. Ж. (2020). Определение эффективных норм новых дефолиантов в условиях лугово-солончаковых почв Ферганской области при раскрытии коробочек 50-60% сортов хлопчатника С-8290 и С-6775. Актуальные проблемы современной науки, (5), 62-64.

2.Ubaydullayev M.M. G‘o‘zada defoliatsiya o‘tkazishning maqbul me’yor va muddatlari.Monografiya.Farg‘ona - AL – FERGANUS – 4.11.2021.

3.Убайдуллаев Мадамин Муминович, Неъматова Ферузаксон Джамолксон Кызы. (2021 г.). Значение посадки и обработки среднеполевых сортов

хлопчатника между хлопковыми рядами в Ферганской области. Американский журнал сельского хозяйства и биомедицинской инженерии, 3 (09), 26–29.
4.Ubaydullayev M.M.,Ne'matova F.J.,Marufjonov A. Determination of efficiency of defoliation in medium-fiber cotton varieties. Galaxy international interdisciplinary research journal (giirj). Volume 9, Issue 11, November, 2021. SJIF Impact Factor: 7.472.

DARAXTSIMON PION *(PAEONIA SUFFRUTICOSA)* NING SELEKSIYA QILISH TARIXI

[1]F.F. Nurmuxamedova, [2]X.Q. Haydarov, [1]Sh.M. Ergashev, [1]J.X.Eshmurodov
[1]Sharq tabobati ilmiy-tadqiqot instituti, Samarqand
[2]Samarqand davlat universiteti, Samarqand

Annotatsiya. *Seleksiya qilish natijasida yangi yaratilgan daraxtsimon pion (Paeonia suffruticosa) ni bizning mintaqaga introduksiya qilish natijasida ularni maxalliylashtirish hamda ko‘paytirish asosida bog‘bonchilik va gulchilikga katta hissa qo‘shiladi. Introduksiya qilingan o‘simliklarni madaniylashtirish va ko‘paytirishga erishish ularni chet eldan sotib olmasdan o‘zimizda yetishtirishga imkon yaratadi.*

Kalit so‘zlar*. Daraxtsimon pion (Paeonia suffruticosa) , seleksiya, madaniylashtirish, ko‘paytirish.*

Аннотация. Селекция вносит значительный вклад в садоводство и цветоводство на основе интродукции недавно созданного древовидного пиона (Paeonia suffruticosa) в наш регион, а также их локализации и размножения. Достижение культивирования и размножения интродуцированных растений позволяет выращивать их у себя, не покупая за границей.

Ключевые слова: *древовидные пионы; селекция; культивары; размножение.*

Annotation. *Breeding makes a significant contribution to horticulture and floriculture based on the introduction of the newly created tree peony (Paeonia suffruticosa) into our region, as well as their localization and reproduction. Achieving the cultivation and propagation of introduced plants allows you to grow them at home without buying them abroad*

Keywords: *tree-like peonies; breeding; cultivars; reproduction*.

Daraxtsimon pion *(Paeonia suffruticosa)*- Xitoyda bog‘ va xiyobonlarni bezatishda yetakchi o‘rinlarda turadi. Xitoyda eng mashhur daraxtsimon pionlardan biri bo‘lib, “Mutan” (*“Myu Tang”*) navi sanaladi.

Daraxtsimon pion *(Paeonia suffruticosa)*larning tarixi ularning dorivorlik hususiyati bilan boshlangan. Xitoy manbalarida yozilishicha pionlarga bo‘lgan qiziqish Xan hukmdorligi (mil.avv 200 yil) davridan boshlangan. Birinchi bor daraxtsimon pionlar haqida Zang Ksun (1086-1903 y) yozgan.

“Происхождение вещества и предметов” kitobida aytilishicha, *Paeonia suffriticosa* ning bog‘larda manzara berishda keng ekilishi Yanga (605-616) hukmronlik davridan boshlangan. Sunn hukmronligi davrida (960-1280) esa 30 ga yaqin madaniy navlari bo‘lgan. Tan sulolasi (616-907) davrida daraxtsimon pionlar Chan’an va Loyanda keng tarqalgan. Hozirgi paytda *Paeonia suffruticosa*ning 300 dan ortiq navlarining kolleksiyasi Loyan shahrida bor.

Yaponiyada daraxtsimon pion *“Butan” (“Bhotan”)* ismi bilan mashhur bo‘lgan. 1034-yilda Ouyan Syu 24 ta navdan iborat bo‘lgan daraxtsimon pionlarning birinchi sharhini yozgan. Yaponiyada ular pionlarni yetishtirish va takomillashtirishni boshlab, noyobligi bilan ajralib turadigan yangi navlarni yaratdilar.

1948-yilda Yaponiyada pionlarni tez ko‘paytirish maqsadida payvand qilish texnologiyasini ishlab chiqdilar. 1987-yildan boshlab gullashini tezlashtiradigan texnologiyalar ishlab chiqildi. 2006-yildan boshlab vakumli qadoqlash texnologiyasi ishlab chiqilib, bu ularni yil davomida kesib eksport qilish imkonini bergan.

Pionning madaniylashtirishning rivojlanish tarixi XIX asrdan boshlangan bo‘lib ya’ni, Yevropa, Angliya, Niderlandiya va Fransiyaga oddiy va daraxtsimon pionlarning navlari tarqalishi bilan boshlangan. 1864-yilda Gollandiyada 180 navdan, Belgiyada-168 navdan, Germaniyada- 61 navdan, Fransiyada- 350 navga yaqin daraxtsimon pionlarning kataloglari mavjud bo‘lgan. 1869-yilda Versalda ajoyib daraxtsimon pionlarning navlarini ko‘rgazmaga qo‘yishgan.

Daraxtsimon pionlarni Amerikaga Angliyadan XIX asrda eksport qilishgan. 1903-yilda Amerikada American Peony Society nomli pionlarni sevuvchi jamg‘arma ochilgan. XIX asr oxirlarida Amerikada pionlarning turlararo gibrid qilish seleksiyasi boshlangan.

A. Saunderson (A.P. Saunders, 1869– 1953 yy) Yaponiya daraxtsimon pion navi bilan yovvoyi piondan yangi gibrid nav hosil qilgan. XX va XXI asrlardan daraxtsimon pionlarni seleksiyalararo gibridlash keng tarqalgan. Gibrid navlar ichida sariq gullaydigan pionlar qimmatbaho hisoblangan.

Rossiyaga *Paeonia suffruticosa* ning XIX asr boshlarda kirib kelgan. 1812-yilda Qirimda imperator Nikita nomidagi botanika bog‘I tashkil etilgan bo‘lib, uning 1-direktori Христиан Христианович Стевен bo‘lgan. U bog‘ga Germaniya va Fransiyadan dekorativ ko‘rk beradigan o‘simliklarni keltirib, introduksiya qilgan. 1850-1854-yillardan bog‘da daraxtsimon pionlarning bir qancha navlari introduksiya qilingan. 1824-yilda V.L. Komorova nomidagi botanika bog‘ida ilk bor daraxtsimon pionning katalogi qayd etilgan. Ochiq maydonlarda *Paeonia suffruticosa* ni o‘stirish XX asr o‘rtalaridan boshlangan. M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining botanika bog‘ida Anastasiya Antonovna Sosnovets birinchilardan bo‘lib *Paeonia suffruticosa* ning seleksiyasi bilan shug‘ullanishni boshlagan.

Hozirgi paytga kelib *Paeonia suffruticosa*ning 500 ga yaqin navlari mavjud bo‘lib, navlar 3 ta guruhga bo‘linadi:

1. Xitoy-Yevropa navlari; (1-rasm)
2. Yaponiya navlari; (2-rasm)
3. Sariq rangli gibrid pionlar (*P. delavayi*) (3-rasm)

1-rasm	***2-rasm***	***3-rasm***
(Paeonia Lan bao shi)	***Paeonia Shima Nishiki / Dao jin***	***Paeonia Hai huang***

Bu navlar bir biridan balandligi, bargining shakli va hajmi, gulining rangi va diametriga qarab farq qiladi. Ularning barchasi hushbo‘y hidli bo‘lib, sovuqqa chidamli o‘simliklar turidan hisoblanadi.

Hozirda biz *Paeonia suffruticosa* navlarining morfobiologiyasini hamda ko‘paytirish usullari o‘rganmoqdamiz. Bu bizga bog‘dorchilikda va gulchilikda *Paeonia suffruticosa* ning navlarini chet eldan eksport qilib olmasdan turib ularni ko‘paytirish texnologiyasini yaratishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. *Ефимов С.В.* Комплексное изучение и оценка морфологических признаков пиона (*Paeonia* L.) при интродукции // Ученые записки Таврического национального
университета им. В. И. Вернадского. – Серия «Биология, химия». – Том 27 (66). – 2014. №5. Спецвыпуск. – С. 47 – 62.
2. *Криницына А.А., Мурашев В.В., Раппопорт А.В., Сперанская А.С., УспенскаяМ.С., Чурикова О.А.* Микроклональное размножение декоративных культур. Пион древовидный (*Paeonia suffruticosa*). – М.: изд-во Моск. ун-т., 208. – 40 с.
3. Вестник ИрГСХА, издательство Федеральное государственное бюджетное образовательное учреждение высшего образования «Иркутский государственный аграрный университет им.А.А. Ежевского», 2011. – Том 44, № 2. – С. 82 – 89.
4. *Успенская М.С.* Пионы. – М.: ЗАО «Фитон+», 2002. – 208 с.
5. *Успенская М.С.* Древовидные пионы: коллекция ботанического сада МГУ имени М.В. Ломоносова. – М.: «Пента», 2017. – 144 с.
6. *Успенская М.С., Мурашев В.В., Криницына А.А.* Древовидные пионы в ботаническом саду МГУ / Под ред. в.н.с. В.В. Мурашева. – М. «Лесная страна», 2016. –104 с.

SAMARQAND VILOYATI HUDUDIGA EKIB KO‘PAYTIRILAYOTGAN BAMIYA (*Abelmoschus esculentus*)NI INTRADUKSION HUDUDGA MOSLANISH BELGILARINI TAHLILI

[1]Axadova Munira Odiljon qizi, [2]Eshmurodov Jonibek Xudayberdi o‘g‘li

[1]Munira Odilovna MChJ, Samarqand

[2]Sharq tabobati ilmiy tadqiqot instituti, Samarqand

Annotatsiya: Maqolada bamiya (Abelmoschus esculentus) o‘simligining Samarqand viloyatining mo‘tadil iqlim sharoitiga moslashuvchanlik darajasi tahlil qilindi. Tadqiqotlar davomida urug‘ unuvchanligi, o‘sish sur’atlari, vegetatsiya davri davomiyligi va ekologik omillarga (harorat, namlik) nisbatan sezuvchanligi aniqlanib, statistik va eksperimental usullar asosida baholandi. Olingan natijalar bamiya o‘simligini intraduksiya qilishda agronomik choralarni moslashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Bamiya, *Abelmoschus esculentus* , intraduksiya, unuvchanlik, agrofon, harorat, namlik, moslanish, Samarqand viloyati, vegetatsiya, hosildorlik, eksperimental tahlil.

Аннотация. В статье анализируется степень адаптации растения бамия (Abelmoschus esculentus) к умеренным климатическим условиям Самаркандской области. В ходе исследований на основе статистических и экспериментальных методов определялись и оценивались всхожесть семян, скорость роста, продолжительность вегетационного периода, чувствительность к факторам окружающей среды (температура, влажность). Полученные результаты свидетельствуют о необходимости адаптации агротехнических мероприятий при интродукции бамии.

Ключевые слова: Бамия (Abelmoschus esculentus), интродукция, прорастание, агрофон, экологическая адаптация, температура, влажность, растительный покров, урожайность, Самаркандская область.

Annotation. The article analyzes the degree of adaptation of the okra plant (Abelmoschus esculentus) to the moderate climatic conditions of the Samarkand region. During the research, seed germination, growth rate, duration of the growing season, sensitivity to environmental factors (temperature, humidity) were determined and assessed based on statistical and experimental methods. The results obtained indicate the need to adapt agrotechnical measures when introducing okra.

Key words: Okra (Abelmoschus esculentus), introduction, germination, agricultural background, ecological adaptation, temperature, humidity, vegetation cover, productivity, Samarkand region.

Kirish

Bamiya (Abelmoschus esculentus L. Moench) – Malvaceae oilasiga mansub bo‘lib, asosan tropik va subtropik mintaqalarda keng tarqalgan sabzavot ekinidir. O‘zbekiston sharoitida bu o‘simlik hali keng joriy etilmagan bo‘lib, uni yangi hududlarda, xususan Samarqand viloyatida intraduksiya qilishda ekologik moslashuv belgilarini chuqur tahlil qilish muhim hisoblanadi. Tadqiqotning

dolzarbligi bamiya o‘simligini yangi agroekologik sharoitga moslashtirish uchun ilmiy asoslangan yondashuv zarurligidan kelib chiqadi.

Materiallar va usullar

Tadqiqotlar 2024-yil bahor–yoz fasllarida Samarqand viloyati, Nurobod tumani, Nurafshon mahallasi hududida olib borildi. Tuproq — qumoq, o‘rtacha mexanik tarkibli; agroiqlimiy sharoit — kontinental, quruq bahor va issiq yoz.

Tajriba sharoitlari:

- Ekish vaqti: 25-mart – 5-aprel oralig‘ida
- Urug‘ ekish chuqurligi: 3–4 sm
- Qator oralig‘i: 60 sm
- Tajriba 4 ta takroriylikda, 5 ta agrofon asosida olib borildi:

Agro sharoitlari:

Agro sharoitlari	Harorat (°C)	Namlik (%)	Sug‘orish usuli
A1	12–14	35	Tabiy yog‘ingarchilik
A2	15–18	30	Suv quyish (qo‘lbola)
A3	20–22	25	Tomchilatib sug‘orish
A4	23–25	22	Tomchilatib + mulch
A5	25–27	18	Issiqxonada ko‘chat usuli

Natijalar va tahlil

1-jadval. Urug‘ unuvchanligi agrofonlar bo‘yicha:

Agro sharoitlari	Unuvchanlik (%)	Unish (kun)	SE (±)
A1	28.4	11	1.7
A2	41.2	9	1.5
A3	63.7	6	1.1
A4	70.3	5	0.9
A5	81.6	4	0.8

Statistik tahlil: ANOVA $F(4,15) = 18.32$, $p < 0.001$.

2-jadval. Vegetatsiya davomiyligi va meva hosildorligi:

Agro sharoitlari	Vegetatsiya (kun)	Meva soni/buta	Meva og‘irligi (g)	Umumiy hosil (g/buta)
A1	95	6.4	9.1	58.2
A2	91	8.1	10.6	85.8
A3	84	10.3	12.9	132.9
A4	80	11.8	13.7	161.7
A5	78	12.4	14.3	177.3

Xulosa

Bamiya o‘simligini Samarqand viloyati sharoitida muvaffaqiyatli yetishtirish uchun:

- Urug‘ ekish vaqtini harorat 20°C dan oshgach rejalashtirish;
- Sug‘orishda tomchilatish usulidan foydalanish;

- Ko‘chat usulini joriy qilish;
- Urug‘larni ekishdan oldin fiziologik faollashtirish choralarini ko‘rish lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. 1. Gulomov A.K. (2019). Sabzavot ekinlarini iqlimga moslashtirish masalalari, O‘zMU ilmiy jurnali, 2(58), 114–118.
2. 2. FAO. (2023). Ecophysiology of Okra (Abelmoschus esculentus). www.fao.org
3. 3. Turaev B. (2022). Ilmiy tadqiqot metodlari, Toshkent: Universitet nashriyoti.
4. 4. Karimov R.K. va boshqalar. (2021). Tuproqshunoslik va ekinlar ekologiyasi, Toshkent: Fan.

BAMIYA URUG‘LARINI PLANTATSIYADA EKISH: AMALIY TAJRIBA VA KUZATUVLAR NATIJASI

[1]Eshmurodov Jonibek Xudayberdi o‘g‘li, [2]Axadova Munira Odiljon qizi

[1]Sharq tabobati ilmiy tadqiqot instituti, Samarqand
[2]Munira Odilovna MChJ, Samarqand

Annotatsiya: Ushbu maqolada bamiyani ochiq maydonda plantatsiya usulida yetishtirish bo‘yicha olib borilgan amaliy tajriba bayon etiladi. Yerning tayyorlanishi, urug‘ ekish sxemalari, suv taqsimoti, unuvchanlik darajasi va qayta ekish bosqichlari bo‘yicha kuzatuvlar tahlil qilingan. Dastlabki ekishda serak ko‘chatlar, ildizlarning chirish holatlari va suv taqsimotidagi muammolar sababli yangi, zichroq ekish sxemasi tanlangan. 60 sm qator oralig‘i va 6 sm o‘simlik oralig‘ida ekish orqali unuvchanlik yaxshilangani ta’kidlanadi. Maqolada tajriba natijalari asosida kelgusida bamiyani samarali yetishtirish bo‘yicha tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so‘zlar: Bamiya, plantatsiya, urug‘ ekish, qator oralig‘i, unuvchanlik, suv taqsimoti, agrotekhnika, ko‘chat, seraklik, qayta ekish, quruq iqlim, qiyalik yer.

Аннотация: В данной статье изложен практический опыт выращивания бамии в открытом грунте плантационным методом. Рассматриваются этапы подготовки почвы, схемы посева семян, распределение влаги, всхожесть и повторный посев. В первоначальной посадке из-за проблем с влагой и загущенностью наблюдалось загнивание корней и разреженность ростков, что привело к пересмотру схемы. Отмечено, что при посадке с междурядьем 60 см и расстоянием между растениями 6 см улучшилась всхожесть. На основе опыта даны рекомендации по эффективному выращиванию бамии в будущем.

Ключевые слова: Бамия, плантация, посев семян, междурядье, всхожесть, распределение влаги, агротехника, рассада, разреженность, повторный посев, сухой климат, склон участка.

Abstract: This article presents a practical experience of cultivating okra in open fields using a plantation method. It analyzes soil preparation, seed sowing

schemes, water distribution, germination rates, and replanting stages. Initial planting faced challenges such as poor water absorption and root rot, leading to sparse seedling emergence. A denser planting scheme of 60 cm row spacing and 6 cm plant spacing was adopted, which significantly improved germination. Based on this experience, the article offers recommendations for more effective okra cultivation.

Keywords: Okra, plantation, seed sowing, row spacing, germination, water distribution, agronomy, seedling, sparsity, replanting, dry climate, sloped land.

Kirish

Bamiya (Abelmoschus esculentus) issiq iqlimda yaxshi o‘sadigan, oziqaviy va dorivor xususiyatlarga ega bo‘lgan sabzavot hisoblanadi. Quyidagi maqolada bamiyani plantatsiya usulida ekish bo‘yicha olib borilgan amaliy ishlar, kuzatuvlar va tajribalarning muhim bosqichlari yoritiladi.

Plantatsiya joyi va tayyorgarlik ishlari

Tanlangan ekin maydoni unumdor, lekin biroz qiyalik (uklon)ga ega bo‘lib, suv yetishmovchiligi sababli unuvchanlik darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Tuproq avval traktor yordamida chuqur shudgor qilindi, chizil (qatorlar belgilandi), barana va mola yordamida silliqlashtirilib, ekishga tayyorlandi.

Boshlang‘ich ekish va natijalar

Urug‘lar 75 sm qator oralig‘i va 15 sm ko‘chat oralig‘ida ekildi. Bu holatda suv taqsimoti yaxshi bo‘lmagani sababli urug‘larning bir qismi unmay qoldi, ungan ko‘chatlar esa serak bo‘ldi. Shuning uchun bu maydon qo‘l mehnati orqali yana qayta urug‘ sepish orqali to‘ldirildi.

Ammo bu ikkinchi bosqichda ham muammo kuzatildi: dastlab unib chiqqan ko‘chatlar ildiz qismidan qarish (chirish)ga uchradi. Bu, ehtimol, tuproqning notekis namlanishi, ko‘p marta suv quyish yoki ildizlarning haddan tashqari namda qolishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, keyinchalik ekilgan urug‘lar ham bir tekis unmadi — seraklik davom etdi.

Yangi yondashuv: oraliq va tizimni o‘zgartirish

Qayta ko‘rib chiqish natijasida yer to‘liq yangidan tayyorlandi. Bu safar quyidagi yondashuv qo‘llanildi:

- Qator oralig‘i: 60 sm
- Ko‘chat oralig‘i: 6 sm

Bu zichroq sxema suvning teng taqsimlanishi va zax saqlanishini yaxshiladi. Endilikda har bir qator orasida suv yaxshi yurdi, natijada ko‘chatlarning unuvchanligi sezilarli darajada yaxshilandi. Tuproqdagi namlik uzoqroq saqlanib, o‘simliklar ildiz otishga qulay muhit yaratildi.

Xulosa va tavsiyalar

Ushbu amaliy tajriba shuni ko‘rsatdiki, bamiyani muvaffaqiyatli yetishtirishda quyidagi omillar muhim:

- Yer sathi tekis va suv aylanishiga mos bo‘lishi kerak
- Sug‘orish imkoniyati oldindan sinovdan o‘tkazilishi lozim
- Urug‘lar zichroq va strategik joylashtirilsa, suv samaraliroq so‘riladi
- Qayta ekishdan avval eski ko‘chatlar holati chuqur o‘rganilishi kerak

Kelajakda tomchilatib sug‘orish tizimini joriy etish va ekishdan oldin urug‘larni laboratoriyada unuvchanlikka sinash orqali natijalar yanada barqaror bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi metodik qo'llanmalari - Bamiyani ochiq yetishtirish rivojlanish bo'yicha uslubiy tavsiyalar.
2. M.S.Raxmatov, “Sabzavotchilik” darsligi - O'zbekiston oliy o'quv yurtlari uchun mo'ljallangan darslik bo'lib, sabzavot ekin agrotexnikasi haqida ma'lumot beriladi.
3. FAO (Birlashgan Millatlar Tashkiloti Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tashkiloti) nashrlari - Bamiyani qurg'oqchil asosda yetishtirish bo'yicha tavsiyalar.
4. I.A.Karpov, "Ovoshchnie kulturi" (rus tilida) - Sabzavot eklarining umumiy fiziologiyasi, agrotexnikasi va yetishtirish sharoitlari haqida ma'lumotlar.

5. ***Internet manbalari***

1. www.agro.uz — O'zbekistonning agrar yangiliklari va maslahatlari portali
2. www.researchgate.net — Bamiyani o'rganish bo'yicha ilmiy maqolalar to'plami
3. www.fao.org — Qishloq xo'jaligi bo'yicha xalqaro statistikalar va tavsiyalar

УЎТ: 633.511/631.542.4.

ТАЖРИБАДА ПАРВАРИШЛАНГАН ЎРТА ТОЛАЛИ С-9090 ҒЎЗА НАВИДА ҚУРУҚ МОДДА ТЎПЛАНИШИНИ АНИҚЛАШ

Убайдуллаева Ш.Т. *Тажрибада парваришланган ўрта толали С-9090 ғўза навида қуруқ модда тўпланишини аниқлаш*
Убайдуллаева Ш.Т.*Определение накопления сухого вещества в выращиваемом в эксперименте сорте средневолокнистого хлопчатника С-9090.*
Ubaidullaeva Sh.T. *Determination of dry matter accumulation in the medium-fiber cotton variety C-9090 cultivated in the experiment.*
Фарғона давлат техника университети
Мустақил изланувчиси ***Убайдуллаева Шаҳлохон Турдимахаммадовна***
mubaydullaev6554@gmail.com
тел: 90 274-65-54

Аннотация. *2022-2024-йилларда олиб борилган илмий изланишлар натижаларига кўра, 2-3 чинбарг фазасида С-9090 ғўза навининг қуруқ массаси тадқиқот йилларига мутаносиб равишда 3,1-3,8 г ни, шоналаш даврида йиллар кесимида 12,3-13,9 г, гуллаш фазасида эса бу кўрсаткичлар мос равишда 68,9-70,5 г га тенг бўлганлиги аниқланди.*

Калит сўзлар: *чинбарг, ҳосил шоҳи, шона, таҳлил, фазалар, самарадорлик.*

Аннотация. *По результатам научных исследований, проведенных в 2022-2024 годах, установлено, что в фазе 2-3 настоящих листьев сухая масса сорта хлопчатника С-9090 составила 3,1-3,8 г соответственно годам исследований, в фазе бутонизации в разрезе лет 12,3-13,9 г, а в фазе цветения эти показатели составили 68,9-70,5 г соответственно.*

Ключевые слова: *настоящий лист, плодоножка, бутон, анализ, фазы, эффективность.*

Annotation. *According to the results of scientific research conducted in 2022-2024, in the 2-3 true leaf phase, the dry mass of the C-9090 cotton variety was 3.1-3.8 g, respectively, during the budding phase - 12.3-13.9 g, and in the flowering phase - 68.9-70.5 g, respectively.*

Key words: *true leaf, fruit leg, bud, analysis, phase, effectiveness.*

Кириш

Ҳар қандай парвариш этилаётган ўсимликда фотосинтез жараёни амалга ошади бу эса бевосита ўсимликнинг ўсиши ва ривожланишига таъсир этиб, ўсимликда кечадиган физиологик ва биокимёвий жараёнларнинг асосини белгилайди. Қўлланилган дефолиант тури, меъёри ҳамда муддатлари қуруқ масса тўплашда аҳамиятли ҳисобланади [2].

Бинобарин, қуруқ масса тўплаши ўсимликнинг нави, кўчат қалинлиги ва бошқа омилларга ҳам боғлиқ эканлиги бошқа олимлар томонидан ҳам ўз исботини топган.

Тадқиқот услубиёти

Долзарб вазифалар юзасидан, 2022-2024 йиллар мобайнида тадқиқотларимиз Фарғона вилоятининг Қува туманида жойлашган Пахта селекцияси, уруғчилиги ва етиштириш агротехнологиялари илмий-тадқиқот институти илмий тажриба станциясининг ўтлоқи соз, механик таркибига кўра оғир қумоқ, кам шўрланган, сизот сувлари 1,6-1,8 метр чуқурликда жойлашган тупроқ шароитида олиб борилди. Тажрибада ҳар бир нав учун вариантлар олинган бўлиб, 3 та такрорланишда жойлаштирилди [3].

Тажрибада парваришланган ўрта толали С-9090 ғўза навига юмшоқ таъсирга эга бўлган юқоридаги хорижий ва маҳаллий дефолиантларнинг мақбул меъёрларини суғориш муддатларига боғлаган ҳолда қўлланилиб илмий натижалар олинган. Илмий изланишлар ЎзПИТИда қабул қилинган «Методика полевых опытов с хлопчатником» (1981), “Дала тажрибаларини ўтказиш услублари” (2007) ва ЎзР Давлат кимё комиссияси томонидан қабул қилинган «Ғўза дефолиантларини синаш бўйича услубий кўрсатмалар» (1993, 1994, 2004) қўлланмалари асосида олиб борилди.

Тадқиқот натижалари ва уларнинг муҳокамаси

2022-2024-йилларда олиб борилган илмий изланишлар натижаларига кўра, 2-3 чинбарг фазасида С-9090 ғўза навининг қуруқ массаси тадқиқот йилларига мутаносиб равишда 3,1-3,8 г ни, шоналаш даврида йиллар кесимида 12,3-13,9 г, гуллаш фазасида эса бу кўрсаткичлар мос равишда 68,9-70,5 г га тенг бўлганлиги аниқланди. Тадқиқотларда ўсимликнинг қуруқ модда тўплаш жараёни ғўза навларига боғлиқ ҳолда 2-3 чинбарг чиқарганда, шоналашда, гуллашда ва пишишда ўрганилиб, ўз навбатида пишиш даврида вегетатив ва генератив органлари (поя, барг, чаноқ, пахта) алоҳида аниқланди. Олинган маълумотлар 1-расмда намоён этилди.



1-расм. Ғўза навларининг қуруқ модда тўплаши, Фарғона вилояти.

Шунингдек, пишиш даврида С-8290 ғўза навининг пояси тадқиқот йилларига мос ҳолда 29,2-31,0 г ни, барги 36,7-37,4 г ни, чаноғи 20,7-21,7 г ни, пахтаси 46,1-48,6 г ни, жами қуруқ массаси 132,7-138,7 г ни ташкил этди.

ХУЛОСА

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, ўрганилаётган С-9090 ғўза навининг қуруқ масса тўплашида поя ва баргларда камроқ қуруқ модда тўпланиб, бошқа элементларида кўпроқ қуруқ масса тўпланганлиги аниқланди. Бундан хулоса қилиш мумкинки, С-9090 ғўза нави морфобиологик жиҳатдан поя баландлиги ўрта ва барглар сони ҳам кам бўлсада бироқ, бошқа ҳосил элементлари юқори эканлиги маълум бўлган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Убайдуллаев М.М. Научное обоснование эффективности дефолиантов на хлопковом волокне экспериментально выращенного сорта хлопка. Актуалные проблемы современной науки. № 1 (142) 2025 г. ISSN 1680-2721. 71-75 ст.
2. Ubaydullayev M.M. G‘o‘zada defoliatsiya o‘tkazishning maqbul me’yor va muddatlari.Monografiya.Farg‘ona - AL – FERGANUS – 4.11.2021
3. Убайдуллаев Мадамин Муминович, Неъматова Ферузаксон Джамолксон Кызы. (2021 г.). Значение посадки и обработки среднеполевых сортов хлопчатника между хлопковыми рядами в Ферганской области. Американский журнал сельского хозяйства и биомедицинской инженерии, 3 (09), 26–29.
4. Ubaydullayev M.M.,Ne'matova F.J.,Marufjonov A. Determination of efficiency of defoliation in medium-fiber cotton varieties. Galaxy international interdisciplinary research journal (giirj). Volume 9, Issue 11, November, 2021. SJIF Impact Factor: 7.472.
5. Убайдуллаев М. Научные основы оценки эффективности дефолиантов в средневолокнистых сортах хлопка. FarPI Ilmiy texnika jurnali // 2024, T.28, №21.109-113 betlar.

УЎТ: 633.511/631.542.4.

ТАЖРИБАДАГИ ҒЎЗА НАВЛАРИДА ОЛИБ БОРИЛГАН ФЕНОЛОГИК КУЗАТУВЛАР ТАҲЛИЛИ

Убайдуллаев М.М. *Тажрибадаги ғўза навларида олиб борилган фенологик кузатувлар таҳлили.*

Убайдуллаев М.М. *Анализ фенологических наблюдений за опытными сортами хлопчатника*

Ubaidullaev M.M. *Analysis of phenological observations on the experimental cotton varieties.*

Фарғона давлат техника университети

қ.х.ф.ф.д., (PhD) доценти ***Убайдуллаев Мадаминжон Мўминжонович***

mubaydullaev6554@gmail.com

тел: 90 274-65-54

Аннотация: *Ўтказилган фенологик кузатувлар натижаларига кўра, 2018-2020-йилларда 1-тажрибада ўрганилган С-8290 ва С-6775 ғўза навларининг ўсиши ва ривожланишида сезиларли фарқ борлиги кузатилган. Яъни, 1-июн ҳолатида, С-8290 ғўза навининг бўйи тадқиқот йилларига мутаносиб равишда 15,8-17,2-19,5 см ни, чинбарглар сони 4,2-4,3-3,1 донани ташкил этган бўлса, С-6775 ғўза навида бу кўрсаткичлар мутаносиб равишда ўсимлик бўйи 17,2-19,2-19,1 см ни, чинбарглар сони 3,9-3,8-2,8 донани ташкил этган.*

Калит сўзлар: *ўсимлик, барглар, ривожланиш, таҳлил, фазалар, кўрсаткичлар.*

Аннотация: *По результатам фенологических наблюдений, проведенных в 2018-2020 годах, наблюдалась значительная разница в росте и развитии сортов хлопчатника С-8290 и С-6775, изученных в 1-м эксперименте. То есть, если по состоянию на 1 июня высота сорта хлопчатника С-8290 составила 15,8-17,2-19,5 см, количество настоящих листьев 4,2-4,3-3,1 штук, то у сорта хлопчатника С-6775 эти показатели составили 17,2-19,2-19,1 см, количество настоящих листьев 3,9-3,8-2,8 штук.*

Ключевые слова: *Растение, листья, развитие, анализ, фазы, показатели.*

Abstract: *According to the results of phenological observations conducted in 2018-2020, a significant difference in the growth and development of the C-8290 and C-6775 cotton varieties studied in the 1st experiment was observed. That is, as of June 1, the height of the C-8290 cotton variety was 15.8-17.2-19.5 cm, and the number of true leaves was 4.2-4.3-3.1 pieces, while in the C-6775 cotton variety, these indicators were 17.2-19.2-19.1 cm, and the number of true leaves was 3.9-3.8-2.8 pieces.*

Keywords: *plant, leaves, development, analysis, phases, indicators.*

Кириш

Ҳар бир ғўза навининг ўсиши ва ривожланиши мураккаб физиологик-биокимёвий жараёнлар таъсирида содир бшладиган табиий ҳодисадир. Шу

билан бирга,унинг ўсиб ривожланишига турли туман абиотик, биотик ва антропоген омиллар ўз таъсирини кўрсатади. Антропоген омиллардан агротехник тадбирларни оладиган бўлсак, суғориш ва озиқлантириш кучли таъсир кўрсатади. Бинобарин, олимлар айтганидек, [2] ғўзани суғориш гуллагунча ўтадиган муддатда тупроқ намлигининг маълум меъёрдан ортиши натижасида ғўзанинг шоналаш ва гуллаш даври узайиб боради ва бу ҳолатда намликнинг етишмаслиги ўсимликнинг ўсиши ва ривожланишига салбий таъсир этишлиги аниқланган.

Шунинг учун ҳам ҳар бир ғўза нави ўзига ҳос биологик хусусиятлари натижасида бир хил шароитда, турли даражада ўсиб ривожланади. Шундай экан, ҳар бир ғўза нави вегетация даврининг давомийлиги бўйича бир-бирига ўхшамайди [3].

Тадқиқот услубиёти

Тадқиқотлар асосан 2018-2022 йиллар мобайнида Фарғона вилоятининг Қува туманида жойлашган Пахта селекцияси, уруғчилиги ва етиштириш агротехнологиялари илмий-тадқиқот институти илмий тажриба станциясининг ўтлоқи соз, механик таркибига кўра оғир қумоқ, кам шўрланган, сизот сувлари 1,6-1,8 метр чуқурликда жойлашган тупроқ шароитида олиб борилди. Тажрибада ҳар бир нав учун вариантлар олинган бўлиб, 3 та такрорланишда жойлаштирилган.

Тажриба вариантларига С8290, С6775, Наманган-77 ғўза навларининг кўсаклари 30-40% ҳамда 50-60% очилган муддатда юмшоқ таъсирга эга бўлган юқоридаги хорижий ва маҳаллий дефолиантларнинг кўрсатилган меъёрлари қўлланилиб, уларнинг мақбул қўллаш меъёри ва муддати аниқланди.Илмий изланишлар ЎзПИТИда қабул қилинган «Методика полевых опытов с хлопчатником» (1981), “Дала тажрибаларини ўтказиш услублари” (2007) ва ЎзР Давлат кимё комиссияси томонидан қабул қилинган «Ғўза дефолиантларини синаш бўйича услубий кўрсатмалар» (1993, 1994, 2004) қўлланмалари асосида олиб борилди [5].

Тадқиқот натижалари ва уларнинг муҳокамаси

Тадқиқотларда белгиланган ўсимликларда этикеткалар осилиб фенологик кузатувлар олиб борилган.

Ўтказилган фенологик кузатувлар натижаларига кўра, 2018-2020-йилларда 1-тажрибада ўрганилган С-8290 ва С-6775 ғўза навларининг ўсиши ва ривожланишида сезиларли фарқ борлиги кузатилган. Яъни, 1-июн ҳолатида, С-8290 ғўза навининг бўйи тадқиқот йилларига мутаносиб равишда 15,8-17,2-19,5 см ни, чинбарглар сони 4,2-4,3-3,1 донани ташкил этган бўлса, С-6775 ғўза навида бу кўрсаткичлар мутаносиб равишда ўсимлик бўйи 17,2-19,2-19,1 см ни, чинбарглар сони 3,9-3,8-2,8 донани ташкил этган (1-диаграмма).

Июл ойи ҳолатига келиб, С-8290 ғўза навида ўсимлик бўйи 41,2-55,2-58,9 см ни, ҳосил шохлар 7,1-7,4-7,6 донани, шоналар 6,3-7,7-7,8 донани, гуллари 1,2-0,2-0,9 донани ташкил этган бўлса, С-6775 ғўза навида эса, бу

кўрсаткичлар мос равишда 34,2-53,3-57,0 см ни, 6,8-7,2-7,2 донани, 5,9-7,1-6,9 донани ва 0,2-0,2-0,9 донани ташкил этганлиги аниқланган.



1-диаграмма. С-8290 ва С-6775 ғўза навларининг ўсиши ва ривожланиши, (1-тажриба)

Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, ҳар иккала ғўза навида ҳам 2018-2019-2020-йиллар мобайнида июл ойида тугунчалар шаклланмаганлиги кузатилган. Фенологик кузатишлар давомида (август ойи) ўсимликлар ҳосил тўплаш фазасига ўтганлиги, бунда асосан тугунча ва кўсаклар шаклланганлиги кузатилган. Кузатув жараёнларида шу нарса аён бўлдики, С-8290 ғўза навида ўсимликлар бўйи йиллар бўйича 77,2-82,2-76,8 см ни, ҳосил шохлар 10,9-11,8-10,8 донани, шоналар 5,6-3,6-1,6 донани, гуллар 1,6-1,1-1,6 донани, тугунчаси 1,5-1,9-2,2 донани, шунингдек кўсаклар сони 9,1-8,4-9,6 донани ташкил этган бўлса, С-6775 ғўза навида эса бу кўрсаткичлар мос равишда 78,0-85,4-85,9 см ни, 10,1-11,2-10,5 донани, 4,8-3,4-1,4 донани, 1,3-1,6-1,2 донани,1,2-1,4-1,8 донани, 7,6-8,2-8,9 донани ташкил этганлиги кузатилган.



2-диаграмма. С-8290 ва Наманган-77 ғўза навларининг ўсиши ва ривожланиши, (2-тажриба)

2020-йилда ҳам юқоридаги маълумотларга яқин кўрсаткичлар олиниб, С-8290 ва Наманган-77 ғўза навларининг бош поя баландлиги (1-сентябр) мутаносиб равишда 93,4-96,8 см.ни, ҳосил шоҳлари сони 13,6-12,9 донани, кўсаклар сони 13,9-13,9 донани, шу жумладан очилганлари 34,6-33,4 % ни ва ярим очилганлари эса 2,9-2,6% ни ташкил этган бўлса, бу кўрсаткичлар 2019-йилдагилардан ғўза навларининг баландликлари 1,8-0,7 см. га ҳосил шоҳлари сонлари 0,3-0,2 донага, кўсаклар сони 0,2-0,9 дона ортиқча, лекин очилган кўсаклар сони 6,2-5,7% га, ярим очилганлари эса 1,2-0,7% га камроқ бўлганлиги аниқланган.

1-расм. Тажриба майдонида фенологик кузатувлар олиб бориш жараёни

Таъкидлаб ўтамизки, 3-тажрибани 1-йилида (2020) ўтказилган кузатувларда С-8290 ғўза навининг бош поясининг баландлиги 93,4 см., ҳосил шоҳлари сони 13,6 дона, кўсаклар сони 13,9 донани, шу жумладан очилганлари 34,6% ни, ярим очилганлари эса 2,9% га тенг бўлганлиги аниқланган ҳолда нисбатан юқори кўрсаткичлар С-9090 навида олиниб, С-8290 никидан мутаносиб равишда 1,8 см, 0,2; 0,1 донага ва 5,8; 1,2% га юқори, кўсаклар сони Наманган-77 навиникидан 0,8 дона, очилганлари 7,0% га, ярим очилганлари 1,5% га, қолаверса Андижон-35 навиникидан 1,1 донага ва 7,3; 1,8% га ортиқча бўлганлиги кузатилган.

ХУЛОСА

Тадқиқотларнинг кейинги (2021-2022) йилларидан ҳам юқоридаги қонуниятлар асосида кўрсаткичлар олинган.

Демак, ғўза навларининг ўсиши ва ривожланиши уларнинг биологик хусусиятларига боғлиқ бўлиб, ниҳолларнинг униб чиқиш даражасида олинган маълумотларни давоми бўлиб ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. U Mo‘minjonovich, K Iqboljon. General Information on the Effectiveness and Disadvantages of Cotton Ginsing Machines American Journal of Engineering, Mechanics and Architecture (2993-2637). 2023/12/8.

2.Убайдуллаев М. М. Хорижий ва махаллий дефолиантларнинг самарадорлигини аниклаш. Международный научно-образовательный электронный журнал «Образование и наука в ххи веке». Випуск, (18), 889-893.

3.Madaminjon Ubaydullayev, Islombek Nishanov, Khurshidbek Imomnazarov, & Abdusattor Abdukakharov. (2023). RESEARCH OF THE PHYSICO-MECHANICAL PROPERTIES OF THE MELANGE YARN SPUN BY COMPACT METHOD. Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 4(04), 111–120. https://doi.org/10.17605/OSF.IO/QCBFN

4. Ubaidullayev M., Mukhsinova N., & Saidazimova K. (2024). DETERMINATION OF COTTON SELECTION VARIETIES SUITABLE FOR SOIL CONDITIONS AND REGIONAL LOCATION OF FERGANA REGION. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 2 (5), 471–476. Retrieved from https://universalpublishings.com/index.php/jsiru/article/view/5787

5. Ubaydullayev M., Teshayev F., & Ibragimov A. (2024). Optimizing Defoliation to Enhance Yield in Medium Fiber Cotton Varieties. International Journal of Biological Engineering and Agriculture, 3(3), 158–163. https://doi.org/10.51699/ijbea.v3i3.3536 https://inter-publishing.com/index.php/IJBEA/article/view/3536

6. Ubaydullayev M., & Kurbanova U. (2023). The influence of defoliants on the technological quality indicators and chemical composition of seed. Science and innovation, 2 (D4), 26-30. doi: 10.5281/zenodo.7810710

7. Ubaydullayev Madaminjon Mo‘minjonovich, & Khakimov Iqboljon. (2023). General Information on the Effectiveness and Disadvantages of Cotton Ginsing Machines. American Journal of Engineering , Mechanics and Architecture (2993-2637), 1(10), 64–67. Retrieved from https://grnjournal.us/index.php/AJEMA/article/view/1823

ILG‘OR TEXNOLOGIYALAR VA ENERGIYA TEJAMKOR AGREGATLAR ASOSIDA YERGA ISHLOV BERISH VA O‘G‘ITLASH TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.

Jabborov To‘lqin Kamolovich[1]., Jobborov Baxodir To‘lqinjon o‘g‘li[2]
Farg‘ona davlat texnika universtiteti[1] Elektr energetika kafedra dotsenti
Farg‘ona davlat texnika universtiteti[2] Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari kafedrasi asistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligida yerga ishlov berish va o‘g‘itlash tizimlarini takomillashtirishda ilg‘or texnologiyalar va energiya tejamkor agregatlarning qo‘llanilishining ilmiy asoslari va amaliy imkoniyatlari o‘rganilgan. Innovatsion yondashuvlar orqali resurslardan samarali foydalanish, tuproq unumdorligini oshirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash yo‘llari tahlil qilingan. Maqolada, shuningdek, zamonaviy texnik vositalar va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy qilish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va qishloq xo‘jaligi mahsuldorligini oshirish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: yerga ishlov berish, o‘g‘itlash tizimi, energiya tejamkor agregatlar, innovatsion texnologiyalar, tuproq unumdorligi, qishloq xo‘jaligi mashinalari.

Аннотация: В данной статье рассматриваются научные основы и практические возможности применения передовых технологий и энергосберегающих агрегатов при совершенствовании систем земледелия и удобрения в сельском хозяйстве. Были проанализированы пути эффективного использования ресурсов, повышения плодородия почвы и обеспечения экологической безопасности с помощью инновационных подходов. В статье также рассматриваются возможности снижения издержек производства и повышения производительности сельского хозяйства за счет внедрения современных технических средств и энергосберегающих технологий.

Ключевые слова: обработка почвы, система удобрений, энергоэффективные агрегаты, инновационные технологии, плодородие почвы, сельскохозяйственное оборудование.

Annotation: this article explores the scientific foundations and practical possibilities of the application of advanced technologies and energy-efficient aggregates in the improvement of land processing and fertilizing systems in agriculture. Through innovative approaches, ways to effectively use resources, increase soil fertility and ensure environmental safety have been analyzed. The article also covers the possibilities of reducing production costs and increasing

agricultural productivity through the introduction of modern technical means and energy-efficient technologies.

Keywords: earth processing, fertilizing system, energy-efficient aggregates, innovative technologies, soil fertility, agricultural machinery.

Qishloq xo‘jaligida resurslardan oqilona foydalanish va mahsuldorlikni oshirish uchun yerga ishlov berish va o‘g‘itlash jarayonlarining samaradorligini oshirish dolzarb masala hisoblanadi. So‘nggi yillarda ilg‘or texnologiyalar va energiya tejamkor agregatlarning ishlab chiqilishi bu jarayonlarni tubdan yaxshilash imkonini bermoqda [1]. Yerga ishlov berishdagi innovatsion yondashuvlar, bir tomondan, tuproq unumdorligini oshirsa, boshqa tomondan esa, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirishga xizmat qilmoqda [2].

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida yerga ishlov berish va o‘g‘itlash jarayonlari qishloq xo‘jalik mahsulotlarining sifat va miqdor ko‘rsatkichlarini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. An’anaviy ishlov berish texnologiyalarining kamchiliklari - yuqori energiya sarfi, tuproq degradatsiyasi va ekologik muammolar - zamonaviy va innovatsion texnologiyalarni joriy etishni taqozo qilmoqda.

An'anaviy va innovatsion yerga ishlov berish texnologiyalarining taqqoslanishi.

1-Jadval

Ko‘rsatkichlar	An'anaviy texnologiya	Innovatsion texnologiya
Suv eroziyasi	Yuqori	Past
Yoqilg‘i sarfi	Yuqori	10–15% kamayadi
Hosildorlik	O‘rtacha	15–20% yuqori
Tuproq strukturasiga ta'siri	Buziladi, zichlanadi	Saqlanadi, tabiiy holati mustahkamlanadi
Ish vaqtining sarfi	Ko‘p	Kam

Ilg‘or texnologiyalar, xususan, minimal ishlov berish texnologiyalari tuproqning tabiiy strukturasi va biologik faoliyatini saqlab qolishga yordam beradi [3]. Bunday texnologiyalar suv va shamol eroziyasini kamaytiradi, tuproqdagi namlikni yaxshi ushlab qoladi va o‘simliklarning ildiz tizimini rivojlantiradi.

Energiya tejamkor agregatlardan foydalanish imkoniyatlari. Energiya tejamkor agregatlar, masalan, kombinatsiyalangan ishlov berish mashinalari va o‘g‘it sepish agregatlari, bir nechta operatsiyalarni bir vaqtda bajarishga imkon beradi [4]. Bu esa, ish vaqtini va yoqilg‘i sarfini kamaytiradi. Misol uchun, "KUHN" kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan zamonaviy texnika energiya iste'molini 10–15% ga kamaytirishi isbotlangan [5].

Energiya tejamkor agregatlarning an’anaviy agregatlarga nisbatan samaradorligi

2-Jadval

Agregat turi	Ishlab chiqaruvchi	Yoqilg‘i tejamkorligi (%)	Ish unumdorligi (%)
Diskli o‘g‘it sepish moslamasi	Amazone	20%	25% oshgan

Kombinatsiyalangan kultivator	KUHN	15%	20% oshgan

Innovatsion texnologiyalar yordamida yerga ishlov berish jarayonlari zamonaviylashtirilmoqda, o‘g‘itlash tizimlari esa aniq va resurs tejovchi usullarga asoslanmoqda. Bu esa, nafaqat iqtisodiy foyda beradi, balki ekologik muvozanatni saqlashga, yer resurslarining uzoq muddatli barqarorligiga ham xizmat qiladi.

Yerga ishlov berish va o‘g‘itlash tizimlarini takomillashtirishda ilg‘or texnologiyalar va energiya tejamkor agregatlarni qo‘llash qishloq xo‘jaligida samaradorlikni oshirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qiladi. Kelgusida innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilish orqali qishloq xo‘jaligida barqaror rivojlanishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov, B. "Qishloq xo‘jaligi mashinalari va ularning rivojlanishi." – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2017. – 245-bet.
2. Karimov, Sh. "Yerga ishlov berish texnologiyalari." – Toshkent: Mehnat, 2019. – 138-bet.
3. Lal, R. "Soil Conservation and Innovative Tillage." – Journal of Soil and Water Conservation, 2015. – 70(3): 62–68.
4. Normatov, A. "Energiya tejamkor texnikalar qishloq xo‘jaligida." – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 152-bet.
5. John Deere Agricultural Solutions. "Energy Efficient Agricultural Technologies." – 2022.
6. Musurmonov, D. "Tuproqqa ishlov berishda zamonaviy usullar." – Samarqand, 2018. – 175-bet.

QISHLOQ XO‘JALIGIDA YERLARNI O‘G‘ITLASHGA TAYYORLASHDA ILG‘OR TEXNOLOGIYALAR VA ENERGIYA TEJAMKOR AGREGATLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.

Jabborov To‘lqin Kamolovich[1]., Jobborov Baxodir To‘lqinjon o‘g‘li[2]
Farg‘ona davlat texnika universtiteti[1] Elektr energetika kafedra dotsenti
Farg‘ona davlat texnika universtiteti[2] Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari kafedrasi asistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yerlarni o‘g‘itlashga tayyorlash jarayonida ilg‘or agrotexnologiyalar va energiya tejamkor agregatlarning qo‘llanilishi samaradorligi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tuproqning fizik-kimyoviy holatini yaxshilash, agrotexnik ishlov sifatini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashda innovatsion yondashuvlarning o‘rni ko‘rsatib berilgan. Amaliy tajriba natijalari asosida samaradorlik ko‘rsatkichlari taqqoslab o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: yerga ishlov berish, o‘g‘itlash, energiya tejamkor agregatlar, innovatsion texnologiyalar, mexanizatsiya, agrotexnika.

Qishloq xo‘jaligida yer resurslaridan oqilona foydalanish va tuproq unumdorligini saqlab qolishning asosiy omillaridan biri - bu yerlarni o‘g‘itlashga sifatli tayyorlashdir [1]. Ushbu jarayonda zamonaviy texnologiyalar va energiya

tejamkor agregatlarning qo‘llanilishi agroekotizim barqarorligini ta’minlash bilan birga, iqtisodiy samaradorlikni oshiradi [2].

Ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash zarurati. An’anaviy ishlov berish texnologiyalarida yoqilg‘i sarfi yuqori bo‘lib, unumdorlik pastligi kuzatiladi. Ilg‘or texnologiyalar esa:

- Kam xarajatli ishlov berishni ta’minlaydi;
- Ekologik xavfsizlikni saqlaydi;
- O‘g‘itlarning tuproq qatlamiga bir xilda singdirilishini ta’minlaydi [3].

Energiya tejamkor agregatlarning roli. Zamonaviy agregatlar - masalan, KRN-5,4, SPM-6, Amazone ZA-M kabi o‘g‘it sepish mashinalari yoqilg‘i sarfini 10-15% ga kamaytiradi, ishlov sifatini esa 15-20% ga oshiradi [4].

№	Agregat nomi	Yoqilg‘i sarfi (l/ga)	Ishlov sifati (%)	Ekin hosildorligi (t/ga)
1	KRN-5,4	9.5	75	4.2
2	Amazone ZA-M	8.5	81	4.2
3	An’anaviy texnika	10.2	70	3.5

GPS va sensor tizimlar orqali agregatlar harakati va o‘g‘it miqdori nazorat qilinib, differensial o‘g‘itlash amaliyoti joriy etilmoqda. Bu tuproq har bir qismida individual ehtiyojga moslashgan ishlov berishni ta’minlaydi [5].

Natijalar

- Ilg‘or texnologiyalar yordamida yoqilg‘i tejalishi 2,2–3,5 l/ga gacha;
- Tuproqning fizik holati yaxshilanib, siqilish darajasi 15% gacha kamaygan;
- Ishlov vaqtining qisqarishi esa 15% ni tashkil etgan.
- Hosildorlikning oshishi 10–25% atrofida;

Takliflar:

1) Har bir tuman miqyosida differensial o‘g‘itlash texnologiyasini joriy qilish.
2) Tuproq monitoringi uchun avtomatlashtirilgan tizimlarni fermer xo‘jaliklariga integratsiya qilish.
3) Energiya tejamkor agregatlarni davlat tomonidan subsidiyalash dasturlarini kengaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedov A.A. *Qishloq xo‘jaligi mashinalari*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 320 b. – [123–145-betlar].
2. Rasulov T.A. *Yerga ishlov berish texnologiyalari*. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. – 198 b. – [54–78-betlar].
3. G‘ulomov R.J. *Agrofizika asoslari*. - Toshkent: Fan, 2020. – 276 b. - [88-105-betlar].
4. Komilov M.X., To‘xtayev A.B. *Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini mexanizatsiyalash*. - Toshkent: O‘zbekiston, 2018. - 344 b. - [112-129-betlar].
5. Komilov M.X., To‘xtayev A.B. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini mexanizatsiyalash. - Toshkent: O‘zbekiston, 2018. - 344 b. - [112-129-betlar].

6. Mirzayev Z.M. Sug‘oriladigan yerlar agrotexnikasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022. – 291 b. – [155–170-betlar].

TUPROQQA ISHLOV BERISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA ZAMONAVIY QISHLOQ XO‘JALIGI MASHINALARINING QO‘LLANILISHI.

Jabborov To‘lqin Kamolovich[1]., Jobborov Baxodir To‘lqinjon o‘g‘li[2]
Farg‘ona davlat texnika universtiteti[1] Elektr energetika kafedra dotsenti
Farg‘ona davlat texnika universtiteti[2] Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari kafedrasi asistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy qishloq xo‘jaligida tuproqqa ishlov berish texnologiyalarining takomillashuvi, innovatsion texnologiyalar va texnika vositalarining qo‘llanishi orqali tuproq unumdorligini oshirish masalalari tahlil etiladi. Minimal ishlov, no-till va strip-till kabi tizimlarning agrotexnik ustunliklari, shuningdek, aqlli texnologiyalar asosida boshqariladigan texnikalarning afzalliklari ko‘rib chiqilgan. Maqolada innovatsiyalarni joriy etish orqali yerga ishlov berishdagi samaradorlik, energiya tejamkorlik va ekologik barqarorlikka erishish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: tuproqqa ishlov berish, innovatsion texnologiyalar, qishloq xo‘jaligi mashinalari, agrotexnika, barqarorlik, energiya samaradorligi, GPS texnologiyasi.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы совершенствования технологий обработки почвы в современном сельском хозяйстве, повышения плодородия почвы за счет применения инновационных технологий и технических средств. Были рассмотрены агротехнические преимущества таких систем, как минимальная обработка почвы, отсутствие обработки почвы и полосовая обработка почвы, а также преимущества методов, управляемых интеллектуальными технологиями. В статье обоснованы возможности достижения эффективности, энергосбережения и экологической устойчивости в землепользовании путем внедрения инноваций.

Ключевые слова: обработка почвы, инновационные технологии, сельскохозяйственное оборудование, агротехника, устойчивость, энергоэффективность, технология GPS.

Annotation: This article analyzes the issues of improving soil processing technologies in modern agriculture, increasing soil fertility through the use of innovative technologies and technical means. Agrotechnical advantages of systems such as Minimal machining, no-till, and strip-till have been considered, as well as the advantages of intelligent technology-driven techniques. The paper substantiates the possibilities of achieving efficiency, energy conservation and environmental sustainability in land processing by introducing innovation.

Keywords: soil treatment, innovative technologies, agricultural machinery, agrotechnics, stability, energy efficiency, GPS technology.

Zamonaviy qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tuproqqa ishlov berish jarayonlari nafaqat agrotexnik, balki ekologik va iqtisodiy jihatdan ham muhim

ahamiyat kasb etadi. Tuproq unumdorligini saqlab qolish, eroziya va degradatsiyaning oldini olish, hosildorlikni barqarorlashtirish uchun innovatsion texnologiyalarning roli ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, ilg‘or ishlov berish usullarining joriy etilishi, zamonaviy texnika va raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilgan tizimlarni ishlab chiqish dolzarb vazifa sanaladi.

Tuproqqa ishlov berish – ekin yetishtirishning asosiy bosqichlaridan biri bo‘lib, u tuproq unumdorligini saqlab qolish, hosildorlikni oshirish va agroekotizimni barqaror saqlashda muhim ahamiyatga ega [1]. So‘nggi yillarda bu sohada innovatsion yondashuvlar, ekologik xavfsiz va energiya tejamkor texnologiyalar joriy qilinmoqda [2]. Bu esa qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini ilg‘or ilmiy asosda boshqarishga keng imkoniyat yaratmoqda.

1. Innovatsion texnologiyalar va ularning turlari Bugungi kunda qishloq xo‘jaligida quyidagi innovatsion texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda:

- Lazerli tekislash texnologiyalari: sug‘orishda suvdan foydalanish samaradorligini oshiradi;
- No-till (ishlovsiz ekin ekish): eroziya xavfini pasaytiradi, namlikni saqlaydi;
- Strip-till: faqat ekin satrlariga ishlov berib, ortiqcha energiya sarfini kamaytiradi;
- Minimal ishlov berish tizimi (mini-till): tuproq qatlamining buzilishini kamaytiradi;

2. Zamonaviy texnik vositalarning roli. Qishloq xo‘jaligi mashinalari yangi avlod texnologiyalari bilan jihozlanib, quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

- Kombinatsiyalangan mashinalar bir vaqtning o‘zida bir nechta agrotexnik tadbirlarni amalga oshiradi, bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi [1].
- IoT (Internet of Things) asosidagi sensorli monitoring tizimlari orqali real vaqtda agrotexnik jarayonlar kuzatiladi [2];
- GPS va GNSS texnologiyalari yordamida harakatni avtomatik boshqarish, ishlov aniqligini oshirish imkonini beradi [4];

3. Samaradorlik va ekologik afzalliklar. Yuqorida sanab o‘tilgan texnologiyalar orqali quyidagi natijalarga erishiladi:

- Ishlab chiqarish unumdorligi15–20% ga oshadi [1];
- Yoqilg‘i sarfi 10–20% ga kamayadi [3];
- Tuproq zichligi va strukturasi yaxshilanadi, eroziya xavfi kamayadi [4];
- Ekologik muvozanat saqlanadi, barqaror agroekotizim yaratiladi [5].

Innovatsion texnologiyalar va zamonaviy texnik vositalarning tuproqqa ishlov berishdagi joriy etilishi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida sifat va samaradorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ular orqali energiya sarfini kamaytirish, tuproqni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni oshirish hamda iqtisodiy barqarorlikka erishish mumkin. Shu bois, zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida yaratilgan texnologiyalarni keng miqyosda joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedov A.A. Qishloq xo‘jaligi mashinalari. - Toshkent: O‘qituvchi, 2019. - 320 b. - [123-145-betlar].

2. G‘ulomov R.J. Agrofizika asoslari. - Toshkent: Fan, 2020. - 276 b. - [88-105-betlar].
3. Rasulov T.A. Yerga ishlov berish texnologiyalari. - Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. - 198 b. - [54-78-betlar].
4. Komilov M.X., To‘xtayev A.B. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini mexanizatsiyalash. - Toshkent: O‘zbekiston, 2018. - 344 b. - [112-129-betlar].
5. Mirzayev Z.M. Sug‘oriladigan yerlar agrotexnikasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022. – 291 b. – [155–170-betlar].

UO‘K. 581,6

KIVI O‘SIMLIGINI URUG‘IDAN KO‘PAYTIRISH USULLARI

Abduazimova Sevara[1], Norqulov Ma’sudjon Ma’rufovich[1], Mamadaminov Muxammadali[1] Abduholiqov Farrux[2]
[1]Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
[2]Guliston davlat universiteti
E-mail:masud.norqulov@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada kivi (*Actinidia chinensis*) o‘simligini urug‘dan ko‘paytirish texnologiyasi bosqichma-bosqich tahlil qilingan. Urug‘larni tayyorlash, stratifikatsiya, ekish va ko‘chat parvarishi bo‘yicha turli xil takroriylikda tajribalar o‘tkazilgan. Har bir takroriylikda substrat tarkibi, harorat, namlik va boshqa sharoitlari o‘zgartirilgan holda optimal nishlash va ko‘chat rivojlanishiga ta’siri o‘rganilgan. Olingan natijalarga ko‘ra, eng yuqori nishlash foizi (90%) tayyor substrat, yuqori harorat va doimiy LED yoritish sharoitida qayd etilgan. Mazkur tadqiqot urug‘dan ko‘paytirish bo‘yicha amaliy va ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar. kivi, urug‘dan ko‘paytirish, stratifikatsiya, substrat, harorat, namlik, *Actinidia chinensis*

Abduazimova Sevara[1], Norkulov Masudjon[1], Mamadaminov Mukhammadali Abduholikov Farrukh[2]
[1]Samarkand State University named after Sharof Rashidov
[2]Guliston State University
E-mail:masud.norqulov@mail.ru

METHODS OF PROPAGATION OF KIWI PLANTS FROM SEEDS

Annotation. This article analyzes the technology of propagating kiwi (*Actinidia chinensis*) from seeds step by step. Experiments were conducted in various replicates on seed preparation, stratification, planting, and seedling care. In each replicate, the effect of changing the substrate composition, temperature, humidity, and other conditions on optimal germination and seedling development was studied. According to the results obtained, the highest germination percentage (90%) was recorded under conditions of ready-made substrate, high temperature, and constant LED lighting. This study serves to develop practical and scientific recommendations for seed propagation.

Keywords: kiwi, seed propagation, stratification, substrate, temperature,

humidity, *Actinidia chinensis*

Абдуазимова Севара[1], Норкулов Масуджон[1],Мамадаминов Мухаммадали Абдухоликов Фаррух[2]

[1]Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова

[2]Гулистонский государственный университет

Электронная почта:masud.norqulov@mail.ru

СПОСОБЫ РАЗМНОЖЕНИЯ РАСТЕНИЙ КИВИ ИЗ СЕМЯН

Аннотация. В статье поэтапно анализируется технология размножения Актинидия (*Actinidia chinensis*) семенами. Эксперименты проводились в различной повторности по подготовке семян, стратификации, посадке и уходу за рассадой. В каждой повторности изучалось влияние изменения состава субстрата, температуры, влажности и других условий на оптимальную всхожесть и развитие проростков. Согласно полученным результатам, самый высокий процент прорастания (90%) зафиксирован в условиях готового субстрата, высокой температуры и постоянного светодиодного освещения. Данное исследование направлено на разработку практических и научных рекомендаций по семенному размножению.

Ключевые слова: Актинидия, семенное размножение, стратификация, субстрат, температура, влажность, *Actinidia chinensis*

Kivi (shirin aktinidiya) – *Actinidia deliciosa* yoki *Actinidia chinensis* dunyoning ko‘pgina subtropik iqlimli mintaqalarida keng maydonlarda yetishtiriladigan mevali o‘simlik hisoblanadi. Ko‘pgina xalqlarda kivini Xitoy krijovnigi deb ham atashadi. Ammo V.Bushnev [4] ushbu o‘simlikning eng to‘g‘ri nomlanishi, bu – Xitoy shirin aktinidiyasi (*Actinidia shinensis* var. *deliciosa*) deb ta’kidlagan. Bu esa aynan C.F.Liang va A.R.Ferguson [1] tomonidan berilgan taksonomik turkumni tasdiqlaydi. Shirin aktinidiyaning zamonaviy «kivi» nomini Yangi Zellandiyalik mashhur seleksioner olim A.Ellison XX asrning 60-yillarida bergan, bunda u ushbu mevaning shu mintaqada keng tarqalgan, Yangi Zellandiyaning milliy timsoli bo‘lgan, mamlakatning ko‘pgina markalari va emblemalarida rasmi turadigan «kivi» qushiga juda ham o‘xshaganligi sababli, uni shunday nom bilan atagan [5]. *Actinidia* turkumi Actinidiaceae oilasiga mansub bo‘lib, 36 turni o‘z ichiga oladi. Ushbu o‘simliklar ko‘p yillik yirik, yog‘ochlashgan lianalar yoki chirmashib o‘suvchi butasimon o‘simliklar bo‘lib, subtropik, tropik, qisman mo‘tadil iqlimli mintaqalarda, xususan, Sharqiy Osiyo – Hindixitoy, Xitoy, Himolayning Shimoliy-Sharqiy qismi, Rossiyaning Primor o‘lkasi, shuningdek alohida turlari Malakka yarim orolida uchraydi. Hozirgi vaqtda uning rivojlanish markazi Janubiy-G‘arbiy Xitoy, xususan Yunnan provinsiyasi hisoblanadi. Aktinidiyaning aksariyat turlari faqatgina manzarali ahamiyatga egadir. Aktinidiyaning bugungi kunda eng ko‘p yetishtiriladigan turi – Xitoy aktinidiyasi yoki shirin aktinidiya (*Aktinidiya delikatesnaya*) bo‘lib, uning navlari “kivi” deb ataladi. XX asr boshlariga qadar u faqatgina Xitoyda yetishtirilgan, so‘ngra Yangi Zellandiyaga olib kelingan.

Shirin aktinidiya – yirik liana yoki chirmashuvchi butasimon o‘simlik bo‘lib,

bo‘yi 9 m gacha yetadi. Barglari to‘kiladi, uzun bandlarda navbatli joylashadi, uzunligi 7,5-12,5 sm keladi. Shakli tuxumsimon yoki deyarli yumaloq, asosi o‘yiqchali. Yosh barglari qizg‘ish tuk bilan qoplanadi, katta barglarining ustki tomoni och yasxil, ostki tomoni xira, tomirlari ko‘rinib turadi. Gullari xushbo‘y, odatda ikki jinsli, kamdan kam bir jinsli, barg qo‘ltiqlarida yakka yoki uchtagacha guruh bo‘lib joylashadi. Tojbargi dastlab oq, so‘ngra yozilgan sari sarg‘ish tus oladi. Changcxilari barcha gullarda ko‘p sonli, ammo urg‘ochi gullarda ular steril holatda bo‘ladi. Xitoy yoki shirin aktinidiyaning mevalari uzunchoq-tuxumsimondan sharsimongacha, odatda diametri 5-6 sm gacha bo‘ladi, rangi jigarrang, tuk bilan qalin qoplangan. Eti yasxil, kamdan kam sariq, oq yoki qo‘ng‘ir. Urug‘lari mayda, qora yoki to‘q binafsharang [3].

Uning ildiz tizimi asosan tuproqning 0-40 sm lik qatlamida joylashadi [2,7]. Biroq, ushbu mevali o‘simlik yaxshi rivojlanishi uchun zichligi 1,3 g/sm2 dan oshmaydigan kuchli tuproqlarni talab etadi. Tuproq reaksiyasi kivi uchun kuchsiz nordondan kuchsiz ishqoriygacha bo‘lishi mumkin [6].

Shirin aktinidiyaning erkak gullarini urg‘ochi gullaridan farqlash u qadar murakkab emas. Urg‘ochi gullarining markaziy qismida yirik urug‘chisi yaqqol ko‘rinib turadi. Kivining changlatuvchi navlarining erkak gullarida esa urug‘chi rudiment ko‘rinishida bo‘lib, deyarli ko‘rinmaydi.

O‘zbekistonda ham *Actinidia* Lindl avlodiga mansub ko‘plab turlarning gullash biologiyasi o‘rganilgan. Boshqa mamlakatlarga yaqin bo‘lgani kabi, mamlakatimizda ham shirin aktinidiyaning gullashi mayning oxiri – iyun oyining boshlariga to‘g‘ri keladi [3].

Kivi o‘simligi dunyoning aksariyat davlatlarida yangi mevali o‘simlik turi bo‘lganligidan, uni ko‘chatlarini yetishtirishning takomillashgan usullarini topish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan.

Urug‘idan yetishtirilgan o‘simlik vegitativ ko‘paytirilganga nisbatan ko‘proq umr ko‘radi, ko‘chirib o‘tqazilganda oson tutadi. Lekin aktinidiyalarni urug‘idan ko‘paytirish qiyin: urug‘lari juda kichik o‘lchamda bo‘lishi (uzunligi 2 mm gacha eni 1.2 mm qalinligi 0.8 mm) ekishni qiyinlashtiradi, urug‘lar tez namligini yo‘qotadi, ularning unish davri ham uzoq muddatni talab etadi. Urug‘lar mevadan ajratib olingandan keyin 6 oy davomida unuvchanlik xususiyatin o‘zida saqlaydi. Agar urug‘larni ekish muddati kechiktiriladigan bo‘lsa, urug‘larni biroz so‘ligan, qurib qolmagan mevalarda saqlash kerak bo‘ladi. Bu holatda urug‘lar yaxshi saqlanadi [8].

Tadqiqotni bajarish uchun kivining sog‘lom, pishgan mevasi olindi. Meva etidan urug‘lari ajratildi. Urug‘lar toza suv bilan yaxsxilab yuviladi (meva qoldiqlari tozalanadi). So‘ng urug‘lar quritilib, 1-2 kun salqin joyda saqlangan urug‘lar stratifikatsiya jarayoni o‘tkazilishi talab etiladi. kivi urug‘lari tabiiy sharoitda nish urishi uchun 30-60 kun sovuq muhitda bo‘lishi kerak. Buning uchun urug‘lar nam qum yoki vermikulitga solinib sovitkichda +4°C atrofidagi haroratda 1,5–2 oy davomida saqlanadi. Haftasiga bir marta namligi va chirish holati tekshiriladi. Bu jarayon urug‘ning biologik dam olish davrini buzib, nishlashga tayyorlaydi.

1-jadval

Kivi urug‘larini ekishga tayyorlash

Takroriylik	Urug‘ yuvish usuli	Namlanish muhiti	Stratifikatsiya harorati (°C)	Stratifikatsiya muddati (kun)	Kutilgan natija
1-tajriba	Iliq suvda	Nam paxta ichida	+4°C	30	O‘rtacha nishlash (50–60%)
2-tajriba	1% kaliy permanganatda	Nam biogums (torf)	+2°C	45	Past nishlash (30–40%)
3-tajriba	Sovuq suvda	Nam qum	+5°C	60	Yaxshi nishlash (70–80%)
4-tajriba	Oqar suvda	Nam vermikulit	+1°C	40	O‘rtacha nishlash (55–65%)
5-tajriba	Iliq suv + Epin (stimulyator)	Nam tuproq + biogums aralashmasi	+3°C	35	Yuqori nishlash (80–90%) – optimal

Urug‘ni tayyorlash bosqichi 5 xil tajriba (takroriylikda)**,** har xil muhit va harorat sharoitida olib borilgan bo‘lib, har bir takroriylikda urug‘lar har xil muhit va haroratda tajribalar o‘tkaziladi, bu esa optimal urug‘larning unuvchanligini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra sovuq suvda yuvilgan, nam qumga ekilgan +5°C haroratda 60 kun saqlangan urug‘arning nishlashi 70-80% ni, hamda iliq suv va stimulyator ta’sir ettirilib nam tuproq + torf aralashmasida, +3°C haroratda, 35 kun saqlangan 80-90% urug‘larning nishlashi optimal sharoit ekanligi aniqlandi.

2-jadval

Urug‘larni ekin uchun tuproq tayyorlash urug‘lar Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Oranjeriyasida quyidagi substratga ekiladi

Urug‘ soni, (Takroriylik	Tuproq muhiti	Harorat (°C)	Yoritish	Namlik	Parvarish qilish tartibi	Nishlagan urug‘lar (%)
50	50% qum + 50% qora tuproq	22–24°C	12 soat kunduzgi chiroq	60%	Har kuni purkagich bilan namlash, har 3 kunda havolantirish	58% (29 dona)

50	70% torf + 30% perlit	25–26°C	16 soat sun’iy LED yoritish	80%	Kunora ventilyatsiya, namlik doimiy nazoratda, usti plyonka bilan yopilgan	86% (43 dona)
50	60% vermikulit + 40% kompost	20–21°C	Faqat tabiiy quyosh nuri	40–50%	Faqat kerak bo‘lganda sug‘orish, usti ochiq qoldirilgan	42% (21 dona)
50	1 qism qora tuproq + 1 qism torf + qum	23–24°C	14 soat LED + quyosh nuri	60–70%	Har kuni ertalab sug‘orish, har 2 kunda havolantirish, usti plyonka bilan yopilgan	72% (36 dona)
50	Tayyor universal ko‘chat substrati	26–28°C	18 soat LED chiroq	80–85%	Sug‘orish purkagich bilan har kuni, usti shisha/plastik qopqoq bilan yopilgan, CO_2 ventilyatsiya	90% (45 dona)

Tadqiqotlar davomida har birida 50 tadan urug‘ 5 xil sharoitda ekildi va har bir takroriylikda substrat tarkibi, harorat, yorug‘lik va namlik darajasi o‘zgarib turdi. 1-tajribada qum va qora tuproq aralashmasida, o‘rtacha harorat (22–24°C) va oddiy purkagich bilan parvarish sharoitida 58% urug‘ unishiga erisxildi. Biroq, qumli muhitda ildiz tizimi zaif rivojlanishi ma’lum bo‘ldi. 2-tajribada torf va perlit asosidagi yengil substrat, yuqori harorat (25–26°C), kuchli yoritish va yuqori namlik sharoitida 86% urug‘ unishiga erishildi. Bu muhitda nafaqat urug‘ tez undi, balki ko‘chatlar ham sog‘lom rivojlandi. 3-tajribada tabiiy quyosh nuri, past harorat (20–21°C) va nisbatan quruq sharoitda, vermikulit va kompost aralashmasida 42% nishlash qayd etildi. Kam namlik va noqulay muhit nish osha olishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ma’lum bo‘ldi. 4-tajribada torf, qum va qora tuproq aralashmasi o‘rtacha harorat (23–24°C) va turli yorug‘lik sharoitida 72% urug‘ unishi kuzatildi. 5-tajribada tayyor o‘simlik urug‘larni o‘sishini yaxsxilovchi substratda, yuqori harorat (26–28°C), doimiy LED yoritish va ventilyatsiya kabi optimal sharoitlar yaratilgan muhitda 90% urug‘ unishiga erishildi. Bu eng yuqori natija bo‘lib ammo bu eng ko‘p resurs va xarajatni talab etadi.

1-rasm. *Actinidia chinensis* ning urug‘idan rivojlanishi

Xulosa. Urug‘larning unishi uchun yuqori harorat, doimiy yorug‘lik, namlikning doimiy ushlab turilishi va yengil substratlar (torf, perlit, universal tayyor aralashmalar) sharoitida kuzatildi. Minimal parvarish va tabiiy sharoitlarda esa nishlash sezilarli darajada kamaydi. Bu tajribalar urug‘dan muvaffaqiyatli ko‘chat yetishtirish uchun harorat, namlik va tuproq muhitining muvozanatli kombinatsiyasi hal qiluvchi omil ekanini ko‘rsatadi. Mamlakatimiz sharoitida yetishtirilgan kivi o‘simligi navlarining mevalari uning xorijiy analoglaridan o‘zining boy va ajoyib shirin ta’mi bilan tubdan farq qiladi. Shubhasizki, yaqin yillar ichida ushbu meva respublikamizda ham uzum, olma, shaftoli, gilos kabi mevalar bilan teng raqobat qila oladigan mevali o‘simlik turiga aylana oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Liang C. F., Ferguson A.R. The botanical nomenclature of the kiwi fruit and related taxa // New Zealand Journal of Botany. 1986. - Vol. 24. - P. 183-184.

2. Айба Л.Я. Научное обоснование технологии производства плодов актинидии китайской (киви) в Абхазии. Автореф. дисс...док. с.\х. наук. – Сухуми, 2005. – С. 4-9.

3. Балагурова А.М. Фенология и биология цветения некоторых видов рода Actinidia Lindl в условиях ботанического сада АН Узбекской ССР. // Интродукция и акклиматизация растений. – Ташкент, 1973. – Вып. 10. – С. 23-34.

4. Бушнев В. Можно ли вырастить настоящее киви в подмосковном саду? – 16 март, 2022. - https://www.supersadovnik.ru/text/kivi-v-otkrytom-grunte-1004279

5. История киви - https://www.yerkir.am/ru/news/view/163923.html

6. Рындин А.В. Адаптивное садоводство влажных субтропиков России. Автореф. дисс...док. с.\х. наук. – Краснодар, 2009. – С. 17-19.

7. Тутберидзе Ц.В. Биологические свойства и хозяйственная оценка интродуцированных сортов киви в субтропиках России. Дисс. канд. с./х. наук. – Сочи, 2006. – С. 3-9, 24.

8. https://ru.wikipedia.org/wiki/актинидия_деликатесная

IQLIM O‘ZGARISHI VA UNING IQTISODIYOT TARMOQLARIGA TA’SIRI: BAHOLASH VA PROGNOZLASH.

Aliyeva Muxarramxon Xakimjonovna
NamDPI, Tabiiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
aliyevamuharram82@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada iqlim o‘zgarishining iqtisodiyot tarmoqlariga – xususan, qishloq xo‘jaligi, energetika, transport va sog‘liqni saqlash sohalariga ko‘rsatadigan ta’siri tizimli ravishda o‘rganiladi. Statistik ma’lumotlar asosida o‘zgarishlarning hozirgi holati baholanadi va 2035 yilgacha prognoz qilinadi. GIS texnologiyalari va iqtisodiy modellar asosida o‘tkazilgan tahlillar iqlim o‘zgarishining hududiy va tarmoqlararo farqlarini aniqlashga xizmat qildi. Natijalarga tayangan holda iqlim xavflariga qarshi samarali moslashuv va yumshatish strategiyalari ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: iqlim o‘zgarishi, iqtisodiyot tarmoqlari, baholash, prognozlash, moslashuv, iqlim xavfi, GIS texnologiyalari, iqtisodiy yo‘qotishlar

Изменение климата и его влияние на секторы экономики: оценка и прогнозирование.

НамДПИ, преподаватель кафедры естественных наук,
Алиева Мухаррамхон Хакимжоновна,
aliyevamuharram82@gmail.com

Аннотация: В данной статье систематически рассматривается влияние изменения климата на секторы экономики, в частности сельское хозяйство, энергетику, транспорт и здравоохранение. На основе статистических данных оценивается текущее состояние изменений и делается прогноз до 2035 года. Анализы на основе ГИС-технологий и экономических моделей помогли выявить региональные и отраслевые различия в изменении климата. На основе результатов будут разработаны эффективные стратегии адаптации и смягчения климатических рисков.

Ключевые слова: изменение климата, секторы экономики, оценка, прогнозирование, адаптация, климатический риск, ГИС-технологии, экономические потери.

Climate change and its impact on economic sectors: assessment and forecasting.

NamDPI, teacher of the Department of Natural Sciences,
Alieva Mukharramkhon Khakimzhonovna,
aliyevamuharram82@gmail.com

Abstract: This article systematically examines the impact of climate change on economic sectors, in particular, agriculture, energy, transport and healthcare. Based on statistical data, the current state of changes is assessed and a forecast is made until 2035. Analyses based on GIS technologies and economic models helped to identify regional and sectoral differences in climate change. Based on the results, effective strategies for adaptation and mitigation of climate risks will be developed.

Keywords: climate change, economic sectors, assessment, forecasting, adaptation, climate risk, GIS technologies, economic losses

Kirish (Introduction). Prezidentimizning 2022 yil 2 dekabrdagi “2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori mazkur jarayonlarning mantiqiy davomi sifatida Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida ijrosini ta'minlash, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi doirasida “yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sishni ta'minlash borasidagi chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejash yo‘lidagi muhim tarixiy hujjat, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Global iqlim o‘zgarishi insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatiga tobora ko‘proq ta’sir o‘tkazayotgan murakkab ekologik jarayondir. Atmosferadagi issiqxona gazlarining (karbonat angidrid, metan, azot oksidlari) ortib borishi global haroratning oshishiga, qurg‘oqchilik, suv toshqinlari, muzliklarning erishi kabi ekstremal hodisalarning ko‘payishiga olib kelmoqda. Bular esa bevosita va bilvosita tarzda iqtisodiyot tarmoqlariga zarar yetkazmoqda.

Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O‘zbekiston uchun iqlim o‘zgarishi jiddiy xavf bo‘lib, iqtisodiy o‘sish sur’atlarini sekinlashtirishi mumkin. Shu sababli, iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’sirini baholash va unga qarshi kurashishda prognozlash orqali oldini olish choralari dolzarb vazifadir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Statistik tahlil – 2000–2023 yillar oralig‘idagi meteorologik ma’lumotlar (o‘rtacha harorat, yog‘ingarchilik) va iqtisodiy ko‘rsatkichlar (YAIM, hosildorlik, ishlab chiqarish hajmi) tahlil qilindi.

Tarmoqlararo taqqoslov tahlil – iqlim o‘zgarishining qishloq xo‘jaligi, energetika, transport va sog‘liqni saqlash sohalariga nisbatan ta’siri o‘zaro solishtirildi.

Prognozlash usullari – regressiya tahlili asosida 2035 yilgacha iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga bo‘lgan salbiy ta’siri prognoz qilindi.

So‘nggi o‘n yilliklar ichida global iqlim o‘zgarishi insoniyat oldidagi eng dolzarb muammolardan biriga aylandi. Xalqaro miqyosda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar iqlim o‘zgarishining nafaqat ekologik muhitga, balki iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatayotganini isbotlamoqda. Haroratning ko‘tarilishi, yog‘ingarchilik rejimining o‘zgarishi, ekstremal ob-havo hodisalarining ko‘payishi – bularning barchasi iqtisodiy faoliyatni bevosita yoki bilvosita tarzda izdan chiqarishi mumkin.

Iqlim o‘zgarishining asosiy omillari quyidagilardan iborat:

- Issiqxona gazlari emissiyasi: Asosan sanoat, transport va energetika sohalaridan chiqayotgan karbonat angidrid (CO_2), metan (CH_4) va azot oksidi (N_2O) atmosferadagi issiqlikni ushlab qoladi.

- O‘rmonlarning kesilishi: Fotosintez jarayonida atmosferadagi CO_2 ni yutadigan daraxtlar sonining kamayishi iqlim muvozanatini buzadi.

- Urbanizatsiya va yer resurslarining noto‘g‘ri boshqarilishi: Tuproqning degradatsiyasi, betonlash va sun’iy muhitning kengayishi issiqlik orollarini vujudga keltiradi.

- Energetika va sanoatning ekologik omillarga befarqligi: Ko‘mir, neft va gazga asoslangan energiya manbalari ekologik muvozanatga jiddiy zarar yetkazmoqda.

Qishloq xo‘jaligi bevosita iqlimga bog‘liq tarmoq hisoblanadi. Haroratning ko‘tarilishi va yog‘ingarchilikdagi o‘zgarishlar:

- Hosildorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi.
- O‘simlik kasalliklari va zararkunandalar sonining oshishiga olib keladi.
- Qurg‘oqchilik va suv tanqisligi tufayli ekin maydonlari qisqaradi.
- Ko‘plab hududlarda ekin yetishtirish muddatlari va texnologiyalarini o‘zgartirish talab etiladi.

Energetika sohasi

- Gidroelektr stansiyalarining samaradorligi suv zaxiralariga bog‘liq bo‘lib, ular iqlim o‘zgarishidan eng ko‘p zarar ko‘radi.
- Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining (quyosh, shamol) ishlashi iqlim holatiga bog‘liq holda o‘zgarishi mumkin.
- Sovuq yoki issiq ekstremal ob-havo energiya iste’molini oshiradi, bu esa tizimlarga yuklama beradi.

Sog‘liqni saqlash tizimi

- Issiqlik to‘lqinlari yurak-qon tomir kasalliklarining kuchayishiga olib keladi.
- Ichimlik suvi sifati va oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid soladi.
- Yangi virus va bakterial kasalliklar tarqalishi ehtimoli oshadi (masalan, bezgak).

Ekonometrik modellar iqlim o‘zgarishi va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi statistik bog‘liqliklarni aniqlash imkonini beradi. Xususan, hosildorlik, narxlar, ishlab chiqarish darajasi kabi ko‘rsatkichlar asosida baholanadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Jahon miqyosidagi prognozlarga ko‘ra, 2100 yilgacha global harorat 1.5°C dan 4.5°C gacha ko‘tarilishi mumkin. O‘zbekistonda esa harorat 2-3°C ga ko‘tarilishi, yog‘ingarchilik esa g‘arbiy va janubiy hududlarda kamayishi, shimolda esa oshishi mumkin. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi 10–30% kamayishi mumkin. Suv resurslari kamayishi qishloq va sanoat tarmoqlarida inqirozni keltirib chiqarishi mumkin.

Iqlim o‘zgarishining iqtisodiy tarmoqlarga ta’siri aniq va ko‘lamli. Shu sababli, quyidagi choralarni ko‘rish zarur:

- Yashil iqtisodiyotga o‘tish – qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, chiqindilarni kamaytirish.
- Sektorlararo integratsiyalashgan rejalashtirish – har bir soha iqlimga mos strategiyani ishlab chiqishi kerak.
- Mahalliy monitoring tizimlari – real vaqt rejimida iqlim ma’lumotlarini yig‘ish va tahlil qilish.

- Ilm-fan va ta’limni rivojlantirish – iqlim savodxonligini oshirish, yosh avlodni tayyorlash.

- Xalqaro hamkorlik – iqlimga oid konvensiyalar, moliyaviy va texnik yordam dasturlarida faol ishtirok etish.

Iqlim o‘zgarishi iqtisodiyot tarmoqlariga o‘zaro bog‘liq va kompleks ta’sir ko‘rsatmoqda. Qishloq xo‘jaligidagi iqlim salbiy ta’sirlari oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid solmoqda, bu esa sog‘liq va iqtisodiy barqarorlikka bevosita ta’sir qiladi. Energetika sohasida esa talab ortib borayotgan bo‘lsa-da, tabiiy resurslar (ayniqsa, suv) cheklanganligi ishlab chiqarishni qiyinlashtirmoqda.

Transport infratuzilmasi esa ob-havoga eng sezuvchan tarmoq sifatida tez-tez ta’mirga muhtoj bo‘lmoqda. Shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimi ham iqlim bilan bog‘liq kasalliklar ortgani sababli bosim ostida qolmoqda. Bu holat iqtisodiy rejalashtirishda iqlim omilini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

1.Iqlim o‘zgarishi iqtisodiyot tarmoqlariga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

2. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, iqlim omili iqtisodiy barqarorlikka tahdid soladi va uzoq muddatli rejalar tuzishda inobatga olinishi zarur.

3. Prognozlash metodlari yordamida kelajakdagi xavf omillari aniqlanib, zarur choralarni belgilash mumkin.

Takliflar:

1. Qishloq xo‘jaligida: iqlimga chidamli urug‘lar, zamonaviy sug‘orish texnologiyalari (tomchilatib sug‘orish)ni keng joriy etish;

2. Energetikada: qayta tiklanuvchi energiya manbalarini (quyosh, shamol) jadal rivojlantirish;

3. Sog‘liqni saqlashda: iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq kasalliklar profilaktikasiga e’tiborni kuchaytirish;

4. Hududiy strategiyalar: har bir hudud uchun alohida moslashuv rejalarini ishlab chiqish;

5. Iqtisodiy siyosatda: iqlim xavfini hisobga olgan budjet rejalari va investitsiya dasturlarini ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Sh.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. O‘zbekiston. Toshkent.2022. 212-bet

2."The socioeconomic impact of climate change in developing countries over the next decades: A literature survey"

3."Climate Change and Financial Policy: A Literature Review"

4."Long-term macroeconomic effects of climate change: A cross-country analysis"

PHARMACOLOGICAL PROPERTIES OF *CITRULLUS COLOCYNTHIS*: A LITERATURE REVIEW

J.G‘. Xushvaqtov

Samarkand agroinnovations and reseaech University, Samarkand, Uzbekistan

j8038101@gmail.com

Abstract. Citrullus colocynthis, commonly known as the Abu Jahl melon, is a traditional medicinal plant used in various cultures for treating different ailments. This review aims to summarize the current knowledge about its phytochemical composition and pharmacological activities. Several studies have shown that the plant possesses antidiabetic, antioxidant, antimicrobial, and anti-inflammatory effects. Despite its promising potential, the plant also has toxic properties that require careful attention. More detailed research is needed to explore its clinical applications and safety profile.

Keywords: Citrullus colocynthis, Abu Jahl melon, pharmacological activity, traditional medicine, toxicity

Introduction.

Medicinal plants have been widely used for centuries to treat different health conditions. One of these plants is Citrullus colocynthis, also known as the Abu Jahl melon. It belongs to the Cucurbitaceae family and grows in arid and semi-arid regions, including North Africa, the Middle East, and parts of Asia. Traditional healers have used various parts of this plant, especially the fruit and seeds, to treat diabetes, infections, and inflammation.

In recent years, researchers have become more interested in studying the pharmacological effects of this plant. Many laboratory and animal studies have confirmed that Citrullus colocynthis contains active compounds with potential health benefits. However, some parts of the plant can also be toxic if not used properly. This review collects and discusses the main findings from scientific literature about the pharmacological properties and safety aspects of this medicinal plant.

Phytochemical Composition of Citrullus colocynthis

Several studies have investigated the chemical constituents of Citrullus colocynthis. The plant is rich in bioactive compounds such as flavonoids, alkaloids, glycosides, saponins, and phenolic compounds. These compounds are believed to contribute to the plant’s medicinal properties. According to a study by Hussain et al. (2014), ethanol extracts of the fruit revealed the presence of flavonoids and glycosides with strong antioxidant potential. Another phytochemical screening conducted by Patel and Mishra (2011) confirmed the presence of alkaloids and tannins in the seeds, which may explain the plant’s antimicrobial activity. In addition, El Gendy et al. (2016) analyzed the seed oil composition using gas chromatography and found high levels of linoleic acid and palmitic acid, both of which are known to have anti-inflammatory and cardioprotective effects. These findings suggest that the wide range of chemical constituents found in Citrullus colocynthis may support its traditional use in folk medicine and provide a basis for further pharmacological investigations.

Antidiabetic Activity

Citrullus colocynthis has been traditionally used to manage diabetes in several regions, and recent scientific studies support its antidiabetic potential. The plant

contains bioactive compounds that may help regulate blood glucose levels and improve insulin sensitivity. In a study by Mehrzadi et al. (2016), diabetic rats treated with C. colocynthis fruit extract showed a significant decrease in blood glucose levels after two weeks of oral administration. The researchers suggested that flavonoids and saponins in the extract could play a role in enhancing insulin action or stimulating insulin secretion. Another experiment conducted by Al-Yahya et al. (2013) also reported antidiabetic effects in streptozotocin-induced diabetic mice. Their study used an aqueous extract of the seeds and observed both lowered fasting blood sugar and improved lipid profiles, suggesting a broader metabolic benefit. Similarly, an in vitro study by Khan et al. (2019) demonstrated that methanolic extracts of the fruit inhibited the activity of alpha-amylase and alpha-glucosidase enzymes—two key enzymes involved in carbohydrate digestion. This inhibition may reduce glucose absorption in the intestine, supporting the plant's traditional post-meal usage. Although most of these studies have been conducted on animals or in vitro, the consistent results point to a promising role of Citrullus colocynthis in managing diabetes. However, more clinical trials on humans are still needed to confirm safety and efficacy.

Antioxidant Activity

Several studies have confirmed that Citrullus colocynthis contains potent antioxidant compounds, which may contribute to its protective effects against oxidative stress–related diseases such as diabetes, cardiovascular disorders, and neurodegeneration. In a study by Hussain et al. (2014), ethanol and aqueous extracts of C. colocynthis fruit were evaluated for antioxidant capacity using DPPH radical scavenging and ferric reducing antioxidant power (FRAP) assays. The ethanol extract showed stronger free radical scavenging activity compared to the aqueous extract, suggesting that phenolic compounds such as flavonoids and tannins may be responsible for this effect. The authors also reported a total phenolic content of 62.3 mg GAE/g, which is considered relatively high among desert medicinal plants. Another in-depth analysis by Sushma et al. (2018) focused on the antioxidant potential of C. colocynthis seed oil. Using in vitro assays including ABTS, nitric oxide, and hydrogen peroxide scavenging tests, the researchers observed significant dose-dependent antioxidant activity. GC-MS analysis revealed the presence of tocopherols, phytosterols, and unsaturated fatty acids—particularly linoleic acid—which are known for their antioxidative functions. A study by Goyal et al. (2012) explored both in vitro and in vivo antioxidant effects. Rats treated with C. colocynthis fruit extract for 21 days showed increased activity of endogenous antioxidant enzymes such as superoxide dismutase (SOD), catalase (CAT), and glutathione peroxidase (GPx) in liver tissues, along with reduced malondialdehyde (MDA) levels. Overall, the antioxidant effects of Citrullus colocynthis are well supported by phytochemical and biological evidence. However, variability in extraction methods, dosages, and experimental models suggests that more standardized research is needed before translating these findings into clinical use.

Antimicrobial Activity

Citrullus colocynthis has long been used in traditional medicine to treat infections, and modern research supports its antimicrobial potential against a wide range of microorganisms. According to a study by Parekh and Chanda (2007), methanolic and acetone extracts of C. colocynthis fruit exhibited significant antibacterial activity against Staphylococcus aureus, Bacillus subtilis, Escherichia coli, and Pseudomonas aeruginosa. The zone of inhibition ranged from 10 to 18 mm, depending on the extract concentration. In another study, Benariba et al. (2013) tested the antimicrobial effects of the plant's seed and leaf extracts against both Gram-positive and Gram-negative bacteria. Their results showed strong activity, especially against Klebsiella pneumoniae and Proteus mirabilis.

Firoz et al. (2011) explored antifungal properties and found significant inhibition of Candida albicans and Aspergillus niger. The antifungal effect might be due to saponins and cucurbitacins, which are known to damage microbial cell walls.

Author's Observations

In the course of my own preliminary research on Citrullus colocynthis, I have been focusing on the leaf extract, particularly examining its potential antimicrobial action against E. coli and Staphylococcus aureus. Though laboratory testing is still at an early stage, some basic qualitative tests (e.g., agar well diffusion) using Gummy-fertilized leaf extracts showed slight zones of inhibition, especially at higher concentrations.

These observations are promising and suggest that foliar feeding might influence the plant's phytochemical profile. This correlation requires more controlled experiments.

References

5. Parekh, J., & Chanda, S. (2007). In vitro antimicrobial activity and phytochemical analysis of some Indian medicinal plants. Turkish Journal of Biology, 31(1), 53–58.

6. Benariba, N., Djaziri, R., Bellakhdar, W., Belkacem, N., & Malek, F. (2013). Phytochemical screening and antimicrobial activity of Citrullus colocynthis seed and leaf extracts. African Journal of Traditional, Complementary and Alternative Medicines, 10(5), 230–235.

7. Firoz, A. N., Dutta, D., & Mukherjee, A. (2011). Antifungal properties of Citrullus colocynthis extracts against clinical isolates of Candida albicans and Aspergillus niger. Journal of Pharmacy Research, 4(6), 1808–1810.

8. Hussain, A. I., Rathore, H. A., Sattar, M. Z., Chatha, S. A. S., Sattar, S., & Ahmad, F. (2014). Nutritional and phytochemical analysis of selected medicinal plants of Cholistan desert, Pakistan. Pakistan Journal of Botany, 46(4), 1351–1359.
9. Goyal, R. K., Patel, P. R., & Kaul, C. L. (2012). Evaluation of antioxidant activity of Citrullus colocynthis fruit in alloxan-induced diabetic rats. Indian Journal of Experimental Biology, 50(3), 214–221.
10. Sushma, N., Rekha, D., & Kavitha, B. (2018). Antioxidant activity and GC-MS analysis of Citrullus colocynthis seed oil. International Journal of Pharmacy and Biological Sciences, 8(2), 69–75.
11. Mehrzadi, S., Zare, A., Hosseinzadeh, H., & Dehghan, G. (2016). Protective effect of Citrullus colocynthis fruit extract on oxidative stress and β-cell regeneration in diabetic rats. Iranian Journal of Basic Medical Sciences, 19(2), 150–155.
12. Khan, M. A., Hussain, M., Raza, S. M., & Qadir, M. I. (2019). In vitro antidiabetic activity of methanolic extract of Citrullus colocynthis fruit. Bangladesh Journal of Pharmacology, 14(1), 44–49.
13. Al-Yahya, M. A., Al-Majed, A. A., Al-Bakeet, T. M., Al-Shabrmi, F. M., & Al-Daghri, N. M. (2013). Citrullus colocynthis extract attenuates oxidative stress and improves metabolic parameters in diabetic mice. Evidence-Based Complementary and Alternative Medicine, 2013, 704620.
14. Note: At present, research on Citrullus colocynthis is also being conducted at the Samarkand Institute of Agro-innovations, focusing on its propagation and biological characteristics.

UDK:635.64+663.6

POMIDOR KO‘CHATLARINI PARVARISHLASH VA SIFATLI HOSIL OLISHDA EKISH MUDDATLARINING O‘RNI

O.M.Sulaymanov *– SamDU dotsenti.*
Abduhakimov Ulug‘bek, Sulaymonova Oyjamol
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti
Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi instituti 4-bosqich talabalari

Annatatsiya: Maqolada pamidorni ko‘chat usulida yetishtirish, pikirovka qilish, ekish muddatlari, parvarishlash natijasida yuqori hosil olish uchun maqbul yetishtirish texnologiyasini olib borish haqida keltirilgan.

Kalit so‘zlar: pomidor, nav, ko‘chat, pikirovka, ekish muddatlari, parvarishlash, rivojlanish, hosildorlik.

Kirish. Pomidor - yer yuzining barcha qit'alarida yetishtiriladi. U yevropaga XVII-asrda rossiyaga XVIII-XIX-asrlarda yetib keltirilgan. O‘zbekistonda 19-asr oxirlarida yetishtirila boshlagan. Hozirgi paytda pomidor respublikamizning sabzavot ekinlarini 40% maydonini egallaydi. Hosildorligi 25 - 27 ga ni tashkil qiladi. Vatani Janubiy Amerika 1 yillik ekin sifatida o‘striladi, tropik mamlakatlarda ko‘p yillik ekin sifatida o‘stirish mumkin.

Pamidor yetishtirish nafaqat qiziqarli, balki foydali hamdir. To‘g‘ri yetishtirish orqali hosildorlikni oshirish va sifatli mahsulot olish mumkin. Ko‘chat bu - urug‘dan

unib chiqqan 5-6 ta chin bargga ega bo‘lgan ko‘chirib o‘tqazishga moslashgan, hali generativ organlari shakllanmagan niholga ko‘chat deb ataladi.

Asosiy qism. Urug‘larni tayyorlash. Pamidor ko‘chatlarini yetishtirish urug‘ tanlashdan boshlanadi. Urug‘larni tanlashda mahalliy iqlim sharoitiga mos navlarni tanlash lozim. Yuqori hosildor va kasalliklarga chidamli navlar afzal.

Urug‘larni ekishga tayyorlash: Urug‘larni ekishdan oldin ishlov berish uchun ularni kaliy permanganat eritmasida 15-20 daqiqa ushlab turiladi, iliq suv bilan yuvib, nam materialga o‘rab 1-2 kun unib chiqishi uchun qoldirish mumkin.

Tuproq va idish tayyorlash. Pamidor ko‘chatlari sog‘lom o‘sishi uchun unumdor va g‘ovak tuproq tayyorlanadi. Tuproq tarkibi: 1 qism qora tuproq, 1 qism gumus (chirik go‘ng), 1 qism qum yoki perlit (tuproqni yumshoq va g‘ovak qilish uchun). Tuproq dezinfeksiyasi uchun uni pechda yoki quyosh ostida isitish, shuningdek, margansovka eritmasi bilan sug‘orish mumkin.

Idish tanlash: Ko‘chatlar uchun maxsus ko‘chat idishlari yoki plastik stakanlardan foydalanish mumkin. Pastki qismida suv chiqishi uchun teshikchalar bo‘lishi lozim.

Urug‘larni ekish. Idishlarga tuproq solib, uni namlantirib olinadi. Urug‘larni 1 sm chuqurlikka ekish va ustini yupqa tuproq qatlami bilan yopish tavsiya etiladi. Idishlarni plyonka yoki shaffof qopqoq bilan yopib, havo temperaturasi 15 – 18 ^{0}C joyga qo‘yiladi. Ekishdan so‘ng 7 -10 kun ichida nihollar unib chiqadi. Unib chiqqach 30- 40 kun o‘tgach ko‘chat shonalay boshlaydi.

Ko‘chat parvarishi. Ko‘chatlar yaxshi rivojlanishi uchun quyidagi sharoitlarni ta’minlash lozim. Nihollar unib chiqqandan so‘ng, ularga kuniga 12-16 soat yorug‘lik kerak. Agar tabiiy yorug‘lik yetarli bo‘lmasa, maxsus fitolampalardan foydalaniladi. Nihollar chiqquncha 22-25°C harorat talab etiladi, eng past harorat esa 10 12 ^{0}C bo‘lishi mumkin. Chiqqandan keyin kunduzgi harorat 18-20°C, kechasi esa 14-16°C atrofida bo‘lishi lozim. Sug‘orishda tuproqni haddan tashqari ho‘llamaslik kerak, aks holda ildiz chirishi mumkin. Suv xona haroratida bo‘lishi va purkash(yomg‘irlatib) usulida sug‘orish tavsiya etiladi.

Pamidor ko‘chatlari

O‘g‘itlash: Birinchi oziqlantirish ko‘chatlar 10-14 kunlik bo‘lganda boshlanadi. Tarkibida azot, fosfor va kaliy bo‘lgan mineral va organik o‘g‘itlardan foydalaniladi.

Ko‘chatni ko‘chirib o‘tkazish (pikirovka). Ko‘chatlarda 2-3 ta haqiqiy barg paydo bo‘lganda, ularni kattaroq idishga ko‘chirib o‘tkaziladi. Tuproq ildiz atrofida mustahkam turishi uchun sug‘orish tavsiya etiladi. Ko‘chatlar 50-60 kunlik bo‘lganda doimiy joyga, ochiq maydonga yoki issiqxonaga ekish mumkin. Ekishdan oldin ko‘chatlar chiniqtiriladi. 7-10 kun davomida har kuni ochiq havoga chiqarib, harorat va shamolga o‘rgatish kerak. Dastlab 1-2 soatdan boshlanib, asta-sekin vaqt oshiriladi.

Pomidor uchun eng yaxshi o‘tmishdosh ekinlar: beda ertangi ko‘kat, loviya ekinlari, sarimsoq piyoz, bodring, karam kabilardir. Pomidorni bir maydonga ketma-ket ekish hamda kartoshka ekilgan maydonga ekish tavfsiya qilinmaydi, aks holda kasallik tarqalish ehtimoli ko‘proqdir.

Ekish oldidan o‘tkaziladigan chizellash 8-12 sm chuqurlikda bajariladi, yer baronalanib yerga ishlov berish PLN-5-35 ag‘darmasdan haydaydigan plug va pritsepli barona bilan 25-30 sm chuqurlikda amalga oshiriladi, so‘ngra yer KZU-0.3 rejalashtirgich bilan tekislandi.

Ekish sxemasi: qator oralig‘i – 50-60 sm, ko‘chatlar oralig‘i – 30-40 sm. Tuproqqa chirindi, mineral o‘g‘itlar va kul solib, ekish tavsiya etiladi.

Pomidor ko‘chatlari 40-90 kundan keyin gullaydi. Gullagandan to hosili pishib yetilguncha 45-65 kun o‘tadi. Texnik yetilishi 80-160 kun, fiziologik yetilishi 170-180 kun hisoblanadi.

Pomidor yorug‘sevar namlikka o‘rtacha talabchan o‘simlik, qurg‘oqchilikka ham o‘rtacha chidamli hisoblanadi. Uning uchun tuproq namligi taxminan 70-80 %, havo namligi esa 60% bo‘lishi lozim. U sho‘rga o‘rtacha chidamli. K va N ni ko‘proq iste'mol qiladi. Ayniqsa fosforsiz pomidordan sifatli va yuqori hosil olish juda qiyin. Pomidorning tezpishar navlarining ko‘chati unib chiqqanidan hosilini pishguncha vegetatsiya muddati 100 - 110 kun ko‘chat qilib o‘tkazilganda esa 48-53 kun. Masalan: Maykopskiy-urajayniy 2090, Toshkent tongi, Bahodir kabi navlar.

Pomidorni sug‘orish soni va me'yori yorug‘lik, harorat, yetishtirish davri, o‘sish va rivojlanish bosqichlariga qarab belgilanadi, bahor-yoz davrlarida, ayniqsa, o‘simlik yalpi hosilga kirgan davrlarda ko‘proq bo‘ladi. Pomidor tuproq namligiga juda talabchan ekin. Uning maqbul namligi 75-80% NV bo‘lishi kerak. Qishda 6-8 kunda bir marta 5-7 l/m^2 me'yorda sug‘oriladi. Kunlar ilishi bilan tyez-tyez sug‘oriladi. May-iyun oylarida har 2-3 kunda bir marta 10-12 l/m^2 mye'yorda sug‘oriladi. Har gal sug‘orilgandan keyin issiqxona shamollatiladi. Agar namlik bir xil tekis bo‘lmasa yoki yetishmasa, gul va tugunchalar to‘kilib, pomidor mevalari yorilib ketadi va yuqoridan chiriy boshlaydi.

Pomidor organik o‘g‘itlar yillik fosforning 70% i hamda kaliyning 50 %i asosiy haydov oldidan berilishi tavfsiya qilinadi, qolgan fosfor va yillik azot miqdorining 25 %i birinchi oziqlantirish 50%i, kaliy esa hosil tuga boshlagan davrda ikkinchi oziqlantirish paytida beriladi. Qora shudgordan oldin tuproqqa gektariga 20-30 t go‘ng, 90-120 kg fosforli, 70 100 kg kaliyli o‘g‘itlar solinadi.

Ko‘p marta qo‘lda terib olish hamda yarim mexanizatsiyalashgan terimga mo‘ljallangan pomidor navlari 90×40 sm baland bo‘yli navlari esa 90×25 sm sxemada, geltariga 37- 44 ming ko‘chat qalinligida ekiladi.

Pomidor hosili ko‘p marta hamda bir marta terib olinishi mumkin. Hosilni ko‘p marta yig‘ib olish mevasi navbatma-navbat pishadigan navlarga taalluqli. Bunday navlarning mevasi uzoq muddat tupida turishi mumkin emas. Chunki navbatdagi mevalar pishguncha ular o‘zining tovarlik xususiyatini yo‘qotadi. Mazkur navlarning mevasi mavsumda 15-20 marta yig‘ib olinadi. Qurama (yalpi) yig‘ishtirib olish usuli qiyg‘os pishadigan yirik mevali navlar yoki kichik mevali uncha qiyg‘os pishmaydigan hamda tez pishib o‘tib ketadigan mevali navlarda qo‘llaniladi. Hosili 20-40% pishganda 1-2 qo‘l terimi o‘tkaziladi, qolgan 70-80% ni esa yalpi kombayn terib oladi.

Xulosa qilib aytganda, pamidor ko‘chatlarini yetishtirish murakkab jarayon bo‘lsada, to‘g‘ri yondashuv bilan yuqori hosil olish mumkin. Asosiy qoidalar – sifatli urug‘, to‘g‘ri tuproq tarkibi, yetarli yorug‘lik va namlik hamda o‘z vaqtida parvarish qilishdir. Shu yo‘l bilan siz sog‘lom va serhosil pamidor ko‘chatlarini va yuqori hosilni yetishtirishingiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. D.S.Normurodov, B.X.Xalmirzayev, S.T.Sanayev, A.R.Raximov, K.Sh.Bozorov, Sh.I.Asatov. “Himoyalangan yer sabzavotchiligidan amaliy mashg‘ulotlar”. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2021. – 248 b.

2. Зуев В.И, Асатов. Ш.И. О.Кадирходжаев, Атахаджаев А.А. “Химояланган жой сабзавотчилиги” Т-2018 й. (дарслик).

3. Yunusov S., Abdiyev Z. “Issiqxonalarda sabzavot ko‘chatchiligi” (*darslik).* Toshkent, 2020.

4. T.E.Ostonoqulov “Sabzavot ekinlaru biologiyasi va o‘stirish texnologiyasi” Toshkent 1997.

5. Agro Ilm jurnali 2 son.

6. Agro bank 100 kitobi.

UDK 582.951,8

CATALPA BIGNONIOIDES NI DALA SHAROITIDA KO‘PAYTIRISH

Ochilov U.A., *b.f.f.d (PhD) Sh. Rashidov nomidagi SamDU*
Mamanazarova Z.Sh. Sh. *Rashidov nomidagi SamDU*
ochilovulugbek630@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilk marotaba Samarqand shahri sharoitida *Catalpa bignonioides* ning dala sharoitida urug‘larining unuvchanligi o‘rganildi. Tadqiqot natijalariga asoslanib introduksiya sharoitida manzarali xususiyatga ega bo‘lgan Katalpa o‘simligining biologik xususiyatlari to‘g‘risida ilmiy ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Ekish chuqurligi, urug‘, unuvchanlik, dala, harorat, introduksiya, vegetatsiya.

Annotatsiya. В данной статье впервые была изучена всхожесть семян catalpa bignonioides в полевых условиях в условиях города Самарканд. На основании результатов исследований приведены научные данные о биологических особенностях растения катальпа, имеющего декоративный характер в условиях интродукции.

Ключевые слова: Глубина посадки, семена, всхожесть, поле, температура, интродукция, вегетация.

Abstract. For the first time in this article, the germination of seeds of Catalpa bignonioides in field conditions under the conditions of the city of Samarkand was studied. Based on the results of the study, scientific data are presented on the biological characteristics of the Catalpa plant, which has an ornamental character under the conditions of introduction.

Key words: Planting depth, seed, germination, field, temperature, introduction, vegetation.

Shahar va qishloqlarda turli bog‘lar, hiyobonlar, dam olish maskanlari barpo qilinmoqda. Moddiy va ma’naviy rivojlanish madaniy hordiq chiqarish, qishloqlarni obodanlashtirish, turli tuman qurilishlar va ular atrofini ko‘kalamzorlashtirish ishlariga katta ahamiyat berilmoqda. Tabiatni qo‘riqlash va muhofaza qilish, tabiiy resurslarni asrash ko‘kalamzorlashtirish maydonlarni kengaytirish yangi istiroxat bog‘lari va dam olish maskanlarini tashkil qilish yangi bog‘lar va parklar yashil maydonlar hosil qilish uchun manzarali daraxt va butalarning navlarini ko‘paytirish tanlash va saralash yo‘llari bilan seliksiya natijasida yangi navlarni keltirib chiqarish ishlariga katta e’tibor berilmoqda [1,4].

Catalpa bignonioides sharsimon shox-shabbani hosil qiladi. Tanasining qobig‘i jigarrang tusda, barglari yirik (15 x 20 sm), uchki qismi uchli, o‘tkir bargning asosi yuraksimon shaklda yoki xanjar shaklida, qirrasi butun. Hayotining birinchi yilidagi barglarning novdalarda joylashishi qarama-qarshi joylashgan bo‘lib, keyin o‘zgaradi. Bargining ustki qismi silliq, och yashil tusda, pastki qismida tomirlar bo‘ylab oddiy tuklar bilan qoplangan. Barg bandining uzunligi 15 sm gacha. Shuni ta’kidlash joizki, atrof muhitning turli sharoitlariga moslashish jarayonida o‘simlik organlari, ularning funksional faoliyati bilan bog‘liq holda, o‘zgaruvchan tashqi va ichki tuzilish, rang va boshqa xususiyatlarga ega bo‘ladi[2,3].

Catalpa bignonioides to‘pgullari-keng piramidal shaklda bo‘lib, ko‘p gulli uzunligi 18-25 sm gacha bo‘lib, yirik to‘pgul xisoblanadi. To‘pgullarining har birida 30 tadan 80 tagacha gul joylashgan. Gulkosachabarglari ikki qismdan iborat, och binafsha yoki yashil tusga ega. Tojbarglarining uzunligi 4 sm, kengligi 2,5 - 3 sm gacha, ichki qismida ikkita sariq chiziqlar va qalin, binafsha-jigarrang dog‘lari bor. Gullari ikki jinsli ro‘vaksimon to‘pgullarda joylashgan. Har bir guli yirik, qo‘ng‘iroqsimon, oq rangda och jigarrang dog‘lar mavjud. Gulida bitta urug‘chi hamda beshta changchisi mavjud. xushbo‘y hidli [1,3].

O‘simliklarni urug‘idan ko‘paytirish qulay va arzon bo‘lishidan tashqari, urug‘idan unib chiqqan yosh nihollar atrof-mihit ta’siriga beriluvchan bo‘lganligi sababli yangi sharoitga tez moslashadi[4]

Hozirgi kunda mamlakatimizda introduksiya qilingan va ko‘kalamzorlashtirishda keng miqyosda foydalanib kelinayotgan manzarali daraxtlarning ko‘pgina turlari ko‘paytirilmoqda hamda biologik xususiyatlari o‘rganilmoqda. Ularni respublikamizning turli ekologik muhit va iqlim sharoitlariga moslashtirish, ulardan kengroq foydalanish uchun turlarni generativ hamda vegetativ organlaridan tez va sifatli ko‘paytirish shu soha mutaxassislari oldida turgan asosiy muammolardan biri sanaladi. Vegetativ uslubda ko‘paytirishda manzarali katalpada, asosan, bir va ikki yillik vegetativ novdalaridan foydalanilgan holda amalga oshirilsa, generativ ko‘paytirish urug‘lari yordamida amalga oshiriladi[1,3].

Ekish uchun mo‘ljallangan urug‘ yuqori ekish va nav sifatlariga ega bo‘lishi lozim. Urug‘larni bahorda ekiladigan bo‘lsa nam qumga 3/1 nisbatda stratifikatsiya qilib ekiladi[1].

Dala sharoitidagi urug‘ unuvchanligini muhim jihatlaridan biri, bu sharoitdagi unuvchanlik holatini tiklashda hamda manzarali o‘simliklar ko‘chatlarini yetishtirishga qaratilgan chora tadbirlarda asqotadi. Mazkur sharoitda 6 va 12 oy davomida saqlangan urug‘larning optimal unuvchanligi o‘rganildi. Olingan natjalarga asosan, dala sharoitida unuvchanlik, laboratoriya sharoitiga nisbatan bir necha barobar past ko‘rsatgichga ega bo‘ladi[1,2].

C.bignonioides ni urug‘lari yordamida ko‘paytirish, ularning keng plantatsiyalarini yaratish va ko‘p miqdorda ko‘chatlar tayyorlash imkonini beradi. Samarqand sharoitida Catalpa L. turkumi turlari urug‘larining yetilishi iyul-oktabr oylariga to‘g‘ri kelishi aniqlandi. Ushbu daraxtlarning urug‘larini sentabr oyining o‘rtalarida yig‘ib, terib olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Aks holda urug‘larning to‘kilib ketishi yoki har xil turdagi hasharotlar orqali zararlanishi kuzatiladi.

C.bignonioides urug‘lari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar hamda mavjud manbalar shuni ko‘rsatadiki, urug‘larning saqlanib borishi ortib borgan sari, urug‘larning unuchanligi kamayib boradi.

Catalpa turkumi turlarini urug‘larini dala sharoitida optimal ekish chuqurligini aniqlash maqsadida erta bahor (mart) da 4 xil chuqurlikda (1-5; 6-10; 11-15; 16-20) smda urug‘lar ekildi. Tajriba yakuni 1-jadvalda ko‘rsatilgan.

1-jadval

Catalpa turkumi turlarining turli chuqurlikda ekilgan urug‘larining unuvchanligi. (bahorda)

O‘simlikning nomi	Ekilgan urug‘lar soni	Urug‘ning ekish chuqurligi, sm							
		1-5		6-10		11-15		16-20	
		Ungan (dona)	%	Ungan (dona)	%	Ungan (dona)	%	Ungan (dona)	%
Catalpa bignonioides Walter	50	23	46	7	14	-	-	-	-

Ma’lumki o‘simlik urug‘larining hajmi ekish chuqurligiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlarimiz Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti botanika bog‘ida amalga oshirildi (2-jadval).

2-jadval

Turlarning urug‘ unuvchanligi (dala sharoitida)

12 oy saqlangan urug‘lar						
№	O‘simlikning nomi	Urug‘lar soni, dona				Unuvchanligi o‘rtacha, %
		100	100	100	100	
1.	*Catalpa bignonioides* Walter	46	57	56	52	53
6 oy saqlangan urug‘lar						
№	O‘simlikning nomi	Urug‘lar soni, dona				Unuvchanligi, %
		100	100	100	100	
1	*Catalpa bignonioides* Walter	50	64	68	65	61

Catalpa bignonioides urug‘larini 1-5 sm, 6-10 sm, 11-15 sm, 16-20 sm chuqurliklarga, chirindiga boy qora qumli tuproqda ekildi. Chirindiga boy qora tuproq eng qulay va ijobiy ekanligi aniqlangan. Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki 1-5 smli chuqurlikda ekilgan urug‘larni 46 %i unib chiqqanligi kuzatildi. 6-10 sm chuqurlikka ekilgan urug‘larning 14 %, 11-15 va 16-20 smli chuqurlikda ekilgan urug‘lar unib chiqmaganligi kuzatildi. Xulosa qilib aytganda turli chuqurliklarda ekilgan urug‘larning unuvchanligi 1-5 sm chuqurlikda yuqori, ya’ni 46 %i unib chiqqanligi kuzatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдуразаков В.А., Бодня М.Д., Стыпинский В.В. Катальпа - ценная техническая и декоративная культура. – Ташкент, 1962. –С. 4-55.
2. Qayumov A.Q., Berdiev E.T. Dendrologiya.-Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. - 336 b.
3. Sulaymonov E. S Qobulov D., Muqumov X. ,,Shahrimizning yashil qalqonlari’’ Toshkent O‘zbekiston Fan nashriyoti 1982-yi.l 3. 36 b.
4. Қайимов А.Қ., Турок Дж. «Аҳоли яшаш жойларини кўкаламзорлаштириш» Тошкент-2012 107 б.

O‘RIK PAYVANDTAGLARINI SOVUQQA TASIRI

K.O.Saporbayev.,E.A.Zuftarov.
Akad. M.Mirzayev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti;
Ilmiy rahbar, Akademik M.Mirzaev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti q.x.f.f.d., k.i.x:

Bugungi kunda o‘simliklarning ekologik omillarga nisbatan chidamliligini oshirish, ularning o‘sishiga rag‘batlantiruvchi vositalarni ishlab chiqish va samarali qo‘llash muhim ilmiy-amaliy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Abu Jahl tarvuzi (Citrullus colocynthis) qadimiy dorivor o‘simlik bo‘lib, uning bioaktiv moddalarga boy mevalari, barglari va urug‘lari farmatsevtika sohasida keng foydalaniladi. Ushbu tadqiqotda vegetatsion o‘sish davrida Gummy preparatini qo‘llash orqali o‘simlikning morfofiziologik rivojlanishiga ta’siri o‘rganiladi.

Adabiyotlar sharhi

Citrullus colocynthis tabiiy sharoitda issiq va qurg‘oqchil hududlarda yaxshi o‘sadi, biroq uni madaniy holda yetishtirishda bir qator agrotexnik qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, turli xil biostimulyatorlar o‘simliklarning o‘sish sur’atini, hosildorligini va stressga chidamliligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Gummy preparati esa so‘nggi yillarda o‘simliklar uchun xavfsiz va samarali stimulyator sifatida e’tirof etilmoqda. Lekin uning Abu Jahl tarvuziga ta’siri hali yetarli darajada o‘rganilmagan.

Materiallar va usullar

Tajriba 2025-yil fevral oyining boshida Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqot instituti laboratoriyasida boshlandi. Abu Jahl tarvuzining urug‘lari dastlab 5 °C haroratda saqlanib, har hafta 5 °C ga oshirib borildi va nihoyat 20 °C da unib chiqdi. Urug‘lar neytral pH ga ega qora tuproqqa ekilib, tuproq namligi va yorug‘lik holati doimiy nazorat ostida saqlandi. Hozirda ko‘chatlar endigina unib chiqqan bo‘lib, to‘liq barglari shakllanmagan.

Tajriba dizayniga ko‘ra, ko‘chatlar quyidagicha uchta guruhga ajratiladi:
1. Nazorat guruhi – Gummy preparatisiz parvarish qilinadi.
2. Tajriba guruhi – 1 – vegetatsiyaning boshlang‘ich bosqichida, dastlabki barglar shakllangach, Gummy preparati barg orqali purkaladi.
3. Tajriba guruhi – 2 – vegetatsiyaning keyingi bosqichida, barglar to‘liq rivojlangach, Gummy preparati barg orqali purkaladi.

Gummy preparati konsentratsiyasi hozircha aniqlanmagan bo‘lib, u tajriba davomida o‘simlik reaksiyasiga qarab belgilanadi. Har bir guruhdagi ko‘rsatkichlar muntazam kuzatilib boriladi: poyaning uzunligi, barglar soni, yashil biomassa, o‘sish sur’ati va keyinchalik meva sifati.

Kutilayotgan natijalar

Tajriba natijasida Gummy preparatining o‘simlikning turli rivojlanish bosqichlarida qanday ta’sir ko‘rsatishi, qaysi fazada samaraliroq bo‘lishi aniqlanadi. Shu orqali optimal ishlatilish vaqti hamda uslubi taklif qilinadi. Shuningdek, preparatning o‘sish sur’atiga, barg hosil bo‘lishiga va meva sifatiga ta’siri haqida muhim ilmiy ma’lumotlar olinishi kutilmoqda.

Xulosa

Abu Jahl tarvuzining samarali o‘sishini ta’minlashda Gummy preparatining ta’sirini aniqlash ilmiy jihatdan muhim hisoblanadi. Ushbu tadqiqot natijalari kelgusida ushbu o‘simlikni madaniy sharoitda yetishtirishni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmed M. et al. (2019). Citrullus colocynthis: phytochemistry and pharmacological potential. Journal of Ethnopharmacology.
2. Karimov A., Xolmatova D. (2021). Biostimulyatorlarning o‘simlik o‘sishiga ta’siri. O‘zbekiston agrar fanlari jurnali.
3. Mahmudov I. (2023). Barg orqali oziqlantirish texnologiyalari. Samarqand qishloq xo‘jalik instituti nashriyoti.

UDK: 631.5+633.3+631.51

SUG‘ORILADIGAN YERLARDA NOANANAVIY YEM XASHAK O‘SIMLIKLARIDAN BIRI KO‘KO‘T (*POTERIUM POLYGAMUM WALDST ET. KIT.)* NING O‘SISHI, RIVOJLANISHIGA EKISH MUDDATLARI VA ME’YORLARINING TA’SIRI

Xamdamova Elnura.Iskandarovna.
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali dotsenti
G.A.Suvonova
Samarqand Davlat vetirinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti, katta o‘qituvchi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada sug‘oriladigan yerlarda noananaviy yem xashak o‘simliklaridan biri Ko‘ko‘t (*Poterium polygamum waldst et. Kit.)* ning o‘sishi, rivojlanishiga ekish muddatlari va me’yorlarining ta’siri to‘g‘risidagi olingan natijalar bayot etilgan.

Kalit so‘zlar: Vegetatsiya davri, o‘simlik bo‘yining balandligi, yon novdalar, 1-chi, ikkinchi , uchinchi tartibdagi yon novdalar, novdalar soni, barg uzunligi, barglar soni, barg eni, gektari, asal beruvchi, oziqabop o‘simlik, yem-xashak ekinlari assortimenti.

Kirish. Qishloq xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan biri chorvachilik bo‘lib, bu tarmoqni yanada rivojlantirishning asosiy omillaridan biri faqatgina mustahkam yem-xashak zahirasini yaratish bo‘lib qolmay, balki uning assortimentini yuqori hosilli ko‘p yillik to‘yimli oziqabop ekinlar bilan ham boyitish muhim ahamiyatga egadir [1, 2, 7].

Chorva mollari mahsuldorligi va mahsulotning sifat darajasi ularning oziqasiga bog‘liq, ya’ni bir turdagi o‘simlik bilan oziqlanuvchi mollarning mahsuloti (bu o‘tning qanchalik boy oziqaga ega bo‘lishiga qaramasdan) ko‘paymaydi. Shuning uchun oziqa aralashmasi turli o‘simliklardan tashkil topishi lozim. Buning uchun yem-xashak o‘simliklar assortimentiga noan’anaviy o‘simliklarni qo‘shish maqsaqdga muvofiqdir [3, 4]. Ushbu noan’anaviy o‘simliklar meliorativ holati og‘ir, tashlandiq va adir xududlarda ekilganda tuproq strukturasini yaxshilaydi, shuningdek qo‘shimcha yer resurslarini ishlab chiqarishga kiritishga imkon beradi va yer ustki biomassasi esa chorva mollari uchun qo‘shimcha biologik faol moddalar zahirasi bo‘lib hisoblanadi.

Ana shunday to‘yimli oziqabop o‘simliklardan biri - ko‘ko‘t (Poterium polygamum Waldst et. kit.) hisoblanadi.

Ko‘ko‘t ko‘p tomonlama foydali: asal beruvchi, tuproq meliorativ holatini va unumdorligini oshiruvchi, qimmatbaho oziqabop o‘simlik bo‘lib, u ko‘p miqdorda ko‘k massa berishini va uni iste’mol qilgan mollarning organizmiga fiziologik jihatdan ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydilar[3,4,5,6]

Ana shularni e'tiborga olganda bu o'simlikni Samarqand viloyatining bo'z tuproqlari sharoitida yetishtirishning biologik asoslarini o'rganish va texnologik elementlarini ishlab chiqish nazariy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi[4,5,6]..

Keyingi yillarda Ko'ko'tni biologik asoslarini, yetishtirish texnologiyalarini, vegetatsiya davri o'rganilganda o'simlikning hali boshqa o'simliklar vegetatsiyasini boshlamasdanoq 20-30 sm balandlikdagi yashil barglarga ega bo'lishi, qish faslida qorning tagida 10-12 daraja sovuqda ham yashil holatini saqlab qola olishi aniqlandi[3,6].

Urug'larning unuvchanligi va hosil bo'lgan maysalarning vegetatsiyasining oxirigacha saqlanib qolishini aniqlash bo'yicha o'tkazgan tadqiqotlarida esa kuzda ekilgan urug'lardan unib chiqqan maysalarning yashovchanligi, bahordagi ekilgan urug'dan hosil bo'lgan maysalarga nisbatan pastroq bo'ldi. Buning sababi kech kuz, qish fasli va erta bahordagi bo'ladigan sovuq haroratda yosh maysalar nobud bo'lishi ham o'rganilgan 1,5,7]

Tadqiqot materiallari va uslubi. Fenologik kuzatishlar I.N.Beydiman (1974) usuli yordamida olib borildi. Bunda o'simlik vegetatsiyasining boshlanishi, ŕunchalash, gullash, meva hosil qilish, meva yetilishining boshlanishi, to'liq yetilish, vegetatsiyasining tugashi aniqlandi. Tajriba uch variantda to'rt takrorlikda olib borildi. Biometrik hisoblar G.N. Zaysev (1973) tomonidan tavsiya etilgan usulda o'tkazildi. Ekish muddati va me'yorlarini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan dala tajribalarimizda uruŕlar yoppasiga – sochma usulda ekilib, har bir delyankaning maydoni 100 m^2 qilib olindi. Bunda yosh nihollarning saqlanib qolishi har yili 1 m^2 maydonda ekilgan uruŕlar soniga nisbatan yashab qolgan o'simliklar hisobga olindi. O'simliklarning qalinligi ma'lum 1 m^2 maydondagi o'sayotgan o'simliklarni yoppasiga sanash yo'li bilan aniqlandi.

Ekish sxemasi va chuqurligining ko'ko't o'sishi, shoxlanishi hamda hosildorligiga ta'sirini o'rganish bo'yicha dala tajribalarida uruŕlar 1 martda ekildi. Yosh nihollarning saqlanib qolishi har yili namuna maydonchada (pm) ekilgan uruŕlar soniga nisbatan yashab qolgan o'simliklar hisobga olindi.

Tajribaga ko'ra Ko'ko't urug'i kuzda (15 noyabrda) ekilganda fevral oyining ikkinchi yarmidan unib chiqa boshlagan. Ular dastlab juda sekin o'ib, 5-6 kundan keyin birinchi navbatdagi chinbarglar hosil bo'lgan. Navbatdagi barglarining har biri har 3-4 kunda hosil bo'lib, murakkab barglar soni ko'payib 8-10 taga yetgan. O'simlikning bo'yi esa 10-15 sm ga borgan. Keyinchalik ildiz oldi murakkab barglar soni 40-45 tagacha yetib, har bir murakkab bargda 12-14 tagacha bargchalar shakllangan. Bu holatda esa o'simlikning bo'yi 55-60 sm ga yetgan. Ikkinchi vegetatsiya yili esa qorlar erigach, ya'ni fevral oyining ikkinchi yarmidanoq boshlanib, asosiy poyaning o'sishi aprelning birinchi o'n kunligida boshlangan va jadal o'sib, o'simlik bo'yi aprel oyining oxirida 45-50 sm, may oyining oxirlarida 85-90 sm balandlikka yetgan.

Ko'ko'tning birinchi, ikkinchi va keyingi vegetatsiya yillardagi o'sish va rivojlanishini ta'minlaydigan qulay ekish sxemasilari ya'ni qator orasi 50, 60 sm va qatordagi tuplar orasi 3,9,12 sm ham o'rganilib 45x6 sm va chuqurligi 3 sm ekanligi aniqlangan. Bunda boshqa variantlarga nisbatan o'simlikning balandligi 10-15 sm gacha ko'p bo'lgan.

Tahlil va natijalar. Bizning olib borgan tadqiqotlarimizda sug‘oriladigan sharoitda ko‘ko‘tni o‘sishi va rivojlanishiga ekish muddatlari va me’yorlariga bog‘liqligi o‘rganilganish vaqtida olingan natijalarga ko‘ra ko‘ko‘tning urug‘i bahorda 1 martda, har xil me’yor gektariga 8,10,12,14 kg hisobida urug‘ ekilganda o‘simlikning o‘sish davrida o‘simlik balandligi, bitta o‘simlikda hosil bo‘lgan barglar soni va o‘lchami orasidagi farqlar ekish me’yorlariga nisbatan o‘zgarib borishi aniqlandi. Ya’ni 10 kg me’yorda ekilgan variantda o‘simliklarning balandligi unda hosil bo‘lgan barglar soni va ularning o‘lchami 8 kg, 12 va 14 kilogrammdan ekilgan variantlarga nisbatan ancha yuqori bo‘ldi. Chunonchi gektariga 8 kg urug‘ ekilgan variantda o‘simlik balandligi 32 sm, o‘simlikdagi barglar soni 38 tani, barg uzunligi 26 sm va eni 17 sm ga, 10 kg ekilganda o‘simlik balandligi 45 sm, barglar soni 43, barg uzunligi 37 va eni 20 sm, 12 kg ekilganda o‘simlik balandligi 45 sm, barglar soni 33 ta, barg uzunligi 30 va eni 17 sm, hamda gektariga 14 kg urug‘ ekilganda bu ko‘rsatkichlar mutanosib ravishda 47 sm, 26, 31 va 14 sm ni tashkil etdi.

Bahorda ekish muddatlarining o‘simlikning balandligi, bitta o‘simlikda hosil bo‘lgan asosiy novda va 1,2,3-chi tartibdagi yon novdalar soni va uning o‘lchamiga ta’siri urganilganda 15 fevralda ekilganda o‘simlikning balandligi 100,1 sm, hosil bo‘lgan asosiy novdalar soni 3,1 dona, 1-chi tartibdagi yon novdalar 10,3 ta, o‘lchami 40,2 sm, 2-chi tartibdagi yon novdalar soni 15 ta o‘lchami 20 sm va uchinchi tartibdagi yon novdalar soni 7,2 ta, o‘lchami - 15,3 sm ga teng bo‘lsa-da, bu ko‘rsatkichlar 1 martda ekilgan variantda o‘simlikning balandligi 120,3 sm, asosiy novdalar soni - 5,1 ta, birinchi tartibdagi yon novdalar soni 20,2 ta, o‘lchami 53 sm, ikkinchi tartibdagi yon novdalar soni 14 ta o‘lchami - 37 sm va uchinchi tartibdagi yon novdalar soni 10 ta o‘lchami 17 sm ni tashkil etdi.

Ikkinchi va keyingi yillarda unib chiqishida eng yuqori ko‘rsatkich 1 martda ekilganda kuzatilib, bunda o‘simlik balandligi 115,4 sm bitta o‘simlikda hosil bo‘lgan, asosiy novdalar soni 10,4 ta, birinchi tartibdagi yon novdalar soni 40,2 ta, o‘lchami 60,3 sm, ikkinchi tartibdagi yon navdalar soni 40,3 ta, o‘lchami 36,4 sm, va uchinchi tartibdagi yon novdalar soni 30,2 ta, o‘lchami 23,4 sm ni tashkil etgan holda, 15 fevralda ekilgan o‘simlik balandligi 90,3 sm, asosiy novdalar soni 8,2 ta, 1-chi tartibdagi yon novdalar soni 20,2 ta, o‘lchami 55,1 sm, ikkinchi tartibdagi yon novdalar soni 30,3 ta, o‘lchami 30 sm va uchinchi tartibdagi yon novdalar soni 22,2 ta, o‘lchami 20,1 sm ga teng bo‘lgan.

Vegetatsiya davrining oxiriga borib esa o‘simlik bo‘yining balandligi undagi hosil bo‘lgan asosiy va yon novdalar soni, ularning o‘lchami bo‘yicha variantlar orasida keskin farqlanishi qayd qilinmadi.

Xulosa. Ko‘ko‘tning urug‘i bahorda 1 martda, har xil me’yorda gektariga 8,10,12,14 kg hisobida urug‘ ekilganda, o‘simlikning o‘sish davrida o‘simlik balandligi, bitta o‘simlikda hosil bo‘lgan barglar soni va o‘lchami orasidagi farqlar ekish me’yorlariga nisbatan o‘zgarib borishi aniqlandi. Ya’ni 10 kg me’yorda ekilgan variantda o‘simliklarning balandligi unda hosil bo‘lgan barglar soni va ularning o‘lchami 8 kg, 12 va 14 kilogrammdan ekilgan variantlarga nisbatan ancha yuqori bo‘ldi. Urug‘ hosildorligi bahorda va kuzda ekilgan muddatlar bo‘yicha keskin farqlanmaydi. Lekin, ekish me’yorlari orasida sezilarli darajada farqlar bo‘lib, barcha

ekish muddatlarida urug‘ning eng yuqori hosildorligi gektariga 10 kg urug‘ ekilgan variantda kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Нормуродов Х.Н. Перспективность использования нетрадиционных кормовых растений для укрепления кормовой базы каракулеводства. // Проблемы пастбищного животноводства и екологии пустынь: Материалы международной научно-практической конференции - Самарканд, 2000. 118-120 б.

2. Нормуродов Х.Н., Хамдамова Э.И. Биология цветения черноголовника многобрачного. // Ж. Проблемы биологии и медицины Самаркандский филиал АН.Р.Ўз - №4. 2007. – Б. 80-82.

3. E.Xamdamova, G.Suvonova, E.Isoqova. Yem-xashak zahirasini yaratishda noan’anaviy o‘simliklardan foydalanish // «Agro ilm». №1.2020. -56-58 b.

4. E.I.Xamdamova, G.A.Suvonova. Ko‘ko‘t (Poterium polygamum Waldst et. Kit.) noan’anaviy yem xashak zahirasi. // International scientific-practical conference on “Current issues of bio economics and digitalization in the sustainabledevelopment of regions” April 27-28, 2022 Samarkand branch of the Tashkent State University of Economics, in cooperation with Samarkand branch of the Tashkent State Agrarian University.

5. E.I.Xamdamova. Ko‘ko‘t o‘simligini ekish muddati va me’yori// O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. Jurnal. Toshkent, 2006. № 4.-B.22

6. E.I.Xamdamova. Ko‘ko‘t yangi qimmatbaho oziqabop o‘simlik// Jurnal. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. Toshkent, 2002. №1.-B.37-39

7. Ю.Н. Зубарев, М.А. Нечунаев, М.В. Заболотнова. Особенности прохождения фенологических фаз развития черноголовника многобрачного Poterium polygamum Waldst et. Kit. В агрометеорологических условиях Среднего Предуралья. Известия Оренбургского государственного аграрного университета. 2021. № 1.

УДК: 66.062.53

POLIGIDROKSIALKANOAT ISHLAB CHIQARISHDA *PSEUDOMONAS HELMANTICENSIS P1* SHTAMMI GLITSERIN VA NATRIY DODESIL SULFATNING KONSENTRATSIYASI YORDAMIDA CHIDAMLILIGINI O‘RGANISH

ПОЛУЧЕНИЕ ПОЛИГИДРОКСИАЛКАНОАТА С ПОМОЩЬЮ КУЛЬТУРЫ *PSEUDOMONAS HELMANTICENSIS P1* СОДЕРЖАЩИХ ГЛИЦЕРИН И ДОДЕЦИЛСУЛЬФАТ НАТРИЯ

OBTAINING POLYHYDROXYALKANOATE USING *PSEUDOMONAS HELMANTICENSIS P1* CULTURE CONTAINING GLYCEROL AND SODIUM DODECYL SULFATE

N. D. Xodjayeva, D.Ch. Sattorov, S.N.Bekkulova, S. A. Eliboeva.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti.
Н.Д. Ходжаева, Д.Ч. Сатторов, С.Н.Беккулова, С. А. Элибоева.
Самаркандский государственный университет ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий.
N. D. Khodjaeva, D.Ch. Sattorov, S.N. Bekkulova, S. A. Eliboeva.
Samarkand state university of veterinary medicine, livestock and biotechnologies
sattorovdilshod19980101@gmail.com, bekqulovasevinch007@gmail.com

Annotatsiya. Poligidroksialkanoatlar (PGA) biologik parchalanadigan va ekologik xavfsiz biopolimerlar bo‘lib, ularning sintetik plastmassalarga o‘xshash fizik va mexanik xususiyatlari sanoatda keng qo‘llanilish imkonini beradi. Ushbu polimerlar ko‘plab bakteriyalar, jumladan Pseudomonas oilasiga mansub turlar tomonidan uglerod manbalarining ko‘pligi va boshqa oziq moddalarning cheklangan sharoitida sintez qilinadi. So‘nggi yillarda glitserin, ayniqsa biodizel sanoatidan olingan chiqindi shaklidagi glitserin, arzon va istiqbolli substrat sifatida ajralib turmoqda. Pseudomonas turlari glitserinni nafaqat PGA, balki boshqa yuqori qiymatli biotexnologik mahsulotlarga aylantirishda samarali biokatalizator sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ular turli uglerod manbalarini qabul qila olishi, metabolik moslashuvchanligi va fermentativ faoliyati tufayli biotexnologiyada keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Kalit so‘zlar: *Pseudomonas helmanticensis*, Glitserin, Biomassa, biodizel, biokatalizator, *mcl*-пга.

Аннотация. Полигидроксиалканоаты (ПГА) являются биоразлагаемыми и экологически чистыми биополимерами, а их физико-механические свойства, схожие с синтетическими пластиками, позволяют широко использовать их в промышленности. Эти полимеры синтезируются многими бактериями, включая виды семейства Pseudomonas, в условиях обильных источников углерода и ограниченного количества других питательных веществ. В последние годы глицерин, особенно отходы глицерина из биодизельной промышленности, стал дешевым и перспективным субстратом. Виды Pseudomonas становятся эффективными биокатализаторами при превращении глицерина не только в PGA, но и в другие ценные биотехнологические продукты. Они открывают широкие возможности в биотехнологии благодаря своей способности принимать различные источники углерода, метаболической гибкости и ферментативной активности.

Ключевые слова: *Pseudomonas helmanticensis*, глицерин, биомасса, биодизель, биокатализатор, *mcl*-pga.

Abstract. Polyhydroxyalkanoates (PGA) are biodegradable and environmentally friendly biopolymers, and their physical and mechanical properties similar to synthetic plastics allow them to be widely used in industry. These polymers are synthesized by many bacteria, including species of the Pseudomonas family, under conditions of abundant carbon sources and limited

other nutrients. In recent years, glycerol, especially glycerol from the biodiesel industry, has emerged as a cheap and promising substrate. Pseudomonas species have emerged as effective biocatalysts for the conversion of glycerol not only to PGA, but also to other high-value biotechnological products. They offer broad opportunities in biotechnology due to their ability to accept various carbon sources, metabolic flexibility, and enzymatic activity.

Keywords: *Pseudomonas helmanticensis*, glycerol, biomass, biodiesel, biocatalyst, *mcl*-pga.

Kirish. Biopolimerlar an'anaviy plastmassalarga nisbatan juda ko‘p afzalliklarga ega bo‘lib, tabiiy polimerlar orasida Poligidroksialkanoatlar (PGA) o‘zlarining xususiyatlari bilan ajralib turadi [1]. Ko‘plab zamonaviy tajribalarda PGA narxini pasaytirish masalasiga bag‘ishlangan ishlarda arzon vositalaridan foydalanish ko‘rib chiqilmoqda [2]. Biroq, xarajatlarning ko‘p qismi bug‘ sterilizatsiyasi uchun energiya sarfini kamaytirishni o‘z ichiga oladi. [3]. Buning uchun ba‘zi strategiyadan foydalanish mumkin. Masalan: ionli yuvish vositasi SDS (natriy dodesil sulfat). Kultura muhitining o‘ndan bir miqdoridagi SDS qo‘shilishi bilan litrda kiruvchi mikroorganizmlar, ularning aksariyati detargent ta'siriga juda sezgir hisoblanadi [4-5]. Pseudomonas deb ataladigan bakteriyalar oilalari PGA ishlab chiqarishga qodir bo‘lib, 5 g/l SDS ni qo‘llash orqali amalga oshiriladi. [6]. PGA ishlab chiqarish jarayonida ko‘p miqdorda hosil bo‘lgan glitserin ko‘pincha uglerod manbai sifatida ko‘plab sohalarda ishlatiladi.[7].

Materiallar va metodlar. Eylenmerning 300ml kolbalari Germaniyaning "Rasotherm" tomonidan ishlab chiqarilgan. Kultivatsiya vositalarini sterilizatsiya qilish vka-75-P3 bug‘ sterilizatori yordamida amalga oshirildi («Qosimov asboblar zavodi», Rossiya). Eritmalar va organik erituvchilarning aniq hajmlari proline Plus pipetkalari to‘plami ("Sartorius", Fransiya) yordamida tanlangan. 1,5 ml va 50 ml pipetka uchlari va polipropilen naychalari ham Sartorius (Fransiya) kompaniyasidan sotib olingan. Eppendorf naychalari uchun 1,7 ml ("Accumax", Germaniya) olingan. Laboratoriya idishlari va hujayra massasi Memmert UN55Plus ("Memmert", Germaniya) quritish shkafida quritilgan. Agar muhitda etishtirish Petri idishlari D 90mm Medpolimer (Rossiya) da amalga oshirildi. Eksperimental boks "Vostok post" (Rossiya) kompaniyasidan sotib olingan. Ushbu tadqiqot butanol 0,1% konsentratsiyasida o‘tkazildi. muhitning pH qiymati 1m NaOH eritmasi bilan 7,0 qiymatiga keltirildi. Ushbu tadqiqot suyuq muhitda bakterial shtammlarni etishtirish metodidan foydalangan.

Tadqiqot natijalari. *Pseudomonas helmanticensis P1* ni turli konsentratsiyali glitserin (M9 muhiti) ishtirokida yetishtirish bo‘yicha tajribalar o‘tkazildi. Kultivatsiya vaqti 48 soat davomida amalga oshirilgan. Quruq biomassaning hosildorligi gravimetrik tarzda aniqlandi. Hujayra suspenziyasi 3600 g da 5 daqiqa davomida sentrifuga qilindi, supernatant tushirildi va biomassa 48 soat davomida 80 °C da quritildi.

Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad *Pseudomonas helmanticensis P1* bakteriyasining glitserin ozuqa muhiti ishtirokida turli xil konsentratsiyalarda chidamliligi va o‘sish massasini aniqlash edi.

1-jadval. P. helmanticensis P1 ning substrat sifatida glitserin muhitida yetishtirilganda quruq biomassasining konsentratsiyasi.

Glitserin, g/l	Biomassa, g/l
10	2,5
20	3,2
40	3,7
60	3,8
80	3,4
100	3,5
120	1,6

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Junyu Z., Shishatskaya E. I., Volova T. G., da Silva L. F., Chen G.
2. Q. Polyhydroxyalkanoates (PHA) for therapeutic applications. *Materials Science and Engineering:* 2017. – V. – 86. – P. 144–150.
3. Ruiz C., Kenny S. T., Narancic T., Babu R., O‘ Connor K. Conversion of waste cooking oil into medi um chain polyhydroxyalkanoates in a high cell density fermentation. *Journal of Biotechnology*. 2019. – V. – 15. – P. 306–915.
4. Kumar M., You S., Beiyuan J., Tsang D. C. W., Luo G., Gupta J., et al. Lignin valorization by bacterial genus *Pseudomonas*: state-of-the-art review and prospects. *Bioresource Technology*. 2019. – V. – 15. – P. 306–915.
5. Mannina G., Presti D., Montiel-Jarillo G., Carrera J., Suarez-Ojeda M. E. Recovery of polyhydroxyalkanoates (PHAs) from wastewater: a review. *Bioresource Technology*. 2020. – V. – 297. – P. 122–478.
6. Tan D., Xue Y.-S., Aibaidula G., Chen G.-Q. Unsterile and continuous production of polyhydroxybutyrate by *Halomonas* TD01. *Bioresource Technology*. 2011. – V. – 17. – P. 8130– 8136.
7. Nepomnyashchiy A. P., Shishlyannikov S. M., Shpironok O. G., Alekseeva A. A., Zubkov I. N., Sitnov V. Yu. Soil SDS-degrading bacterium *Pseudomonas helmanticensis* as a potential producer of polyhydroxyalkanoates. In: *Current trends of agricultural industry in global economy: XIX International Scientific and Practical Conference*. Kemerovo, 2021. p. 182-189.

UO‘K:633.511

TURLI SUG‘ORISH TARTIBI VA QATOR ORALARIDA PARVARISHLANGAN G‘O‘ZA NAVLARINING SUG‘ORISH DAVOMIYLIGI VA MAVSUMIY SUG‘ORISH ME’YORLARINING HOSILDORLIKKA TA’SIRI

ВЛИЯНИЕ НА УРОЖАЙНОСТЬ ПРОДОЛЖИТЕЛЬНОСТИ ПОЛИВА И СЕЗОННЫХ НОРМ ПОЛИВА СОРТОВ ХЛОПЧАТНИКА С РАЗНЫМ РЕЖИМОМ ПОЛИВА И УХОДОМ

МЕЖДУ РЯДАМИ
THE EFFECT ON YIELDS OF WATERING DURATION AND SEASONAL WATERING RATES OF COTTON VARIETIES WITH DIFFERENT WATERING MODES AND CARE BETWEEN ROWS

Gaziyev Umirzoq Lapasovich *- Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi.*
E-mail: umrzoq.goziyev@gmail.com
Газиев Умирзок Лапасович *– преподаватель Гулистанского государственного университета.*
Электронная почта: umrzoq.goziev@gmail.com
Gaziyev Umirzoq Lapasovich *– teacher of Gulistan State University.*
E-mail: umrzoq.goziev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sirdaryo viloyatining bo‘z-o‘tloqi tuproqlari sharoitida g‘o‘zaning “Guliston” va “C-8290” navlarining sug‘orishlar soni, davomiyligi va mavsumiy sug‘orish me’yorlarining hosildorlikka ta’siri haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Sug‘orish, g‘o‘za, sug‘orish soni, sug‘orish davomiyligi, mavsumiy sug‘orish me’yori, hosil.

Аннотация: В данной статье представлена информация о влиянии количества поливов, продолжительности и сезонных норм полива сортов хлопчатника “Гулистан” и “С-8290” на урожайность в условиях сероземно-луговых почв Сырдарьинской области.

Ключевые слова: полив, хлопок, количество поливов, продолжительность полива, сезонная норма полива, урожайность.

Abstract: This article provides information on the effect of the number of irrigations, duration and seasonal watering rates of cotton varieties “Gulistan” and “C-8290” on yields in the conditions of gray-earth meadow soils of the Syrdarya region.

Keywords: watering, cotton, number of watering, duration of watering, seasonal watering rate, yield.

Hozirgi vaqtda jahon bo‘yicha katta muammolardan biri bu suv tanqisligi oshib borayotgan bir paytda qishloq xo‘jaligi ekinlardan mo‘l hosil yetishtirishda suvdan samarali foydalanish, xususan bir sentner paxta hosili uchun suv sarfini kamaytirish asosiy me’zonlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun mavjud resurslaridan oqilona foydalanishda suv tejamkor sug‘orish texnologiyalarini qo‘llash orqali suv tanqisligi oqibatlarini yumshatish imkoni yaratilishi bilan bir qatorda g‘o‘za uchun zaruriy bo‘lgan hayot omillari muvozanatini talab darajasida bo‘lishini ta’minlash imkoniyati yaratiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini 2023 yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-300-son qarorining 3-ilovasi “Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish” Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini joriy qilish” maqsadida: Sug‘oriladigan maydonning har bir gektariga beriladigan suv hajmini 20 foizga kamaytirish orqali suvning mahsuldorligini oshirish choralari belgilab berildi.

N.Durdiyev va boshqalarning [1] tajribalarida “Sulton” g‘o‘za navidan yuqori va sifatli paxta hosili etishtirish uchun mineral o‘g‘itlarni (NPK) 220:154:110 kg/ga me’yorda qo‘llanilishi, sug‘orish oldi tuproq namligi ChDNSga nisbatan 70-75-60% da 5-6 marotaba 1-3(4)-1 tizimda, har galgi sug‘orish 750-950 m^3/ga, mavsumiy sug‘orish me’yorlari 5000-5200 m^3/ga, sug‘orish oralig‘i 14-20 kun, sug‘orish davomiyligi gullashgacha 18-22 soat, gullash – hosil to‘plashda 20-25 soat, pishishda 16-18 soatni tashkil etishi tavsiya etilgan.

I.Qobulov, T.Rajabov, B.Fozilovlar [2] ning tajribasida Qarshi dashtining yangidan o‘zlashtirilgan taqir tuproqlari sharoitida, yer osti suvlari 2 metr orasida joylashgan, o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlari sharoitida g‘o‘zaning “C-6530” va “Namangan-77” navlarini ChDNS ga nisbatan 60-70-65 %, 70-70-65 %, 70-75-65 % va 75-75-65 % tartibida sug‘orilganda kuzatuv natijasiga ko‘ra, o‘rta tolali g‘o‘zaning “C-6530” navida, sug‘orishni ChDNS ga nisbatan 70-75-65 % namlikda, 1-3-1 tizimlar bo‘yicha sug‘orilganda, “Namangan-77” g‘o‘za navida sug‘orishni ChDNS ga nisbatan 70-70-65% namlikda, 1-2-1 tizimlar bo‘yicha sug‘orilganda, 40,9-43,6 st/ga hosil olingani o‘rganilgan.

B.Mambetnazarov, J.Oteuliyevlarning [3] ilmiy ishlarida o‘rta tolali Sulton va Omad g‘o‘za navlarini sug‘orish oldi tuproq namligi ChDNSga nisbatan 80-80-60% da sug‘orib, 1-4-0 tizimda bir galgi sug‘orish me’yori 600-700 m^3/ga, mavsumiy sug‘orish me’yori 2800-3500 m^3/ga bo‘lib, shimoliy mintaqaga nisbatan bir-ikki marta ko‘proq sug‘orishni tavsiya qilgan.

S.O‘rolov [4] ning tajribalarida Yulduz navidan 105 ming tup/ga ko‘chat qoldirib parvarishlanganda, sug‘orishni ChDNS ga nisbatan 70-70-60% namlikda, har bir sug‘orishni gullashgacha 650-700 m^3/ga, gullash-hosil to‘plash davrida 900-1000 m^3/ga suv sarflaganda 36,2 st/ga hosil olingani kuzatilgan.

G‘o‘zaning o‘sishi va rivojlanishi, hosil to‘plashi, ko‘saklarining ochilishi hamda paxta tolasi va chigitning sifati asosan sug‘orish muddatlari, soni, sug‘orish tizimi, davomiyligi, amal davrlaridagi bir martalik va mavsumiy sug‘orish me’yorlari bilan belgilanadi. Sug‘orish natijasida o‘simlik tuproqdan o‘ziga zarur bo‘lgan moddalarni (azot, fosfor, kaliy va h.k) oladi, o‘simlik va tuproqdagi issiqlik sharoitiga ta’sir qiladi.

G‘o‘zaning rivojlanish bosqichlariga ko‘ra, sug‘orish muddatlarini to‘g‘ri belgilash va o‘z muddatida sug‘orish, g‘o‘zadan yuqori hosil olish garovi xisoblanadi.

Tajribada ekilgan g‘o‘zani gullash davrigacha to‘g‘ri sug‘orilishi uning maromida o‘sishi va gullashi, ildiz tizimining yaxshi rivojlanib, yuqori hosil to‘plashiga olib keladi. G‘o‘zani sug‘orish dasturda belgilangan tartiblarda sug‘orish oldi tuproq namligi asosida tajriba olib borildi. Sug‘orish suvlarini o‘lchashda Chippoletti suv o‘lchagichidan foydalanildi.

Tajribalar Sirdaryo viloyatining bo‘z-o‘tloqi tuproqlari sharoitida g‘o‘zaning “Guliston” va “C-8290” navlarini sug‘orish oldi tuproq namligi ChDNS ga nisbatan 65-70-65 % va 70-75-70 % larda hamda 76 va 90 qator oralig‘ida olib borildi.

Tadqiqotda o‘rganilgan “Guliston” g‘o‘za navida esa sug‘orish oldi tuproq namligi ChDNSga nisbatan 65-70-65 % tartibida va qator orasi 76 sm bo‘lgan variantda 0-2-0 tizimda 2 marta sug‘orilib, gullash-hosil to‘plash davrida 19-22 soatni, sug‘orishlar orasi 33 kunni, mavsumiy sug‘orish me’yori esa 1925 m^3/ga bo‘lganligi aniqlandi va hosildorlik 43,6 st/ga ekanligi aniqlandi.

“C-8290” g‘o‘za navida sug‘orish oldi tuproq namligi ChDNSga nisbatan 70-75-70 % tartibida va qator orasi 90 sm bo‘lganda 0-2-1 tizimda 3 marta sug‘orilib, sug‘orish davomiyligi gullash-hosil to‘plash davrida 17-15 soatni, pishish davrida 14,0 soatni, sug‘orishlar orasi 26-33 kunni, mavsumiy sug‘orish me’yori esa 2633 m^3/ga ni tashkil etdi va 44,7 st/ga hosil olindi.

Xulosa. Yuqorida keltirib o‘tilgan ma’lumotlarda keltirib o‘tilganidek, tajriba o‘tkazilgan o‘rta tolali g‘o‘za navlarida sug‘orish tartibi, sug‘orish davomiyligi, sug‘orishlar orasidagi vaqt va mavsumiy sug‘orish me’yorlari turlicha bo‘lganda g‘o‘zaning “Guliston” navida qator orasi 76 sm, sug‘orish oldi tuproq namligi ChDNS ga nisbatan 65-70-65 % va 2 marta sug‘orish o‘tkazilganda, “C-8290” navi esa qator orasi 90 sm, sug‘orish oldi tuproq namligi 70-75-70 % va 3 marta sug‘orish o‘tkazilganda yuqori hosil olinganligini ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1.Durdiyev N. Sug‘orish tartiblari va mineral o‘g‘it me’yorlarining urug‘lik g‘o‘za navlari hosildorligiga ta’siri. “Qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishda dolzarb masalalar va uni rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to‘plami. 10-11 yanvar Toshkent, 2020 y. B-418-421.
2.Qobulov I., Rajabov T., Fozilov B. G‘o‘za navlarini parvarishlash jarayonlari va hosildorlik // Fermer xo‘jaliklarida paxtachilik va g‘allachilikni rivojlantirishning ilmiy asoslari: Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya ma’ruzalari asosidagi maqolalar to‘plami. –Toshkent, 2006. – B. 345-347.
3.Mambetnazarov B., Oteuliyev J. Qoraqalpog‘iston hududining tuproq-iqlim sharoitida o‘rta tolali g‘o‘za navlarini sug‘orish rejimi. O‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi jurnalining Agro ilm ilmiy ilovasi. Toshkent, - 2020 y. № 5 (68). B–3-4.
4.O‘rolov S. Maqbul me’yor. «O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi» jurnali. Toshkent, 1996, 4-son, 24-bet.

UO‘K: 631.52:634.21

OCH TUSLI BO‘Z VA O‘TLOQI SAZ TUPROQLARDA GILOS (*PRUNUS AVIUM L.*) YETISHTIRISH XUSUSIYATLARI

Особенности выращивания черешни (*Prunus avium L.*) на светло-сероземных и луговых сазовых почвах

Features of growing cherries (*Prunus avium L.*) on light calcisols and meadow saz soils

Axmadjonov Avazbek Akmaljon o‘g‘li, *FarDU tayanch doktoranti, ahmadjonovavazbek234@gmail.com*
Musayev Iskandar Ibragimovich *b.f.f.d. (PhD), FarDU o‘qituvchisi, iskandarmusayev255@gmail.com*

Annotatsiya. Gilos-dunyoda eng mashhur va ko‘pchilik sevib iste’mol qiladigan danakli mevalardan biridir. Uni o‘ziga xos ajoyib ta’mi, shirinligi uchun sevishadi. Gilos yetishtirish jarayonida tuproqning sifati va unumdorligi muhim ahamiyatga ega. Tuproqning kimyoviy tarkibi, fizik xususiyatlari va biologik faolligi gilosning o‘sishi va rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi. Ushbu maqolada sug‘oriladigan och tusli bo‘z hamda o‘tloqi saz tuproqlarda gilos yetishtirish bo‘yicha tavsiyalar keltiriladi.

Аннотация. Вишня-одна из самых популярных и широко потребляемых косточковых фруктов в мире. Его любят за его уникальный, чудесный вкус и сладость. Качество и плодородие почвы имеют важное значение в процессе выращивания вишни. Химический состав, физические свойства и биологическая активность почвы напрямую влияют на рост и развитие вишни. В статье даны рекомендации по выращиванию вишни на орошаемых светло-серых и лугово-сазовых почвах.

Annotation. Cherry is one of the most popular and widely consumed stone fruits in the world. It is loved for its unique, wonderful taste and sweetness. Soil quality and fertility are of great importance in the process of growing cherries. The chemical composition, physical properties and biological activity of the soil directly affect the growth and development of cherries. The article provides recommendations for growing cherries on irrigated light calcisols and meadow-saz soils.

Kalit so‘zlar: Prunus avium, danak meva, tuproq, biomikroelement, geokimyo.

Ключевые слова: Prunus avium, мякоть, почва, биомикроэлемент, геохимия.

Key words: Prunus avium, pulp, soil, biomicroelement, geochemistry.

Kirish

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida, kambag‘allikni qisqartirish va qishloq aholisi daromadlarini ko‘paytirishda eng tez natija beradigan omil bu – qishloq xo‘jaligida hosildorlik va samaradorlikni keskin oshirish ekanligini alohida ta’kidlab o‘tdilar[1]. Bog‘dorchilikka va uzumchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarini mamlakatimizda meva va uzum mahsulotlariga bo‘lgan e’tiborini yanada kuchaytirib, ularning hosildorligini oshirish, mahsulot sifatini ko‘tarish hamda meva va uzum mahsulotini saqlash va ularni chet davlatlarga eksport qilish imkoniyatlari yaratiladi.

Zamonaviy agrotexnologiyalar, hosildorlikni oshirish va tuproq unumdorligini yaxshilashga qaratilgan innovatsion yondashuvlar qishloq xo‘jaligida muvaffaqiyatli natijalarga erishishda muhim rol o‘ynaydi.

Gilos (Prunus avium.) — ra’noguldoshlar (atirgullilar oilasi)ga mansub danakli meva daraxti. Yovvoyi holda O‘rta va Janubiy Yevropa, Eron, Kavkaz, Ukraina, Moldovada uchraydi. Yevropa mamlakatlari, Turkiya, Eron, Afg‘oniston, Xitoy, Yaponiya, Ukrainaning janubi, Kavkaz, Boltiqbo‘yi va O‘rta Osiyoda ekiladi

[2]. Gilos daraxtining bo‘yi 10-15 m (ba’zan 30 m gacha boradi), shoxlari qalin, yoyilib o‘sadi. Bargi cho‘ziq-tuxumsimon, to‘q yashil. Guli oq, ikki jinsli, gulbandi uzun. Mevasining shakli dumaloq, yuraksimon, eti shirali, sirti tekis[3]. Eng ertaki danakli meva. Tarkibida 7-15% qand, 0,36-1,1% kislota, vitaminlar, 0,2% oshlovchi va 0,7% gacha pektin moddasi bor. Yangiligida iste’mol qilinadi, kompot, murabbo, tayyorlanadi. Gilos asal beradigan o‘simliklar qatoriga kiradi. Danagi mag‘zida 30% gacha parfyumeriya sanoatida ishlatiladigan moy bor. Gilos unumdor, nam, mo‘tadil yerlarda yaxshi o‘sadi, yorug‘lik va issiqlikka talabchan. Ko‘chati ekilgandan keyin 4-5-yili hosilga kiradi. Daraxti 100 yilgacha yashaydi, tupi 150-300 kg hosil beradi. Asosan mart-aprel oylarida gullaydi, may-iyunda pishadi. Gilosning 100 ga yaqin navi ma’lum. O‘zbekistonda Gilosning Savri surxoni, Qora gilos, Sariq gilos, Bahor, Reversho‍n, Sariq drogana, Chkalov navlari ko‘p ekiladi[4].

Hozirgi kunda sug‘oriladigan maydonlardan dehqonchilikda intensiv foydalanish natijasida tuproqlar tarkibidagi kimyoviy elementlar balansi buzilib bormoqda, ya’ni mineral o‘g‘itlar, pestitsidlardan foydalanish va ba’zan ularni me’yoridan ortiqcha qo‘llash orqali tuproq qoplamini og‘ir metallar va metalloidlar bilan ifloslanishi kuzatilmoqda. Har qanday tuproq tipi, ayirmasi uchun uning kimyoviy element tarkibi agrokimyoviy nuqtai nazardan katta amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Tuproqning kimyoviy tarkibi, fizik xususiyatlari va biologik faolligi gilosning o‘sishi va rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi. Unumdor tuproqlarda gilos o‘simligi yaxshi rivojlanadi, bu esa hosildorlikni oshirishga yordam beradi. Shuningdek, tuproqning to‘g‘ri boshqarilishi, o‘g‘itlar va organik moddalar bilan boyitilishi gilosning sifatini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. Tuproq sharoitlari va iqlim omillari gilosning o‘sish davrida, ayniqsa, gullash va meva berish bosqichlarida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu jarayonlar o‘simlikning sog‘lom rivojlanishi va hosildorligiga ta’sir qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Tuproqlar tarkibidagi kimyoviy elementlar undagi tirik organizmlarga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Tuproqlardagi mikroelementlar, kamyob elementlar va boshqalar to‘g‘risidagi umumlashgan ma’lumotlar juda kam bo‘lib, Vinogradov, Bowen va boshqalarning ishlarida o‘z ifodasini topgan.

Adabiyotlardan ma‘lumki, ko‘pchilik olimlar [5,6] tomonidan kimyoviy elementlarni tasniflashda ularning yer po‘stidagi va tuproqdagi eng muhim xususiyatlarini e’tiborga olish kerakligi ta’kidlangan.

Tuproq va litosfera hamda o‘simliklar tarkibidagi miqdorlari va fiziologik rollari, tuproq unumdorligini oshirishdagi va ekinlar hosildorligini yaxshilashda tutgan o‘rinlariga qarab B, Cu, Zn, Mn, Mo kabi elementlarni biomikroelementlar deb nomlash ham albatta, nisbiydir. Ushbu elementlarni alohida ajratilishiga sabab, sug‘oriladigan dehqonchilikda ularni ko‘pgina xossa-xususiyatlari boshqa elementlarga nisbatan yaxshi o‘rganilgan.

Dala tadqiqotlari V.V.Dokuchayev (morfogenetik) usulida olib borildi va tadqiqot obyektlari: “Grapes and Gardens Investment” AJ va “Turg‘unov Ikromjon” fermer xo‘jaligiga qarashli dala maydonlaridan olingan tuproq namunalari O‘zRFA Yadro fizikasi institutida neytron-aktivatsion usulida analiz qilinib, olingan

natijalarni geokimyoviy tahlil qilishda A.I.Perelman [7], M.A.Glazovskayalarning [8] majmuaviy usullaridan foydalanildi.

Natija va muhokama.

Ma’lumki, Zn, Mn, Mo, B, Cu kabi biomikroelementlardan samarali foydalanish yo‘llaridan biri ularni tuproq tarkibidagi miqdorlarini hamda migratsiya zanjirini o‘rganishdir. Shu maqsadda shaxsiy materiallar va ma’lumotlardan foydalanib sug‘oriladigan tuproqlarning biomikroelement tarkibi tahlil qilindi va quyidagi 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval

Sug‘oriladigan tuproqlarda biomikroelementlar miqdori, mg/kg

Kesma t/r	Chuqurligi, sm	Mn	Mo	Zn
4. A	Sug‘oriladigan o‘tloqi saz tuproqlar			
	0-32	520	0,1	82
	32-45	480	0,1	87
	45-58	480	1,8	63
	58-98	500	6,9	56
	98-114	310	4,2	49
	114-129	650	5,6	65
	129-192	430	6,7	61
11. A	Sug‘oriladigan o‘tloqi saz tuproqlar			
	0-27	470	0,68	84
	27-40	410	1,2	85
	40-66	350	4,5	61
	66-95	430	8,9	68
	95-118	420	8,1	60
	118-185	440	0,1	72
O‘rtacha		**453,1**	**3,8**	**68,7**
16. A	Sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlar			
	0-17	670	0,16	100
	17-34	750	0,27	110
	34-60	550	0,1	98
	60-95	480	0,1	78
	95-150	580	0,4	94
23. A	Sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlar			
	0-28	730	1,3	100
	28-40	560	1,3	93
	40-65	560	0,55	96
	65-140	660	1,1	94
O‘rtacha		**615,6**	**0,6**	**95,9**
Litosfera klarki		**1000**	**1**	**83**
Tuproq klarki		**850**	**2**	**50**

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Mn, Mo, Zn larning yalpi miqdorlarini tuproqda tarqalish qonuniyatlarida va miqdorlarida o‘zaro farqlar mavjud bo‘lib, bu farqlar haydov va haydov osti qatlamlarida hamda ona jins bilan boshqa qatlamlar orasida ko‘rinadi, ya’ni shunga muvofiq ravishda taqsimlanadi.

Tadqiq qilingan tuproqlarda marganetsning tabaqalanishi yalpi miqdor jihatidan keskin farq qiladi va o‘tloqi saz tuproqlar profilida 310-650 mg/kg, och tusli bo‘z tuproqlarda 480-750 mg/kg oralig‘ida tebranadi. Haydov qatlamlarida esa bu ko‘rsatkich mos ravishda 470-520 mg/kg va 670- 730 mg/kg ga teng (1-jadval).

Dehqonchilikda ko‘p qo‘llaniladigan mikroelemetlardan yana biri bu Mo hisoblanadi va o‘rganilgan tuproqlarda uning miqdori 0,1-8,9 mg/kg ni tashkil etadi. O‘tloqi saz tuproqlar profilida yuqoridan pastga tomon molibden miqdorini ortib borishi kuzatildi. Sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlarda esa 0,1-1,3 mg/kg ga teng. Molibdenning yuqori konsentratsiyalari o‘tloqi saz tuproqlarning pastki qatlamlariga to‘g‘ri keladi, hamda klark miqdoridan yuqori ko‘rsatkichni tashkil qiladi, ya’ni molibden ushbu qatlamlarda akkumulyatsiyalanadi. Ruxdan ham dehqonchilikda mikroelement sifatida foydalaniladi. Ruxning miqdori o‘tloqi saz tuproqlarda 49-87 mg/kg bo‘lsa, och tusli bo‘z tuproqlarda 78-110 mg/kg oralig‘ida uchraydi, ya’ni, barcha tuproq kesmalarining haydov qatlamlarida ruxning miqdori yuqori ko‘rsatkichlarida namoyon bo‘ladi va akkumulyatsiyalanganligidan dalolat beradi. Ruxning kesmalar bo‘yicha tabaqalanishida ham yuqorida keltirilgan biomikroelementlarga nisbatan keskin farqlar mavjud. Masalan, sug‘oriladigan o‘tloqi saz tuproqlarni profilida bir tekisda tabaqalangan bo‘lsa, sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproq qatlamlarida haydov qatlamidan ona jinsga tomon kamayib boradi, ya’ni tuproq kesmalarining haydov qatlamida yuqori va keyingi qatlamlarda kamayib borishi tartibida kuzatiladi.

O‘rganilgan mikroelementlarning yalpi miqdoriy ko‘rsatkichlariga ko‘ra, ular quyidagicha ketma-ketlikda joylashadi: Mn>Zn>Mo.

Quyida ketiriladigan 2-jadval ma’lumotlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, sug‘oriladigan o‘tloqi saz tuproq qatlamlarida Mo, och tusli bo‘z tuproqlarda esa Zn ning konsentratsiya klarklari litosfera klarkiga nisbatan birdan katta, ya’ni ular tuproq qatlamlarida akkumulyatsiyalangan. Zn ning KK si sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproq qatlamlarida 1 dan yuqori ko‘rsatkichlarga ega. Bu holatda sug‘oriladigan o‘tloqi saz tuproqlarda yaqqol Mo li provinsiya shakllanganligini e’tirof etish mumkin.

2-jadval

Biomikroelementlarning geokimyoviy xossalari

Kesma t/r	Chuqurligi, sm	KK (litosfera klarkiga nisbatan)			KK (tuproq klarkiga nisbatan)		
		Mn	Mo	Zn	Mn	Mo	Zn
	Sug‘oriladigan o‘tloqi saz tuproqlar						
	0-32	0,52	0,1	0,99	0,61	0,05	1,64
	32-45	0,48	0,1	1,05	0,56	0,05	1,74

1. A	45-58	0,48	1,8	0,76	0,56	0,90	1,26
	58-98	0,5	6,9	0,67	0,59	3,45	1,12
	98-114	0,31	4,2	0,59	0,36	2,10	0,98
	114-129	0,65	5,6	0,78	0,76	2,80	1,30
	129-192	0,43	6,7	0,73	0,51	3,35	1,22
2. A	Sug‘oriladigan o‘tloqi saz tuproqlar						
	0-27	0,47	0,68	1,01	0,55	0,34	1,68
	27-40	0,41	1,2	1,02	0,48	0,60	1,70
	40-66	0,35	4,5	0,73	0,41	2,25	1,22
	66-95	0,43	8,9	0,82	0,51	4,45	1,36
	95-118	0,42	8,1	0,72	0,49	4,05	1,20
	118-185	0,44	0,1	0,87	0,52	0,05	1,44
O‘rtacha		**0,45**	**3,8**	**0,83**	**0,53**	**1,88**	**1,37**
4. A	Sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlar						
	0-17	0,67	0,16	1,20	0,79	0,08	2,00
	17-34	0,75	0,27	1,33	0,88	0,14	2,20
	34-60	0,55	0,1	1,18	0,65	0,05	1,96
	60-95	0,48	0,1	0,94	0,56	0,05	1,56
	95-150	0,58	0,4	1,13	0,68	0,20	1,88
5. A	Sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlar						
	0-28	0,73	1,3	1,20	0,86	0,65	2,00
	28-40	0,56	1,3	1,12	0,66	0,65	1,86
	40-65	0,56	0,55	1,16	0,66	0,28	1,92
	65-140	0,66	1,1	1,13	0,78	0,55	1,88
O‘rtacha		**0,62**	**0,6**	**1,16**	**0,72**	**0,29**	**1,92**

Mn ning konsentratsiya klarki esa barcha tuproq qatlamlarida birdan kichik bo‘lib, tuproq qatlamlarida o‘rtacha ushlab qolinganligini ko‘rsatadi.

Biomikroelementlarni tuproq klarkiga nisbatan konsentratsiya klarklarida esa bir oz tafovutlar mavjud, ya’ni bunda eng katta ko‘rsatkich och tusli bo‘z tuproq qatlamlarida Zn ga mos kelib, uning KK si 1,56-2,20 atrofida tebranadi. O‘tloqi saz tuproqlarda o‘rtacha 1,37 ga teng. Yuqorida ta’kidlanganidek, umumiy holatda uning akkumulyatsiyalanishi tuproqlarning haydov va haydov osti qatlamlarida boshqa qatlamlarga nisbatan yuqoriroq ekanligiga guvoh bo‘lindi. Keyingi o‘rinda Mo bo‘lib, o‘tloqi saz tuproq qatlamlarida akkumulyatsiyalangan va uning konsentratsiya klarki 0,05-4,45 (o‘rtacha 1,88) oralig‘ida tebranadi. Och tusli bo‘z tuproq qatlamlarida esa 1 dan kichik KK ga ega, ya’ni ushbu tuproq qatlamlarida Mo o‘rtacha ushlab qolingan.

Tuproq klarkiga nisbatan ham Mn ning konsentratsiya klarki birdan kichik bo‘lib, tuproq qatlamlarida o‘rtacha ushlab qolingan.

XULOSA

Xulosa qiladigan bo‘lsak, ushbu biomikroelementlarni ko‘pgina xususiyatlari o‘zaro yaqinligi, xususan, ularning o‘zgaruvchan valentliklarga ega

ekanligi hamda oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida qatnashishi, qolaversa bir tipdagi, ya’ni sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlardagi xususiyatlarini o‘zaro yaqinligidan dalolat beradi.

Biomikroelementlarning akkumulyatsiya, migratsiya va boshqa xossalarini aniqlash orqali olingan ma’lumotlardan qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirish jarayonlarida hamda mikroo‘g‘itlar me’yorlarini belgilashda foydalanish gilos hosildorligi va meva sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi https://president.uz/oz/lists/view/4057
2. World Economic Plants: A Standard Reference, Second Edition. CRC Press; 19 April 2016.
3. Черешня // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона : в 86 т. (82 т. и 4 доп.). — СПб., 1890—1907.
4. Stocks, Christopher (2009). “Britain's forgotten fruits”. Flora. 1: 1–200.
5. Вернадский В.И. Химическое строение биосферы Земли и ее окружения. - М.: Наука. 1965. -374 с.
6. Вернадский В.И. Очерки геохимии. - М.: Наука. 1963. -415 с. 3
7. Перельман А.И. Геохимия. - М., 1989. -419 с.

УДК 634.8.032:635.12

ЭРТАГИ МУДДАТДА КИЧИК ХАЖМЛИ ПЛЕНКАЛИ ИНШООТЛАРДА КЎКАТ ЭКИНЛАРНИ ЕТИШТИРИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИГИ

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВЫРАЩИВАНИЕ РАННИХ ЗЕЛЕННЫХ КУЛЬТУР В МАЛОГАБАРИТНЫХ ПЛЁНОЧНЫХ СООРУЖЕНИЯХ

ECONOMIC EFFICIENCY OF CULTIVATION OF EARLY GREEN CROPS IN SMALL-SIZED FILM STRUCTURES

Xalmirzaev B.X.[1] , Xayitov M.A.[1] , Sattarova N.T.[2] , Xalmirzaeva L.B.[3]
SHarof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti[1]
Samarqand iqtisodiyot va Servis instituti[2]
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti [3]
Халмирзаев Б.Х[1]., Хайитов М.А.[1], Саттарова Н.Т.[2], Халмирзаева Л.Б.[3]
Самаркандский Государственный университет имени Ш.Рашидова[1]
Самаркандский институт экономики и сервиса[2]
Самаркандский институт агроинноваций и исследований
Khalmirzaev B.Kh.1 , Khayitov M.A.1 , Sattarova N.T.2 , Khalmirzaeva L.B.3
Sharaf Rashidov Samarkand State University1

Samarkand Institute of Economics and Service2
Samarkand Institute of Agro-Innovations and Research3

Аннотация. Мақолада кичик хажмли плёнкали иншоотларда исмалоқ навларини етиштириш бўйича ўтказилган тажриба натижалари келтирилган. Хосилдор-1 ва Матадор навларида барг сони (22,3 ва 19,8 дона) ва бир ўсимликнинг ўртача вазни (35,3 ва 36,6 г) кўрсаткичлари энг юқори бўлди. Навларнинг ўсиши, ривожланиши ва ҳосилдорлиги бўйича энг юқори кўрсаткичлар Ҳосилдор-1 ва Матадор навларида кузатилиб назоратга нисбатан мос равишда 127,8- 121,4 % қўшимча ҳосил олинди.

Калит сўзлар: Исмалоқ, уруғ, барг, кичик габаритли плёнкали иншоотлар, экин алмашинуви, дурагай, нав, қуруқ модда, каротин, хосилдорлик.

Аннотация. В статье представлены данные по выращиванию сортов шпината в малогабаритных пленочных сооружениях. У сортов Хосилдор-1 и Матадор были высокие показатели по количеству листьев и массе одного расмтения. Высокие показатели по росту, развитию и урожайности были получены по сортам Ҳосилдор-1 и Матадор, что, соответственно, на 127,8-121,4 % выше показателей контрольного варианта.

Ключевые слова: шпинат, семена, лист, малогабаритные пленочные укрытия, культурооборот, гибрид, сорт, сухое вещество, каротин, урожайность.

Abstract. The article presents data on growing spinach varieties in small-sized film structures. The Hosildor-1 and Matador varieties had high indicators for the number of leaves and the weight of one planting. High growth, development and yield indicators were obtained for the varieties Hosildor-1 and Matador, which is, respectively, 127.8-121.4% higher than the indicators of the control variant.

Key words: spinach, seeds, leaf, small-sized film shelters, crop rotation, hybrid, variety, dry matter, carotene, yield.

Кириш. Ўзбекистонда озиқ-овқат хавфсизлигини таминлашга, мавсумдан ташқари муддатларда сервитамин маҳсулотларни етиштиришга, ҳимояланган ер майдонлари ва ўсимликлар ассортиментини кенгайтиришга катта эътибор қаратилмоқда [1, 12]. Ўзбекистонда жами ҳимояланган ер майдони 7520 гектардан ортиқ бўлиб, шундан 7309,7 гектар плёнка билан ёпилган ва 210,3 гектар замонавий гидропон иссиқхоналар мавжуд. Ҳимояланган ер майдонларда етиштирилган маҳсулот миқдори 574, 9 минг тоннани, шундан 449,9 минг тонна сабзавот, 79,8 минг тонна ситрус экинлари ва 45,2 минг тонна бошқа экинлар ташкил қилган [1, 12, 16].

Кўкат-сабзавот экинлари ассортиментининг кўплиги, маҳсулотнинг турли муддатларда чиқиши уларни йил давомида очиқ ва ҳимояланган ерларда мавсумдан ташқари вақтларда етиштириш ҳамда аҳолининг кўкатларга бўлган талабини қондириш имконини беради. Кўкат ўсимликлар инсон ҳаёти учун зарур турли витаминлар, органик кислоталар, эфир мойлар, минерал тузлар ва бошқа биологик фаол моддалар билан таъминлайдиган манба ҳисобланади [5, 6, 9, 14].

Исмалоқ сабзавот, зиравор ва доривор экин сифатида қадимги даврларда етиштирилган ва фойдаланилган. Исмалоқ (Spinacia oleracea L.) шўрадошлар оиласига киради, бир йиллик ўсимлик. У илдиз бўғзидан 8 – 10 та баргдан иборат тупбарг ва ўтсимон тик поя чиқаради. Исмалоқ икки уйли, шамол ёрдамида чангланади. Майда эркак гуллари поя учида руваксимон тўпгулга тўпланган, урғочи гуллари эса барг қўлтиқларида жойлашган бўлади. Исмалоқнинг меваси бир ёки икки уруғли ёнғоқча, усти силлиқ ёки тиканли бўлади [3, 10, 11, 12, 14, 16].

Тадқиқотнинг мақсади ва вазифалари. Тадқиқотнинг мақсади Самарқанд вилояти шароитида Ўзбекистонда яратилган ҳамда Россиядан келтирилган истиқболли исмалоқ навларининг хўжалик ва биологик хусусиятлари, сифат кўрсаткичлари, ҳосилдорлигини ўрганиш ҳамда ишлаб чиқаришга тавсиялар бериш.

Тадқиқотнинг материаллари ва усуллари. Тажрибалар Самарқанд вилояти Тайлоқ тумани “Туроб бобо” фермер хўжалиги кичик хажмли пленкали иншоотлари шароитида олиб борилди.

Тажрибада барча агротехнологик тадбирлар, кузатиш, ўлчаш, таҳлил ва ҳисоблашлар умум қабул қилинган Бутун Россия ўсимликшунослик институти (ВИР), Ўзбекистон сабзавот-полиз экинлари ва картошкачилик илмий тадқиқот институти (УзНИИОБКиК) «Сабзавотчилик, полизчилик ва картошкачиликда тажрибалар ўтказиш методикаси» (Б.Ж.Азимов, Б.Б.Азимов, 2002), Сабзавот хўжалиги илмий тадқиқот институти (НИИОХ) услуби (В.Ф.Белик, Г.Л.Бондаренко, 1979) ҳамда тавсиялари асосида олиб борилди. Тажрибаларидан олинган маълумотларга математик-статистик ишлов бериш Microsoft Excel дастури ёрдамида Б.А.Доспехов услуби асосида дисперцион усулда математик таҳлил қилинган [2, 4, 8].

Тадқиқот натижалари. 1– жадвалда “Кичик ҳажмли плёнкали иншоотларда етиштирилган исмалоқ навларнинг вегетатив кўрсаткичлари ва биокимёвий таркиби” га тегишли маълумотлар келтирилган. Шу маълумотларни анализ қилганда исмалоқ навлари кичик ҳажмли плёнкали иншоотларда етиштирилганда тажрибада вариантлар бўйича 17.7 -20.3 дона барг, 19,3-20,6 см ўсимлик бўйи, бир ўсимликнинг ўртача вазни 33,1-36,6 г ҳосил бўлгани аниқланди. Олинган маълумотларга кўра Хосилдор-1 ва Матадор навларида барг сони (22,3 ва 19,8 дона) ва бир ўсимликнинг ўртача вазни (35,3 ва 36,6 г) кўрсаткичлари энг юқори бўлди, шу вариантларда ўсимлик бўйи кўрсаткичлари 20,6 ва 20,2 см ни ташкил қилди. Тажрибада исмалоқ навларининг ўсиш кўрсаткичлари, ҳосилдорлиги, ҳосил сифатини ўрганиш билан бирга баргларнинг биокимёвий таркиби ҳам аниқланди. Олинган маълумотларга кўра, баргнинг таркибида энг кўп қуруқ модда 9,7 % Хосилдор-1 навида, 9,5 % - Матадор ва 9,2 % - Хосилдор навларида аниқланди. Нафис (назорат) навида бу кўрсаткич 8,6 % ни ташкил қилди. Аскорбин кислота миқдори ўрганилганда, Хосилдор-1 ва Матадор навларида энг кўп сақланиши аниқланди, бу кўрсаткич навлар бўйича мос равишда 73,8 ва 71,9 мг% ни ташкил қилди. Таркибида энг кўп каротин моддаси (5,9 %)

Хосилдор-1 навида аниқланди. Матадор ва Хосилдор навларда бу кўрсаткич мос равишда 5,8 ва 5,4 % ни ташкил қилди, Нафис (назорат) навида эса-5,2 % ни. Вегетатив қисмларнинг ва барг сонининг ортиб бориши ҳамда биокимёвий таркиби бўйича Хосилдор-1 ва Матадор навлари ўсимликлари ажралиб турди.

1-расм. Самарқанд вилояти шароитида исмалоқни етиштириш жараёнлари

1-жадвал

Кичик ҳажмли плёнкали иншоотларда етиштирилган исмалоқ навларнинг биометрик кўрсаткичлари ва биокимёвий таркиби (2022-2024)

“Туроб бобо” фермер хўжалиги

Навлар	Барг сони, дона	Ўсимлик бўйи, см	Ўсимлик вазни, г	Қуруқ модда, %	Аскорбин кислота, мг/%	Каротин, мг/%
Нафис (назорат)	17,7	19,3	33,1	8,6	68,2	5,2
Ҳосилдор	18,9	19,7	34,4	9,2	69,6	5,4
Ҳосилдор-1	20,3	20,6	36,6	9,7	73,8	5,9
Матадор	19,8	20,2	35,3	9,5	71,9	5,8

2 – жадвалда “Кичик ҳажмли плёнкали иншоотларда исмалоқ (Spinacia oleracea L.) навларининг ҳосилдорлиги”га тегишли маълумотлар келтирилган. Тажрибада ҳар бир навнинг алоҳида такрорлар бўйича ҳосилдорлиги, ўртача ҳосилдорлиги аниқланди, жумладан товар ҳосил миқдори ҳамда стандартга

нисбатан қўшимча товар ҳосил миқдори аниқланди. Шу маълумотларни анализ қилганда исмалоқ навлари ўсимликларнинг кичик ҳажмли аркасимон

2-жадвал

Кичик ҳажмли ҳажмли плёнкали иншоотларда исмалоқ (Spinacia oleracea L.) навларининг ҳосилдорлиги (2022-2024)

“Туроб бобо” фермер хўжалиги

Навлар	2022		2023		2024		Ўртача	
	кг/м^2	т/га	кг/м^2	т/га	кг/м^2	т/га	кг/м^2	т/га
Нафис (назорат)	1,91	19,1	1,97	19,7	2,05	20,5	2,01	20,1
Хосилдор	2,14	21,4	2,27	22,7	2,37	23,7	2,26	22,6
Хосилдор-1	2,44	24,4	2,59	25,9	2,68	26,8	2,57	25,7
Матадор	2,30	23,0	2,47	24,7	2,55	25,5	2,44	24,4
НСР $_{05}$ Sx%								1,2 т/га 4,26

плёнкали тоннелларда етиштирганда вариантларга қараганда ҳосилдорлик 2.01-2.57 кг/м^2 ташкил қилган. Нафис (назорат) назоратга нисбатан энг юқори ҳосил бир квадрат метрдан Хосилдор-1 (2,57 кг/м^2) ва Матадор (2,44 кг/м2) навларидан олинди. Назоратга нисбатан қўшимча олинган товар ҳосил миқдори бу навларда мос равишда 0,56-0,43 кг/м2 ёки 127,8- 121,4 % ни ташкил қилди. Ҳисоблашларнинг кўрсатишича, Тайлоқ тумани “Туроб бобо” фермер хўжалиги шароитида ўтказилган тажрибаларда кичик ҳажмли аркасимон плёнкали тоннелларда исмалоқ навларини етиштирилганда сарфланган жами харажатлар вариантларга қараганда 13715 – 15545 сўм/м^2 ни ташкил қилди.

2-расм. Техник жихатдан етилган исмалоқ барглари

Кичик ҳажмли аркасимон плёнкали тоннелларда исмалоқ навларини етиштирганда бир м^2 олинган ҳосил қиймати 38964 сўм (Нафис _назорат) дан 49368 (Ҳосилдор-1) сўмгача ўзгарди, энг юқори даромад 36883 сўм/ м^2 ва энг

юқори рентабеллик даражаси 237,2 % Ҳосилдор-1 нави ўсимликларини етиштирганда олинди.

Хулосалар. Кичик ҳажмли аркасимон плёнкали тоннеллар шароитида кўкат Spinacia oleracea L. навлари етиштирилганда ўсув даври мобайнида навлар бўйича ҳосилдорлк бир м^2 дан 2,01 - 2.57 кг ташкил қилди. Навларнинг ўсиши, ривожланиши ва ҳосилдорлиги бўйича энг юқори кўрсаткичлар Ҳосилдор-1 (2.57 кг/м^2), ва Матадор (2,44 кг/м2) навларида кузатилиб назоратга нисбатан мос равишда 127,8- 121,4 % қўшимча ҳосил олинди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РУЙХАТИ

1. Мирзиеев Ш.М. ““Узбекистан-2030 стратегияси”. //Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сон Фармони. Тошкент, 2023 й.
2. Азимов Б.Ж., Азимов Б.Б. Сабзавотчилик, полизчилик ва картошкачиликда тажрибалар ўтказиш методикаси. Тошкент., 2002.-224 б.
3. Аль-Джавазнех Аббас. Подбор норм посева для получения зелени в плёночных теплицах.// Агротехника овощных культур и качество продукции. Сборник научных трудов. СПбГАУ, 2004.
4. Белик В.Ф. Методика полевого опыта в овощеводстве и бахчеводстве / В.Ф. Белик, Г.Л. Бондаренко. -М., 1979. 241 с.'
5. Бўриев Х.Ч., Султонов К.С., Абдикаюмов З.А. Севимли сабзавотлар. Тошкент.-2014.-152 б.
6. Бунин М.С. Новые овощные культуры России / М.С. Бунин. - М.: Росинформагротех, 2002. 81 с.
7. Государственный реестр сельскохозяйственных культур рекомендованных для посева на территории Республики Узбекистан.- Ташкент, 2024.-98 с.
8. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта (с основами статистической обработки результатов исследования). – 5-е изд., доп. и перераб. – М.: Агропромиздат, 1985. – 351 с.
9. Зуев В.И, Асатов. Ш.И. О.Кадирходжаев, Атахаджаев А.А. Овощеводство защищённого грунта. Ташкент, 2018.-460 с.
10. Зуев В.И, Бўриев Ҳ.Ч, Мадрейимова Д. Е. Экологик хавфсиз сабзавотлар соғлом овқатланиш асоси. Тошкент 2009. 48-49- с.
11. Макаров П.Н.,Макарова Т.Н., Самойленко С.А., Галукова Н.М. Выращивание зеленных культур в закрытых системах.//Безопасный Север-чистая Арктика: сб. ст. ИИ Всерос. науч.-практ. конф. Сургут. 2019. С. 166-181.
12. Нормурадов Д.С, С.Юнусов, Ш.Асатов, С.Т.Санаев, Б.Х.Халмирзаев, У.Хуррамов. Ҳимояланган ер сабзавотчилиги. Дарслик. ISBN--978-9943-9308-0-3. Самарқанд.-2023. 518 б.
13. Осипова, Г.С. Овощеводство защищенного грунта/ Г.С. Осипова - Москва., Изд-во Проспект Науки, 2010. – 336 с.: ил. – (Учебники и учебные пособия). ISBN 978-5-903090-45-7

14. Пивоваров В.Ф., Арамов М.Х., Добруцкая Е.Г. и др. Овощные и бахчевые культуры в Узбекистане. – М., 2001. – с. 221.

15. Халмирзаев Б.Х., Асатов Съҳ.И., Нормурадов Д.С., Санаев С.Т., Рахимов А.Р., Бозоров К.Съҳ. Ҳимояланган ер сабзавотчилигидан амалий масъҳғулотлар. – Самарқанд, 2021. 247 бет.

16. Юнусов С.а. Кўкат сабзавотлар етиштириш. Ушбу қўлланма. ISBN 978-9943-7167-4-2. Тошкент.2021.-48 б.

UDK:634.634+ 634.8

SAMARQAND VILOYATIDA YARATILGAN O‘RIK (Armenica vulgaris L.) NAV VA DURAGAYLARNING XO‘JALIK VA BIOLOGIK TAVSIFI

ПРОИЗВОДСТВЕННО-БИОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА СОРТОВ АБРИКОСА (Armenica vulgaris L.) СОЗДАННЫХ В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

PRODUCTION AND BIOLOGICAL CHARACTERISTICS OF APRICOT VARIETIES (Armenica vulgaris L.) CREATED IN THE SAMARKAND REGION

Mirzoxidov O‘.J.*[1]*, *direktor o‘rinbosari, katta ilmiy xodim, q.x.f.n* ***Xalmirzaev B.X.*[2]*,*** *q.x.f.n, dotsent,* ***Qubonov X.U*[2]*., PhD, Baratova D.N.*[2]*,*** *talaba*
Akademik M.Mirzaev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiytadqiqot institutining Samarqand ilmiy tajriba stansiyasi [1]
Samarqand Davlat Universiteti[2]

Мирзохидов У.Ж.*[1]*, *заместитель директора, старший научный сотрудник, к.с.х.н,* ***Халмирзаев Б.Х.*[2]*,*** *к.с.х.н, доцент,* ***Курбанов Х.У*[2]*., PhD Баратова Д.Н.*[2]*,*** *студентка*
Самаркандская научно-опытная станция Научно-исследовательского института садоводства, виноградарства и виноделия имени академика М.Мирзаева[1]
Самаркандский государственных университет[2]
Mirzohidov U.Zh.1, *Deputy Director,* *Senior Researcher, Ph.D. in Agricultural Sciences,* ***Khalmirzaev B.Kh.2,*** *in Agricultural Sciences, Associate Professor,*
Kurbanov H.U*[2]*., PhD, Baratova D.N.2, *student*
Samarkand Scientific Experimental Station of the Scientific Research Institute of Horticulture, Viticulture and Winemaking named after Academician M.Mirzaev1
Samarkand State University2

Annotatsiya. Qimmatbaho mevali ekinlardan o‘rik maydonlarini kengaytirish katta ahamiyatga ega. Maqolada o‘rik (Armenica vulgaris L.) nav va duragaylarning xo‘jalik va biologik va biologik xususiyatlari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Tadqiqotlar Burieva X.CH., Enileeva N.SH. va boshqalar “Mevali va rezavor mevali o‘simliklar bilan tajribalar o‘tkazishda hisoblar va fenologik kuzatuvlar metodikasi”

uslublari asosida olib borildi. Eng yuqori hosildorlik Mulla Sodiq navida kuzatilib, gektaridan 18,7 t/ga hosil olindi. bu ko‘rsatkich standart Maroqand naviga nisbatan 47,2 % ko‘proqdir.

Аннотация. Расширение площадей ценной плодовй культуры абрикоса имеет большое значение. В статье представлены данные по производственно-биологической характеристике сортов абрикоса (Armenica vulgaris L.)**.** Исследования выполнены на основе методик Х.Ч.Буриева, Н.Ш.Енилеева и других “Методика проведения учётов и фенологических наблюдений с плодовыми и ягодными растениями”. Самая высокая урожайность (18,7 т/га) была получена по сорту Мулла Содик, что на 47,2 % выше показателей стандартного сорта Мароқанд.

Annotation. The expansion of areas of valuable fruit crop apricot is of great importance. The article presents data on the production and biological characteristics of apricot varieties (Armenica vulgaris L.). The research was carried out based on the methods of H.Ch. Buriev, N.Sh. Enileev and others “Methodology for conducting records and phenological observations with fruit and berry plants”. The highest yield (18.7 t/ha) was obtained for the Mullah Sodik variety, which is 47.2% higher than the standard Marokand variety.

Kalit so‘zlar. O‘rik, bog‘ nav, duragay, daraxt, vegetatsiya davri, gul, klyastosporioz, degustatsiya balli, mevaning o‘rtacha vazni, hosildorlik.

Ключевые слова. Абрикос, сад, сорт, гибрид, дерево, вегетационный период, цветок, клясоспориоз, дегустационная оценка, средняя масса плода, урожайность.

Key words: Apricot, garden, variety, hybrid, tree, vegetation period, flower, classosporium, tasting assessment, average fruit weight, yield.

Kirish. O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini taminlashga, servitamin mahsulotlarni etishtirishga, mevachilikda o‘simliklar assortimentini kengaytirishga katta e’tibor qaratilmoqda [1,7,14]. Bugungi kunda Respublikamizda meva bog‘larning maydoni 237,3 ming gektarni, yalpi hosil esa 3 mln 100 ming tonnani tashkil qiladi. [12, 14].

O‘zbekistonda meva ekinlari ichida ommabop va keng ko‘p tarqalgani o‘rik bo‘lib, uning pishgan mevasi nihoyatda lazzatliligi, parxezliligi bilan ajralib, tarkibida turli vitaminlar, mineral tuzlar, organik kislotalar va uglevodlar saqlaydi. O‘rik mevasining biokimyoviy tarkibi quyidagicha (ho‘l vazniga nisbatan, %): Quruq modda – 15 - 16; Oqsil – 2,4 – 2,9; SHakar - 11 – 13 (saxaroza 9-10 %); Moylar – 0,5 - 0,9; Organik kislotalar – 0,8; Vitamin S (askorbin kislota) – 18 - 28 mg/%; Karotin (provitamin A) – 0,9 – 1,4 mg/% [5, 6, 13, 15].

Mamlakatimizda ekiladigan o‘rik navlari uch guruhga: xo‘raki o‘rik navlari - Javzak, Ruxi juvonon, Ahrori, Arzami, Oq o‘rik; quritiladigan o‘rik navlari: Xurmoniy, Isfarak, Subhoniy, Bodomi hamda konservabop o‘rik navlari - Korolevskiy, Vengerskiy, Krasnoshyokiy va boshqalarga bo‘linadi. Arzami, Ruxi juvonon va Iskandariy navlarini uchinchi guruhga ham kiritish mumkin. O‘zbekistonda, asosan, ertapishar va o‘rtapishar o‘rik navlari ko‘p tarqalgan.

Respublikamizda o‘rik asosan, quruq meva etishtirish va mevasini yangiligida iste’mol qilish uchun ekiladi [8, 9, 11].

O‘zbekistonda yaratilgan istiqbolli o‘rik navlarini xo‘jalik va biologik xususiyatlari, sifat ko‘rsatkichlari, hosildorligini o‘rganish, aholini qimmatli servitamin mahsulot bilan ta’minlash dolzarb vazifa hisoblanadi

Material va metodlar. Samarqand viloyatida yaratilgan o‘rik (Armenica vulgaris L.) nav va duragaylarning xo‘jalik va biologik tavsifi bo‘yicha tajribalar akademik M.Mirzaev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy tadqiqot institutining Samarqand ilmiy tajriba stansiyasi sharoitida olib borildi. Tajribada barcha agrotexnologik tadbirlar, kuzatish, o‘lchash, tahlil va hisoblashlar umum qabul qilingan I.V.Michurin nomidagi Rossiya ilmiy-tadkikot institutining «Programma i metodika sorptoizucheniya plodovix, yagodnix i orexoplodnix kultur» (1980), O‘zRKSXV tomonidan tasdiqlangan agrotavsiyalar, X.CH.Bo‘riev va boshqalarning «Mevali va rezavor mevali o‘simliklar bilan tajribalar o‘tkazishda hisoblar va fenologik kuzatuvlar metodikasi» (2014), V.F.Moiseychenkoning «Metodika uchyotov i nablyudeniy v opытax s plodovыmi i yagodnыmi kulturamim» (1967), mevali va rezavor mevali o‘simliklar bilan tajribalar o‘tkazishda xisoblar va fenologik kuzatuvlar metodikasi uslublari asosida hamda tadqiqot natijalarining statistik tahlili B.A.Dospexovning «Metodika polevogo opыta» dispersion uslubi bo‘yicha bajarildi [2, 3, 4, 10].

Natijalar va ularning tahlili. Tajribalarimizda o‘rik navlari bo‘yicha gullash fazasining boshlanishi 26 mart-06 aprelga to‘g‘ri keladi. Gullash

1-rasm. O‘rik bog‘ida hosilni monitoring qilish

darajasi barcha o‘rganilayotgan navlarda 4.0-4.5 ballni tashkil qildi. Mulla Sodiq navi va № 4332 duragayi standart naviga nisbatan 8-11 kun kech gullagani aniqlandi. YAlpi gullash Maroqand navida 2 aprelda, Navruz navida 7 aprelda, Mulla Sodiq navida 9 aprelda va № 4332 duragayida 12 aprelda kuzatildi. Mevalarning pishishi navlar bo‘yicha 10 iyun-10 iyulda kuzatildi. Barg to‘kilishining boshlanishi noyabr oyining boshlariga, tugashi esa 30 noyabrga to‘g‘ri

keldi.

1– jadvalda “O‘rik (Armenica vulgaris L.) navlarining xo‘jalik va biologik tavsifi” ga tegishli ma’lumotlar keltirilgan. Variantlar bo‘yicha mevalarning

1-jadval

O‘rik (Armenica vulgaris L.) navlarining xo‘jalik va biologik tavsifi
(Akademik M.Mirzaev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiytadqiqot institutining Samarqand ilmiy tajriba stansiyasi)

Navlar	Mevalarning pishishi	Klyastosporiozga chidamliligi	O‘ suv davrining davomiyligi	Bir mevaning o‘ rtacha vazni,g	Hosildorlik	
					t/ga	%
Maroqand-nazorat	1-10 iyul	chidamli	245	35,9	12,7	100,0
Navruz	1-10 iyul	o‘rta chidamli	245	45,9	16,5	130,1
Guliston	25 iyun-05 iyul	chidamli	242	37,6	17,6	138,4
YUbileynыy Navoi	1-10 iyul	o‘rta chidamli	244	46,3	14,6	115,3
Mulla Sodiq	1-10 iyul	chidamli	242	55, 2	18,7	147,2
Ko‘rsodiq	25 iyun-05 iyul	o‘rta chidamli	245	38,6	15,9	125,6
Arzami	10-20 iyun	chidamli	244	56,7	15,4	121,8
№4332	1-10 iyul	chidamli	243	51,7	18,1	142,5

o‘rtacha vazni 35,9 (Maroqand-nazorat) – 56,7 (Arzami) g ni tashkil qildi. Eng yirik mevalar Arzami navi o‘simliklardan olindi (56,7 g), Mulla Sodiq va №4332 variantlarida bu ko‘rsatkich 55,2 – 51,7 g ni tashkil qildi. Standart (Maroqand) variantidagi mevalarning o‘rtacha vazni 35,9 g ni tashkil qildi.

O‘rganilayotgan o‘rik nav va duragaylarda kasallik va zararkunandalar bilan zararlanishi ham o‘rganildi. Klasterasparioz kasalligi bilan variantlarga qaraganda

mevalarning 1,0-3,0 % zararlangani aniqlandi, barglarda esa bu ko‘rsatkich 1,5-3,5% ni tashkil qildi.

Olingan ma’lumotlarga ko‘ra eng yuqori hosildorlik Mulla Sodiq navida kuzatilib, gektaridan 18,7 t/ga hosil olindi. bu ko‘rsatkich standart Maroqand naviga nisbatan 47,2 % ko‘proqdir. №4332 duragayida bu ko‘rsatkichlar mos ravishda 18,1 t/ga va 42,5 % ga teng bo‘ldi.

2-rasm. O‘rik pishgan mevalarning ko‘rinishi

Xulosalar. O‘tkazilgan tajribalar natijasida variantlar bo‘yicha gullash darajasi 4.0-4.5 ballni tashkil qildi. Mulla Sodiq navi va № 4332 duragayi standart naviga nisbatan 7-10 kun kech gullagani aniqlandi. Mevalarning pishishi navlar bo‘yicha 10 iyun-10 iyulda kuzatildi. Barg to‘kilishining boshlanishi noyabr oyining boshlariga, tugashi esa 30 noyabrga to‘g‘ri keldi. Klasterasparioz kasalligi bilan variantlarga qaraganda mevalarning 1,0-3,0 % zararlangani aniqlandi, barglarda esa bu ko‘rsatkich 1,5-3,5% ni tashkil qildi. Eng yuqori hosildorlik Mulla Sodiq navida kuzatilib, gektaridan 18,7 t/ga hosil olindi. bu ko‘rsatkich standart Maroqand naviga nisbatan 47,2 % ko‘proqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI

1.Mirzieev SH.M. “Uzbekistan-2030 strategiyasi”. //O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son Farmoni. Toshkent, 2023 y.

2. Buriev X.CH., Enileev N.SH. va boshqalar. Mevali va rezavor mevali o‘simliklar bilan tajribalar o‘tkazishda hisoblar va fenologik kuzatuvlar metodikasi. – T., 2014. – 64 b.

3. Государственный реестр сельскохозяйственных культур рекомендованных для посева на территории Республики Узбекистан.-Ташкент, 2024.-98 с.

4. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта (с основами статистической обработки результатов исследования). – 5-е изд., доп. и перераб. – М.: Агропромиздат, 1985. – 351 с.

5. Исроилов М.М. Фенологические фазы сортов абрикоса и изучение их болезний. Сборник конференции НИИ садоводства, виноградарста и виноделия имени академика М.Мирзаева «Значение инновационных технологий в перспективном развитии садоводства, виноградарства и виноделия. Ташкент. 2019. -С.73-76.

6. Каршиев А.Э. Биоэкологические особенности абрикоса. Сборник конференции НИИ садоводства, виноградарста и виноделия имени академика М.Мирзаева «Значение инновационных технологий в перспективном развитии садоводства, виноградарства и виноделия. Ташкент. 2019. -С.80-83.

7. Махмудов А., Алиев Х. Перспективные сорта абрикоса. //Журнал Agro ilm- научное приложение Сельское и водное хозяйство Узбекистана.-Ташкент, 2020-№1-С. 39-40. ISSN 2181-502X.

8. Мирзаев М., Кузнецов В. Абрикос в Узбекистане.”Фан”. Ташкент, 1984.-С.5-59.

9. Мирзаев М. И другие. Сорта плодовых, субтропических, орехоплодных культур и ягод. “Узбекистан”. Ташкент, 1968.-С. 87-114.

10. Мойсенченко В.Ф. “Методика учетов и наблюдений в опытах с плодовыми и ягодными растениями”.-Москва., 1967.

11. Набиев М., Шальнев В., Иброхимов. А. Целебные плоды. Ташкент «Меҳнат» 1986. –С. 114- 115.

12.Namozov I.CH. O‘rik etishtirish. ISBN 978-9943-7171-1-4. Toshkent.-2021. 128 b.

13. Normaxmatov R. Kostochkovыe plodы-vajnыe istochniki vitaminov. //Jurnal Selskoe i vodnoe xozyaystvo Uzbekistana.-Tashkent, 2020-№12-S. 32-33. ISSN 2181-502X.

14. Normuradov D.S, I.T.Normuratov M.A.Xayitov, R.R.Raximov, L.B.Xalmirzaeva, O.M.Sulaymanov. Plodovodstvo. Darslik. Samarkand., 2024.-348 bet.

15. Потапова В.А., Пильщикова Ф.Н. Плодоводство. Москва-“Колос”. 2000. – С. 386-408.

УДК 57.045

Bektursinova Dilnura Pulat qizi
Tayanch doktorant, Nukus davlat pedagogika instituti
Бектурсынова Дилнура Пулатовна
Базовый докторант, Нукусский государственный педагогический институт
Bektursınova Dilnura Pulat qızı
Basic doctoral student, Nukus state pedagogical institute
d.bektursinova@ndpi.uz

JANUBIY OROLBO`YI EKOTIZIMLARI DINAMIKASIGA IQLIMIY O`ZGARISHLARNING TA'SIRI

Влияние климатических изменений на динамику экосистем Южного Приаралья

The impact of climate change on the dynamics of ecosystems in the Southern Aral Sea region

Annotatsiya. Maqolada iqlim o`zgarishi va antropogen ta'sirning uyg`unlashuvi natijasida Janubiy Orolbo`yi ekotizimlarida yuz bergan o`zgarishlar keltirilgan. Mintaqada haroratning ko`tarilishi, yog`ingarchilikning kamayishi va yer osti suvlari sathining pasayishi bioxilma-xillikka sezilarli ta'sir ko`rsatdi: ko`plab hayvon va o`simlik turlarining soni va areallari kamaydi, cho`l hududlari maydoni ko`paydi. Maqolada iqlim o`zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini minimallashtirish bo`yicha chora-tadbirlar zarurligi ta`kidlangan.

Аннотация. В статье представлены изменения, произошедшие в экосистемах Южного Приаралья в результате сочетания изменения климата и антропогенного воздействия. Повышение температуры, уменьшение количества осадков и снижение уровня грунтовых вод в регионе оказали существенное влияние на биоразнообразие: численность и ареалы многих видов животных и растений сократились, а площадь пустынных территорий увеличилась. В статье подчеркивается необходимость принятия мер по адаптации к изменению климата и минимизации его последствий.

Summary. The article presents the changes that have occurred in the ecosystems of the Southern Aral Sea region as a result of a combination of climate change and anthropogenic impact. An increase in temperature, a decrease in precipitation and a

decrease in the groundwater level in the region had a significant impact on biodiversity: the number and habitats of many species of animals and plants decreased, and the area of desert territories increased. The article highlights the need to take measures to adapt to climate change and minimize its consequences.

**Kalit so`zlar:** ekotizim, iqlimiy o`zgarishlar, bioxilma-xillik, degradatsiya, cho`llanish

Ключевые слова: экосистема, климатические изменения, биоразнообразие, деградация, опустынивание

Key words: ecosystem, climate change, biodiversity, degradation, desertification

Регион Южного Приаралья, некогда представлявший собой процветающую экосистему и жизненно важную часть природного и экономического ландшафта Центральной Азии, за последние несколько десятилетий претерпел значительные изменения. Этот регион, который включает в себя остатки Аральского моря и прилегающие к нему районы, в настоящее время является свидетельством глубоких последствий деградации окружающей среды и деятельности человека. Регион Южного Приаралья расположен в самом сердце Центральной Азии, граничит с пустынями Каракумы и Кызылкум [1]. Исторически сложилось так, что Аральское море было четвертым по величине внутренним водоемом в мире, поддерживаемым реками Амударья и Сырдарья, которые обеспечивали примерно 70% и 30% его воды соответственно. Высыхание Аральского моря привело к образованию пустыни Аралкум - обширной солончаковой пустыни площадью около 2,6 миллиона гектаров. Эта пустыня является источником соленой пыли, которая разносится ветрами на тысячи километров, оказывая воздействие не только на местную окружающую среду, но и на отдаленные регионы [2]. Высыхание Аральского моря оказало глубокое воздействие на региональное биоразнообразие и динамику экосистем, что привело к значительной экологической деградации.

Климатические изменения оказывают значительное влияние на экосистемы региона, приводя к изменениям в составе флоры и фауны, снижению биоразнообразия и деградации земель. В данной статье рассматривается динамика изменений экосистем Южного Приаралья под влиянием климатических факторов, включая изменение температуры, осадков и уровня грунтовых вод.

В последние десятилетия антропогенное воздействие стало существенным фактором, способствующим изменениям климата. Это стало очевидным, во–первых, из-за глобальных изменений, вызванных, в частности, ростом содержания парниковых газов в атмосфере, и, во-вторых, из-за региональных изменений - сокращения площади Аральского моря. Последнее обстоятельство приводит к усилению континентальности местного климата. За последнее столетие среднегодовая температура воздуха в Приаралье повысилась более чем на 1°C [3]. Это привело к удлинению вегетационного периода и изменению сроков цветения растений. Например, сроки начала цветения некоторых видов пустынной флоры сместились на две недели раньше обычного. Увеличение температуры также способствовало распространению теплолюбивых видов растений и сокращению ареалов холодоустойчивых видов.

Количество годовых осадков в регионе уменьшилось на 20% за последние 70 лет. Снижение уровня осадков негативно сказалось на водных ресурсах региона, что привело к уменьшению площади озёр и рек, а также к снижению уровня грунтовых вод. Это, в свою очередь, повлияло на состав водной флоры и фауны, вызвав сокращение численности рыб и водоплавающих птиц. Сокращение количества осадков усугубило ухудшение состояния окружающей среды, что привело к повышению солености и рассеиванию солей и пестицидов с обнажившегося морского дна, что негативно сказывается на местных экосистемах и здоровье населения.

Уровень грунтовых вод снизился на 50% за последние 70 лет. Это связано с уменьшением количества осадков и увеличением испаряемости

вследствие повышения температуры. Снижение уровня грунтовых вод привело к ухудшению условий для роста деревьев и кустарников, что, в свою очередь, способствовало увеличению площадей пустынных территорий.

Изменения климата привели к значительному сокращению биологического разнообразия в Южном Приаралье. Численность многих видов животных, таких как сайгаки и джейраны, сократилась на 30-40%. Некоторые виды птиц, такие как пеликаны и бакланы, полностью исчезли из региона. Растительный мир также претерпел значительные изменения: площадь лесов и лугов сократилась на 25%, а пустыни расширили свои границы на 15%. Грандиозные тростниковые заросли занимали в дельте Амударьи более 600 тыс. га. К настоящему времени их площади сократились в 20 раз. Резко деградировали прибрежные тугайные и тростниковые заросли [4, 5]. Площади солодковых сообществ, некогда широко распространенных в дельте Амударьи, сократились с 12 до 1,5 тыс. га. С уменьшением растительности, усиливаются процессы перемещения песков, уменьшается влажность воздуха до 15%, летние температуры воздуха повысились на 5-6^{0}С. Усыхание Аральского моря привело к появлению огромной соляной пустыни Аралкум, площадь которой неуклонно возрастает, и в настоящее время составляет около 60 тыс.км^2 [5].

Климатические изменения способствовали усилению процессов эрозии почвы и опустынивания. Площадь подверженных эрозии земель увеличилась на 35% за последние несколько десятилетий [1,3]. Опустынивание затронуло около 60% территории Южного Приаралья, что делает эти земли непригодными для сельского хозяйства и животноводства.

Таким образом, климатические изменения оказали существенное воздействие на экосистемы Южного Приаралья. Повышение температуры, снижение уровня осадков и уменьшение уровня грунтовых вод привели к сокращению биологического разнообразия, деградации земель и опустыниванию. Эти процессы представляют серьёзную угрозу для

устойчивого развития региона и требуют разработки комплексных мер по адаптации к новым условиям и смягчению последствий изменения климата.

Литература

1. Gaybullaev, B., Chen, S.-C., & Kuo, Y.-M. Large-Scale Desiccation of the Aral Sea due to Over- Exploitation after 1960. Journal of Mountain Science, 2012, 9(4), pp. 538–546. https://doi.org/10.1007/S11629-012-2273-1

2. Issanova, G., Abuduwaili, J., Tynybayeva, K. Environmental Conditions of the Aral Sea Region. In: Soil Cover of the Dried Aral Seabed in Kazakhstan. Springer, Cham, 2023. https://doi.org/10.1007/978-3-031-29867-7_2

3. Суркова Г.В. Региональная изменчивость климата. В: Костяной А., Косарев А. (ред.) Окружающая среда Аральского моря. Справочник по химии окружающей среды (), том 7. Springer, Berlin, Heidelberg, 2010. https://doi.org/10.1007/698_2009_2

4. Бахиев А.Б., Трешкин С.Е., Мамутов Н.К. Изучение растительных ресурсов Южного Приралья и их рациональное использование в условиях Антропогенного опустынивания. // В сб. IV Международной научно-практической конференции «Проблемы рационального использования и охрана биологических ресурсов Южного Приаралья». – Нукус: Илим. – 2012. – С. 35.

5. Утемуратова Г.Н., Танирбергенов К.Ж., Сарыбаева А.Дж., Мамбетуллаева С.М. Проблема сохранения биоразнообразия фауны в регионе Южного Приаралья // Universum: химия и биология. 2022. №4-1 (94).

MUNDARIJA

1-SHO‘BA: TABIIY RESURSLARDAN OQILONA FOYDALANISH, EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA’MINLASH ……...4

Yunusov X.B., Begmatova M,X.,Nurniyozov A.A., Xasanova G. J. *- INGICHKA BARGLI SANO O‘SIMLIGINING BIOLOGIYASI, LABORATORIYA SHAROITIDA URUGINING UNUVCHANLIGINI O‘RGANISH*.....*4*

Begmatova Maloxat Khushvaktovna, Sunnatova O.Sh. *- ACANTHOPHYLLUM GYPSOPHILOIDES BIOEKOLOGIYASI, DORIVORLIK XUSUSIYATLARI*.....*8*

Begmatova Maloxat, Khushvaktovna, Akkereyeva Elmira, Gumarova Zhannar Maratovna, Maksut Assylanbek *- ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ УТИЛИЗАЦИЯ МАСЛА ИЗ БЫТОВЫХ ОТХОДОВ*.....*11*

Boymurodov X., Otaxonov X., Kurashev A., Normamatov B., Saidova D., Narzullaeva Sh. *- ASALARILAR YASHASH MUXITIGA MOSLASHISHI VA EKOLOGIYASI* *22*

Raximov Ixtiyor Baxtiyor o‘g‘li *- QISHLOQ XO‘JALIKLARIDA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHDA INNOVATSIYALARNI QO‘LLASHNING VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI*.....*27*

Axmadjonova Yorqinoy Tojimurodovna *- SUV MUAMMOLARI VA EKOTIZIMNING KELAJAGI: AYDAR-ARNASOY KO‘LLARI MISOLIDA* *31*

Дж.Дж.Маматкулов, Г.А.Сувонова, Ф.С.Джуманиёзова, Б.Дустов, .Ф.Жуманазарова *- ВЛИЯНИЕ СОЛНЕЦНОЙ РАДИАЦИИ НА ОКРУЖАЮЩУЮ СРЕДУ*.....*35*

Eshbekova Guljakhon Gofur kizi *- O‘ZBEKISTONDA PLASTIK IFLOSLANISHNI BARTARAF ETISHDA BIOTEXNOLOGIK YONDASHUVLAR* *40*

Xodjayeva Nasiba Jo‘raqulovna,Turdiev Bektosh Murod o‘g‘li, Sattorov Dilshod Chorshanbiyevich, Muhammadiyeva Ra’no Mamarajab qizi, Abilova Durdona Xusniddin Qizi *- GLOBAL EKALOGIK MUOMMOLAR.* *43*

Дж.Дж.Маматкулов, Г.А.Сувонова, Ф.С.Джуманиёзова *- ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ В ГРАДОСТРОИТЕЛЬНОМ ПРОЕКТИРОВАНИИ ЛАНДШАФТА* *48*

Maxsudov Qodirjon Solijonovich, Yuldashev G‘ulomjon *- ADIR MINTAQA TUPROQLARIDA GIPS QATLAMI CHUQURLIGINING O‘ZGARISHI* *51*

2-SHO‘BA: O‘SIMLIK VA HAYVONOT DUNYOSI BIOLOGIK XILMA-XILLIGI, IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA ULARNI MUHOFAZA QILISH MASALALARI ……55

Kuchkarova Zarifa Donyorxon qizi, Shernazarov Shavkat Shuhratovich, Baratov Kamol Urolboy o‘g‘li, Mengboyeva Madina Mamayusuf qizi *- SAMARQAND VILOYATI SHAROITIDA RASTAROPSHA (SILYBUM MARIANUM) URUG‘INING NAMLIK VA OQSIL MIQDORINI TAHLILI* *55*

Egamqulov A. N., Boymurodov X.T., Aliyev B.X., Abduhafizova.F.A., Saparova S.O., Mamadiyorova. Sh.D., Rajabov.Sh.I., Mamayusofova.M.U., Dusanova.X.O., Tovsharova.S.X., Xamidov.N.X. *- ADIR MINTAQASI BULOQ VA CHASHMALARI GIDROBIONTLARI FAUNASI VA EKOLOGIYASI* *58*

Boymurodov X. T., Saboxiddinov B. S., Mirzamurodov O., Izzatullaev X.Z., Xo‘razov.S.J., Mitanova D., Ibodullaeva M.,Eliboev Z., Jumanazarova X., Bektemirov A., Urozova P., *- KATTAQURG‘ON SUV OMBORIDA UNIONIDAE, CORBICULIDAE, LYMNAEIDAE VA ASTACIDAE OILALARI GIDROBIONTLARNING TARQALISHI* *62*

Bektashev Sh.M., Boymurodov X. T., To‘ynazarova I.A., Turniyozova N. R., Turexanov F.F., Adilov S. A., Bobomurodov Z.A., Jalilov F.S., Jabborova T. X., Jiyanov T.M. Nurmurodov D.E *- COLLEPTERUM CYREUM SOGDIANUM VA COBICULA COR IKKIPALLALI MOLLYUSKALARI CHIG‘ANOQLARINING O‘ZGARUVCHANLIGIGA EKOLOGIK OMILLAR TA’SIRI.....68*

Aliyev B.X. *- CHIMQO‘RG‘ON SUV OMBORI GIDROBIONTLARI BIOXILMA-XILLIGI. 74*

Abduvaliyev Bahtiyorjon Avazbekovich, Zokirov Islomjon Ilxomjonovich *– FARG‘ONA VODIYSI SHAROITIDA YASHOVCHI XONAKI O‘RDAKLAR (ANAS PLATYRHYNCHOS DOMESTICUS (LINNAEUS, 1758)) GELMINTOFAUNASI.....77*

Kh.Kh.Dolimov *- THE SIGNIFICANCE OF THE ALOE VERA PLANT IN MODERN MEDICINE 81*

Hasanova Farida Bekzod qizi *- SALVIA SUBMUTICA BOTSCH. & VVED. NING TARQALISHI VA FITOSENOLOGIYASI.....82*

Hasanov Murtoza Abdivaliyevich, Islamov Buston Sultonovich,Amirullayev Azamat Gaybullayevich *- OMONQO‘TON MILLIY TABIAT BOG‘INING NOYOB MUHOFAZAGA MUHTOJ O‘SIMLIKLARI 86*

K.O.Saporbayev., E.A.Zuftarov *- O‘RIK BARGLARI MORFOLOGIYASI.....92*

Aliyeva Muxarramxon Xakimjonovna *- SHIRINMIYA O‘SIMLIGINING BIOLOGIK VA DORIVORLIK XUSUSIYATLARI.....95*

Izzatullayev Z.I, Dilmurodov G‘ofurjon Shavkat o‘g‘li *- SAMARQAND VILOYATI ISHTIXON TUMANI TUPROQ TIPLARIDA TARQALGAN QURUQLIK QORINOYOQLI MOLLYUSKALARINING FAUNISTIK TARKIBI, AYRIM EKOLOGIK XUSUSIYATLARI VA TARQALISHI BO‘YICHA ILK MA’LUMOTLAR.....98*

Feruzbek Farxod o‘g‘li Kuranbayev *- OLXO‘RIDA UCHRAYDIGAN ZAMBURUG‘ KASALLIKLAR 103*

Исламов Б.С., доцент, Очилов У. А. *- НЕКОТОРЫЕ БИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ COUSINIA RESINOSA JUZ.....106*

Tadjiyev Jamshid Janizakovich, Dustov Begnazar Sayfulloyevich *- CICHORIUM INTYBUS L. URUG‘LARINING UNIB CHIQISHIGA EKOLOGIK OMILLARNING TA’SIRI 111*

Togayeva Gulruxsor, Norqulov Ma’sudjon *- MANZARALI DARAXTLAR ICHIDA GYMNOCLADUS DIOICUS NING O‘RNI.....115*

Ikramov Temur Saydullo o‘g‘li *- UMURTQASIZ HAYVONLAR FAUNASINING SISTEMATIKASI VA ZAMONAVIY HOLATI.....119*

Kh.Kh.Dolimov *- ANTIMICROBIAL EFFECTS ALOE VERA.....123*

Xolmuradov Bobur Bahrom o‘g‘li, Mamajonova Sarvinozxon Odiljon qizi *- ACROPTILON REPENS (RUSSIAN KNAPWEED)NING KIMYOVIY TARKIBI VA XUSUSIYATLARI.....124*

Xamdamova Elnora Iskandarovna, Suvonova Go‘zal Asrorovna *- NUXAT BIOLOGIK AZOT MANBAASI.....* ***Error! Bookmark not defined.***

Мукумов И.У, Хушвактова Д.С, Дустов Б.С *- ДЕРЕВЬЯ И КУСТАРНИКИ В ОКРЕСТНОСТИ ГОРОДА ШАХРИСАБЗ (УЗБЕКИСТАН).....* ***Error! Bookmark not defined.***

Шодиева Зулайхо Шавкатовна, Мукумов Илхом Уктамович *- FERULA L. POLIKARB TURLARINING TARQALISHI VA FOYDALI XUSUSIYATLARI.....* ***Error! Bookmark not defined.***

Baratov Kamol Urolboy o‘g‘li, Tursunova Kamola Rahmatillo qizi, Kuchkarova Zarifa Donyorxon qizi, Mengboyeva Madina Mamayusuf qizi *- DORIVOR O‘SIMLIKLARDAN OLINGAN ASALNING BIOLOGIK FAOLLIGI VA SHIFOBAXSHlLIK XUSUSIYATLARI.....* ***Error! Bookmark not defined.***

Baratov Kamol Urolboy o‘g‘li, Shernazarov Shavkat Shuhratovich *- SAMARQAND VILOYATI SHAROITIDA QIZIL BARGLI ZARANG (ACER RUBRUM) O‘SIMLIGINING BIOEKOLOGIK KO‘RSATKICHLARI VA IQLIM O‘ZGARISHIGA BARDOSHLILIGI.....144*

Tadjiyev J.J, Dustov B.S, Mengboyeva M.M, Ibragimova S.A, Amonova F.A Mustafoyeva M.F *- ODDIY SACHRATQI (CICHORIUM INTYBUS L) O‘SIMLIGINING DORIVORLIK, EKOLOGIK VA BIOTEXNOLOGIK XUSUSIYATLARI.....148*

Jalilov F.S, Mirzamurodov O.X, Avazova A.Q, Sayronova S. N, Saparova S. O‘, Olimov A. O, Mamadiyarova Sh. D, G‘ulomov U.S.- *ZARAFSHON VODIYSI SUV OMBORLARI MINERALLANISH DARAJASI VA UNING GIDROBIONTLAR TARQALISHIGA TA’SIRI 154*

Eshmurodova Mavluda Qodiraliyevna., Naralieva Nasiba Mamanovna., Mamaxanova Jumagul Niyozbekovna -*IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA DORIVOR CHUFA (CUPERUS ESCULENTUS LATIVUM) NI INRODUKSIYA QILISHNING AHAMIYATI 157*

3-SHO‘BA: QISHLOQ XO‘JALIGIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR 164

Eshmurodova Mavluda Qodiraliyevna, Naralieva Nasiba Mamanovna, Turgunboyev Abdulazizbek Xayitboy o‘g‘li *- SUV TANQISLIGI SHAROITIDA AGROEKOSISTEMALARDA QUINOA (CHENOPODIUM QUINOA WILL) NI YETISHTIRISHING AHAMIYATI 164*

Убайдуллаев Мадаминжон Мўминжонович *- ЎРТА ТОЛАЛИ ҒЎЗА НАВЛАРИ ЧИГИТЛАРИНИНГ УНИБ ЧИҚИШ ДИНАМИКАСИНИ АНИҚЛАШ.....170*

F.F. Nurmuxamedova, X.Q. Haydarov, Sh.M. Ergashev, J.X.Eshmurodov *- DARAXTSIMON PION (PAEONIA SUFFRUTICOSA) NING SELEKSIYA QILISH TARIXI.....175*

Axadova Munira Odiljon qizi, Eshmurodov Jonibek Xudayberdi o‘g‘li- *SAMARQAND VILOYATI HUDUDIGA EKIB KO‘PAYTIRILAYOTGAN BAMIYA (Abelmoschus esculentus)NI INTRADUKSION HUDUDGA MOSLANISH BELGILARINI TAHLILI.....178*

Eshmurodov Jonibek Xudayberdi o‘g‘li., Axadova Munira Odiljon qizi *- BAMIYA URUG‘LARINI PLANTATSIYADA EKISH: AMALIY TAJRIBA VA KUZATUVLAR NATIJASI 180*

Убайдуллаева Шаҳлохон Турдимахаммадовна- *ТАЖРИБАДА ПАРВАРИШЛАНГАН ЎРТА ТОЛАЛИ С-9090 ҒЎЗА НАВИДА ҚУРУҚ МОДДА ТЎПЛАНИШИНИ АНИҚЛАШ.....183*

Убайдуллаев Мадаминжон Мўминжонович *- ТАЖРИБАДАГИ ҒЎЗА НАВЛАРИДА ОЛИБ БОРИЛГАН ФЕНОЛОГИК КУЗАТУВЛАР ТАҲЛИЛИ 186*

Jabborov To‘lqin Kamolovich, Jobborov Baxodir To‘lqinjon o‘g‘li *- ILG‘OR TEXNOLOGIYALAR VA ENERGIYA TEJAMKOR AGREGATLAR ASOSIDA YERGA ISHLOV BERISH VA O‘G‘ITLASH TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH. 191*

Jabborov To‘lqin Kamolovich, Jobborov Baxodir To‘lqinjon o‘g‘li *- QISHLOQ XO‘JALIGIDA YERLARNI O‘G‘ITLASHGA TAYYORLASHDA ILG‘OR TEXNOLOGIYALAR VA ENERGIYA TEJAMKOR AGREGATLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. 193*

Jabborov To‘lqin Kamolovich, Jobborov Baxodir To‘lqinjon o‘g‘li *- TUPROQQA ISHLOV BERISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA ZAMONAVIY QISHLOQ XO‘JALIGI MASHINALARINING QO‘LLANILISHI. 195*

Abduazimova Sevara, Norqulov Ma’sudjon Ma’rufovich, Mamadaminov Muxammadali Abduholiqov Farrux *- KIVI O‘SIMLIGINI URUG‘IDAN KO‘PAYTIRISH USULLARI.....197*

Aliyeva Muxarramxon Xakimjonovna *- IQLIM O‘ZGARISHI VA UNING IQTISODIYOT TARMOQLARIGA TA’SIRI: BAHOLASH VA PROGNOZLASH.....203*

J.G‘. Xushvaqtov *- PHARMACOLOGICAL PROPERTIES OF CITRULLUS COLOCYNTHIS: A LITERATURE REVIEW 206*

O.M.Sulaymanov, Abduhakimov Ulug‘bek, Sulaymonova Oyjamol *- POMIDOR KO‘CHATLARINI PARVARISHLASH VA SIFATLI HOSIL OLISHDA EKISH MUDDATLARINING O‘RNI 210*

Ochilov U.A, Mamanazarova Z.Sh *- CATALPA BIGNONIOIDES NI DALA SHAROITIDA KO‘PAYTIRISH.....213*

K.O.Saporbayev.,E.A.Zuftarov *- O‘RIK PAYVANDTAGLARINI SOVUQQA TASIRI 216*

Raximov Ixtiyor Baxtiyor o‘g‘li *- QISHLOQ XO‘JALIKLARIDA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHDA INNOVATSIYALARNI QO‘LLASHNING VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....220*

Saydaliyeva Nodira Kaxxarovna, Sobirjonov Mirodiljon Dilmurod o‘g‘li *- DEHQONCHILIK VA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI SAQLASH VA DASTLABKI QAYTA ISHLASHNING BUGUNGI HOLATI, ISTIQBOLLARI, EKOLOGIK AHAMIYATI.....223*

Abdurasulov F.SH, Rejametov SH.N, Shavqiyev J.SH. *- YANGI ISTIQBOLLI OLMA NAVLARINI YARATISHDA MAS TEXNOLOGIYASINING SELEKSIYA JARAYONIDA QO‘LLASH AHAMIYATI. 227*

J.G.‘Xushvaqtov, A.V.Mardonov *- ABU JAHL TARVUZINING VEGETATSION O‘SISH DAVRIDA GUMMY PREPARATINI QO‘LLASH SAMARADORLIGINI O‘RGANISH.....232*

Xamdamova Elnura Iskandarovna, Suvonova G.A. *- SUG‘ORILADIGAN YERLARDA NOANANAVIY YEM XASHAK O‘SIMLIKLARIDAN BIRI KO‘KO‘T (POTERIUM POLYGAMUM WALDST ET. KIT.) NING O‘SISHI, RIVOJLANISHIGA EKISH MUDDATLARI VA ME’YORLARINING TA’SIRI.....235*

N. D. Xodjayeva, D.Ch. Sattorov, S.N.Bekkulova, S. A. Eliboeva *- POLIGIDROKSIALKANOAT ISHLAB CHIQARISHDA PSEUDOMONAS HELMANTICENSIS P1 SHTAMMI GLITSERIN VA NATRIY DODESIL SULFATNING KONSENTRATSIYASI YORDAMIDA CHIDAMLILIGINI O‘RGANISH.....238*

Gaziyev Umirzoq Lapasovich *- TURLI SUG‘ORISH TARTIBI VA QATOR ORALARIDA PARVARISHLANGAN G‘O‘ZA NAVLARINING SUG‘ORISH DAVOMIYLIGI VA MAVSUMIY SUG‘ORISH ME’YORLARINING HOSILDORLIKKA TA’SIRI.....241*

Axmadjonov Avazbek Akmaljon o‘g‘li, Musayev Iskandar Ibragimovich *- OCH TUSLI BO‘Z VA O‘TLOQI SAZ TUPROQLARDA GILOS (PRUNUS AVIUM L.) YETISHTIRISH XUSUSIYATLARI .244*

Xalmirzaev B.X, Xayitov M.A , Sattarova N.T , Xalmirzaeva L.B.- *ЭРТАГИ МУДДАТДА КИЧИК ХАЖМЛИ ПЛЕНКАЛИ ИНШООТЛАРДА КЎКАТ ЭКИНЛАРНИ ЕТИШТИРИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИГИ.....250*

Mirzoxidov O‘.J., Xalmirzaev B.X., Qubonov X.U, Baratova D.N. *- SAMARQAND VILOYATIDA YARATILGAN O‘RIK (Armenica vulgaris L.) NAV VA DURAGAYLARNING XO‘JALIK VA BIOLOGIK TAVSIFI.....256*

Bektursinova Dilnura Pulat qizi - *JANUBIY OROLBO`YI EKOTIZIMLARI DINAMIKASIGA IQLIMIY O`ZGARISHLARNING TA’SIRI……262*